

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

I/II SEMESTR

O'quv-uslubiy majmua O'zDJTSU
O'zbek va chet tillari kafedrası
professor-o'qituvchilari tomonidan
O'zbek tilining sohada qo'llanishi
fanidan bakalavr ta'lim yo'nalishlari I
bosqich talabalari uchun ishlab
chiqilgan

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

O‘ZBEK VA CHET TILLARI KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

_____ **A.Xodjayev**

“___” _____ **2023-yil**

“O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI” FANIDAN

I BOSQICH BAKALAVR TALABALARI UCHUN

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 1000 000 Xizmatlar

Ta’lim sohasi: 1010 000 Xizmat ko‘rsatish sohasi

Ta’lim 61010300 Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)

yo‘nalishlari: 61010800 Adaptiv jismoniy tarbiya va sport
(parasport)

61010900 Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport
tadbirlarini tashkil etish va boshqarish

Umumiy o‘quv soati - 90 soat

Shu jumladan:

Amaliy mashg‘ulot – 60 soat,

Mustaqil ta’lim soati - 30 soat

CHIRCHIQ - 2023

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua “O‘zbek va chet tillari” kafedrası yig‘ilishida muhokama qilindi va O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etildi. (Bayonnoma №___ 2023-yil ___-avgust)

Kafedra mudiri:

f.f.d. dots. Gafforov N.N.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi (Bayonnoma №___ 2023-yil ___avgust)

O‘quv-uslubiy kengash raisi

A.Xodjayev

Tuzuvchi:

I.Boltayeva – O‘zDJTSU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası pofessor v.v.b., filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

R.Niyozmetova – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiyot o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri, professor, pedagogika fanlari doktori

J. Umarov - O‘z DJTSU Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti kafedrası mudiri, professor.

O‘QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILISHI

№	Majmuaning tarkibiy qismlari	betlar
1.	Annotatsiya.....	
2.	O‘quv dasturi.....	
3.	Fan sillabusi.....	
4.	Kalendar reja	
5.	Texnologik xarita ishlanmasi.....	
6.	Taqdimot materiallari (diskda).....	
7.	Nazorat uchun savollar (JN, ON,).....	
8.	Testlar	
9.	Tarqatma materiallar.....	
10	Glossariy	
11	Adabiyotlar ro‘yxati	

ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv-uslubiy majmuada jismoniy tarbiya va sport mutaxassisliklarining barcha bakalavr yo'nalishlarida O'zbek tili bo'yicha ta'limning quyi bosqichlarida talabalar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni yanada kengaytirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan joriy etilgan "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani dasturi asosida yaratilgan. Unda talabalarning O'zbek tilida soha bo'yicha nutqiy kompetentlikni oshirish, mutaxassislikka oid og'zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, sohada qo'llanadigan atamalar va asosiy tushunchalar, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish, akademik yozuv tushunchasi, shuningdek, dastlabki ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari, jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi nutqining kommunikativ sifatlari, kasbiy nutq hamda soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishi haqida nazariy ma'lumotlar berilgan bo'lib, ular talabalar uchun tushunarli, sodda, ilmiy atamalar bilan bayon etilgan. Nazariy ma'lumotlar og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan turli-tuman mashqlar, matnlar hamda turli xil topshiriqlar bilan mustahkamlangan. Ushbu darslikdan universitetning jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi talabalari mutaxassisliklari bo'yicha o'zbek tilida ma'lumotlarini boyitishi hamda soha mutaxassislari amaliy tavsiyalar olishda foydalanishlari mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Rektor M.R. Boltabayev

2023-yil “ ____ ” _____

Ro‘yxatga olindi: № BD-61010900-1.9.,

№ BD-61010300-1.9.

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000 000	Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010 000	Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishlari:	61010300	Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)
	61010800	Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport)
	61010900	Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish

Chirchiq – 2023

Fan/modul kodi 382O‘TSQ0423		O‘quv yili 2023-2024	Semestr 1/2	ECTS - Kreditlar 4/4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi	60/60		60/60	120/120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad - bo‘lajak mutaxassislarning o‘z kasbi sohasida o‘zbek tilidagi og‘zaki, yozma savodxonligini o‘stirish, ularda o‘z fikrlarini tushunarli va ravon tilda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda o‘zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari bilan tanishtirish. O‘zbek tilida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid atama- terminlarni izohini ishlab chiqish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid atama so‘zlarning kelib chiqishini o‘rgatish, chetdan kirgan atama hamda soha so‘zlarining muqobil variantlarini o‘zlashtirish orqali jismoniy tarbiya va sportning har bir yo‘nalishida qo‘llaniladigan atamalarni matnlar asosida o‘rgatish va lug‘atini tuzish, ilmiy maqolalarda sohaga oid so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish, ilmiy uslubning soha bo‘yicha atamalarini mukammal o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutqda ularni to‘g‘ri qo‘llash. Soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. Fanning vazifasi – bo‘lajak sport mutaxassislarining ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘g‘ri va to‘liq foydalanishga erishishni ta’minlash; kasbiy terminologiya, egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqiy me‘yor va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga, o‘zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari bilan tanishtirish, nutq xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga hamda sohaga doir hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishga erishishni ta’minlashdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) <i>Ma’ruza mashg‘ulotlari o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan</i> III.Seminar mashg‘uloti bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar <i>Seminar mashg‘ulotlari o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan</i> VI. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatmalar va tavsiyalar 4.1. Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya qilinadi:				

1-mavzu. O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishning maqsadi va vazifalari

Tilning jamiyatda tutgan o‘rni. Til va tafakkur, til va ma‘naviyat. “Davlat tili” tushunchasi. Davlat tili haqidagi hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati.

2-mavzu. Til va yozuv masalalari.

Yozuv haqida umumiy tushuncha. O‘zbek yozuvlari tarixi. O‘zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari. Grafika. Orfografiya. “**Dunyo tillari**” matni

3-mavzu. O‘zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari.

O‘zbek adabiy tilida unli va undosh harflari imlosi. O‘zbek adabiy tilida asos va qo‘shimchalar imlosi. Matn tahlili orqali unli va undosh tovushlar imlosi ustida ishlash.”**Sport – bu mening yurak urishim, nafas olishim, bu mening hayot ritmim**” mavzusida esse yozishadi.

4-mavzu. O‘zbek adabiy tilida qo‘shib yozish va ajratib yozish imlosi.

Kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, asos va qo‘shimchalarning to‘g‘ri yozilishi, ajratib va qo‘shib yozish ustida amaliy mashqlar bajariladi. (Matn. “**O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi**”)

5-mavzu. O‘zbek adabiy tilida chiziqcha bilan yozish. Bosh harflar va qisqartma so‘zlar imlosi. Ko‘chirish qoidalari. Tinish belgilarining qo‘llanishi.

Kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, bosh harflar imlosi, ko‘chirish qoidalari, tinish belgilarining qo‘llanishi va chiziqcha bilan yozish ustida mashqlar bajariladi. (Matn. “**Yetuk mutaxassis**”)

6-mavzu. O‘zbek yozuvi tamoyillari.

Fonetik, morfologik, shakliy, tarixiy-an‘anaviy yozuv tamoyillari haqida ma‘lumot. Sohaga oid so‘z va atamalarga qo‘shimchalar qo‘shish orqali yozuv prinsiplari ustida ishlash.

7-mavzu. O‘zbek adabiy tili me‘yorlari.

Adabiy til me‘yorlari. Fonetik va talaffuz me‘yorlari. Kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, o‘zbek adabiy tilining xususiyatlari ustida amaliy mashqlar orqali mustahkamlanadi. (Matn. “**Qadimgi Olimpiyada o‘yinlari**”).

8-mavzu. Imloviy, grammatik, lug‘aviy va semantik me‘yorlar.

Sohaga oid matnlar tanlanib, imloviy, grammatik, lug‘aviy va semantik me‘yorlar shu asosda tahlil qilinadi. Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli sportga oid so‘zlar ustida ishlash. (Matn. “**Milliy qadriyatlar-millat iftixori**”).

9-mavzu. Adabiy tiilning o‘ziga xos xususiyatlari.

Adabiy til shakllari. Og‘zaki va yozma nutqning o‘ziga xosligi. O g‘zaki va yozma nutqni shakllantirishga qaratilgan sohaga oid matnlar va mashqlar orqali bayon qilinadi. (Matn. **“Iqtidor va mehnat”**).

10-mavzu. Mutaxassis nutqining kommunikativ sifatlari.

Kasbiy nutq. Mutaxassis nutqining ilmiyligi, to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi. Nutqiy kompetentlik.

11-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining nutqiy faoliyati.

Zamonaviy nutqda uchraydigan tipik xatolar.Sport mutaxassisi muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni. Sohaga oid matnlar orqali nutqning mantiq jihatdan to‘g‘ri, aniq ifoda etilishi tahlil qilinadi.(Matn.“**Zamonaviy mutaxassis qanday bo‘lishi kerak**”).

12-mavzu.Nutq madaniyati.

Madaniyatli nutq va muloqot madaniyati tushunchasi. Nutqda soha mutaxassisi mas’uliyati. Soha mutaxassisi nutqi. Tanlangan sport yo‘nalishi bo‘yicha matn tuzish Matnlar asosida nutqning doiologik va monologik shakllari o‘rganiladi. Dialog. (Soha mutaxassislari bilan suhbat tashkil etish) .

13-mavzu. Atamashunoslik.Atama lug‘atlari.

Jismoniy tarbiya va sport atamaları mavzu guruhlariga ajratiladi. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘atlaridan foylanib, sport turlari bo‘yicha atamalar tahlil etiladi va matnlar bilan ishlanadi. (Matn. **“Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi”**)

14-mavzu. Sohaga oid atamalar.

Sport terminologiyaning rivojlanish va boyish yo‘llari. Ularning kelib chiqish tarixi va ulardan nutqda foydalanish. Morfologik va sintaktik usulda yasalgan sport atamaları ustida ishlash. Kasbiy sohaga oid atamalarning tasnifi va talqini matnlar orqali ifoda etiladi. (**“Zamonaviy Olimpiyada o‘yinlari” matni**)

15-mavzu. Matn va uning turlari.

Matn va uning tuzilishi. Matnning asosiy va yordamchi qismlarini farqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi leksik-sintaktik vositalar ustida ishlash. Sohaga doir lug‘atlar va darslik-qo‘llanmalardagi sport terminlari ustida ishlash.

16-mavzu. Ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar.

Ilmiy va ilmiy-ommabor matnlar haqida ma’lumot. Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlar ustida ishlash. (Matn. **“Bo‘lajak kasbim. Jismoniy tarbiya va sport”**)

17-mavzu.Nutq uslublari va ularning xususiyatlari.

Nutq uslublarining shakllanishi, turlari. Badiiy, so‘zlashuv, publitsistik uslublar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Kasbiy sohaga oid matnlar orqali har bir nutq uslubiga xos xususiyatlar o‘rganiladi. Sport jurnalistikasi taraqqiyoti. Kasbiy sohaga oid matnlar orqali publitsistik uslubga xos xususiyatlar tahlil etiladi. (Matn. **“Ommaviy axborot vositalari”**)

18-mavzu. Ilmiy va rasmiy nutq uslubi

Ilmiy va rasmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga xos ilmiy matnlar tahlili. **“Fan-sportga” jurnali va boshqa** manbalarda ilmiy matnlar tahlili asosida ilmiy nutqning boshqa nutq uslublaridan farqi va o‘ziga xosligi o‘rganiladi.

19-mavzu. Sohaga oid taqdimot nutqi.

Jismoniy tarbiya va sportga oid taqdimot yaratish qoidalari. Taqdimot nutqi. **“Universitetim bilan faxrlanaman” mavzusida taqdimot nutqi tayyorlash.**

20-mavzu. Taqdimot etikasi.

Xalqaro loyiha, vebinar, forum kabilar uchun taqdimot tayyorlash. (Matn. **“Kurashchi qizlar”**)

21-mavzu. Soha bo‘yicha belgilangan mavzu asosida

ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari.

Mavzuga oid tadqiqot olib borish bosqichlari. Maqola, tezis, taqriz, annotatsiya, rezyume matni talablari. Sohaga oid ilmiy maqolalarga taqriz yozish.

22-mavzu. “Fan-sportga” jurnalidagi ilmiy matnlar tahlil etiladi.

Jurnaldagi maqolalarga annotatsiya va rezyume yoziladi.

23-mavzu. Sohaga doir maqola va tezis yozish talablari.

Sohaga oid mavzuda maqola va tezis yoziladi. Jismoniy tarbiya va sport ilmi-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan (universitetimiz) olimlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish. (Matn. **“Ilm sari yo‘l”**)

24-mavzu. Sohada davlat tilida ish yuritish masalalari.

Rasmiy – idoraviy uslub va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Hujjatchilik va adabiy til me’yorlari. Hujjat va uning turlari. Hujjatlarning zaruriy qismlari. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi.

25-mavzu. Tashkiliy hujjatlarning yuritilishi

Sohaga doir tashkiliy hujjatlar haqida ma’lumot.

Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid tashkiliy hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi (guvohnoma, yo‘riqnoma, nizom-ustav). Musobaqada qatnashish uchun talab etiladigan hujjatlarga namunalar yozish.

26-mavzu. Sohaviy farmoyish hujjatlarining xususiyatlari.

Farmoyish hujjatlarining turlari. Farmoyish hujjatlarini jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llash xususiyatlari. Sohaviy farmoyish hujjatlariga namunalar yozish.

27-mavzu. Sohaviy ma'lumot-axborot hujjatlari.

Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari. Jismoniy tarbiya va sportga oid ma'lumot-axborot hujjatlarini yuritish tartibi va qo'llash xususiyatlari.

28-mavzu. Sohada qo'llanadigan ma'lumot-axborot hujjatlari ustida ishlash.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llanadigan ma'lumot-axborot hujjatlariga namunalar tayyorlanadi (ariza, tavsifnoma, ma'lumotnoma, bildirishnoma, tilxat, yig'ilish bayonnomasi va hisobot yozish)

29-mavzu. Sohaviy xizmat yozishmalari.

Xizmat yozishmalarining turlari. Xizmat yozishmalarini jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llash. Sohaga doir xizmat yozishmalari va xatlarga namunalar yozish.

30-mavzu. Takrorlash.

Amaliy mashg'ulotlari davomida an'anaviy o'qitish (o'rgatish) uslublaridan tashqari, quyidagi innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalaniladi: muammoli savollar qo'yish va vaziyatli vazifalarni to'g'ri yechish yo'llarini topish; ekspres-intervyu; "aqliy-hujum"; "ekspres-test-savol va javob"; rollarini ijro etish o'yinlari; "keys-stadi" – muayyan vaziyatni tanlash va ushbu vaziyatdan chiqishga o'rgatish; o'quv videofilmlarini namoyish etish, seminar mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha talabalar taqdimotlari va ularning bilimlari baholanadi.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

3.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-mavzu. Respublikamizda o'zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo'yicha qilinayotgan ishlar va Hukumatimiz tomonidan chiqarilgan Farmoyish va Qarorlar bilan tanishish

2-mavzu. O'zbek adabiy tili me'yorlari

3-mavzu. O'zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari

4-mavzu. Asos va qo'shimchalar imlosini matnlar tahlili orqali o'rganish

5-mavzu. Qo'shib va ajratib yozish qoidalarini o'zlashtirish

6-mavzu. Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosi

7-mavzu. Sohada qo'llanadigan bosh harflar bilan yoziladigan so'zlar imlosi

	8-mavzu. O‘zbek tilida tinish belgilarining qo‘llanishi 9-mavzu. Turli uslublarga doir matnlarni tahlil qilish 10-mavzu. Kasbiy soha bo‘yicha atama va so‘zlarning lug‘atini tuzish 11-mavzu. Kasbiy soha bo‘yicha kichik hajmdagi maqola yozish 13-mavzu. Adabiy til me‘yorlarini sohaga oid misollar orqali tushuntirish 14-mavzu. Kasbiy nutq odobi.Sohaga oid nutqning o‘ziga xosliklari 15-mavzu. Sohaga oid ilmiy maqolalardan biriga taqriz yozish 16-mavzu. “Fan sportga” jurnalidagi maqolalar annotatsiyalari bilan tanishish va maqolalardan biriga annotatsiya yozish 17-mavzu. Sport jurnalistikasi haqida esse yozish 18-mavzu. Sport yo‘nalishiga oid biror mavzuda maqola yozish 19-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimlar ro‘yxatini tuzish va ular haqida ma’lumotga ega bo‘lish 20-mavzu. Sohada ish yuritish masalalari 21-mavzu. Sohada yuritiladigan tashkiliy hujjatlarga namunalar yozish 22-mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sohasida yuritiladigan farmoyish hujjatlari bilan ishlash 23-mavzu. Kasbga doir ma’lumot-axborot hujjatlari ustida ishlash 24-mavzu. Sohaviy xizmat yozishmalari Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar, slaydlar, videoroliklar tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) 6.1. Talaba bilishi kerak: O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: - o‘z kasbiy sohasiga mos ravishda o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos xususiyatlari; - adabiy til me‘yorlari, imlo qoidalari, og‘zaki va yozma nutqning o‘ziga xosligi; - adabiy til uslublari, atamalarining tasnifi va talqini hamda ularning boyib borish usullari <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi;</i> - o‘zbek tilining imlo qoidalari; - gaplarning sintaktik qurilishi; - matn va uning turlari;

	- nutq uslublari, og‘zaki va yozma adabiy nutq me‘yorlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; O‘zbekistonda o‘zbek tilini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan me‘yoriy va huquqiy hujjat asoslarini; - o‘z kasbiy sohalariga mos ravishda o‘zbek adabiy tili; - o‘zbek-lotin alifbosining o‘ziga xos imlo xususiyatlari; - adabiy til me‘yorlari; - imlo qoidalari, adabiy til uslublari, sohaga oid atamalarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</i>; - og‘zaki nutqini o‘zbek adabiy tili me‘yorlari asosida sifat jihatidan yaxshilash va so‘z boyligini oshirish; - soha bo‘yicha qo‘llaniladigan atama va so‘zlarni to‘liq o‘zlashtirish; - o‘z kasbiy sohalariga mos ravishda o‘zbek adabiy tili me‘yorlari, imlo qoidalari; - adabiy til uslublari, atamalarning tasnifi va talqini bo‘yicha yechimlar qabul qilish <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, bunda vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom”, “spin-off” texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid barcha mavzularni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat topshirish.
6.	IX. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar 1. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) Toshkent, “LESSON PRESS”. 2022.

2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.

3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami:233-0038 (O'quv qo'llanmasi) Toshkent,"LESSON PRESS". 2022.

4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. "O'ZBEKISTON NASHRIYOTI" Toshkent,2020.

5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanmasi). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. Toshkent –"O'zbekiston"-2016.56 B.

2. Mirziyoyev Sh..Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –"O'zbekiston" -2017.104 b.

3. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi qarori: «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida», «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi» (Vazirlar Mahkamasining 1995-yil, 24-avgustdagi 339-sonli qarori.).

4. G'afforov N.N. Sport jurnalistikasining rivojlanish tamoyillari (Reklama: nazariya va amaliyot) nomli o'quv qo'llanmasi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami:166-018. "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.

5. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik).-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.

6. Boltayeva. I. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati (O'quv qo'llanma). "LESSON PRESS", Toshkent, 2020.

7. Boltayeva I., Ayxodjayeva M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Toshkent, "LESSON PRESS". 2020.

8. Boltayeva I. O'zbek tili darslarida yordamchi so'zlarning o'qitilishi (uslubiy qo'llanma) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.

9. Boltayeva I. Adabiyotda vorisiylik muammosi. Monografiya. Muharrir nashriyoti", 2020.

10. Radjapov B.S., Ayxodjayeva M.S., Xusnutdinova T,N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma) Jismoniy tarbiya instituti 1-kurs talabalari uchun.O'zDJTI, 1994.

	11. Айходжаева М.С., Ахмедова Х.О. Русско-узбекский тематический словарь спортивных терминов. I и II части. Т., 2010. Axborot manbalari 1. http://solver.uz/translate.php - Русско-узбекский переводчик. 2. http://sahifa.tj/rusko_uzbekskij_razgovornik.aspx - Русско-узбекский разговорник. 3. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 4. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i.
7.	Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kengashning 2023-yil ____ -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma’sullar: Boltayeva I. – O‘zDJTSU, O‘zbek va chet tillari kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. Raximova M.A. - O‘zDJTSU, O‘zbek va chet tillari kafedrasida katta o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: Baltayeva A.T. – Toshkent davlat transport universiteti O‘zbek (rus)tili kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD). G‘afforov N.N. – O‘zDJTSU O‘zbek va chet tillari kafedrasida dotsenti, f.f.d.(DSc)

O‘QUV MATERIALLARI
AMALIY MASHG‘ULOTLAR
O‘ZBEK TILINI SOHAGA YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING MAQSADI VA
VAZIFALARI.(2 soat)

REJA :

1. Fanni o‘qitishning maqsadi va vazifalari.
2. Tilning jamiyatda tutgan o‘rni.
3. Til va tafakkur, til va ma’naviyat.
4. “Davlat tili” tushunchasi.
5. Davlat tili haqidagi hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Til, jamiyat, tafakkur, ma’naviyat, “Davlat tili”, konsepsiya, farmoyish, til rivoji, tavsif, so‘z semantik strukturasi, kommunikativ funksiya, kishilik jamiyati, tilning hissiy ta’sir vazifasi, tilning to‘plash vazifasi, kishilik jamiyati, shakllanish, aloqa – munosabat vazifasi, nomlash, fikr ifodalash.

Fanning mazmuni. Ushbu fan talabalarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga oid masalalar, Davlat tili haqidagi hujjatlar va ularning mazmun mohiyati; o‘zbek adabiy tili me’yorlari, o‘zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari, sohaviy leksika va uning xususiyatlari, o‘zbek tilida soha terminlarining qo‘llanilishi, nutq uslublari, sohalarida rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining yuritilishi, ularning turlari; mutaxassis nutqining kommunikativ sifatleri hamda ilmiy tadqiqot olib borish masalalari bo‘yicha zaruriy bilimlar bilan qurollantiradi. Ushbu fan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi —O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5850-sonli farmoni hamda —O‘zbek tilini 2021-2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishning maqsadi - o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy kompetentlikni oshirish; mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarda soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. Talabalarining o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish hamda kasbiy, ilmiy va maishiy sohalarida faoliyat yuritishlarida kommunikativ kompetensiya (*uning tarkibiy qismlari hisoblanuvchi lingvistik, sotsio-lingvistik, pragmatik va boshqa kompetensiyalari*)ni shakllantirishdan iborat.

O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishning vazifalari – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishni ta‘minlash; Kasbiy terminologiyani, egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me‘yor va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga, nutq xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish,soha bo‘yicha dastlabki ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari,sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta‘minlashdir.

TOPSHIRIQLAR

1.Savollarga javob bering?

- 1.O‘zbek tilini sport sohasiga yo‘naltirib o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar nimalardan iborat ?
- 2.Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining muomala -muloqot jarayoni va ish faoliyatida Davlat tilini mukammal bilishining ahamiyat nimada?
3. O‘zbek tilida yozma nutqni takomillashtirish va savodxonlikni oshirish uchun nima qilish kerak?
4. Sohada davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish deganda nima tushunasiz?
- 5.Siz o‘z sport yo‘nalishingiz bo‘yicha og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni to‘g‘ri va samarali qo‘llaysizmi?
- 6.Sohangiz doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarni to‘g‘ri va xatosiz tayyorlab, rasmiylashtira olasizmi?
7. Nutq xususiyatlaridan xabardormisiz? Agar shunday bo‘lsa u haqda ma’lumot bering?
8. Kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalari deganda nimani tushunasiz?
- 9.“O‘zbek tili adabiy normalari“, degan tushunchaga izoh bering.Nima uchun adabiy til normalari ishlab chiqilgan?

2.Matnni o‘qing va unga sarlavha tanlang.Uni og‘zaki hikoya qiling, matn oxiridagi berilgan savollarga javob bering. Undagi “til milliy madaniyatning shakli”, “tafakkurning mevalari” jumllalarini sharhlang.

Til millatning qalbi,uning o‘tmishi,buguni va kelajagi sanaladi.Shu ma’noda har bir millatning ona tilisida uning bebaho xazinasi,minglab so‘zlar saqlanadi.Bu so‘zlarni asrlar davomida xalq yaratadi,unga sayqal beradi va asrab avaylaydi.Har bir davrda yashagan xalq vakillari bu so‘zlarni e‘zozlab,so‘zlarni boyitib,o‘zidan keyingi avlodlarga yetkazishga mas’uldirlar.

Til - insonlar orasidagi eng muhim aloqa vositasidir.Insonlar o‘z fikrlarini til vositasida ifodalaydilar va bir-birlarini tushunadilar.

Til – inson faoliyatida borliqni bilish,fikr almashish,jamg‘arilgan bilimlarni fanlarga bog‘lagan holda avloddan-avlodga yetkazish vositasidir.Tilda millatning

bor-yo‘g‘i, o‘y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg‘ulari aks etadi. Tildagi har bir so‘z inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasidir.

Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy hodisalardir. Inson nutqi, til vositalari bo‘lmasa, fikrlash ham bo‘lishi gumon. Tafakkur va til aynan bir xil hodisa emas. Tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in‘ikosi hisoblansa, til fikrni ifodalash usuli, uni boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasidir. Boshqacha aytganda, til-tafakkurning borliq shaklidir.

Til milliy madaniyatning shakli sifatida **tafakkurning mevalari** va ma’naviy boyliklarini zamon va makonda abadiylashtiradi. Ular doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birini yashashi va rivojlanishiga yordam beradi.

Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in‘ikosi hisoblansa, til fikrni ifodalash usuli, uni boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasidir.

Tilsiz jamiyat, ma’naviyat bo‘lishi mumkin emas, til jamiyat, ma’naviyat, insonlar uchun xizmat qiladi, Shuning uchun u ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

1. Savollarga javob bering:

1. Insonlarning muloqot vositasi nima?
2. “Tafakkur” so‘zining ma’nosini izohlang.
3. Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liqmi?
4. O‘zbek adabiy tilining asoschisi kim?
5. Fikrlash bilan so‘zlash orasida qanday bog‘liqlik bor?
6. Til va tafakkur ayrim –ayrim holda mavjud bo‘lishi mumkinmi?
7. Nima uchun til ijtimoiy hodisa?
8. Hozirgi kunda Dunyoda nechta til mavjud va nima uchun tillar yo‘qolib ketmoqda ?

O‘zbek tili - O‘zbekiston respublikasining davlat tili.

1989-yil 21- oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqida Qonun qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan:” O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonun 24 moddadan iborat. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o‘zbek adabiy tilining jadal, erkin taraqqiyoti uchun keng imkoniyat va qulay sharoitlarni yaratdi.

- 9.”Til bilgan, el biladi” maqoliga izoh bering?

TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi she’rni ifodali o‘qing va yod oling. She’rning bosh g‘oyasi va mazmuni haqida gapiring.

ONA TILIM

Garchi zug‘um qilganlarni yoqtirmadim,
She‘r yozdimu bo‘lak ishni qotirmadim.
Tilim turib o‘z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag‘ri – dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam “erkam” deb quchganda tunlar yarim,
Erkim yo‘q deb zirqirardi bir joylarim.
Parovozni hansiratgan bug‘doylarim,
Oltinlarim, ma‘danlarim, ipaklarim...
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
O‘zbekni qon qaqshatganni o‘zbek siylar.
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
Topganimiz handalakdek tilim – tilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo‘lmasang nima bizga silliq she‘rlar,
Bu dunyoda tili yo‘qda, dil yo‘q derlar.
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to‘ridagi so‘lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar,
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
Qodiriylar, Cho‘lponlaru Abdullolar,
Sening qaytgan kuning mening mavlud yilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim . (Muhammad Yusuf)

2. Berilgan tushunchalarni har birini diqqat bilan o‘qing va mazmun-mohiyatini o‘zlashtiring. Bu tushunchalarga berilgan ta’riflar lug‘atlardan tashqari Davlatimiz tomonidan chiqarilgan qaysi hujjatda aks etgan? Berilgan birliklar orasida qanday mantiqiy bog‘liqlik bor?

Jismoniy tarbiya - madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qismi;

Jismoniy tarbiyalash - yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni

tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon;

Sport - odamlarning muayyan qoidalar bo'yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo'lgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko'rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

Sportchi - tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug'ullanadigan, doimo o'zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs;

Sport musobaqasi - sportchilar o'rtasida yoki sportchilar jamoalari o'rtasida har xil sport turlari (sport dissiplinalari) bo'yicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) bo'yicha o'tkaziladigan

ESLAB QOLING !

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktyabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-son Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq «O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsad qilib belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 21- oktyabrida «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmoni e'lon qilindi va unga muvofiq « 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi » ishlab chiqildi.

bellashuv.

3. “So‘zli tasavvurlar” metodi asosida topshiriqni bajaring.Topshiriq ikki bosqichda amalga oshiriladi va 3 daqiqa vaqt beriladi.Mashq mohiyati o'zgarmasligi uchun ajratilgan vaqtga qat'iy amal qilish kerak.

1) “Til” so‘zini eshitganda hayolingizga kelgan barcha fikrlarni daftaringizga yozing:

2) Yozgan so‘zlaringiz bilan “til” so‘zi orasida qanday bog‘liqlik bor, og‘zaki shaklda tushuntiring.

4. Alisher Navoiyning til, bilim olish va odamiylik haqidagi fikrlarini o‘qing. Ulardagi fikrlarga o‘z munosabatingizni bildiring. Navoiyning o‘zbek tili taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida o‘z bilganlaringizni so‘zlab bering

Olam ahli bilingizki, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

* * *

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holina,
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim, ne der.

* * *

So‘z guharig‘a erur oncha sharaf,
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.

* * *

Til bu chamanning varaqi lolasi,
So‘z duraridin bo‘lubon jolasi.

* * *

Tiliga iqtidorlig‘ —hakimi xiradmand; so‘ziga ixtiyorsiz — laimi najand.

* * *

Xushdurur bog‘i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.

* * *

Vatan tarkini bir nafas aylama
Yana ranji g‘urbat havas aylama.

* * *

O‘z vujudingg‘a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o‘zungdin istagil.

* * *

Ilmdin oriy ulusning johili xudkomasi,
O‘rganurga jiddu jahd etgan jahon allomasi.

* * *

Odamiyg‘a yaxshi ko‘p avsof erur,
Lek alarning ashrafi insof erur.

* * *

Yaxshiliq tuxmin sochg‘ilkim, budur dehqong‘a so‘z
Har nekim, ekting bugun, borin hamon tut oni ko‘z.

* * *

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Til bilan jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi ularning har ikkisi bir vaqtda yuzaga kelganligini, jamiyatning shakllanishida tilning asosiy vazifani bajaruvchi eng muhim omillardan biri ekanligini, shunga ko‘ra, tilsiz kishilik jamiyati bo‘lmashligini asoslaydi. Shunga ko‘ra til o‘ziga xos ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

Tilning kishilik jamiyatidagi o‘rnini, madaniy-ma’naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritish uning ijtimoiy vazifalarini to‘g‘ri belgilashga asoslanadi. Til alohida tizim sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. **Aloqa – munosabat vazifasi (kommunikativ funksiya).** Tilning mazkur vazifasi jamiyatda aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat.
2. **Tilning hissiy ta’sir vazifasi (emotsional-ekspressiv funksiya).** Muayyan ma’lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishi tilning hissiy ta’sir vazifasi hisoblanadi.
3. **Tilning to‘plash vazifasi (akkumulyativ funksiya).** Til aloqa-munosabat vositasi, hissiy ta’sir ifodasi bo‘lib qolmay, to‘plash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir. Til to‘plangan bilim va tajribalarni keyingi avlodga yetkazishda muhimdir.

Savol va topshiriqlar

1. Tilning aloqa – munosabat vazifasi (kommunikativ funksiya) nimadan iborat?
2. Tilning hissiy ta’sir vazifasi (emotsional-ekspressiv funksiya)ni nimalar tashkil etadi?
3. Tilning to‘plash vazifasi (akkumulyativ funksiya) haqida ma’lumot bering.
4. Til jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
5. O‘zbek tili tarixi qanday manbalarga asoslanadi?
5. **Mavzuga oid muhim va muhim bo‘lmagan tushunchalarni to‘plab quyidagi jadvalni to‘ldiring.**

Mavzuning ahamiyati			
№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1		1	
2		2	
3		3	
4		4	

6. **Matnni oqing. Til va undan og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli foydalanish haqida o‘z fikrlaringizni bayon qiling. Noo‘rin qo‘llanuvchi so‘zlarga misollar keltiring.**

Har bir so‘zning o‘z o‘rni bor

Ba'zan sport sharhlovchilarining og'zidan «**qilichbozlar bahsi**» yoki «**bellashuvi**», «**parashyutchilar bahsi**» yoki «**aviamodelchilar bellashuvi**» kabi iboralarni eshitish mumkin. Hozir xayolingizga, o'sha - o'rtoqlar, musobaqa so'zini haddan ortiq takrorlamaslik, nutqni rang-barang qilish uchun «**bahs**» va «**bellashmak**» so'zlariga murojaat qilgan bo'lishlari mumkin, degan fikr keldi. Bu to'g'ri fikr. Qaytariqlardan qochish, ma'nodosh so'zlardan iloji boricha to'liq foydalanish kerak. Lekin har bir so'zning o'z o'rnini va ma'nodosh so'zlardan foydalanishning qoidasi bor. Masalan, «**bellashuv**»ni ko'chma ma'noda ishlab chiqarishda musobaqalashayotgan ikki shaxsga nisbatan ishlatish mumkin. Agar ularning ishi jismoniy kuch talab qiladigan kasb bo'lsa, juda o'rinli bo'ladi. Ammo «**shaxmatchilar bellashdilar**» deyish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki shaxmatga bel kuchi kerak emas. Binobarin, «**shaxmatchilar bellashdilar**» degan gapdan ular shaxmatni qo'yib, farg'onacha, ya'ni bel ushlab kurashdilar, degan mazmun chiqadi. Agar ular shaxmatda bellashdilar, deyilsa, shaxmatbozlik anglashiladi, lekin baribir jumla aybli bo'ladi.

Bahs esa og'zaki tortishuvdir. O'zbekchada «**qilichbozlar bahsida falonchi g'alaba qozondi**» deyilsa, bundan o'sha falonchi qilichbozlikda emas, og'zaki olishuvda g'alaba qozonibdi, degan ma'no chiqadi.

«**Shaxmat musobaqasi**» degan iborani «**shaxmat o'yini**», «**shatranj o'yini**», «**shaxmatbozlik**», «**shatranjbozlik**», «**shaxmat surishish**», «**shaxmat olishuvi**» va hokazo so'z va iboralar bilan almashib ishlatish mumkin. Shuncha so'z bo'lgani holda «**bahs**» yoki «**bellashmak**» so'zini suiste'mol qilishga hojat yo'q.

7. Matnni o'qing, uni mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiring.

BOKS

1.Boks (ingl. *boxing, box* — «urish» so'zidan) sportning yakkakurash turlaridan biridir. **2.Boks** (ing. *box* — mushtlash, zarb) — sport turi, ikki raqibning sirti charm, ichi yumshoq qoplamali qo'lqoplarda qoida asosida yakkama yakkama mushtlashish musobaqasi. Boks tarixi miloddan avvalgi davrda Misr va Bobilda uyushtirilgan yakkama yakkama mushtlashish musobaqalariga borib taqaladi. Raqib zarbasini o'tkazib yubormay g'alaba qozongan bokschilar alohida hurmatga loyiq deb topiladi. Raqibni quchoqlab olish, chalish, oyoq bilan tepish taqiqlanadi.



8. She'rni o'qing va izohli tahlil qiling, ajratib ko'rsatilgan so'z va birikmalar ma'nosini tushuntiring.

BIR XIL MAYDON

Bolajonim, yuragimning o'rtasi cho'g',
Miltiqdaysan shiddating ham go'yoki o'q.
 Lek menga ayt, nega o'zbek futbolining –
 Dunyoni lol aylaguvchi **Pelesi yo'q?**

Boya aytdim **shiddatlaring shamoldan zo'r,**
 Bo'y-basting ham joy-joyida, emassan **g'o'r.**
 Yo sen kuchli futbolchimas, yo bo'lmasa,
 Sen zo'rsanu, men muxlisning **manglayi sho'r.**

Yo g'ururing yuragingda **gulday so'lgan,**
 Yo hozirgi o'yiningdan **ko'ngling to'lgan.**
 Bilib qo'ygin sening bobong **Sohibqiron,**
Ronalduning bobosidan kuchli bo'lgan.

Xudoyimning ishiga men qozimasman,
 Ammo **o'ta qaysar, o'ta injiq kasman.**
 Bir xil maydon, bir xil imkon, bir xil inson,
Messidan zo'r bo'lmasang gar, rozimasman. (*Botirjon Ergashev*)

9. Quyidagi ma'lumotni diqqat bilan o'qing. Fikr qaysi tashkilot haqida bormoqda, nuqtalar o'rniga tashkilot nomini qo'ying va u haqida bilganlaringizni gapiring ?

. . . - bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek sport tadbirlarini o'tkazishni tashkil etish hamda sportchilarni - O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari a'zolarini sportning tegishli turi

bo'yicha tayyorlash uchun a'zolik asosida tashkil etilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkiloti.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonidan olingan bandni o'qib, mazmunini o'zlashtirib oling.



21 / 10 / 2020

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

a) 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

- mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish;
- ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;
- davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;
- davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash;
- davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

11. Uyga vazifa:

1. Mavzu bo'yicha to'plagan bilimlaringiz va shaxsiy qarashlaringiz asosida "Til va jamiyat" mavzusida 100-150 ta so'zdan iborat kichik matn yarating.

2. Lug'at bilan ishlash. Berilgan so'zlarni ular anglatgan ma'nolari bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Aniqlamoq, hal qilmoq** - tekshirib, o'rganib aniqlik kiritmoq, aniq-ravshan bilib olmoq, oydinlashtirmoq

2. **Charchoq** - charchaganlik, tolğanlik holati; horg'inlik, charchash. Charchoq his etmoq.
3. **Chidamlilik** - og'riq, dard, alam, qiyinchilik va sh.k.ga chidash; toqatli, to'zimli, bardoshli bo'lish.
4. **Chiziq, chegara** - ikki tomon darvozalaridan bir xil masofada maydon o'rtasidan chiziq tortiladi va markaz belgilanadi.
5. **Darvoza** [f-t] - futbol, xokkey va sh.k. o'yinlarda maydonning raqib yuborgan to'pni kiritmaslik uchun himoya qilinadigan chekli
6. **Bahslashmoq** - O'z fikrini o'tkazish uchun talashmoq, tortishmoq; o'zinikini ma'qul qilmoq.
7. **Eshkak** - eshkak eshish sportida qayiqni hakaratga keltiruvchi asbob hisoblanadi. Eshkak dastaklarining, kuraklarining uzunligi, ularning kengligi va tuzilishi har xil bo'lishi mumkin.
8. **Bir qo'llab tashlash** - Savatga to'p tashlash bir qo'llab va ikki qo'llab tashlanadi. Bir qo'llab yelkadan to'p tashlash usuli yaqin va uzoq masofadan hujum qilinganda bajariladi. To'pni bir qo'llab tashlashning xilma-xil usullari mavjud. Bir qo'llab pastdan tashlash, bir qo'llab yondan tashlash va h.k. To'pni savatga bir qo'l bilan tepadan tushirishni va qaytadan to'pni yana qayta tashlashni bo'yi baland o'yinchilar va yaxshi tayyorlangan basketbolchilar mohirona bajaradilar.
9. **Delegatsiya a'zosi** - Delegatsiyaga rasmiy qabul qilingan, saylangan, unda faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.
10. **E'tiborli murabbiy** - E'tibori, obro'yi, nufuzi bo'lgan, so'zi o'tadigan; nufuzli, ishonchli, mo'tabar murabbiy

NAZORAT SAVOLLARI

1. « Davlat tili » tushunchasiga izoh bering?
2. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi qachon berildi?
3. "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning mazmuni nimadan iborat?
3. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi konstitutsiyaning qaysi moddasida va qanday mazmunda aks etgan ?
4. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning tarixiy ahamiyati haqida so'zlab bering?
5. O'zbekiston hukumati tomonidan Davlat tili haqida qabul qilingan qanday Qaror va Farmoyishlarni bilasiz, ularning mazmun-mohiyati haqida gapiring?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. 1993- yil qabul qilingan lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosida nechta harf bor edi?
A. 24 ta B. 29
G. 30 D. 31
2. O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonunida nechta modda o'zga tilda gaplashuvchi O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini ifodalagan?
A. 3
B. 4
G. 5
D. 6

3. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosiga ko'ra quyidagilardan qaysilari unli tovush sanalmaydi?

- A. u, e
- B. a, o
- G. o', i
- D. yu, ya

4. Qaysi qatorda harflar alifbo tartibida berilgan?

- A. E, F, G, J
- G. Y, Z, O', Sh
- B. O, P, R, Q
- D. U, V, X, Y

5. Yangi o'zbek alifbosida nechta harf va tovush bor?

- A. 29 ta harf 30 ta tovush
- B. 31 ta harf 30 ta tovush
- G. 33 ta harf 30 ta tovush
- D. 32 ta harf 30 ta tovush

6. O'zbekcha so'zlarda, odatda, urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

- A. birinchi bo'g'inga
- B. ikkinchi bo'g'inga
- G. uchinchi bo'g'inga
- D. oxirgi bo'g'inga

7. O'zbek tilida harfiy birikmalar nechta?

- A. 3 ta
- B. 2 ta
- G. 4 ta
- D. 1 ta

8. Yangi o'zbek alifbosida qanday harf birikmalari bor?

- A. ng, sh, ch
- B. ts, ch, ye
- G. ch, yo, ya
- D. yu, sh, dj

9. Nuqtalar o'rniga Q harfi qo'yiladigan qatorni toping

- A. a...il, ...alaba, ...or
- B. ra...ib, ...oida, a...l
- G. ...akam, ma...lubiyat, ...og'oz
- D. ...izmat, kopto..., o'rto...

10. Ikki tovushni ifoda etuvchi harfni belgilang.

- A. ng
- B. sh
- G. j
- D. ch

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. —Tilning ijtimoiyigil mavzusiga doir, slayd-taqdimot tayyorlash.
2. —O'zbek tilining davlat tili sifatigagi nufuzilni reklama, banerlar, obyektlarning nomlanishi asosida tahliliy o'rganing va xulosalaringiz asosida kichik videorolik tayyorlang.

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

TIL VA YOZUV MASALALARI. (2soat)

REJA:

1. Til va yozuv haqida umumiy tushuncha.
2. O'zbek yozuvlari tarixi.
3. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.
4. Grafika. Orfografiya.
5. **"Dunyo tillari" matni ustida ishlash.**

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Til, yozuv, grafika, orfografiya, piktografik, ieroglif, adabiy til, umumxalq tili, qadimgi turkiy adabiy til, eski turkiy adabiy til, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili, O'rxun-Enasoy yozuvi, oromiy yozuvi, xorazm yozuvi, sug'd yozuvi, turk yozuvi, ko'k turk yoki runik bitiklari, Kushon-Baqtriya yozuvi, kirill yozuvi, lotin yozuvi.

ESLAB QOLING!

Adabiy til – umumxalq tilining qayta ishlangan, ma'lum bir me'yorga solingan shaklidir. Adabiy til darsliklarda, tilga oid qo'llanmalarda, shuningdek, turli lug'atlarda ko'rsatiladi. O'zbek adabiy tili quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan.

Qadimgi turkiy til - VI–X asrlar mobaynida amalda bo'lgan til bo'lib, bu tilda qadimgi turkiy yozma yodgorliklari yaratilgan.

Eski turkiy til - XI–XIII asrlar davomida yaratilgan. *Eski o'zbek tili* XIV–XVIII asrlarda shakllanib, takomillashib borgan tildir. Bu tilda, Navoiy, Bobur kabi buyuk shoir va yozuvchilar qalam tebratgan.

Eski o‘zbek adabiy tili - XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Bu tilda Nodira, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ijod qilganlar. Bu davrdan boshlab matbuot tili kelib chiqdi.

Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili - XX asrning 20-yillarida shakllandi.

TOPSHIRIQLAR.

1. Matnni o‘qib, undagi ma’lumotlarga doir savollar tuzing.

Mutaxassislarning fikricha, dunyoda qariyb 6000ga yaqin tillar mavjud. Ulardan 500tasigina o‘rganilgan xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi bo‘lmay, faqat og‘zaki nutq shakliga egadir. Jahondagi 1400 ta tilning yo‘qolib ketish xavfi bor. Dunyo tillaridan faqat 40 tasigina og‘zaki va yozma jihatdan mukammal shakllanib bo‘lgan deb hisoblanadi. O‘sha 40 tilning orasida o‘zbek tili ham bor. Shuningdek, Himolayda 160 xil til bor. Afrikaning Niger daryosi havzasida 280ta til mavjud bo‘lsa, Yangi Gvineyadagi Papua davlati bu borada mutloq chempion. U yerda jami 3 million aholi 1010 xildagi til va shevada so‘zlashadi. Xitoyda ingliz tilida so‘zlashuvchilar soni Amerika Qo‘shma Shtatlaridagidan ko‘proq.

2000ga yaqin tilning yozuvi bo‘lmay, faqat og‘zaki nutqda qo‘llanadi. Tillar ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra rasmiy til va davlat tillariga ajratiladi. Davlat tili maqomi rasmiy tildan yuqoriroq mavqega ega. Tilning yashashi uchun unda kamida 100000 kishi so‘zlashishi kerak. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyodagi tillarning deyarli yarmi yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida. Bu tillarni saqlab qolish maqsadida 1999-yilda Xalqaro ona tili kuni ta’sis etildi. U dunyo bo‘yicha har yili 21-fevralda nishonlanadi. O‘z tilini “Davlat tili” maqomiga ko‘targan 250ta til mavjud bo‘lib, o‘zbek tili ham shu qatorda turadi. O‘zbek tili bugungi kunda Dunyoning 65ta Oliy ta’lim muassasasida o‘qitilmoqda. Jumladan, Amerika, Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Ukraina va Rossiyadagi universitetlarda, Turkiya, Hindiston hamda Afg‘oniston ham shular qatorida bor.

2021-yilning oktyabr holatiga ko‘ra dunyo tillarida so‘zlashuvchilar miqdori quyidagicha: Xitoy tilida - 1,6 mlrd, ingliz tilida - 560 mln, hind tilida - 500 mln, ispan tilida - 490 mln, arab tilida - 280 mln, rus tilida - 280 mln, portugal tilida - 135 mln, yapon tilida - 120 mln, nemis tilida - 100 mln hamda fransuz tilida - 70 mln kishi so‘zlashadi.

ESLAB QOLING!

Yozuv - muayyan bir tilda qabul qilingan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo‘lgan (tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo‘lganiga esa IV-V ming yillar bo‘lgan). Yozuv og‘zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo‘shimcha aloqa vositasi bo‘lsa-da, unga qaraganda ko‘p afzalliklarga ega. Tilning vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Ayniqsa, tilning insoniyat qo‘lga kiritgan tajriba-bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi.

Yozuv yaratish yoʻlidagi birinchi qadam **rasmi yozuv** yaʼni **piktografiya** boʻlgan. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy sanʼat ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Toshlariga, suyaklarga, gʻor devorlariga oʻyib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir.

Rasmi yozuv (piktografiya) dunyodagi mavjud barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun asos boʻlgan.

Shumerda (Mesopotamiya) mil.av. IV ming yillikda mixsimon **iyeroglif yozuvi** kashf qilingan. Shumer yozuvlari suratli yozuvlar boʻlib, aytmoqchi boʻlgan fikr surʼat shaklida aks ettirilgan. Lekin surʼatli soʻzlar bilan koʻp narsani ifoda etib boʻlmagan va u soddalashtirilib ponasimon **mixxat yozuvi kashf** etilgan. Mixxat belgisi yozuvlar 600 dan ortiq boʻlgan. Mixxat yozuvi Old Osiyoga keyinchalik Yevropa davlatlariga keng tarqalgan.

Misrda bundan 6-7 ming yil avval 750 belgidan iborat rasmi **iyeroglif** kashf etilgan. Misr yozuvida narsa va hodisalar turli xil rasm va belgilar bilan ifoda etilgan boʻlib zamonlar oʻtishi bilan bu belgilar alifbo belgilariga aylangan.

Savollarga javob bering?

1. Yozuv nima va u qachon paydo boʻlgan?
 2. Yozuvning oʻgzaki nutq yoki tovushlardan afzalliklari nimada?
 3. Rasmi yozuv yaʼni piktografiya nimaga asoslanadi?
 4. Iyeroglif yozuvi qachon va qayerda kashf qilingan va uning xususiyati haqida maʼlumot bering?
 5. Misrda 750 belgidan iborat qaysi yozuv kashf etilgan va nechanchi asrda?
- 2. Matnni oqing, nuqtalar oʻrniga tegishli soʻzni qoʻying va qayta hikoya qiling. Fikr qaysi sport turi haqida bormoqda?**

Oʻzbek xalqining anʼanaviy sport turlaridan biri boʻlmish . . . uch yarim ming yillik tarixga ega. . . . oʻzbekcha soʻz boʻlib, u qator qadimiy sharq adabiy manbalarida yakka-yakka olishuv va ijtimoiy koʻngilochar sport turi sifatida tilga olingan.

Bundan ming yil muqaddam paydo boʻlgan afsonaviy Alpomish eposida . . . olis oʻtmishda Oʻzbekiston zaminida ommaviy tus olgan eng sevimli va nufuzli sport turi boʻlganligi qayd etiladi.

Qadimda va oʻrta asrlarda yashab ijod etgan qator faylasuf va tarixchilar oʻz asarlarida . . . ni alohida ehtirom ila tilga olganlar.

3. Til va yozuv taraqqiyoti haqidagi fikrlarni diqqat bilan oʻqing va savollarga javob bering

Oʻrta Osiyo xalqlari qadimdan oʻz yozuv madaniyatlariga ega boʻlgan, harf (tovush) yozuvining eng qadimgi shakllari hisoblangan soʻgʻd va xorazmiy yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuvlar oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.

Turkiy xalqlarning koʻplab qiymatli yodgorliklari qadimgi turk va uygʻur yozuvlarida bitilgan. Oʻrxun-Enasoy yozuvi harf (tovush) yozuvining ancha mukammal shakli boʻlib, har bir tovush uchun maxsus shakl qoʻllangan.

VIII asrda Oʻrta Osiyoga islom dini bilan birga arab yozuvi ham kirib kelgan. Bu yozuvdagi 28 harfga yana qoʻshimcha 4ta harf kiritilgan.

Oʻzbek yozuvi, dastlab, 1929-yilda lotin yozuviga asoslangan alifboga koʻchirilgan edi.

1940-yil 8-mayda Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan krill yozuviga asoslangan yangi oʻzbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari” 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan edi.

1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida” Qonun qabul qilinishi mustaqil Vatanimizning maʼnaviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan oʻzgarishlar asosida “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari” ishlab chiqildi va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi.

Savollarga javob bering?

1. Oʻrta Osiyo xalqlari qadimda qanday yozuvlardan foydalanishgan?
2. Oʻrta Osiyoga arablarning kirib kelishi ijtimoiy-madaniy hayotga qanday taʼsir koʻrsatgan?
3. Dastlab “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari” qachon tasdiqlangan edi? Hozirgi kunda qaysi imlo qoidalari asosida ish yuritilmoqda?
4. 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida” Qonunning qabul qilinishi xalqimiz tomonidan qanday kutib olingan, alifbo haqida gapiring?
5. Alifboga qayta oʻzgartishlar nechanchi yilda kiritilgan va qaysi harflar imlosi oʻzgargan?

4. Tubandagi birikmalarga izoh bering va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sport delegatsiyasi, sport klubi, sport matbuoti, sport inshooti, sport texnikasi, suzish qalpoqchasi, suzish havzasi.

5. Quyidagi soʻzlarni maʼnosini eslab qoling, ular davrlar osha nima uchun oʻzgargan va ishlatilmay qolganligini tushuntirishga harakat qiling.

Bilig - bilim	Budun - xalq
Yagʻiy – dushman, yov	Erik - mard, botir
Art – tepa, dovon	Koʻch - urugʻ, zot
Batsiq - gʻarb	Oʻz - jon, vujud

6. Tennis sport turiga xos terminlarning oʻzbekcha izohini daftaringizga davom ettirib yozing va jadvalni toʻldiring, ularning maʼnosini tushuntiring.

Soʻz	Soʻzning izohli maʼnosi
Tennis	inglizcha tennis - fransuzcha tenez soʻzidan olingan boʻlib, “ushlash” yoki “ushla” maʼnosini anglatadi.
ATP	Xalqaro erkaklar tennis assotsiatsiyasi.
Backcourt	
Hard	
IPIN	

ITF	
Tennis to`pi	
Raketka	
Tay-break	
Topspin	
US Open	
WC	
Winner	
WTA	
Xvatka	
Slyota	

7.Quyidagi ma'lumotlarni tegishli sport turlari bo'yicha guruhlariga ajratib yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Savat, yakkakurash sport turi, to'p, arqonlar, halqa, to'rtburchak, diametri, maydoncha, temir halqa, qalqonlar, charm qo'lqop, jigarrang bo'yoq, mushtlashish sporti, qalinligi 3 sm, savat, ingichka arqoncha, shit, maxsus qo'lqop, uzunligi 40 sm, qoidalariga rioya qilmoq.

8.Rasm asosida kichik matn yarating. Til va yozuvning insoniyat hayotidagi ahamiyatini tushuntirib bering.



Grafika haqida tushuncha

Grafika – yunoncha graphike, grapho — yozaman, chizaman, degan ma’noni anglatadi. Grafika ogʻzaki nutqni turli shakllar, belgilar, raqamlar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslikning bir sohasi hisoblanadi. Grafik vositalarga harflar, belgilar va tinish belgilari kiradi

Orfografiya – adabiy tilning toʻgʻri yozish qonun-qoidalarini oʻrganuvchi boʻlim.

Jamiyatning har bir aʼzosidan toʻgʻri soʻzlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. Adabiy tilning ikki shakli boʻlib, ulardan birinchisi ogʻzaki, ikkinchisi yozma nutqdir. Ogʻzaki nutq - orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos boʻlib, u tildagi oʻzak-negiz va qoʻshimchalarni yagona tarzda toʻgʻri yozish haqidagi qoidalar yigʻindisidir.

Oʻzbek tilida orfografiyaning quyidagi tamoyillari farqlanadi :

Fonetik tamoyil – talaffuzni yozuvda aks ettiradigan tamoyil.

Morfologik tamoyil – talaffuzni emas, balki soʻz va qoʻshimchalarni asliga mos holda yozadigan tamoyil.

Shakliy-ananaviy tamoyil – oʻzlashgan soʻzlarning shakli yozuvda saqlanadigan tamoyil. Yaʼni soʻz qaysi tildan olingan boʻlsa, asliga koʻra yoziladi.

Differensiatsiya tamoyili – shakli va talaffuzi bir xil boʻlgan soʻzlarning yozuvda turli shartli belgilar vositasida farqlanadigan tamoyil.

9. Quyida keltirilgan soʻzlarni ustunlarga joylashtiring. Talaffuz va imlo meʼyorlariga amal qiling.

Bel bogʻ, ring, sport taktikasi, sambo, Olti ariq, soadat, konferensiya, doyim, darax, marifat, xabar, tennis, oyila, orzuyim, voliybol, mavqeyim, toleim, istakan, gʻish, militsiya, sirk, sirkul, doktor, gram, metall, mililitr, sotix, comeback, aut, Yangiobod, Toʻra qoʻrgʻon, muhlis, hokkey, mototsikl, nakaut, oʻyin qoidasi, planka, dzyudo.

Toʻgʻri

Notoʻgʻri

10. Lugʻat bilan ishlash. Berilgan soʻzlarni ular anglatgan maʼnolari bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Akvalang** - Suv ostida bemaolol nafas olib suzishga imkon beradigan apparat.
2. **Arena** - Arena, maydon. 1. Sirk oʻrtasidagi qum yoki qipiq; arena, sirk sahni, sahnasi; sahna.
3. **Assistent** [lat] - Yordamchi, mutaxassis yordamchisi, koʻmakchi.

4. **Aviamodel** [r] - Uchirish uchun yasalgan o'zi uchar yoki boshqa uchadigan apparat modeli.
5. **Avtosport** - Avtomobil sporti, avtomobil poygasi. Ma'lum masofalarni avtomobillarda kim o'zarga bosib o'tish.
6. **Basketbol** - Ikki komanda o'rtasida to'pni qo'lma-qo'l irg'itib balanddagi shitga o'rnatilgan chambar - to'rga tushirish o'yini.
7. **Batterflyay** [ing]- Batterflyay - kapalaksimon suzish. Sportchi ko'krak bilan mutanosib quloq otib suzadi. Har ikkala qo'l bir vaqtda suvdan chiqariladi. Bu harakat kapalakning qanot qoqishiga o'xshaydi. Shuning uchun inglizcha "batterfly" - "kapalak" deb ataladi.
8. **Beysbol** [ing] - To'p bilan o'ynaladigan sport turi. U Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiyada keng tarqalgan. Kubada esa ommaviy tus olgan.
9. **Brass** (suzish) - Suzuvchining gavdasi suv ustida ko'krakda gorizontol holatda yotadi, oldinga cho'ziladi, qo'l kaftlari birlashtirilib pastga qaratiladi va oyoqlar cho'zilgan, birlashtirilgan bo'ladi. Bu uslubdan suv ostida ham foydalaniladi.
10. **Burchak zarbasi** - To'p raqib o'yinchilariga yoki darvozabonga tegib orqa chiziqdan chiqib ketganida amalga oshiriladi. Bu holat hujum uyushtirishning qulay holati bo'lib, standart holatlardan hisoblanadi. To'p chiqib ketgan tomondan tepiladi. To'rt burchakdagi oval chizig'iga qo'yilib hakam ruxsati bilan burchak to'pi tepiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Grafika so'zi qanday ma'noni anglatadi va u bo'limda nima o'rganiladi ma'lumot bering?
2. Grafik vositalarga nimalar kiradi?
3. Adabiy tilning qanday shakllari bor?
4. Orfografiya bo'limida nimalar o'rganiladi?
5. Nima uchun jamiyat a'zolari to'g'ri fikrlashi va savodli yozishni bilishlari kerak deb o'ylaysiz?
6. Orfografiya tamoyillari haqida fikr yuriting?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR.

1. «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini» necha banddan iborat?

- A) 80 banddan
- B) 82 banddan
- C) 84 banddan
- D) 72 banddan

2. To'g'ri yozilgan so'zni toping.

- A) afv
- B) muvafaqiyat
- C) taqazo
- D) hashorat

3. Ikkinchi bo'g'inida «u» qatnashadigan so'zlarni toping.

- A) muhim

- B)muqim
- C)hammasi «i» bilan yoziladi
- D)mumkin

4.Qaysi qatordagi soʻzlarda tutuq belgisi unlikning undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi?

- A)shula, baʼzan
- B)qatʼiy, jurʼat
- C)lsʼhoq, asʼhob
- D)moʼjiza, moʼtadil

5.Lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidasiga koʻra lsʼhoq soʻzida ishlatiladigan tutuq belgisi qanday vazifa bajaradi?

- A)unli tovushning choʻziqroq aytilishini ifodalaydi
- B)unlining undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi
- C)oldin va keyin kelgan tovushlar alohida tovushlar ekanligini ifodalaydi
- D)soʻz urgʻusini ifodalaydi

6.Berilgan qaysi soʻzda tutuq belgisi notoʻgʻri qoʻyilgan?

- A)maʼsul
- B) maʼsum
- C)maʼmur
- D) maʼqul

7.1) kav...sh; 2) kib...r; 3) kir...m;

4)lut...f; 5) moy... I. Imlo qoidasiga koʻra nuqtalar oʻrnida i unlisi qoʻyilishi kerak boʻlgan soʻzlarni belgilang.

- A) 1,2,3,5
- B)1, 4, 5
- C)3,5
- D)1,4

8.Berilgan soʻzlarning qaysilarida nuqtalar oʻrnida u unlisi yoziladi?

1) junj...kish; 2) juld...r; 3) zugʻ...m; 4)ibratom...z

- A) 1,2,3,4
- B)2, 3
- C)2,4
- D)1, 4

9.Yozma nutqning harflar tizimini oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimi ...

- A) fonetika
- B) grafika
- C)orfografiya
- D) orfoepiya

10.Berilgan soʻzlardan qaysi birining ikkinchi boʻgʻinida u yoziladi?

- A)mushf...q, muh...m
- B)muq...m, muh...t
- C)mushk...l, mug...z
- D)mutr...b, musl...m

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

O'ZBEK-LOTIN ALIFBOSINING IMLO QOIDALARI.

O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARI. (6 soat)

REJA:

1. Asos va qo'shimchalar imlosi.
2. Qo'shib va ajratib yozish.
3. Bosh harflar imlosi.
4. Tinish belgilarining qo'llanishi.
5. "O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi" matni ustida ishlash.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Milliy Olimpia qo'mitasi, bosh harflar, qisqartma so'zlar, imlo, atoqli ot, taxallus, joy nomlari, geografik nomlar, qo'shma so'z, juft so'z, chiziqli, to'g'ri yozish, tovush o'zgarishi, qoida, alifbo, asos, qo'shimcha, qo'shib yozish, ajratib yozish, bosh harf, ko'chirish qoidasi, tinish belgilar.

Yangi (lotin) o'zbek yozuvining imlo qoidalarini 1995-yilning 24-avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli

qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan.

Lotin-o'zbek yozuviga asoslangan imlo qoidalari 7 bo'lim 82ta qoidani o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi: Unlilar imlosi. Undoshlar imlosi (1-7-qoidalar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).
3. Qo'shib yozish (38-50-qoidalar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar).
5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).
6. Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).
7. Ko'chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar)

Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o' aytiladi va shunday yoziladi: sayla — saylov, sina — sinov, aya — ayovsiz; so'ra — so'roq, bo'ya — bo'yoq; o'yna — o'ynoqi, sayra — sayroqi kabi;

2) i unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: o'qi — o'quvchi, qazi — qazuvchi, sovi — sovuq kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli i aytiladi va shunday yoziladi: og'ri — og'riq, qavi — qaviq kabi. Eslatma: 1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: ol — oluv, yoz — yozuv kabi; 2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: uz — uzuq, yut - yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq, bulduriq (shuningdek bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi. k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g,, undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak — tilaging, yurak — yuragim, kubok — kubogi, bek — begi; tayoq — tayog'i, qoshiq — qoshig'i, yaxshiroq — yaxshirog'i, yo'q — yo'g'i kabi. Lekin ko'p

bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok — ishtiroki, ocherk — ocherki, erk — erki, huquq — huquqim, ravnaq — ravnaqi, yuq — yuqi kabi.

Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'uin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi:

2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, o'shancha kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi; buningiz, o'shanisi kabi;

3) o, o, u, ye unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi kabi; b) parvo, obrO', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir u tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzusi kabi (dohiy kabi u undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: dohiysi kabi);

4) men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: meni, mening, meniki; seni, sening, seniki kabi.

Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi: 1) -bon, -boz qo'shimchalari ba'zan -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt -bon, -boz yoziladi darvozabon, masxaraboz kabi. Lekin -vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi;

2) o‘rin kelishigi va chiqish kelishigi qo‘shimchasining, o‘tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko‘rsatkichi -di qo‘shimchasining boshidagi undosh ba‘zan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoziladi; ishda, misdan, ketdi, kelmabdi kabi.

Quyidagi qo‘shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi: 1) taqlid so‘zlardan fe‘l yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qo‘shimchasi so‘z tarkibida v yoki u tovushi bo‘lganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi -dir qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarga (kel so‘zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo‘shiladi: quvdir, egdir, kuldir, yondir; o‘tkazdir, tomizdir kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo‘shimcha -tir aytiladi va shunday yoziladi: tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir kabi;

3) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifat-dosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko‘rsatkichi -gin, shuningdek -gina qo‘shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi: a) k undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: tokka, yo‘lakkacha, ko‘nikkach, zerikkuncha, to‘kkani, kechikkudek, bukkani, ekin, kichikkina kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo‘rqqudek, achchiqqina kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo‘shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat‘i nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha kabi.

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi asosidagi yozuv me‘yorlari 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ga tayanadi. Unda “Unlilar imlosi”, “Undoshlar imlosi”, “Asos va qo‘shimchalar imlosi”, “Qo‘shib yozish”, “Ajratib yozish”, “Chiziqcha bilan yozish”, “Bosh harflar imlosi” va “Ko‘chirish qoidalari” berilgan. Rasmiy yozishmalarda, ish yuritishda, ta‘lim jarayonida, madaniy-ma‘rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalari amal qilish majburiydir.

O‘zbek alifbosida 29 harf bor. Ulardan 6 tasi unli tovushlarni, 23tasi esa undosh tovushlarni ifodalaydi. 3tasi harflar birikmasidir.

Unli nutq tovushlarining 5tasi 5 xil harf bilan ifodalanadi: *i, e, a, o, u*. Bittasi esa, ya’ni *йўш, ёзбек* kabi so‘zlardagi *й* tovushi maxsus belgi bilan emas, *оммоқ* so‘zidagi *o* harfiga “*ko‘chish belgisi*” (‘) ni qo‘shish bilan ko‘rsatiladi.

Alifboda 3 ta harf birikmasi mavjud: *sh, ch, ng*

TOPSHIRIQLAR

1. Kirill va lotin yozuvlariga asoslangan o‘zbek alifbolarining farqlarini jadval ko‘rinishida ifodalang.

2. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga tilning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritilgan qo‘shimcha harflarni tavsiflang.

3. So‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq yozing.

Miliy, murabiy, chaqon, xokey, aval, isiq, itifoq, aqil, zulum, fasil, tashabus, komisiya, jaji, tanafus, qatiqqo‘l, milion, minatdor, talafuz, muqadas, kata, metal, gramatika, komisiya, gram, aparat, elik, to‘qiz, sakiz, profesor, egalamoq, chaqon, yaka, fikir, ilim, sabir, trik, lazat, jahil.

4. Gaplarni o‘qing. Imlo qoidalariga ko‘ra xato yozilgan o‘rinlarni topib, imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri shaklda jadvalni to‘ldiring.

1. Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o‘ralgan qurilish hovlisiga chang to‘zon ko‘tarib “ZIL” mashinasi kirib keldi. (O‘.Hoshimov) 2. – Oltita bolam yeyman, ichaman deb turibdi. To‘rtasi maktabga boradi. (O‘.Hoshimov) 3. Nilufar chopkancha o‘rtoqining oldiga bordi. (O‘.Hoshimov) 4. – Odamzotning holi shu-yu, qadri yo‘q. (O‘.Hoshimov) 5. Ammo endi issiqni ham, motorning gurullashini ham, chekka-chekkadan quloqqa chalinayotgan xurrakni ham sezmayman. (O‘.Hoshimov) 6. Paytavani uch martta qaytadan o‘radi. Alla kimni so‘kdi. (O‘.Hoshimov) 7. Mana, hozir ham o‘sha suratka tikilib, go‘yo undan oq yo‘l tilayotgandek ko‘zimni uza olmay, uzoq termilib qoldim. (Ch.Aytmatov) 8. Akalarim urushka ketgan, ulardan xat-xabar yo‘g‘ edi. (Ch.Aytmatov) 9. Xudo bilib

berganmi, deyman, uning kelini Jamila ham serg'ayrat, baquvat bo'lib, birog' fe'l-avtori sal boshqacharoq edi. (Ch.Aytmatov) 10. Jamila yangammi chin qalbimdan yaxshi ko'raredim.

MATNDA

chang to'zon

TO'G'RISI

chang-to'zon

BILIB OLING !

O'zbek tilida so'zlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga ajratiladi: *sodda so'z, qo'shma so'z, juft so'z, takroriy so'zlar*.

Sodda so'z bitta o'zak morfemaga ega bo'lgan so'zdir. Masalan: *jismoniy, kurash, qilichboz, himoyai, darvozabon, o'yinchi, sharhlovchi* kabi.

Uchkurash, ikkikurash, beshkurash, ko'pkurash, mauntinbayk, beysbol, qo'shpoya, qo'lqop, o'n bir, yigirma besh, O'rta Osiyo, Yuqori Chirchiq kabi so'zlar **qo'shma so'z** deyiladi. Bu kabi so'zlar ikki va undan ortiq so'z yoki so'z shakllaridan tashkil topib, bir urg'uga birlashadi va bir tushunchani ifodalaydi.

Bir asosning ikki marta takrorlanishidan hosil bo'lgan so'zlarga **takror so'zlar** deyiladi. Masalan: *katta-katta, qo'sha-qo'sha, kelib-kelib, ayta-ayta, qop-qop, yugira-yugira, xirmon-xirmon, tez-tez* kabi.

Ma'nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli ikki asosning qo'shilishidan tashkil topgan so'zlarga **juft so'zlar deyiladi**. Juft so'z asoslari chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Nutqimizda qo'llanadigan *yunon-rum, short-trek, aka-uka, pala-partish, o'ng-so'l, ota-ona, tog'-tosh, onda-sonda, bust-butun, chala-chulpa, karnay-surnay, o'n-o'n besh* kabi so'zlar **juft so'zlardir**. Agar juft so'zlar -u, -yu yuklamalari bilan bog'lansa, birinchi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Masalan: *kecha-yu kunduz, past-u baland, osh-u non*.

Qo'shma va juft so'zlar imlosi

Qo'shma so'zlar yozilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar; 2) ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.

Quyidagi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

Qo'shib yozish (38-50-qoidalar)

Xona, nota, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi soʻzlar yordamida yasalgan qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bugʻdoyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi.

-(a)r (inkor shakli — -mas) qoʻshimchasi bilan tugaydigan qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: oʻrinbosar, otboqar, choʻlquvar, ishyoqmas, qushqoʻnmas kabi.

Takror taqlid soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshish bilan yasalgan ot va feʻllar qoʻshib yoziladi: pirpirak (pir-pir+ak), bizbizak (biz-biz+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), oʻxshatish yoʻli bilan bildiruvchi qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: karnaygul, qoʻziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirgʻiykoʻz kabi.

Narsani uning rangi, mazasi, oʻzidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: olaqargʻa, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

Narsaning biror maqsad, ish uchun moʻljallanganligini bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqoʻra, nosqovoq, koʻzoynak kabi.

Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: togʻolcha, choʻlyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: kiryuvdi, kelintushdi, qoryogʻdi, Urtoʻqmoq, ochildasturxon kabi.

Qaratuvchili birikmaning bir soʻzga aylanishi bilan yuzaga kelgan qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: mingboshi, soʻzboshi, olmaqoqi kabi.

Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod soʻzi bilan ifodalangan joy nomlari qoʻshib yoziladi: Yangiyoʻl, Toʻrtkoʻl, Mirzachoʻl, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot boʻlgan joy nomlari ajratib yoziladi: Oʻrta Osiyo, Koʻhna Urganch, Oʻrta Chirchiq kabi.

Rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika; teleko‘rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi: SamDU, ToshDUning kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O‘zXDP MK (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko‘rsatiladi: yo‘o‘q, nimaa, himm, ufffi kabi.

Qo‘shma fe‘lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta‘sir et, tamom bo‘l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko‘r, so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

Ko‘makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi kabi. Lekin bilan ko‘makchining -la shakli, uchun qo‘shimchasining -chun shakli chiziqli bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato‘a, birvarakayiga, birmuncha, buyon so‘zlari qo‘shib yoziladi. Shuningdek, qay so‘zi yoq, yer so‘zlari bilan ishlatilganda bir u tovushi tushsa, bu so‘zlar qo‘shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so‘zlar ajratib yoziladi: to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och sariq kabi.

Murakkab son qismlari ajratib yoziladi o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.


Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko‘pdan ko‘p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so‘zlarga yi shaklida qo‘shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimai hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

Quyidagi so‘zlar chiziqli bilan ajratib yoziladi:

- juft va takror so‘zlarning qismlari: *uy-ro‘zg‘or, asta-sekin, besh-oltita, uch-to‘rt, qozon-tovoq, dasta-dasta, uy-uyiga* kabi;
- *ma, -ba* yordamida birikkan so‘z qismlari: *ko‘chama-ko‘cha, rang-barang, qadam-baqadam* kabi;
- arab raqamlari bilan yozilgan tartib sonlar: *5-sinf, 1991-yil, 3-mart* kabi.

5 .Imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni toping.



6. Matnni o‘qing. Qavslar ichidan imlo qoidalariga mos shakllarni topib, mos ravishda daftaringizga ko‘chiring.

Poezd guld(i,u)rab ketyap(t,d)i. Chiroqlar xira. Vagon sovuq. Chipta topilmagani uchun umumiy vagonga chiq(g,q)an edim. Yotib uxlash u yoqda tursin, o'tirishga joy yo'q. (Hamma yoq, Hammayoq) shovqin(-yoki ,)suron. Odam ko'p. Qishki ta'til boshlangan, talabalar uyiga borib kelgisi keladi-da. Ana, olti yigit (ro'parama-ro'para, ro'para-ma ro'para) o'tirib olib, vino ichishyap (-t,-d)i. Deraza oldidagi stolchada kesilgan ikkita anor. Qirrador stakanda vino ichishadi-da, anor bilan gazak qilishadi. Surnay pocha shim kiygan, mo'ylovli yigit menga ham uzat(-t,-d)i... (O'.Hoshimov)

7. E. Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonidan olingan parchani ifodali o‘qing. Talaffuz jarayonida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga e’tibor bering. Talaffuz va imlodagi farqlarning sababini tushuntiring.

...Kel, ey ko'nglim,
Bizning hayot
Emas ekan
jovidon,
Bu dunyoda
izla najot,
Yasha faqat
shodumon.
Bu hayotning
Yarmi rohat,
Yarmi g'amdir,
shukr qil.
Umring uzun bo'lsa —
rahmat,
Agar kamdir,
Shukr qil.
Shu oftobu
Ming bir ohang,
Miig bir rangli bu dunyo
Senikidir,
Hayot esang,
Hayot esang avvalo.
Ham shavq bilan,
Ham dard bilan
O'tar ekan bu damlar.
Omon bo'lsin
Sen anglagan,
Seni anglar
odamlar...

8. Matnni diqqat bilan o‘qing va daftaringizga ko‘chiring, berilgan matnda ajratib ko‘rsatilgan birikmalarni jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘atidan izohli ma’nosini yozing va imlo qoidalarini tushuntiring.

O'ZBEKISTON MILLIY OLIMPIYA QO'MITASI

O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi (MOQ) — mamlakat nomidan olimpiada harakatida vakil bo'lib qatnashuvchi tashkilot. MOQni Xalqaro olimpiada qo'mitasi (XOQ) tan olmasa, milliy jamoalar Olimpiada o'yinlariga qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi 1992-yil 21-yanvarda tashkil topgan bo'lib, 1993-yil sentabr oyida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasman tan olingan.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi nodavlat-notijorat tashkiloti bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Olimpiya xartiyasi hamda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining Ustavi asosida amalga oshiradi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, Olimpiyadaga oid ta'lim, **Olimpiya qadriyatlarini ommalashtirish**, xalqaro aloqalarni mustahkamlash ishlarida ishtrok etadi, sport murabbiylari va sport tashkilotlarini qo'llab-quvvatlaydi.

MOQ bilan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Osiyo Olimpiya Kengashi, Milliy Olimpiya qo'mitalari jamiyati va boshqa qator xalqaro sport federatsiyalari hamda tashkilotlari o'rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekistonda Olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpizm g'oyalarini keng targ'ib etish;
- Olimpiyada, Osiyo, O'smirlar olimpiyada o'yinlarida Respublika sport delegatsiyalarining vakili bo'lish;
- O'zbekistonda **Olimpiya Xartiyasida** mustahkamlangan tamoyillar asosida **Olimpiya Harakatini** rivojlantirish;
 - respublika aholisini jismonan va ma'naviy-ruhiy tarbiyalashga ko'maklashish;
 - jismoniy tarbiya va sport bilan **ommaviy bandlikni rivojlantirishda** ishtirok etish;
 - **milliy sport turlari**, nogironlar o'rtasidagi sport turlarini rivojlantirishni targ'ib qilish, davlat va jamoaviy jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga mamlakat terma jamoalari va sport zahiralarini tayyorlashga ko'maklashish;
 - yoshlarni halol kurashish, raqibga o'zaro hurmat munosabatida va xalqlar o'rtasidagi do'stlik ruhi tamoyillari asosida tarbiyalash;
 - O'zbekistonda **Olimpizm g'oyalarini** targ'ib qilish, insonlarni O'zbekiston Respublikasi sportchilarining muvaffaqiyatlari bilan tanishtirib borish, Olimpiya ta'limini rivojlantirish;
 - sport kadrlarining malakasini oshirish va tajriba almashish bo'yicha konferensiyalar, seminarlar, kurslar tashkil etish;
 - sportni qo'llab-quvvatlovchi fondlar va xayriya tashkilotlari tuzishda qatnashish; sportchilar, murabbiylar, sport hakamlari, **sport faxriylarining manfaatlarini** himoya qilish.

BILIB OLING !

Bosh harflar imlosi

Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, O‘rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov kabi

Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Zavrqaq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepala), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi

Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Yulduz, Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi

Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san‘at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi. “Tong” (mehmonxona), “Mo‘tabar” (firma), “Navro‘z” (xayriya jamg‘armasi), “Kamalak” (matbaa birlashmasi), “G‘uncha” (bog‘cha), “Turon” (sanatoriy), “Paxtakor” (stadion), “Qutlug‘ qon” (roman), “Dilorom” (opera), “Tanovar” (kuy), “Ozodlik” (haykal), Jasorat (yodgorlik), “Sino” (sovutgich) kabi

Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami kabi

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi, Bosh vazirning o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi

9. Matndagi bosh harflar bilan yozilgan soʻzlarni alohida daftaringizga koʻchirib yozib, ularning bosh harflarda yozilish imlosini tushuntiring. Rasmlarga diqqat qiling va izohlashga harakat qiling.

Afina (Gresiya). I olimpiada oʻyinlari. 6-15 aprel, 1896 yil. Iлк marotaba Gresiyada tashkillashtirilgan olimpiada oʻyinlarida 136 mamalakatdan 311 nafar sportchi ishtirok etdi. (Avstraliya, Avstriya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Gresiya, Daniya, AQSH, Fransiya, Chili, Shveysariya, Shvesiya). Iлк marotaba tashkillashtirilgan olimpiada oʻyinlarida ayollar ishtiroki taʼqirlab qoʻyilgandi. Iлк olimpiada chempioni amerikalik poygachi Konnoli boʻldi. Suzish musobaqalarida esa vengriyalik Alfred Xayosh ikki oltin medal bilan gʻoliblikni qoʻlga kiritdi. Birinchi olimpiada oʻyinlaridanoq gʻolib sportchining vatani sharafiga madhiyalar yangrashi anʼana qilib qoʻyildi. Gresiyadagi olimpiada oʻyinlarida mezbonlar birinchi pogʻonani band etishgan boʻlsa, AQSHliklar ikkinchi, germaniyaliklar esa uchinchi oʻrinlarni sohibi boʻlishdi.



ESLAB QOLING !

я, ю, ё, е harflarining imloda berilishi

Oʻzbekcha soʻzlarda я, ю, ё, е harflari soʻzning boshida hamda unli tovushdan keyin kelgan hollarda ikki harf bilan koʻrsatiladi: яна – yana, уят – uyat, юр – yur, буюм – buyum, ётма – yotma, қуён – quyon, ем – yet, қаер – qayer, Алиев – Aliyev.

Oʻzbek tilidagi boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarda ham я, ю, ё, е ikki harf bilan beriladi: январь – yanvar, акция – aksiya, юбка – yubka, июнь – iyun, приёмник – priyomnik, реестр – reyestr.

Kirill yozuvida я, ю, ё, е harflari ayirish belgisidan yoki yumshatish belgisidan keyin kelganida ikki nutq tovushini bildiradi. Bunday soʻzlardan oʻzbek tilida ham qoʻllanadiganlarida mazkur tovushlar ikki harf bilan ifodalanadi: адъютант – adyutant, объект – obyekt, пьеса – pyesa, премьера – premjera, ателье – atelye, компьютер – kompyuter.

Kirill yozuvida **я, ю, ё, е** harflari undosh tovushlardan keyin kelganda bir unli tovushdek aytiladi va o'zidan oldingi undosh tovushning yumshoq talaffuz qilinishiga ishora qiladi. Bunday so'zlardan o'zbek tilida ham qo'llanadiganlarida **я, ю, ё, е** harflari **а, у, о, е** harflari bilan beriladi: сентябрь – sentabr, рюкзак – rukzak.

Ushbu qoida doirasiga kirmaydigan so'zlar ham bor. Masalan, quyidagi so'zlarda **ё** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **о** bilan emas, balki ikki harf **yo** bilan beriladi: aktyor, dublyor, transportyor, montyor, reportyor, sapyor, suflyor, vaxtyor, minomyot, pulemyot, samolyot, vertolyot, plyonka, shpaklyovka.

Ayrim so'zlarda **ю** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **u** bilan emas, balki ikki harf **yu** bilan beriladi: byuro, byust, menyu. Ba'zi so'zlarda esa **я** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **a** bilan emas, balki ikki harf **ya** bilan beriladi: slavyan, buryat, naryad, snaryad, zaryad, plyaj..

10. Gaplarni o'qing. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni topib, o'z va ko'chma ma'no orasidagi farq va bog'liqliklarni aniqlang.

1) O'zbekiston va Iroq o'rtasidagi uchrashuv 0:1 hisobida yakunlandi. 2) Mag'lub bo'lgan bokschi revansh ilinjida yonardi. 3) "Qo'l jangi" da O'zbekiston yoshlari matonat ko'rsatib galaba qozondilar. 4) Ob-havo inijliklari sportchilarning ruhiyatiga ta'sir qilmadi. 5) O'zbekiston Superligasida chempion jamoani taxtdan ag'darib tashlaydigan jamoa topilarmikan? 6) Stadion g'oliblarni olqishladi. 7) Qizdiruvchi mashqlar to'laqonli mashg'ulotlarga ulanib ketdi. 8) Birgina hushtak o'yin taqdirini hal qildi. 9) Nursiz o'yin muhlislarni zeriktirib qo'ydi. 10) Mag'lubiyat haqidagi sovuq xabar juda tez tarqaldi.

11. Ushbu ko'chma manoda qo'llangan birliklar ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga ko'chirib yozing.

1) "qizil" olmoq; 2) tumshug'iga tushurmoq; 3) tiz cho'ktirmoq; 4) yanchib tashlamoq; 5) o'tlanmoq; 6) o'yinning boshi; 7) o'yin tizginini yo'qotmoq; 8) yorug' yuz; 9) himoyani yorib o'tmoq; 10) qanotlardan unumli foydalanmoq.

12. Berilgan so'zlardan juft otlar hosil qilib, ularni lotin alifbosida yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Бахт, кўча, ота, ўт, дон, адир, бола, дон, опа, кеча, меҳр, эл, кийим, қовун, бозор, ҳол, тартиб, қонун, савдо, чора, дон, майда, дўст, ҳисоб, нарх, хавф, экспорт, қозон, ғам, ота, кам, китоб.

13. O'zbek tilining imlo lug'atidan bir necha o'zakdan yasalgan qo'shma sportga xos so'zlarni toping. Ularning ma'nosini tushuntiring.

14. She'rni ifodali o'qing. She'r matnida qo'llanilgan tinish belgilariga e'tibor berib va ularning qo'llanishini tushuntiring.

Ojizlik...

Nabiram so‘radi: «Aytingchi bobo,
Nega kuz kelmaydi, bahordan burun?
Kuz avval kelsachi, unda mabodo,
Xafa qilmasmikan, ular bir-birin?».
O‘ylanib qoldim men, bu gapdan shu tob,
Har holda bola-da, tushunmoq joiz.
-«Qarshingda turibdi, savolga javob,
Yosharmoq bobida, inson ham ojiz!...». (Abdulla Po‘latov.)

ESLAB QOLING !

Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi.

Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi:

O‘zLiDep MK.

Har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi

15.Quyida berilgan matnni imlo qoidalari asosida lotin yozuviga o‘girib yozing.

ХАСАНБОЙ ДЎСМАТОВ

Дўсматов Хасанбой Маъруфжон ўғли 1993 йил 24 июнда Андижон вилоятининг Булоқбоши туманида туғилган.

2016 йил Ўзбекистоннинг энг яхши спортчиси номига сазовор бўлган. У 2011 йили ёшлар ўртасида, 2012 йилдан бошлаб эса катталар ўртасида кетма- кет Ўзбекистон чемпиониدير.

2013 йили Россиянинг Қозон шаҳрида ўтказилган Бутунжаҳон ёзги универсиадасида олтин медал билан тақдирланган.

2015 йил Андижон давлат университетини тамомлаган.

2015-2017 йилларда Осиё чемпиони унвонига сазовор бўлган.

Хитойда ўтказилган Осиё-Океания саралаш турниридаги ғалабаси учун Рио-де-Жанэйро ўйинларига йўлланмани кўлга киритган ва 2016йилги Рио-де-Жанэйро олимпиадасида бокс бўйича мусобақанинг 49кг вазн тоифасида олтин медал соҳиби бўлган.

2016 йил якунларига кўра Халқаро ҳаваскор боксчилар ассоциациаси томонидан дунёнинг энг кучли боксчиси сифатида эътироф этилган.Шунингдек, ”Олтин Мангуст” халқаро мукофоти соҳибига айланган.

2017 йилги жаҳон чемпионатида ажойиб бокс намоиши қилиб,финалда кубалик жаҳон чемпиони устидан ғалаба қозонган.Лекин ҳакамлар очколар бўйича ғалабани рақибига беришга қарор қилишгани сабабли кумуш медал билан тақдирланган.

Хасанбой Дўсматов “Ўзбекистон ифтихори” фахрий унвони билан мукофотланган.

Ц harfining imloda berilishi

Soʻz boshida kelganda **s** harfi bilan ifodalanadi: *цех-sex, цирк – sirk.*

Soʻz oxirida kelganda **s** harfi bilan ifodalanadi: *абзац – abzas, шприц – shpis.*

Soʻz oʻrtasida undosh tovushdan keyin kelganda **s** harfi bilan ifodalanadi: *акция – aksiya;*

Soʻz oʻrtasida unli tovushdan keyin kelganda **ts** harfi bilan ifodalanadi: *лицей – litsey, офицер – ofitser, доцент – dotsent.*

16.Quyidagi baynalmilal soʻzlarni lotin alifbosida yozing. Ularning lugʻaviy maʼnosini tushuntiring.

Федерация, цивилизация, доцент, авиация, абзац, ацетон, целлофан, цемент, велосипед, цемент, цирк, энциклопедия, циркуль, акциз, ассимиляция, лексикалогия, аттестация, конституция, конференция, декларация, октябрь, интеграция, рецидив, кварц, компьютеризация, кондиционер, социология,

Tutuq belgisining imlosi

' (tutuq belgisi) — alifbodagi qoʻshimcha imlo belgisi hisoblanadi. Oʻzbek-lotin yozuvida bu belgi kirill alifbosidagi ayirish belgisi („ъ“) oʻrnida ishlatiladi.

Oʻzbek lotin yozuvida tutuq belgisi quyidagi vazifalarni bajaradi:
1) *baʼzan, taʼtil, sheʼr, eʼlon, feʼl, shuʼla, aʼlo, eʼtibor, eʼtiqod, feʼl, maʼyus, meʼmor, neʼmat, raʼy, taʼb, taʼzim* kabi oʻzlashma soʻzlarda unli dan keyin kelib, shu unli tovushning choʻziqroq aytilishini ifodaydi;

2) *sanʼat, surʼat, jurʼat, anʼana, inʼom, masʼul, sanʼat, qatʼiy* kabi oʻzlashma soʻzlarda unli dan oldin kelib, shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalaydi;

3) **Sh** harfi ikki tovushni (alohida **s** va **h** tovushlarini) ifodalasa, ularning orasiga tutuq belgisi qoʻyiladi: *Isʼhoq, asʼhob*(*sohib* soʻzining koʻpligi), *asʼhar* (*tong*) kabi. Aks holda bu tovushlar **sh** tarzida talaffuz qilinishi va talaffuzdagi xatolikka sabab boʻlishi mumkin.

4) *-мўъжиза, мўътабар, мўътадил* kabi soʻzlarda ikki xil belgi (koʻchish va tutuq belgilari) ketma-ket kelib qolishini eʼtiborga olib, bunday soʻzlar tutuq belgisiz yoziladi: *moʼjiza, moʼtabar, moʼtadil.*

17. Quyidagi soʻzlarga tutuq belgisini qoʻyib koʻchiring. Ularning maʼnosini bilib oling.

Meyor, jasur, azo, etiqod, alo, bazan, bemani, bidat, dafatan, davat, davogar, fel, jurat, inom, istedod, masul, maʼnaviy, marifiy, maruza, mano, qatiy, qita, sanatkor, tasir, talimot, takidlamog, tasis, taqib, vada, vaz, zafaron, shan, shariyat.

18.Quyidagi berilgan rasmlar asosida boʻsh kataklarni kerakli soʻzlar bilan toʻldiring.



19. Quyida berilgan davlar nomlarini lotin yozuviga o'girib yozing. Bosh harflar imlosiga e'tibor bering.

Ўзбекистон, Греция, Италия, Япония, Туркия, Эрон, Афғонистон, Россия, Грузия, Арманистон, Озарбайжон, Қозоғистон, АҚШ, Боливия, Буюк Британия, Голландия, Филиппин, Финляндия, Франция, Гвинея, Индонезия, Ирландия, Испания, Италия, Жанубий Корея, Жазоир, Кения, Колумбия, Латвия, Ливия, Люксембург, Мадагаскар, Македония, Малави, Малайзия, Мексика, Монголия, Намибия, Нидерландия, Никарагуа, Норвегия, Покистон, Португалия.

20. Uyga vazifa. Lug'at bilan ishlash. Berilgan so'zlarni ular anglatgan ma'no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Golf** - Uchi qayrilgan yog'och dasta (klyushka) va to'p bilan o'ynaladigan sport o'yini. Uning maqsadi: to'pni dasta yordamida hamma yo'lkalardagi chuqurchalarga tushirib chiqish; bunda sportchi to'pni har bir chuqurchaga tushirish uchun dasta bilan iloji boricha kamroq urishi (tegishi) lozim. Golf Angliya, AQSH, Kanadada keng tarqalgan.
2. **Grossmeyster** - Shaxmat ustalariga beriladigan eng oliy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxmatchi.
3. **Havaskor** - Biror narsaga qiziqadigan, uni yaxshi ko'radigan yoki unga erishishni orzu qiladigan kishi.
4. **Himoya dubulg'asi** - Boshni urilish yoki zarbadan saqlovchi, tovush, suv va h.k. o'tkazmaydigan; himoya (mudofaa) qiladigan, saqlaydigan, pana (ixota) qiladigan, saqlovchi, panalovchi temir qalpoq, dubulg'a; maxsus bosh kiyimi.
5. **Himoya ko'zoynagi** - Suv va h.k. o'tkazmaydigan; himoya (mudofaa) qiladigan, saqlaydigan, pana (ixota) qiladigan, saqlovchi ko'zoynak.
6. **Himoyachi** - Jamoaning himoyada o'ynayotgan o'yinchisi.
7. **Homiy** [a] - 1. Kimsa yoki narsani himoya etuvchi, tarafini oluvchi, yoqlovchi; ko'mak beruvchi. 2. Sport musobaqalarini qiziqarli va yuqori saviyada o'tkazishda ma'naviy va iqtisodiy tomondan yordam beruvchi tashkilot (shaxs). Shaxmat musobaqasining homiyi.
8. **Hujum** [a] - Sportchining raqibga yoki bir jamoaning 2-jamoa darvozasiga to'p kiritish, to'pni egallash yoki bir 34 ustunlikka ega bo'lish uchun qilinadigan harakat.
9. **Hujum uslubidagi o'yin** - Sportchining raqibga yoki bir jamoaning ikkinchi jamoa darvozasiga to'p kiritish, to'pni egallash yoki biron bir ustunlikka ega bo'lish uchun qilinadigan harakat.
10. **Hujumchi** - Asosiy vazifasi raqib darvozasiga to'p yoki shaybani kiritishdan iborat bo'lgan o'yinchi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. So'zning asosi deganda nima tushunasiz, misollar keltirib, izohlang?

2. O'zbek tilida so'zga qo'shimchalar qanday qo'shiladi, ularning imlosi haqida gapiring?
3. Qo'shma so'zlar qaysi holatlarda qo'shib yoziladi?
4. Qo'shma so'zlar qanday holda ajratib yoziladi?
5. Bosh harflar imlosi haqida ma'lumot bering.
6. So'zlarni ko'chirish va bo'g'inga ajratish qoidalarini tushuntiring.
7. O'zbek tilida nechta tinish belgisi bor, ularni qo'llanishi haqida gapiring?
5. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi asosiy maqsadi va vazifalari haqida bilasizmi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Qadimgi Olimpiada o'yinlari dastlab qayerda tashkil etilgan?

- A. Janubiy Yunonistonning Olimpia shahrida
- B. Gretsiyadagi Elis Koroibos shahrida
- C. Italiyaning Milan va Kortina shaharlarida
- D. Shvesiyaning Stokgolm shahri

2. Qadimgi Olimpiya o'yinlarida qanday sport musobaqalari o'tkazilgan?

- A. Kurash, yugurish, tosh otish
- B. Yugurish, uzoqlikka sakrash, boks
- C. Ehgil atletika, boks, yugurish
- D. Tosh otis, kurash, boks

3. Qadimgi Olimpiada o'yinlari dastlab har necha yilda tashkil etilgan?

- A. Har to'rt yilda
- B. Musaboqachilarining tashkil etishiga qarab har yili
- C. Har ikki yilda bir marotaba
- D. Ishtirokchilarni yig'lishiga ko'ra uch yilda

4. Adabiy tilning me'yorini belgilashda, bu ikki o'ziga xos va muhim xususiyatni, albatta, hisobga olish zarur.

- A) qonun-qoidalar
- B) tilning madaniylik darajasini
- C) talaffuz va tovush
- D) til va nutqni

5. Adabiy me'yor deb nimaga aytiladi?

- A. Ongli aralashish orqasida qayta ishlangan, tanlangan, baholangan me'yoridir.
- B. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun 6 unli va 24 undosh tovush me'yor sanaladi
- G. Til, uning amaliy ko'rinishi bo'lgan nutq tabiiy holatda talaffuz qilinuvchi tovushga asoslanuvchi hodisadir
- D. adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy omildir

6. Adabiy tilning belgisi unda ma'lum qoidalarga asoslangan qanday me'yorlarning bo'lishi.

- A) leksik, fonetik, orfografik, grammatik, stilistik
- B) nutqiy, fonetik, orfografik, grammatik, leksik

- C) fonetik, orfografik, grammatik, stilistik, nutqiy
- D) badiy, ijodiy, nutqiy, leksik, fonetik

7.Adabiy til doirasida amal qiluvchi tabiiy me'yorlar va muayyan me'yorlarga solingan talaffuz qoidalari yig'indisi - adabiy talaffuz yoki boshqacha aytganda, qaysi me'yorlar deb yuritiladi.

- A. Orfoepik
- B. **Fonetik**
- C. Adabiy
- D. Grammatik

8.Adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi, til vakillari tomonidan ongli ravishda, kelishilgan holda yuzaga keltirilib, amal qilishi maxsus imlo qoidalari asosida amalga oshiriladigan me'yor bu ...

- A) Orfografik me'yor.
- B) Orfoepikme'yor.
- C) Adabiy me'yor.
- D) Grammatikme'yor.

9.Adabiy tilning stilistik me'yori

- A) til birliklarining nutqda sharoit, ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi.
- B) Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar eng avvalo stilistikda o'z aksini topadi
- C) biror so'zning o'zaro birikishini yoki birika olmasligini sezamiz
- D) adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy omildir

Asosiy adabiyotlar

1.Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi.O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.

2. G'afforov N.N.Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.

3.Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami:233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti",Chirchiq, 2022.

4.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Odilov Y.Davlat tilida ish yuritish.Amaliy qo'llanma.«O'ZBEKISTON NASHRIYOTI»Toshkent,2020-yil

5.G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma).

"O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.

6.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Ish yuritish.(amaliy qo'llanma)"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

O‘ZBEK YOZUVI TAMOYILLARI.(2 soat)

REJA:

- 1.Yozuv tamoyillari: fonetik, morfologik, shakliy, tarixiy-an’anaviy.
- 2.Sohaga oid so‘z va atamalarga qo‘shimchalar qo‘shish orqali yozuv prinsiplari ustida ishlash.
- 3.Kasbiy sohaga oid ma’lumotlarni «**Jismoniy tarbiya va sportning paydo bo‘lishi**» mavzusidagi matn asosida o‘rganish.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Hozirgi o‘zbek imlosi, tamoyillar, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy - an’anaviy tamoyil, farqlash (differensiasiya) tamoyili, etimologik yoki grafik tamoyil.

So‘zlarni adabiy til me’yorlari asosida to‘g‘ri yozish – savodxonlik madaniylikning muhim belgilaridandir. Savodxon bo‘lmoq uchun imlo qoidalarini bilish shartdir. Binobarin, **imlo qoidalari** – savodxonligimiz asosidir. Imlo adabiy tilning yozma shakli bilan aloqador bo‘lib, u to‘g‘ri yozish qoidalarini o‘rgatuvchi hamda ular haqida batafsil ma’lumot beruvchi tilshunoslikning alohida bir bo‘limidir. Imlo yozuv vositalari orqali so‘z va so‘z shakllarining bir xilda yozilishini tartibga soladi. Imlo tufayli so‘zlar yagona yozuv shakliga ega bo‘ladi. Imlo muayyan qonun-qoidalarga asoslanadi. Bu qoidalarga unli va undoshlarning yozilishi, asos va qo‘shimchalarning yozilishi, qo‘shma so‘zlarning yozilishi, bosh harflarning qo‘llanishi, ko‘chirish qoidalari kabilar kiradi.

Imlo qoidalari til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichini nazarda tutgan holda tuziladi. Tilning rivojlanishi hamda ba'zi hollarda yozuvning o'zgarishi bilan imlo qoidalari ham shunga mos ravishda takomillashtirilib boriladi.

Imlo orfoepiya hamda alfavit bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Adabiy talaffuz me'yorlarining aniq ishlab chiqilishi o'z navbatida imlo qoidalarining puxta va pishiq bo'lishida yordam beradi. Alifbo adabiy tildagi fonemalarni to'la va to'g'ri ifodalash uchun yetarli harfiy belgilarga ega bo'lsa, imlo ham shunga muvofiq ravishda davr talablariga javob bera oladigan mukammal va qulay qoidalarni o'zida tarkib toptiradi.

Har qanday yozuv tizimi ma'lum qonun-qoidalarga, ularning asosida yotuvchi imloviy tamoyillarga asoslanib ish ko'radi. Imloviy tamoyillar yozuv me'yorlariga oid qoidalarni bir xilda, turg'un shakllarda muayyan tartibda ushlab turuvchi asosiy omil sanaladi.

Hozirgi o'zbek imlosi quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1) fonetik tamoyil; 2) morfologik tamoyil; 3) tarixiy - an'anaviy tamoyil; 4) farqlash (differensiasiya) tamoyili; 5) etimologik yoki grafik tamoyil.

Fonetik tamoyil. Fonetik tamoyilga ko'ra, so'z va qo'shimchalar jonli nutqda qanday aytilsa, yozuvda ham shunday ifoda qilinadi. Masalan, son so'ziga -a, ong so'ziga -la, ishla so'ziga -v+chi qo'shimchasi qo'shilganda, bu so'zlar sana, angla, ishlovchi deb aytiladi va shunday yoziladi.

Fonetik tamoyil imloni jonli nutqqa yaqinlashtiradi, yozuv bilan talaffuz orasida yaqin aloqa va munosabat borligini ko'rsatadi.

Fonetik tamoyil so'zlarning talaffuz shaklini asos qilib oladi. Lekin bu tamoyil milliy til doirasidagi har qanday talaffuzga emas, balki adabiy talaffuz me'yorlari doirasidagi holatlarga tayanadi. Masalan, ketyapti so'zi o'zbek milliy tili doirasida ketvotti, ketopti, ketutti, ketyapti shakllarida turlicha talaffuz qilinadi. Fonetik tamoyil keltirilgan talaffuz shakllaridan adabiy me'yor sifatida tan olingan ketyapti shakliga tayanadi.

O'zbek imlosida **fonetik tamoyilga** amal qiluvchi holatlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tilimizda bir qator fe'l asoslari a unlisi bilan tugaydi. Bunday fe'llarga -v qo'shimchasi qo'shilganda a tovushi o tarzida aytiladi va shunday yoziladi: chanqa+v = chanqov, teja +v = tejov, maqta +v = maqtov, qatna +v = qatnov, hayda +v = haydov, chayqa +v = chayqov, terga +v = tergov va boshqalar.

2. O'zbek tilida bir qator fe'llar -la qo'shimchasi bilan yasalgan. Shunday -la affiksli fe'llarga -v qo'shimchasi qo'shilganda so'z oxiridagi a tovushi o ga o'tadi va so'z o'sha shaklda talaffuz etiladi va yozilishda ham shunday holat saqlanadi: bag'ishla+v = bag'ishlov, sozla+v = sozlov, bog'la+v = bog'lov, aybla +v = ayblov, qishla+v = qishlov, oqla +v = oqlov kabilar.

3. Oxiri a tovushi bilan tugagan ba'zi so'zlarga -q qo'shimchasi qo'shilganda ham a tovushi o bo'lib aytiladi va so'z mana shu o'zgarishni hisobga olgan holda yoziladi: tarqa +q = tarqoq, so'ra +q = so'roq, yangra+q = yangroq, qaltira +q = qaltiroq, quvna +q = quvnoq, yumsha +q = yumshoq, yaltira +q = yaltiroq, sana +q = sanoq kabilar.

4. Tilimizdagi og'iz, ko'ngil, qorin, o'g'il, singil, o'rin, bo'yin, burun kabi so'zlar egalik qo'shimchasini olganda asosning ikkinchi bo'g'inidagi i yoki u unlisi tushirib talaffuz qilinadi. Bunday so'zlar fonetik tamoyilga ko'ra o'sha talaffuz shaklida yoziladi: og'iz+im= og'zim, og'iz+ing= og'zing, og'iz + i= og'zi; singil+im= singlim, singil +ing= singling, singil +i = singli; burun+ im= burnim, burun + ing= burning, burun +i = burni; o'rin +im = o'rnim, o'rin +ing= o'rning, o'rin +i = o'rni kabilar.

5. Imloda fonetik tamoyilga amal qilish oxiri jarangsiz q va k undoshlari bilan tugagan so'zlar imlosini qoidalashtirishda ham kuzatiladi:

1) oxiri q bilan bitgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda q tovushi g' tovushiga o'tadi va so'z shunday shaklda yoziladi: qiyiq+im= qiyig'im, qiyiq +ing= qiyig'ing, qiyiq +i = qiyig'i, oyoq +im = oyog'im, oyoq +ing= oyog'ing, oyoq +i = oyog'i. Bularga yana bayrog'i (bayroq +i), ayig'i (ayiq +i), qozig'i (qoziq+i), qayig'i (qayiq+i), balig'i (baliq+i), qishlog'i (qishloq+i) so'zlari misol bo'la oladi. Ba'zan q bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda q tovushi o'zgarishsiz qoladi. Bunday so'zlar ham fonetik prinsipga binoan o'sha shaklda

yoziladi: axloq - axloqi, ittifoq-ittifoqi, mashq-mashqi, nutq - nutqi, huquq-huquqi, haq-haqi, xulq-xulqi, ishq-ishqi kabilar.

2) k undoshi bilan tugagan soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda k undoshi jarangli g tovushiga oʻtadi. Talaffuzda ham, yozuvda ham shu holat saqlanadi: bilak +im = bilagim, bilak+ing=bilaging, bilak +i = bilagi; tilak +im = tilagim, tilak +ing= tilaging, tilak +i = tilagi. Tirgagi (tirgak +i), bargagi (bargak +i), bezagi (bezak +i), oʻrdagi (oʻrdak +i), yuragi (yurak +i), ilgagi (ilgak+i), kovagi (kovak+i) kabilar ham shunday soʻzlarga misoldir.

Ammo k tovushi bilan tugagan bir qator soʻzlar egalik qoʻshimchasini olganda jarangsiz k tovushi g tovushiga oʻtmaydi, oʻzgarishsiz, oʻz holida aytiladi va bu soʻzlar talaffuziga koʻra yozilaveradi: nok+im = nokim, nok+ing= noking, nok+i = noki; chek+i =cheki, chok+i =choki, yuk+i =yuki, ishtirok+i =ishtiroki, tok+i =toki, tank+i =tanki, sirk+i =sirki, ocherk+i =ocherki, bank+i =banki, bak+i =baki kabilar shunday soʻzlar jumlasiga kiradi.

6. Tilimizda joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi asosan -ga tarzida yoziladi: maktabga, zavodga, ishga, uyga, shaharga, Buxoroga kabi. Ammo nutq jarayonida k, q tovushlari bilan bitgan soʻzlarga qoʻshilib kelganda fonetik oʻzgarishga uchraydi. Bu imloda aks etadi:

1) oxiri k bilan bitgan soʻzlarda -ga affiksi -ka tarzida aytiladi va imloda ham shunday yoziladi: kovak+ga =kovakka, tilak +ga = tilakka, bilak +ga = bilakka, katak +ga = katakka, tuvak+ga = tuvakka, danak+ga = danakka va boshqalar.

2) soʻz oxiri q undoshi bilan tugasa, -ga qoʻshimchasi -qa tarzida talaffuz qilinadi, bu shakl imloda ham saqlanadi: pichoq +ga = pichoqqa, yotoq+ga = yotoqqa, tovoq+ga = tovoqqa, soʻroq+ga = soʻroqqa, tayoq +ga = tayoqqa va boshqalar.

Aytilganlardan anglashiladiki , fonetik tamoyil yozuv bilan talaffuzni bir - biriga yaqinlashtiradi, ular oʻrtasida maʼlum darajada umumiylikni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga koʻra, soʻzlar va ularning tarkibiy qismlari jonli soʻzlashuvdagi talaffuziga qarab emas, balki asl shakllariga muvofiq yoziladi. Masalan, uchta, kelib turibdi, shanba, goʻsht soʻzlari ogʻzaki nutqda ushta, kep

turipti, shamba, go'sh shaklida aytiladi. Lekin morfologik tamoyilga asosan uchta, kelib turibdi, shanba, go'sht tarzida yoziladi.

Morfologik tamoyil o'zbek imlosining etakchi tamoyillaridan hisoblanadi. Imlo qoidalarining ko'pchiligi morfologik tamoyilga asoslangan holda tuziladi. Bu tamoyil so'z va morfemalarni yozishda bir xillikni ta'minlaydi.

Hozirgi o'zbek imlosida **morfologik tamoyil asosida** yoziladigan so'z va morfemalarga namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Jarangli b tovushi bilan tugagan so'zlarda bu tovush talaffuzda jarangsizlashib p tarzida aytiladi, ammo imloda asliga ko'ra jarangli b tovushi bilan yoziladi: kitob, maktab, mirob, javob, g'olib, kosib, tartib, laqab, azob, asab, targ'ib, mansab, maktub, choyshab kabilar.
2. Jarangli d undoshi so'z oxirida jarangsizlanib t tarzida talaffuz qilinadi, lekin asliga binoan har vaqt d bilan yoziladi: obod, ozod, savod, mard, dard, maqsud, dilshod, daromad, iqtisod, murod, harid, nobud, mavjud, madad, qand, zumrad, maqsad, tanqid va boshqalar.
3. O'tgan zamon fe'lining III shaxs ko'rsatkichi -di, o'rin kelishigi qo'shimchasi -da, chiqish kelishigi qo'shimchasi -dan jarangsiz tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda progressiv assimilyasiyaga uchrab -ti, -ta, -tan shaklida aytiladi, shunga qaramay morfologik tamoyilga binoan har doim -di, -da, -dan tarzida yoziladi: o'tti-o'tdi, ketti-ketdi, tutti-tutdi, ichti-ichdi, bitti-bitdi, ishta-ishda, ko'kta-ko'kda, o'tta-o'tda, ottan-otdan, boshtan-boshdan, o'qishtan-o'qishdan singarilar.
4. Og'zaki nutqda ba'zan so'z oxirida yonma-yon kelgan qo'sh undoshlardan keyingisi tushirilgan holda aytiladi, ammo yozuvda saqlanadi. Masalan do'st, go'sht, musht, g'isht, juft, to'rt, dasht, past, sust, rost, Toshkent kabi so'zlarda so'nggi t tovushi va xursand, bahramand, ixlosmand, davlatmand, garchand, Samarqand singari so'zlarda so'nggi d tovushi talaffuzda tushib qoladi. Lekin asliga muvofiq bunday so'zlar oxirida t va d undoshlari yozilaveradi.
5. Ayrim so'zlarning birinchi bug'inida u unlisi kelsa, ikkinchi bo'g'inida i tovushi eshitiladi, ammo yozuvda asliga ko'ra u tovushi saqlanadi va yoziladi: uchqun, uzun,

unum, turmush, tuzum, butun, turg'un, mushkul, uzuk, uchqur, quzg'un, surgun, bulut, bugun, guruh, kumush, uzuk, usul, sukut, chuqur kabilar.

6. So'z o'rtasida kelgan n undoshi o'zidan keyingi b, m undoshlari ta'sirida m bo'lib eshitiladi, ammo asli bo'yicha doimo n bilan yoziladi: shamba, sumbula, tambal, mamba, aylamma, jomboz, yombosh, tambeh, yomma-yon (talaffuzda) –shanba, sunbula, tanbal, manba, aylanma, jonboz, yonbosh, tanbeh, yonma -yon (yozuvda) va boshqalar.

Shakliy an'anaviy tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shaklga muvofiq yoki o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlangan holda yoziladi. Bu tamoyil asosida quyidagi kabi imlo qoidalari ishlab chiqilgan:

1. Manfaat, matbaa, mutoalaa, taajjub, taassurot kabi arab tilida o'zlashgan so'zlarda bitta cho'ziq a talaffuz qilinsa ham, arab imlosining saqlangan holda yozuvda ikkita a yoziladi.

2. Mubolag'a, muzokara, munosabat, muhokama kabi arabcha so'zlarning urg'usiz bo'g'inida a og'zaki nutqda qisqa i tarzida aytilsa ham, an'anaga ko'ra a yoziladi.

3. Tadbir, tatbiq so'zlarining birinchi bo'g'ini oxiridagi d va t undoshlari bir xil t tovushi tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda d va t undosh harflari saqlanadi.

Tarixiy-an'anaviy tamoyil. So'z va morfemalarning yozuvda qadimdan odat bo'lib qolgan shaklda yozilishi imloning tarixiy-an'anaviy tamoyili deb ataladi. Bu tamoyilda so'zlarning yagona shakli va talaffuzi e'tiborga olinmaydi. So'zlar hozirgi holatiga qarab emas, balki qadimdan an'ana tusiga kirib qolgan qoidalar asosida yoziladi. Masalan fikr, qadr, aql, ilm so'zlari talaffuzda i tovushi orttirilgan holda fikir, qadir, aqil, ilim tarzida aytiladi. Ammo tarixiy-an'anaviy tamoyil bo'yicha bu so'zlar i tovushsiz yoziladi.

Tarixiy-an'anaviy tamoyilga ko'ra yoziladigan so'zlarga misol sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarda ko'pincha ikki undosh tovush yonma-yon keladi. Bular talaffuz qilinganda ikki undosh orasida qisqa i unlisi paydo

bo'lad. Ammo bu imloda hisobga olinmaydi. So'zlar an'anaga muvofiq avvalgi shakllari bo'yicha yozila beradi: fahm, sharm, fasl, lahm, hatm, nasl, muhr, jabr, vazn, mehr, zulm, ayb, kibr, vasl, vazn, husn, sinf, jahl, naqsh, rasm kabilar.

2. So'z o'zaklarida ikki unlining qator kelishi aslida o'zbek tiliga xos xususiyatlardan emas. Shuning uchun og'zaki nutqda doim, oila, rais, oid, doira, maishat, qoida, doir, shoir, suiqasd, Noila, Naima, Raisa, Said, Saida kabi so'zlarda ikki unli orasiga bir y undoshi orttirib talaffuz qilinadi. Ammo bu xil so'zlar imloda tarixiy an'anaga muvofiq –y tovushisiz yozila beradi.

3. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ba'zi bir qo'shimchalar ham tarixiy -an'anaviy tamoyil asosida yozilishi mumkin:

1) sifatdosh yasovchi -r (-ar) qo'shimchasining -ur shakli mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan. Bu shakl she'riy asarlarda hozir ham uchrab turadi: Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz, G'alaba to'yida bo'larmiz biz ham. (H. Olimjon). Agar kuylar esa sho'x dilrabolar, havolardan kelur dilbar navolar (Vosit Sa'dulla).

2) buyruq -istak mayli qo'shimchasi -gin o'tmishdagi an'anaga ko'ra ayrim hollarda -gil shaklida yoziladi: Dilrabo, hijronni mendan so'rmagil, gul o'zing bo'stonni mendan so'rmagil (H. Yahyoyev).

3) hozirgi o'zbek tilida chiqish kelishigi qo'shimchasi adabiy me'yorga muvofiq - dan shaklida yoziladi. Shu bilan birga she'riy asarlarda ba'zan o'tmishdagi shakliga muvofiq -din tarzida ham ishlatiladi:

Senga baxtdan taxt talarman,

Toledin boshingga toj,

Mulki husningga omonlik,

Toju taxtingga rivoj (E. Vohidov).

4) harakat nomi qo'shimchasi -moqning -mak shaklida yozilishi ham tarixiy an'anaga muvofiqdir:

Yuzlarimni ko'rmak istasang,

Osmondagi oyga boq,

Ko'zlarimni ko'rmak istasang,

Osmon to‘la yulduzga boq,
Gar o‘zimni ko‘rmak istasang,
Yovni engib zafar bilan qayt (Uyg‘un).

Bundan tashqari, -dir qo‘shimchasining ayrim hollarda -dur, -ga qo‘shimchasining -g‘a, -gani qo‘shimchasining -gali, -mi affiks yuklamasining -mu shakllarida yozilishi ham tarixiy-an‘anaviy tamoyilga ko‘radir: boshindadur, ko‘rinadur, yoshindadur, qoshindadur; qo‘lg‘a, yo‘lg‘a, g‘amg‘a; ko‘rgali, kuydirgali, o‘qigali, tergali; sog‘indingmu, keldingmu, qoldimu, yozdimu kabi.

Shuningdek, u, bu, shu, o‘sha olmoshlari eski o‘zbek tilida ul, bul, shul, o‘shal shakllarida ishlatilgan. Bu shakllar hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham uchrab turadi: O‘shal kun kelur (qo‘shiqdan). Tushda ko‘rdim ul parini ey sabo uyg‘otmagil (E. Vohidov).

Farqlash (differensiasiya) tamoyili. Bu tamoyilga ko‘ra og‘zaki tilda o‘xshash, yaqin talaffuz qilinuvchi bir qator so‘zlar yozuvda shaklan farqlangan holda yoziladi. Farqlashning bir necha ko‘rinishlari bor:

1) unli tovushlarga ko‘ra farqlash: jodi (asbob) – jodu (sehrli), oxir (so‘ng) – oxur (mollarning oziqlanadigan joyi), urish (fe‘l) – urush (jang, muhoraba), tursin (fe‘l) – Tursun (ism), kompaniya (ma‘lum davr) – kompaniya (sheriklar, shirkat);

2) undosh tovushlarga ko‘ra farqlash: abzal (ot asbobi) – afzal (yaxshi), ganj (xazina) – ganch (qurilish materiali), paqir (chelak) – faqir (kambag‘al, bechora), xush (yaxshi) – hush (sezgi, es), xol (yuzdagi xol) – hol (ahvol), pakt (siyosiy bitim) – fakt (dalil, isbot), zond (medisina asbobi) – zont (soyabon);

3) urg‘u vositasida farqlash: atlas (geografik kartalar yig‘indisi) – atlas (mato, material), yangi (sifat) – yangi (ravish), olim (ilmiy kishi) – Olim (ism), guli (meva guli) – Guli (ism), bosma (ot) – bosma (fe‘l), akademik (sifat) – akademik (ot), olma – olma, suzma – suzma, surma – surma, tugma – tugma, tortma – tortma kabilar;

4) unlining cho‘ziq-qisqaligi orqali, aniqrog‘i yozuvda tutuq belgisini qo‘llash orqali farqlash: davo – da‘vo, ayon – a‘yon, sava – sa‘va, alam – a‘lam, tana – ta‘na, sher – she‘r, tarif – ta‘rif, taqib – ta‘qib;

5) qo'shimchalarga ko'ra farqlash: bo'shlik (yuvoshlik, ojizlik) – bo'shliq (fazo), borlik (biror narsaga egalik, mavjudlik) – borliq (dunyo, koinot), otalik (otaga xos, otalik burchi) – otaliq (otaliqqa olish), tog'lik (tog'da yashaydigan kishi) – tog'liq (tog'li joy), oqlik (belgi oti) – oqliq (sut, qatiq), og'alik (akalik) – og'aliq (amal nomi). Misollarimizda -lik va -liq qo'shimchalari ma'noni farqlash uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, -li va -lik qo'shimchalari yordamida ham so'zlar yozuvda farq qilinadi: bolali (bolasi bor kishi)- bolalik (yoshlik, bolalik vaqti), belbog'li (belbog'i bor kishi) – belbog'lik (belbog' bo'ladigan mato), kiyimli (kiyimi bor kishi) – kiyimlik (kiyim bo'ladigan mato), tog'li (tog'li joy)- tog'lik (tog'likda yashovchi), onali (onasi bor) – onalik (onalik mehri) va boshqalar.

Etimologik yoki grafik tamoyil. Imloning etimologik yoki grafik tamoyili o'zlashma so'zlarning yozilishini qoidalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tamoyilga ko'ra o'zlashma so'zlar manba tilda qaysi shaklda yozilgan bo'lsa, qabul qiluvchi tilda ham shunday shaklda yoziladi. Bunda o'zlashma so'zning o'zi mansub bo'lgan tildagi grafik shakli o'zbek imlosida ham saqlanadi. Rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z va atamalarning aksariyati o'zbek tilida mana shu etimologik (grafik) tamoyil asosida yoziladi. Masalan, rus tilidagi ocherk, opera, tonna, nota, pochta, rota so'zlari o'zbek tilida o'cherk, o'pera, to'nna, no'ta, po'chta, ro'ta shaklida talaffuz qilinsa-da, rus tilidagi grafik shakli bo'yicha ocherk, opera, tonna, nota, pochta, rota tarzida yoziladi. SHuningdek kombayn, kompot, montaj, motosikl, motor, obzor so'zlarining urg'usiz bo'g'inidagi o unlisi a unlisi tarzida; rektor, direktor, prorektor, transformator, traktor kabi so'zlarning oxirgi bo'g'inidagi o unlisi i tarzida aytiladi, ammo bu so'zlarda grafik tomoyilga ko'ra yozuvda o unlisi saqlanadi.

Rus tilidan o'zlashgan bir qator so'zlar oxirida ikki undosh yonma-yon keladi. Bu so'zlar talaffuz qilinganda ikki undosh orasida qisqa i tovushi orttiriladi. Ammo yozuvda bu tovush hisobga olinmaydi va so'zlar etimologik tamoyil asosida ruscha shaklida yozila beradi: litr, semestr, keks, boks, bifshteks, gips, orkestr, filtr, punkt, teatr va boshqalar.

Vise-prezident, unter-ofiser, kilovatt-soat, eks-chempion, gramm-molekula, gramm-atom singari ruscha o'zlashmalar o'zbek tilida ruscha holatiga ko'ra chiziqcha bilan yoziladi.

Tilimizdagi ayrim arabcha so'zlar ham etimologik tamoyil asosida yoziladi. Chunonchi, muammo, maoniy, mutolaa, mudofaa, va'da, a'lo, she'r , ba'zan, ma'ruf, ta'lim, ta'zim, mash'al, qal'a, daf'a, shu'la, mo'jiza, da'vat, hay'at, ma'rifat, ma'shuq, me'mor, ta'sis, daf'atan, ra'y, ne'mat, iste'fo, mo'tadil singari so'zlar etimologik tamoyilga ko'ra arab tilidagi holaticha yoziladi. Tutuq belgisi so'zlar asli arabcha bo'lib, arab alifbosi amal qilgan davrda ayn bilan yozilgan va talaffuz qilingan. Hozirda bu so'zlar amaldagi imlo qoidalariga ko'ra «'» belgisi bilan yozilmoqda. Yangi alifbo bo'yicha bunday so'zlarda tutuq belgisidan foydalaniladigan bo'lindi.

Etimologik tamoyil imloning morfologik va tarixiy -an'anaviy tamoyillariga yaqin turadi. Ular o'rtasida qandaydir o'xshashlik, umumiylik alomatlari mavjud. Lekin bu tamoyillar o'zaro farqlarga ega.

Imloning yuqorida qayd etilgan besh tamoyili o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Imlo tamoyillari yozuvning nazariy asosidir. Shu bois imlo tamoyillarini o'rganish yozuv amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunini qachon qabul qildi?
 - A. 1993-yil 2-sentabrda
 - B. 1993-yil 6-may
 - S. 1992-yil 1-sentabrda
 - D. 1995-yil 24-avgustda
2. O'zbek xalqi o'z tarixi davomida qanday yozuvlardan foydalangan?
 - A. oromiy, arab, qoraqalpoq, tojik, rus-kirill, lotinlashtirilgan
 - B. mixxat, fors-tojik, qozoq, ingliz, rus, uyg'ur, lotin
 - S. so'g'd, o'rxun-enasoy, arab, lotinlashtirilgan, rus-kirill, lotin yozuvidan
 - D. to'g'ri javob yo'q

3. Qaysi adabiy uslub aralash uslub hisoblanadi?

A. so'zlashuv

B. badiiy

S. Publitsistik

D. rasmiy-idoraviy

4. Tafakkur nima?

A. faqat insonlarga xos

B. mehnat va nutq faoliyatiga bog'liq

S. nutq bilan bevosita bog'langan holda yuzaga chiqadi

D. barcha javoblar to'g'ri

5. Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim guhari sharifroq yo'q ondin. Ushbu bayt muallifi kim?

A. A.Navoiy

B. Z. Bobur

S. E.Vohidov

D. A.Oripov

6. Qaysi javobda noverbal muloqot xususiyatlari berilgan?

A. so'z muhim o'rin tutadi, so'z talaffuz qilinishi, ichki nutqda takrorlanishi, yozilishi, maxsus ishoralar yordamida ifodalanishi mumkin.

B. kishilarning his-hayajonlarini qamrab oladi, vositalari: imo-ishora, harakat, ohang, intonatsiya, pauza, kulgi, tabassum, ko'z qarash, ko'z yoshi va boshqalar

S. bildirishnomalar, eslatmalar, hisobotlar, moliyaviy hisobotlar, biznes xatlari va shu kabilarning barcha turlarini qamrab oladi

D. bunday muloqot mavjud emas

7. Nuqtalar o'rnini to'ldiring ... zohiriy(tashqi) olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in'ikosi.

A. til

B. nutq

S. tafakkur

D. so'z

8. Qaysi qatordagi harflar asl turkiy soʻzlar boshida kelmaydi

A. r, x, k, b,

B. l, q, s, t,

S. r, l, v, h,

D. ng, d, l, sh,

9. farzand, taxt, goʻsht, musht, daraxt, baxt, barg kabi oxirida qator undosh kelgan soʻzlar qaysi tilidan olingan?

A. arab

B. qozoq

S. lotin

D. fors-tojik

10. Oʻzbek tilida birinchi lugʻat yaratgan tilshunos olim va u yaratgan birinchi lugat kitob qaysi?

A. A.Navoiy, “Mezonul-avzon”

B. Mahmud Koshgʻariy, “Devoni lugʻotit-turk”

S. Bobur, “Boburnoma”

D. A.Fitrat, “Adabiyot qoidalar”

11. Ilm-fan, texnika, qishloq xoʻjaligi va sanʼatga oid tushunchalarning aniq nomini bildiruvchi bir maʼnoli soʻz va birikmalar ... deyiladi.

A. terminlar

B. iboralar

S. soʻzlar

D. matn

12. Koʻp maʼnoli soʻzlar deb nimaga aytiladi?

A. ilmiy atamalar, kasb-hunarga doir atamalar, yangi soʻzlar. B. soʻzlarning nutq jarayoniga bogʻliq boʻlmagan atash maʼnosi S. nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq maʼnoda qoʻllanuvchi soʻzlar D. toʻgʻri javob yoʻq.

Asosiy adabiyotlar

1.Baltayeva I.T. Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi.OʻRO va OʻMTV Roʻyxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) “Oʻzkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.

2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARI. (4 soat)

REJA:

1. Fonetik, leksik-semantik, orfografik va orfoepik me'yor.
2. Morfologik va sintaktik me'yorlar.
3. So'z yasash me'yorlari.
4. "Qadimgi Olimpiada o'yinlari" matni ustida ishlash.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Qadimgi Olimpiada o'yinlari. qadimgi yozuv an'anasi, fonetik me'yor, leksik-semantik me'yor, orfografik me'yor, orfoepik me'yor, morfologik me'yor, sintaktik me'yor, so'z yasash me'yori,

O'zbek tili uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida o'zbek xalqining birdan-bir aloqa vositasi bo'lib keldi. O'zbek milliy tili g'oyat murakkab rivojlanish va yangilanish yo'lini bosib o'tdi. Bu o'zgarish tabiiy suratda jamiyatda sodir bo'lgan qayta qurish jarayoni: iqtisodda, madaniy hayotda, fan va texnikada yuz bergan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq edi. O'zbek adabiy tili madaniy inqilobining haqiqiy quroliga - bilim olish, fan va texnikani egallaash quroliga aylanadi. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi bir qator xususiyatlarga ega. **Birinchidan, qadimgi yozuv an'anasining mavjud bo'lishi, ikkinchidan, o'zbek xalq tili tarkibidagi dialekt va shevalarning ko'pligi, turli-tumanligi, ularning bir-biridan kuchli farq qilishidir. Tabiiyki, adabiy tilning qonun-qoidalari, me'yorini** belgilashda bu ikki o'ziga xos va muhim xususiyatni, albatta, hisobga olish zarur. Aks holda adabiy til me'yorini belgilashga qaratilgan har qanday urinish kutilgan natijani bermaydi.

ESLAB QOLING !

Adabiy til **grammatik ko'rinishi va lug'at tarkibi** jihatidan me'yorlashtirilgan. Adabiy til me'yorga solinganligi bilan dialekt, jargonlardan farq qiladi. Adabiy til so'zlarni qonuniy ravishda bir xilda ishlatish, uslubda so'z ma'nosini leksik-semantik me'yorda foydalanish, morfologik tuzilishi va sintaktik qurilishi jihatidan to'g'ri ifodalashni talab qiladi. Bundan tashqari, u

nutq vositalarini qo'llash yo'llari va usullarini, stilistik me'yor asosida badiiy tasvir vositalarini yaratish usullari, orfoepik me'yor asosida talaffuz qilishni talab etadi.

Adabiy me'yor (norma) - ongli aralashish asosida qayta ishlangan, tanlangan, baholangan me'yordir. Shu sababli, ba'zan, adabiy tilni «sun'iy til», «yasama til», xalq tili va shevalami «tabiiy til» deb yuritadilar.

Adabiy tilning belgisi unda ma'lum qoidalarga asoslangan me'yorning bo'lishidir. Bu me'yor til birliklarini nutqda qanday qo'llashda bir xillikni belgilab beruvchi qoidalar yig'indisidir. Bunday me'yorlar har xil (leksik, fonetik, orfografik, grammatik, stilistik) bo'ladi.

Til taraqqiyoti jarayonida adabiy til me'yori ham o'zgaradi. Masalan, Alisher Navoiy davridan beri o'zbek tili, uning lug'at tarkibi va grammatik qurilishida katta o'zgarishlar yuz bergan. Bu narsa, albatta, adabiy til me'yoriga ta'sir etmasdan qolmaydi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan o'zgarishlar tilda o'z aksini topa boradi.

BILIB OLING !

Me'yor adabiy tilning yashash shartlaridan biridir. O'zbek adabiy tilining quyidagi me'yori (normasi) mavjud:

1. Fonetik me'yor. Bunga aktseptologik (urg'uni to'g'ri ishlatishi), grafik me'yorlar kiradi. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun 6 unli va 25 undosh tovush me'yor sanaladi. Ular o'zbek tilida so'zlashuvchilarning talaffuz va yozuv ehtiyojini qondirib kelayotir,

2. Orfoepik (talaffuz) me'yor. Orfoepiya adabiy tilda so'zlovchilarning barchasi uchun yagona talaffuz qoidalarini belgilaydi. Bu jihatdan u barcha uchun yagona bo'lgan imloviy qoidalarni eslatadi.

Adabiy talaffuzning yuzaga kelishi adabiy til og'zaki shaklining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir.

Adabiy til og'zaki shaklning paydo bo'lishi, u bilan bog'liq holda adabiy talaffuz me'yorlarining yuzaga kelishi adabiy tilning milliy til bo'lib shakllana boshlashi davriga to'g'ri keladi.

ESLAB QOLING !

3.Orfografik me'yor. Orfografik me'yor adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy omildir. Orfografik me'yor til vakillari tomonidan ongli ravishda, kelishilgan holda yuzaga keltiriladi. Orfografik me'yoming amal qilishi maxsus imlo qoidalariga asosida amalga oshiriladi. Ma'lum me'yor sifatida tavsiya etilgan imlo qoidalariga amal qilish millat vakillari uchun majburiydir.

1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilinishi mustaqil

Vatanimizning ma'naviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o'zgarishlar asosida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar" ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi.

4. Grammatik me'yor. O'zbek adabiy tilining grammatik me'yorlariga so'z yasalishi, morfemalar, so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gap qurilishi me'yorlari kiradi.

O'zbek adabiy tilida turlovchi, tuslovchi qo'shimchalarning va so'z yasovchi qo'shimchalarning eng ma'qul shakllari morfologik me'yor sifatida belgilangan. Nutqda grammatik me'yor talabiga qat'iy rioya qilish lozim.

5. Leksik me'yor. Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar, eng avvalo, leksikada o'z aksini topadi. Shuning uchun ham leksikaning boyib borishi tildagi boshqa birliklarga qaraganda bir muncha faoldir. Adabiy tilning leksik jihatdan boyishi va uning leksik me'yorlarini belgilashda o'zbek adabiy tilining ichki va tashqi omillari muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilining leksik me'yorlarini belgilashda o'zbek tilini tashkil etgan ichki omil- dialektlarning ma'lum o'ri bor.

Adabiy til ular orasidan ko'pchilik shevalar uchun shakl va ma'nosi jihatidan umumiy bo'lganlarini tanlab oladi va uni o'z leksik tarkibiga kiritadi.

6. Semantik - stilistik me'yor. Tildagi har bir so'z bir yoki bir necha ma'noda ishlatiladi.

Tilda so'zning bosh va ko'chma ma'nolari leksik ma'no sifatida narsa va hodisalarni atashga xizmat qiladi. So'zning leksik ma'nosini bilish va uni to'g'ri qo'llash til savodxonligini asosini tashkil qiladi. So'zlar nutq jarayonida leksik ma'nodan tashqari, so'zlovchining atalayotgan narsa-hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi qo'shimcha ma'noga - uslubiy bo'yoqqa ham ega bo'ladi. Uslubiy bo'yoq leksik ma'noga tayangan holda uni yanada boyitadi, badiiy, obrazli so'zga aylantiradi.

Savollarga javob bering?

1. Leksikologiya nimani o'rganadi?
2. Leksikadagi so'zlarning o'z yoki o'zlashgan so'z ekanligi aniqlang?
3. Adabiy tili me'yorlariga ta'rif bering?
4. Fonetika nima?
5. Leksik-semantik me'yorlarga ta'rif bering?
6. Orfografik nima? Unga ta'rif bering?
7. Orfoepik me'yorlarga ta'rif bering?
8. Morfologiyaga ta'rif bering va misol keltiring.
9. Semantik me'yorlarga ta'rif bering? So'zning semantik qurilishi haqida gapiring?

10. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatlarini ifodalanishi deganda nima nazarda tutiladi?

1. Matnni oʻqing, adabiy til meʼyorlariga qanday amal qilingani haqida ogʻzaki qayta hikoya qilib berishga tayyorlaning. Matnda ajratib koʻrsatilgan birikmalarni lugʻatlardan foydalangan holda maʼnosini izohlang.

DUNYONI ZABT ETGAN BAYRAM

Insoniyat tarixida millatlar va elarlarni birlashtiruvchi koʻplab tadbir va bayramlar mavjud. Ammo qamrovining kengligi, dunyo ahlini oʻziga jalb eta olishi, nufuzi nuqtayi nazaridan olinadigan boʻlsa, Olimpiada oʻyinlariga teng keladigan xalqaro anjuman yoʻqligi shubhasiz.

Biz har safar Olimpiada oʻyinlarini chinakam bayram sifatida intiqlik bilan kutamiz, zoʻr hayajon ila kuzatamiz. Ushbu yirik sport anjumaniga dunyoning barcha mamlakatlarida puxta hozirlik koʻriladi. Olimpiadalarning tantanali ochilish va yopilish marosimlarini kuzatish uchun teleekranlar qarshisida milliardlab tomoshabin jam boʻladi. Ikki haftadan koʻproq vaqt mobaynida dunyoning deyarli barcha ommaviy axborot vositalarida yangiliklar aynan oʻyinlarda qayd etilayotgan natijalar va diqqatga sazovor voqea-hodisalar bilan boshlanadi. Olimpiadalar xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik rishtalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib, maʼnaviy va jismoniy kamolot namoyishiga aylanadi.

Ona-Vatanimiz istiqloлга erishgan dastlabki yillardan Oʻzbekiston Xalqaro olimpiada harakatining munosib ishtirokchisiga aylanib, uning nafaqat yurtimizda, balki butun jahonda rivoj topishiga munosib hissa qoʻshib kelmoqda. Eʼtiborlisi, bu borada amalga oshirilayotgan saʼy-harakatlarimiz dunyo sport jamoatchiligi tomonidan yuksak baholanmoqda.

Bugun Muhammadqodir Abdullayev, Artur Taymazov, Oksana Chusovitina, Lina Cheryazova, Hasanboy Doʻsmatov, Fazliddin Gʻoyibnazarov, Shahobiddin Zoirov, Ruslan Nuriddinov kabi Olimp choʻqqisini zabt etgan sportchilarimizni dunyo ahli yaxshi biladi. Ular istiqlolimiz timsollariga aylangan desak, also mubolagʻa boʻlmaydi.

(Mirabror Usmonov. Oʻzbekiston Milliy Olimpiya qoʻmitasi faxriy prezidenti)

1. Ushbu rasmni olimpiyada oʻyinlariga qanday aloqasi bor deb oʻylaysiz? Kichik matn tuzing.



2. Quyidagi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. Orfografik, leksik, semantik - stilistik meʼyorlarga amal qiling.

Sport, olimpiada, musobaqa, kuch, meʼyor, kurashmoq, marra, oila, doim, daraxt, konfederatsiya, assotsatsiya, bilim, tafakkur, yangi, universitet, roʻbaroʻ, darbadar, qadam-baqadam, izma-iz, murabbiy, maydon, gravitatsiya

3. Quyidagi soʻzlarni lotin alifbosi imlosiga muvofiq yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Чалқанча сузмоқ, делегация, чемпион унвони соҳиби, жюри, дзюдо, думалаб сакраш, эшкак эшиш, эгилмоқ, парашют, қия, имтиёзли, пеналти, пиёда, химоя, мўятадил, мўъжиза, қиялик, таъйинламоқ, разряд, раунд.

4. Nuqtalar oʻrniga mos harflarni qoʻying va orfografik, grammatik, leksik, semantik meʼyorlarga diqqat qiling. Hikmatlarga hayotdan misollar keltiring.

1. Darvinga eʼtiroz. Darwin taʼlimoti notoʻgʻri. Odam maymundan emas, maymun odamdand tarqagan. Oyo...i yerdan uz...lmaganlar odam boʻlib qolgan. Oyo...i yerdan uz...lganlar esa maymun boʻlib daraxtga chiqib ketgan... Bu jar...yon h...mon davom etmoqda...

2. Haqiqat. Shu qadar shirinki, t...tib koʻrging keladi. Shu qadar ach...iqki, tilingni kuyd...radi!

3. Xavfli odam. Yaxshiga...am, yomonga...am birdek yaxshi koʻrinishga ur...nadigan odam eng xa...fli odamdirl!

4. Ayol qalbi. Ayol qalbi teskari magnitga oʻ...shaydi: yaqinlashsang - uzoqlashadi, uzoqlashsang yaqinlashadi.

5. Kulgu va yigʻi. Kul...shni bilmaydigan odam – ba...tsiz odam. Yigʻlashni bilmaydigan odam esa ikki ...issa ba...tsiz!

6. Ba...tli va ba...tsiz Ba...tli odam ...udbin boʻladi: ba...tsizlarga achinmaydi. Ba...tsiz odam ham ...udbin boʻladi: ba...tlilarga gʻay...rligi keladi.

7. Daʼvo. Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha koʻp da...vo qilsa, shuncha nodon boʻladi!


8. Rost va yolgʻon. Haqiqat...an qoʻrq...an odam yolgʻonning panasiga berkinadi.

9. Zulm. Odamlarni qo‘rqib y...shashga majbur qiladigan jami...at - eng om...nat jami...atdir.

10. Ona tili. Qancha ko‘p tilni bilsangiz, shuncha ya...shi. Biroq odam ona tilida tafak...ur qiladi, ona tilida tush ko‘radi, ona tilida yig‘laydi... o‘lim oldida onasini ona tilida yo‘qlaydi...

(O‘.Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)

5. Klaster bo‘yicha matn tuzing. O‘zbek adabiy tili me‘yorlariga amal qiling.



6. Quyida taniqli o‘zbek sportchisi haqida berilgan ma’lumotlarni o‘qing va o‘z so‘zingiz bilan qayta so‘zlab bering.

MUHAMMADQODIR ABDULLAYEV

O‘zbek boksining yorqin namoyandalaridan biri, 2000-yildagi Sidney olimpiadasi chempioni.

1973-yil 15-noyabr kuni Andijonda tug‘ilgan.

U 1997-yili Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida o‘tkazilgan Osiyo chempionatini g‘alaba bilan yakunladi.

1998-yil Xitoyning Chong Ging shahrida o‘tkazilgan jahon Kubogida shohsupaning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi. O‘sha yilning o‘zida Tailand poytaxti Bangkokda o‘tkazilgan XXIII Osiyo o‘yinlarida ham oltin medalni qo‘lga kiritgan.

1999-yili AQSHning Xyuston shahrida jahon chempioni nomiga sazovor bo‘ldi. Shu yili Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida kuchli ekanligi yana bir karra isbotlandi.

Muhammadqodir Abdullayev Avstraliyadagi Olimpiya o‘yinlarida barcha raqiblarini yengib, mustaqillik yillarida yangi olimpiadalardagi dastlabki champion sifatida O‘zbekiston sporti tarixida abadiy qoladigan bo‘ldi.

Boks faxriysi yurtimizda sportni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. 2013-yildan boshlab O‘zbekiston Professional boks federatsiyasi raisining birinchi o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

1999 va 2000-yillarda O‘zbekistonning eng yaxshi sportchisi deb topilgan Muhammadqodir Abdullayev “El-yurt hurmati ordeni”, “Shuhrat” medali,

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi, “O‘zbekiston iftixori “ faxriy unvonlari bilan taqdirlanganlar.

7.Matnni diqqat bilan o‘qing va matndan keyingi savollarga javob bering?
Matnda adabiy til (fonetik, orfoepik (talaffuz), orfografik, grammatik, leksik, semantik - stilistik) me'yorlariga qanday amal qilinganini tushuntiring.

QADIMGI OLIMPIYADA O‘YINLARI

Insonning o‘zi yaratib, o‘zi lol qolgan kashfiyotlar bisyor.Asrlar osha do‘stlik, halollik,beg‘arazlik ruhini saqlab kelayotgan Olimpiada o‘yinlarini o‘tkazish g‘oyasi ham inson tafakkuri mahsulidir.

Tarixdan yaxshi ma’lumki,Olimpiada o‘yinlari dastavvaddl Qadimgi Yunonistonda diniy va sport bayrami sifatida o‘tkazilgan.Ushbu o‘yinlarning paydo bo‘lishi borasidagi aniq ashyoviy dalil va ma’lumotlar topilmaganligiga qaramay,ushbu voqealar rivoyatlar orqali bizgacha yetib kelgan. Bayramlar o‘tkazilishi haqidagi eng qadimgi hujjatlarda bu tadbir miloddan avvalgi 776-yilda Zevsning o‘g‘li Gerakl tomonidan tashkil etilganligi haqidagi qaydlar bor.Olimpiya o‘yinlari Geraklning eng shavkatli g‘alabalaridan biriga bag‘ishlangan. Gerakl yugurish masofasini belgilab bergan va u 600 oyoq qadamiga (192 metr 27 sm.)to‘g‘ri kelgan. Qadimgi Gretsiyada bu o‘lchov “stadiy” deb yuritilgan, shundan “stadion” so‘zi kelib chiqqan. Ko‘p yillar davomida yugurish bo‘yicha g‘olib aynan shu masofada aniqlangan.

Biroq o‘yinlar undan ham avval o‘tkazilgani xususida ma’lumotlar mavjud.E’tiborlisi,o‘yinlarni o‘tkazish davrida davlatlar o‘rtasidagi nizolarga barham berilib,aksariyat hollarda o‘zaro urushlar to‘xtatilgan.Afsuski,bu tamoyilga hamisha ham rioya qilinavermagan.

Umumyunion bayrami va musobaqalari ikki g‘ildirakli aravada tez yurish, beshkurash, boks musobaqalari hamda san’at konkursidan iborat bo‘lib, miloddan avvalgi 776-yildan boshlab milodiy 394-yilgacha har to‘rt yilda Olimpiya shahrida Zevs sharafiga bag‘ishlab o‘tkazilgan.Ana shu to‘rt yillik davr Olimpiya deb atalgan.Qadimgi Olimpiya o‘zining go‘zal tabiati, maftunkorligi bilan, shuningdek, muhtasham ibodatxonalari va sport maydonlari bilan ajralib turgan.

Qadimgi Olimpiyada o‘yinlarida Gretsiyada yashovchi barcha ozod erkaklar qatnashish huquqiga ega bo‘lgan.Megardan general Orsip,cho‘pon Polimnist,Rodos orolidan qirol oilasi a‘zosi Diagor,Makedoniya qirol Aleksandr I,faylasuflar Demokrit,Platon,Suqrot va yana bir qator o‘z davrining buyuk shoir va yozuvchilari,olimu-donishmandlar ham qadimgi Olimpiya o‘yinlari ishtirokchilari bo‘lishgan.

Dastavval Olimpiya o‘yinlari bir kun davomida o‘tkazilgan.Miloddan avvalgi 684-yilda musobaqalar uch kun davom etgan.Miloddan avvalgi beshinchi asrda esa besh kungacha uzaytirilgan.

Tarixdan ma’lumki,Olimpiya o‘yinlarining vatani Olimp shahri hisoblanadi.U Peloponnes yarim orolining G‘arbiy qismida joylashgan.Olimpiya o‘yinlari mash’alasi Alfey daryosi vodiysidagi Kronos tog‘ida yoqiladi.Mash’ala estafetasi shu yerdan o‘yinlar poytaxtigacha davom etadi.

Antik davr Olimpiya o'yinlari dasturiga yakkakurashlarning uch turi – boks, kurash va pankration, shuningdek, yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va bosqan uloqtirish hamda chavandoz musobaqalari kiritilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Olimpiyada o'yinlari tarixi haqida qisqacha ma'lumot bering?
2. Qadimgi Olimpiya o'yinlarida qanday sport atamalari ishlatilgan?
3. Qadimgi Olimpiya sport musobaqalari nomini biasizmi?
4. Antik davr Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini ayting?
5. Zamonaviy Olimpiyada o'yinlaridan qadimgi Olimpiyada o'yinlarining farqlari haqida gapiring?
6. Olimpiyada o'yinlarida qachondan boshlab ayollar ishtirok qila boshlagan?
7. "Zamonaviy Olimpiyada o'yinlari" mavzusida matn tuzing.

8. "Yozgi olimpiada o'yinlari" va "Qishki olimpiada o'yinlari" shaklida sport turlarini ikki ustun qilib ajratib yozing:

Biatlon, figurali uchish, badminton, boks, short-trek, basketbol, konkida tez yugurish, beysbol, ot sporti, yengil atletika, softbol, regbi, tog' chang'isi, snoubord, stol tennis, yelkanli sport, bobsley, kamondan otish, tennis, triatlon, og'ir atletika, xokkey, qilichbozlik, golf, trampoline, skeleton, tramlindan sakrash, merganlik, zamonaviy beshkurash, futbol, txekvondo, og'ir atletika, chang'ida ikkikurash, voleybol, suv polosi, suzish, trek, BMX, erkin kurash, dzyudo, kyorling, chana sporti, suzish marafoni.

9. Matnni o'qing va o'z bilimlaringiz asosida to'ldiring

Parij olimpiadasi

1900 yili Parijda o'tkazilgan Olimpia o'yinlarida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan sportchilar oltin medal o'rniga suratlar bilan taqdirlangan edi. O'sha paytlar bunday sovrin juda qimmatbaho sanalgan.

O'zbek tilida so'z yasalishi

O'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlar **tub va yasama** so'zlarga bo'linadi. Masalan: talab -tub so'z, talabchan - yasama so'z, hujum – tub so'z, hujumchi esa yasama so'z; yakka, kurash, ko'p so'zlari alohida-alohida olinganda tub so'zlar, ammo yakkakurash, ko'pkurash – yasama so'z; to'siq – tub so'z, ammo to'siqma-to'siq yasama so'z; ikki, kurash, imtiyoz, poyga tub so'zlar, ikkikurash, ko'pkurash, imtiyozli, poygachi yasama so'zlar hisoblanadi.

So'z yasovchi qo'shimchasi (affiksi) bo'lmagan so'zlar **tub** so'z deyiladi.

Ma'lum bir so'z negizida ma'no jihatidan undan farqlaydigan yangi so'z hosil qilish **so'z yasash** deyiladi. Qiyoslang: qattiq – qattiqqo'l, tajriba–tajribali, to's – to'siq, tez– tezlik, suya-suyanch, sog'-sog'lomlashtirish.

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning asosan ikki usuli mavjud: **qo'shimchalar bilan (affiksatsiya) so'z yasash (morfologik)** va **kompozitsiya (sintaktik)** usuli.

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish - **qo'shimchalar bilan (affiksatsiya)** so'z yasashdir. Masalan: rulli qayiq, qutqaruv qayig'i, imtiyozli o'yinchi kabi birikmalardagi rulli, qutqaruv, imtiyozli, olishuv yasama so'zlar bo'lib, ular **rul o'zagiga -li, qutqar o'zagiga -**

uv,imtiyoz o‘zagiga -li, ol o‘zagiga -ish-uv qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasalgan so‘zlardir.

Ikki va undan ortiq so‘z shakllari qo‘shilib, bir so‘zga aylansa, bu kompozitsiya usuli bilan so‘z yasash deyiladi. Masalan: *futbol, gandbol, ko‘zoynak, belbog‘, oshqozon, beshkurash, ko‘pkurash, yarimhimoyachi, bir yuz o‘n, langarcho‘p, ahd qilmoq, bir oz va boshqalar.*

Juft qo‘llanadigan ayrim so‘zlar ham yasama so‘z sanaladi, masalan: *o‘yindan-o‘yinga, zo‘r-bazo‘r, ketma-ket* kabi

10. Quyidagi yasama so‘zlarni daftaringizga ikki ustunga ajratib yozing va ma’nosini izohlang.

Hujumchi, gandbol, chidamli, poygachi, charchoq, Butunjahon, himoyachi, ikkikurash, jamoatchi, zamonaviy, langarcho‘p, e’tiborli, avtosport, mototsiklchi, velopoyga, yarimfinal, aviamodelchi, yarimhimoyachi, o‘n besh, darvozabon, chempionlik, davolovchi.

Affiksatsiya usulda yasalgan so‘zlar Sintaktik usulda yasalgan so‘zlar

11. Rasmda aks etgan tasvirni yozuvda ifodalang. Qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldiring.



(Eslatma: Har ikki yilda Olimpiya shahrida an'anaviy grek libosiga burkangan ayollar Olimpiya o‘yinlari mash'alasini yoqadilar. Mash'ala maxsus optik qurilmalar yordamida quyosh nurlari yordamida yoqiladi. Shundan so‘ng, Olimpiada ramzi bo‘lgan olov Gretsiyadan mezbon davlat tomon uzoq yo‘lga chiqadi).

12. Uyga vazifa . Lug‘at bilan ishlash. Berilgan so‘zlarni ular anglatgan ma’no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Federatsiya** [lat] - Alohida sport turlarining birlashuvlari asosida tuzilgan yaxlit sport turi, sport turlarining birlashmasi: futbol federatsiyasi, xokkey federatsiyasi va sh.k

2. **Figurali uchish** - Konkida figurali (shakldor, murakkab shaklli) uchmoq.

3. **Final** [lat] - Sport musobaqasining g'olib aniqlanadigan yakunlovchi qismi. Shaxmat chempionatining finali; finalga chiqmoq.

4. **Fitnes** - Yaxshi jismoniy ko'rinish.

5. **Futbol o'yini** - Futbol inglizcha so'z bo'lib, "fut" - "oyoq", "bol" - "to'p" so'zlaridan olingan bo'lib, ikki jamoaning qarshi tomon darvozasiga oyoq yoki bosh zarbi bilan ko'proq to'p kiritish maqsadida o'tkaziladigan sport o'yini.

6. **Gol urmoq** - Futbol o'yinida maydonning raqib yuborgan to'pni kiritmaslik uchun himoya qilinadigan chekli qismi - darvoza uchun to'qilgan narsa (buyum); qarshi komanda darvozasiga to'pni urib kiritib olingan ochko.

7. **Gandbol** - Qo'l to'pi o'yini. Bu o'yinni bundan yuz yillar muqaddam daniyalik o'qituvchi Xolger Nilson yangi sport o'yini "Xandboll"ni o'ylab topgan. Maydonning hajmi 20-40 m ga teng. Darvozalarning oldida ulardan 6 m masofada yarim doira shaklida chiziq o'tkaziladi. Bu chiziq darvoza maydonchasini ajratadi. Uning tashqarisiga 6 metrlik chiziqdan 3 m masofada 9 metrlik chiziq o'tkaziladi. Bu chiziqdan jarima to'plari otiladi. O'yinda har bir jamoadan 7 kishi (darvozabon bilan birga) qatnashadilar. Raqib darvozasiga ko'proq to'p kiritgan jamoa g'olib jamoa uchrashuvda g'alaba qozonadi. O'yin 2 bo'limda (har biri 30 daq.) davom etadi. Bo'limlar orasida 10 daq. tanaffus beriladi.

8.Getri (futbol) - To'piqdan boldirgacha berkitib turadigan issiq oyoq kiyimi yoki qo'nj; charm getr.

9.Geym - Geym, qism. Geym ochkolar soni bilan belgilanadi. Ba'zi bir sport o'yinlarida, masalan, tennisda uchrashuvning bir qismi.

10.Gimnastika [grek] - Organizmning umumiy rivojiga va sog'liqni mustahkamlashga yordam beradigan jismoniy mashqlar tizimi. Davolash va ishlab chiqarish gimnastika mashqlari bor. Sportning murakkab va boshqa ba'zi mashqlarini o'z ichiga olgan turi, sport anjomlari yoki ularsiz bajariladigan mashqlar yig'indisi. Nafis gimnastika. Bunda gimnastika va raqs mashqlari - rezina koptok, bulava, chambaraklar bilan musiqa jo'rligida bajariladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1.Tamoshabinlar uchun birinchi marta Olimpiyada o'yinlari qayerda televideniya orqali namoyish qilingan ?

2.Xitoy terma jamoasi 1984 Pekindagi o'yinlarda nechta medalga egalik qilgan va nechtasi oltin medal bo'lgan ?

3.Ilkl bor 1900 - yili qayerda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlariga nozik hilqat vakillari – ayollar ishtirok qilishgan?

4. Olimpiada bayrog'idagi halqalar ma'nosi haqida ma'lumot bering?

5.1896 yili qayerda o'tkazilgan birinchi zamonaviy olimpiada o'yinlarida

birinchi o‘rinni egallagan atletlar lavr bargi va kumush medallar bilan taqdirlanganlar

6. Adabiy til va uning og‘zaki va yozma shakli haqida gapiring.
7. Me‘yor (norma) tushunchasiga ta’rif bering.
8. Adabiy til me‘yorlarini til sathlari bo‘yicha izohlang.
9. Adabiy tilning nutq madaniyati bilan qanday bog‘liqligi bor?
10. Imloviy me‘yor va orfografik me‘yor buzilishiga misol ayting
11. Leksik-semantik me‘yorning buzilishiga misol ayting.
12. Grammatik me‘yorning buzilishining nutq madaniyatiga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?

MAVZU BO‘YICHA TESTLAR

1. Qadimgi Olimpiada o‘yinlari dastlab qayerda tashkil etilgan?

- E. Janubiy Yunonistonning Olimpia shahrida
- F. Gretsiyadagi Elis Koroibos shahrida
- G. Italiyaning Milan va Kortinashahrlarida
- H. Shvesiyaning Stokgolm shahari

2. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida qanday sport musobaqalari o‘tkazilgan?

- E. Kurash, yugurish, tosh otish
- F. Yugurish, uzoqlikka sakrash, boks
- G. Ehgil atletika, boks, yugurish
- H. Tosh otis, kurash, boks

3. Qadimgi Olimpiada o‘yinlari dastlab har necha yilda tashkil etilgan?

- E. Har to‘rt yilda
- F. Musabiqachilarining tashkil etishiga qarab har yili
- G. Har ikki yilda bir marotaba
- H. Ishtirokchilarni yig‘ilishiga ko‘ra uch yilda

4. Adabiy tilning me'yorini belgilashda, bu ikki o‘ziga xos va muhim, albatta, hisobga olish zarur.

- E) qonun-qoidalari
- F) tilning madaniylik darajasini
- B) talaffuz va tovush
- G) til va nutqni

5. Adabiy me'yor deb nimaga aytiladi?

- A) Ongli aralashish orqasida qayta ishlangan, tanlangan, baholangan me'yoridir.
- B) Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun 6 unli va 24 undosh tovush me'yor sanaladi
- S) Til, uning amaliy ko‘rinishi bo‘lgan nutq tabiiy holatda talaffuz qilinuvchi tovushga asoslanuvchi hodisadir.
- D) Adabiy tilning belgisi unda ma'lum qoidalarga asoslangan qanday me'yorlarning bo‘lishi
- E) leksik, fonetik, orfografik, grammatik, stilistik

- F) nutqiy, fonetik, orfografik, grammatik, leksik
- G) fonetik, orfografik, grammatik, stilistik, nutqiy
- H) badiiy, ijodiy, nutqiy, leksik, fonetik

7. Fonetik m'e'yor... .

- A. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun 6 unli va 24 undosh tovush me'yor sanaladi
- B. Hozirgi o'zbek adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy omildir
- C. Til, uning amaliy ko'rinishi bo'lgan nutq tabiiy holatda talaffuz qilinuvchi tovushga asoslanuvchi hodisadir
- D. Barcha javoblar to'g'ri

8. Adabiy til doirasida amal qiluvchi tabiiy me'yorlar va muayyan me'yorlarga solingan talaffuz qoidalari yig'indisi - adabiy talaffuz yoki boshqacha aytganda, qaysi me'yorlar deb yuritiladi.

- E. Orfoepik
- F. **Fonetik**
- G. Adabiy
- H. Grammatik

9. Adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi, til vakillari tomonidan ongli ravishda, kelishilgan holda yuzaga keltirilib, amal qilishi maxsus imlo qoidalari asosida amalga oshiriladigan me'yor bu

- E) Orfografik me'yor.
- F) Orfoepik me'yor.
- G) Adabiy me'yor.
- H) Grammatik me'yor.

10. Adabiy tilning stilistik me'yori

- E) til birliklarining nutqda sharoit, ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi.
- F) Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar eng avvalo stilistikda o'z aksini topadi
- G) biror so'zning o'zaro birikishini yoki birika olmasligini sezamiz
- H) adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy omildi

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma).

“O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.

6.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Ish yuritish.(amaliy qo‘llanma)”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

O‘ZBEK ADABIY TILINING O‘ZIGA XOSLIGI.

(2 soat)

REJA:

- 1.Adabiy tiil va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
- 2.Adabiy til shakllari
- 3.Adabiy til va sheva munosabatlari.
- 4.“**Iqtidor va mehnat**” matni ustida ishlash..

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Adabiy til, adabiy til shakllari,lahja, qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi, qipchoq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi.



Adabiy til – har qaysi xalq va millat ma’naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o’zlikni anglashda muhim vosita bo’ladigan buyuk ijtimoiy hodisa. **Adabiy til** - umumxalq tilining sayqallangan, fonetik va grammatik jihatdan shu xalq shevalaridagi eng yaxshi xususiyatlarni o’zida mujassam etgan, hamma uchun tushunarli va ma’qul me’yorga solingan umummilliy muloqot vositasidir. Tarix va taraqqiyot jarayonida adabiy til o’zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi. Masalan, Alisher Navoiy davridagi o’zbek adabiy tili hozirgi zamon o’zbek adabiy tilidan farq qiladi. Istiqlol davrida adabiy tilning ma’naviy hayotimizdagi o’rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, 1989 yil 21-oktabrda o’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi adabiy tilimiz rivojida mutlaqo yangi sahifa bo’ldi. Hozirgi davrda o’zbek adabiy tili milliy madaniyatimizning haqiqiy ko’zgusiga aylanib bormoqda.

Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me’yorlashirilgan, mazkur tilda so’zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. "Qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til o’zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqqa ham adabiy til turli davrda turlicha bo’lgan (mas, qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o’zbek adabiy tili). Ba’zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o’tagan. Mac, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba’zi

Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqa adabiy til bo'lgan. Adabiy tilning ikki – **og'zaki ham yozma** ko'rinishi mavjud. Har qanday adabiy til **xalq og'zaki** nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi.

Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba'zan uni turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma adabiy til va og'zaki adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan adabiy tilni ayni bir deb bo'lmaydi. Adabiy til o'z mezonlarini egallagan shu tilda so'zlashuvchilar barchasi uchun bir. U ham yozma, ham og'zaki shakllarda amalda qo'llanadi. Badiiy asar (yozuvchi) tili ham adabiy til me'yorlariga bo'ysunsada, ko'plab xususiylik hamda umume'tirof etmagan jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Turli xalqlarda hamma davrlarda ham adabiy til bilan badiiy asar tili bir taxlitda bo'lmagan. Adabiy til bilan milliy til o'rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo'lgan xalq millat bo'lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o'taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi.

Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi (qarang Shevalar). Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtai nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (mas, Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog'lanadi. Ammo bu bog'lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatlarining o'zi adabiy til ko'rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo'ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma'lum shaklda birikishi va vazifasining o'ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) o'zbek Adabiy til rivojini ta'minlovchi muhim voqea bo'ldi. O'zbek adabiy tili turli xalqlar adabiy tili rivojlanish tajribasi asosida yanada takomillashib bormoqda.

Ma'lumki, **nutq og'zaki va yozma** ko'rinishga ega. Og'zaki nutq gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo'lib, bu jarayon nutq tugashi bilan tugaydi. Og'zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi va tahrirga ega bo'lmaydi. Og'zaki nutqda fikrni aytganlarini xotirada ushlab turgan holda rivojlantirishga to'g'ri keladi. Og'zaki nutq so'z boyligi jihatdan yozma nutqdan anchagina kambag'al bo'ladi. Unda bir xil so'zlar, bir xil shakllar takror qo'llaniladi. Bu holat so'zlarni tanlash bilan bog'liq hisoblanadi. So'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam, ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralar asosida tinglovchiga yetib boradi. Dalillar keltirish va muallifning umumlashtira olish qobiliyati nutqni mazmundorligini kafolatlaydi. Keltirayotgan ma'lumot hayotiy va dolzarb bo'lishi kerak. Fonetik va leksik vositalardan to'g'ri foydalanish esa ifodaligini oshiradi. Bu turdagi nutqning o'ziga xos xususiyatlardan yana biri shuki, nutqning biron bir nuqtasiga qaytib bo'lmaydi. Shu bilan birga mantiqiy o'ylab gapirish ham maqsadga muvofiq.

Og'zaki nutqni tayyorlash ham mumkin va aksincha tayyorlanmasdan so'zlash ham mumkin. Tayyorlangan og'zaki nutq o'ychanlik, aniqrog'i tarkibi bilan ajralib turadi. Ammo shu bilan birga odatdagidek nutqni to'g'ridan to'g'ri aloqa o'rnatishga intiladi. Tayyorlanmagan og'zaki nutq bunda juda ko'p pauzalar bo'ladi. Lekin bu pauzalar o'ylab gapirishlik imkonini beradi.

Yozma nutq - bu yozuvda ishlatiladigan harflar bu nutq tovushlaridan iborat. Matnda ishlatiladigan tinish belgilari nutqqa a'zo bo'lishga xizmat qiladi: nuqta, vergul, o'zaki nutqning intanatsion pauzalariga mos keladi. Bu harflar yozuvning moddiy shakli ekanligini anglatadi. Yozma nutq og'zaki nutqdan quyidagilar bilan ajralib turadi:

- nutqni yozayotgan muallif vaqt jihatdan bimalol fikrlash imkoniyatiga ega.
- u o'z nutqni va butun nutqni ham tahlil qilish, matn uchun mos bo'lgan fikrni tanlash xususiyatiga ega.
- yozma nutq og'zaki nutqdan ravon hisoblanadi.

Adabiy tilda uning har ikkala shakli uchun xos bo'lgan betaraf va uslublararo ifoda vositalari bilan bir qatorda adabiy tilning bir shakli og'zaki yoki yozma shakli uchun xos til unsurlari, vositalari ham bo'ladi.

Adabiy tilda sintaktik qurilish jihatdan ham ikki shakllar xos xususiyatlarni ko'rish mumkin. Ko'pincha sodda gaplarni, ayniqsa, to'liqsiz gaplarning qisman bog'langan qo'shma gaplarni ishlatish adabiy tilning og'zaki shakli uchun xos bo'ladi.

Yozma adabiy tilning sintaktik qurilishi esa o'zining ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Unda ergash gapli qo'shma gaplar, kirish so'z va iboralar murakkab qurilishli sodda gaplar, ajratilgan va uyushiq bo'laklar, murakkab qo'shma gaplar ancha keng ishlatiladi.

Adabiy tilning **og'zaki shakli ma'ruza va suhbatlarda, yozma shakli esa fan, texnika va asarlarida, rasmiy ish hujatlari, nashriyot va matbuot sohalarida** ishlatiladi. Lekin bular o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Ma'ruzalar, har xil chiqishlar o'z xususiyatlari bilan yozma adabiy tilga yaqin turadi. Shuningdek, yozma adabiy tilda ayniqsa, badiiy asarlarda so'zlashuv nutqiga xos so'z va iboralar ham qo'llaniladi.

O'zbek tili – **turkiy** tillarning qarluq guruhiga mansub tillardan; yangi uyg'ur tili bilan birgalikda qarluq-xorazm guruhchasini tashkil etadi. O'zbek tili asosan, O'zbekistonda, shuningdek, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, AQSH, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.

O'zbek **tili qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil kabi** 3 ta til birligi sifatida shakllanib, murakkab dialektal tarkibi bilan ajralib turadi.

Unda 3 ta asosiy lahja bor, bular:

- 1) qarluq-chigil lahjasi;**
- 2) qipchoq lahjasi;**
- 3) o'g'uz lahjasi.**

Bu lahjalar tarkibidagi ko'plab shevalar fonetik, leksik va qisman morfologik jihatdan o'zaro farqlansa-da, ularning barchasi ham milliy O'zbek tilining, adabiy o'zbek tilining shakllanishida muayyan darajada ishtirok etgan. O'zbek tilining lahjalari orasida, odatda, **qarluq-chigil** lahjasi hamda uning tarkibiga kirivchi

shevalar (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Buxoro, Qarshi, O'sh, Marg'ilon, Jalolobod va boshqa shaharlarning shevalari) o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari hisoblanadi. O'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilashda **Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg'ona, Andijon shevalari morfologik** jihatdan tayanch shevalar deb olingan.

Turkiy xalqlar uchun mushtarak obida hisoblangan O'rxun-Yenisey tosh bitiklari, O'rta Osiyo turkiy xalqlarining umumiy adabiy tili namunalari bo'lgan "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig" kabi o'lmas asarlar o'zbek xalqining dastlabki yozma yodgorliklari hisoblanadi. Eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi XIV asr oxirlari va XV asrga to'g'ri keladi. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hissasi beqiyosdir. O'zbek adabiy tili Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur ijodi bilan boshlanib, Ogahiy, Furqat, Muqimiylar ijodida rivojlandi, sayqal topdi.

1993- yil 2 -sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 1995-- yil 6- mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tegishli o'zgartirishlar bilan qayta qabul qilindi va "Davlat tili haqida"gi Qonun bilan bir qatorda , uning davomi sifatida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Topshiriqlar.

1. Matnni o'qing va qayta hikoya qilishga tayyorlaning.

IQTIDOR VA MEHNAT

Bo'lajak chempion yoki rekordchi qanday boshlanadi? Biz, odatda, chempionni shon-shuhrat nurlari ichida ko'ramiz. Mana, u baland shohsupada turibdi, atrofida suratchilar ko'p. Mana, uning bo'yniga medal taqishdi, sportchi ta'zim qildi, jilmayib, guldastalarni oldi.

Ammo sportda silliq, tekis yo'llar bo'lmaydi. G'alabalar, rekordlar, medallargacha yo'l juda uzoq va murakkab. Sport – bu ulkan tanlov, ayovsiz saralash.

Murabbiylar 3-5 yoshli kichkintoylar orasidan eng istiqbolli, iqtidorli bolalarni tanlab olishga harakat qiladilar. Keyin esa tinimsiz, katta mehnat boshlanadi. Biz bu kundalik qora mehnatni ko'rmaymiz. Bir kunda uch martalik mashg'ulotlar, to'xtovsiz mashqlar, yugurish, sakrash, yiqilish, jarohatlar, ko'z yoshlar... Sport kishini og'ir ishdan qochmaslik, vaziyatni to'g'ri baholash, tez qaror qabul qilish, o'z imkoniyatlarini bilish, sherigining yelkasini his qilishga o'rgatadi. Sport kishini ham jismonan, ham ruhan tarbiyalab boradi. Yana u faqat chiroyli g'alabalar qilish emas, munosib yutqazishdan ham saboq beradi.

Demak, biz havas qilgan g'alabalar, medallar, shon-shuhrat – bularning hammasi iqtidor va mashaqqatli mehnatning yig'indisidir.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.O'zbek adabiy tili tushunchasiga izoh bering?
2. O'zbek adabiy tiliing qaday ko'rinishlari bor?
3. O'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan shevalar haqida ma'lumot bering:
(qipchoq, o'g'uz,qarluq-chigil-uyg'ur)
- 4.Adabiy tilning og'zaki shaklidan qayerlarda foydalaniladi?
6. Iqtidor va mehnat sportchilar uchun qanday ahamiyatga ega?
5. Iqtidor va mehnatni o'zida jamlagan sportchi bo'lish uchun nimalar qilish kerak?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1.Adabiy til doirasida amal qiluvchi tabiiy me'yorlar va muayyan me'yorlarga solingan talaffuz qoidalari yig'indisi - adabiy talaffuz yoki boshqacha aytganda, qaysi me'yorlar deb yuritiladi.

- I. Orfoepik
- J. Fonetik
- K. Adabiy
- L. Grammatik

2. Adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi, til vakillari tomonidan ongli ravishda, kelishilgan holda yuzaga keltirilib, amal qilishi maxsus imlo qoidalari asosida amalga oshiriladigan me'yor bu

I) Orfografik me'yor.

J) Orfoepik me'yor.

K) Adabiy me'yor.

L) Grammatik me'yor.

10. Adabiy tilning stilistik me'yori

I) til birliklarining nutqda sharoit, ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi.

J) Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar eng avvalo stilistikda o'z aksini topadi

K) biror so'zning o'zaro birikishini yoki birika olmasligini sezamiz

L) adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy omildi

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.

2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.

3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.

4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil

5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma).

"O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.

6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

MUTAXASSIS NUTQINING KOMMUNIKATIV

SIFATLARI. (4soat)

REJA:

1. Kasbiy nutq haqida tushuncha.

2. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi nutqining ilmiyligi, to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyli, sofligi.

3. Nutqiy kompetentlik. 1. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining nutqiy faoliyati.
4. Zamonaviy nutqda uchraydigan tipik xatolar.
5. Sport mutaxassisi muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.
6. Soha mutaxassislari bilan "Kasb mashaqqati va yutuqlari" mavzusida o'tkazilgan suhbat nutqini tayyorlash
7. "Zamonaviy mutaxassis qanday bo'lishi kerak» matni ustida ishlash.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Aniqlik – bu soʻzning oʻzi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir.

Mantiqiylik- nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning oʻzaro mutanosibligi.

Sof nutq -adabiy til uchun begona unsurlari boʻlmagan, axloq normalari tanolmaydigan soʻzlardan xoli boʻlgan nutq .

Kanselyarizmlar- ish qogʻozlari uchun zarur boʻlgan maʼlum bir shaklda saqlanadigan soʻz birikmalari va gaplardir

Norma - kishilar nutqiy xulqining boshqaruvchisi, yoʻnaltiruvchisidir.

Oʻrinlilik - nutqning maʼlum bir voqea-hodisaga, aloqaning maqsadi va sharoitiga moslab tuzilishidir.

Jargonlar - bu har bir kasb egalarining oʻz "tili" boʻlib, ular shu "til" orqali soʻzlashganda boshqalardan ajralib turishadi.

Nutqning ifodaliligi – taʼsirchanlik deb ham aytiladi, nutqning tinglovchi yoki oʻquvchi eʼtiborini jalb qila olishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning mantiqiyli – fikr rivojining voqealar rivojiga qatʼiy mos va muvofiq kelishi bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning tozaligi – nutqning adabiy tilning lugʻaviy (leksik) meʼyorlariga yot unsurlardan xoli ekani bilan belgilanadigan kommunikativ sifat.

Nutqning maqsadga muvofiqligi – nutqning kommunikativ sifati. Soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllay olish koʻnikmasi bilan belgilanadi

ESLAB QOLING !

Ma'lumki, **har qanday nutq** ma'lum bir so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tinglovchi yoki o'quvchiga qaratilgan matnning shakllantirilgan tashqi ko'rinishidir. Albatta, bu yo'llangan nutq tinglovchiga yetib borib ma'lum bir ta'sir ko'rsatsagina, bu nutq o'z maqsadini amalga oshirgan deyish mumkin. Ma'ruzachining nutqi har tomonlama yaxshi bo'lishi uchun u o'z oldiga ma'lum talablarni qo'yimg'i lozim. Bu talablar nutqning **asosiy sifatleri va xususiyatlari deb yuritiladi**. Bular **nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, sofligi, ta'sirchanliigi, tozaligi, tushunarliigi, yoqimliliigi, shiraliliigi va albatta maqsadga muvofiqliigidir**.

ESLAB QOLING !

Nutqning to'g'riligi deganda, talaffuz, imloviy, lug'at va grammatik me'yorlarni egallashni tushunish lozim. **Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi** tomonlarning, ya'ni so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birini tez hamda oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'la olmaydi.

Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy xususiyatlaridandir. Nutq to'g'ri bo'lmasa, boshqa kommunikativ sifatleri ham buzilishi, ya'ni uning mantiqiyliigiga, aniqligiga, maqsadga muvofiqliigiga o'zining salbiy ta'sirini yetkazishi mumkin.

1. Gaplarni o'qing. Ijobiy yoki salbiy bo'yoqqa ega birliklarni ajratib, qo'llanilishdagi maqsadni tushuntirishga harakat qiling.

1) "Iflos! — dedi. — Sen nimaga yig'layapsan? O'lgan bo'lsa, mening onam o'lgan, senga nima! (T.Murod) 2) — Kap-katta xotin uvol qilib o'tirsang. Bilib qo'y, non ko'r qiladi seni! — U shahd bilan o'rnidan turdi-da, bir hatlab supadan tushdi. (O'.Hoshimov) 3) U tom o'rtasiga borib, kabutarning mayin qanotini yuziga bosdi. Uni uchirishdan oldin: — Marg'ilonga uch, qanotli choparim! — deb shivirladi. (P.Qodirov) 4) " Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan! — deya o'yladi Bo'ri polvon. — Bu yosh bola-ku! O'ylab ish qilyaptimi? Yo, kayfi bormi?" (T.Murod) 5) — Bu to'polonlar bosilsa, bir marta borib arz qilishim aniq. Agar dodimga yetsa yetdi, yetmasa, yana Hirotga qaytib keturmen! Alisher Navoiy Shifoia degan bino qurdirmoqchi, deb eshitgan edim. Olamda biz uchun yongan yagona umid chirog'i o'sha siymo bo'lib qoldi. (P.Qodirov) 6) — Kel, jonim,— dedi bolani bag'riga bosib. — Kela qol, o'zim senga issiq morojniy olib beraman. (O'.Hoshimov) 7) ...Student edim. Farishtadek go'zal, farishtadek pokiza bir qizni sevib qoldim. Oy sutdek yorug' nur sochgan oqshomlari uzoq sayr qilardik. (O'.Hoshimov) 8)— Hazrat otangiz so'rasalar, biz ne deymiz? Xafa bo'lmasinlar, tag'in. Sabr qiling, qizim... Muncha oshiqmang... (P.Qodirov)

9) Bandasiga bermak doru
Yaratganga isyondir.
Demak,
Hakim ishi makru
Uning o'zi
10) Shaytondir... (E. Vohidov)
Malomatga qoldi endi
Shoir bitib haq doston.
Hiidu uni
 "jobon" dedi,
"Kofir" dedi
 musulmon. (E. Vohidov)

2. Hikoyani o'qing. Asardagi muloqot davomida hissiy va ruhiy holatlarning o'zgarish o'rinlariga e'tibor bering. Hikoya mazmuniga oid xulosangiz bilan o'rtoqlashing.

Bir kuni gapdan-gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik: - Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo'yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi? - Sandiq qatta, bolam? - deb kuldi onam. - Qarzlaring bor. O'shanga beraman-da. Akamning qovog'i osildi:

- Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?
- E, senga nima, bolam! Mening ishingga aralashib nima qilasan? Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo'shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko'ylak kiyib olibdi.

- Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? - dedim erkalab.
- Bugun man tug'ildim, - dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib jilmayarkan.
- Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir... Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim. - Mana, o'rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

- Men ishkalad yemayman. Tishim tushgan. - Keyin yana o'sha jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi: - Bultur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar. Tug'ilganimda.
- Qizcha o'ylanib qoldi. - Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'ylak... Qo'limdan konfet tushib ketdi. (O'.Hoshimov)

3. Yurtboshimizning hikmatli fikrlarini o'qing. Mazmunini va o'z bilimingiz asosida fikringizni og'zaki ifoda eting.

1. Ilm-fani, ma'rifat va madaniyati rivojlanmagan davlatning rivojlanish strategiyasi ham muvaffaqiyatsizdir. (Sh. Mirziyoyev) 2. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivoji barcha sohalarining jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi, odamlarga qulaylik yaratadi. (Sh. Mirziyoyev) 3. Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash — kelajagi buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o'zimizga yuksak obro' egallash demakdir. (Sh. Mirziyoyev) 4. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar — ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir! (Sh. Mirziyoyev) 5. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy


salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. (Sh. Mirziyoyev)

4.Quyida keltirilgan mutaxassis fikrini o`qing. Taniqli psixologning fikrlari asosida muloqot shakllari, inson tabiatiga oid fikr va bilimlaringizni yuzaga chiqaring, guruhdoshlaringiz bilan muloqot qilib ularni mustahkamlang,

“Kundalik hayotga odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq - atvoriga mo`ljol olamiz. Negaki biz ularning tanqidiy ma`lumotlariga ma`lumotlari mohiyatini go`yo o`qib ya`ni mag`zini chaqib chiqamiz va shu yo`sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo`lgan mazmunini aniqlaymiz”.

(S. L.Gubinshteyn)

5.Zamonaviy mutaxassis sifatlari haqidagi klasterni to`ldiring. O`zingiz tanlagan kasb bo'yicha mutaxassis ega bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyalar ro'yxatini tuzing. Ularning har birini misollar bilan izohlang



BILIB OLING !

Nutqning **boyliqi** deyilganda unda ishlatiladigan til vositalarining ko'pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko'rsatgan ta'siri tushuniladi. Nutqning boyligini aniqlash uchun ikki nutqni bir-biriga soldishtirish kerak bo'ladi. Bunda ikki nutq bir-biriga solishtirilganda, qiyoslanganda va ulardagi til vositalarining so'zlovchi ko'zda tutgan fikrni yuzaga chiqarishda bajargan vazifasi ustida mulohaza qilganda qay bir nutq boy ekanligi ko'rinadi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, jahon adabiyotida ham o'zbek adabiyotida ham so'z qo'llashda o'ziga xos boylikka ega bo'lgan adib va shoirlarni sanab o'tish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Alisher Navoiy so'z ishlatish borasida tengi yo'q inson bo'lgan. Uning asarlarida taxminan 28667 ta so'z ishlatilgan. Rus shoiri A.Pushkin o'z asarlarida 21197 ta so'zdan, V.Shekspir 20000 ta so'zdan foydalangan. Oybekning so'z xazinasini 25 ming birlikdan iborat bo'lsa, Abdulla Qodiriy esa 22 ming so'zdan foydalangan. Umuman olgan hozirgi zamonning har bir oliy ma'lumotga ega bo'lgan kishisi o'z faoliyatida 10-12 ming til birligidan foydalanishi lozim.

6.Mutolaa. “ O'zbekiston kirilidan voz kechib, lotin yozuviga o'tyapti: rejalar, muammolar va isloh qilinadigan alifbo” mavzusidagi intervyuni o'qing. Undagi fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring. Intervyudagi muloqot shakli va jamiyatimizdagi shaxslar o'rtasidagi muloqotning farqli tomonlari

BILIB OLING !

O'rinlilik nutqning ma'lum bir voqea-hodisaga, aloqaning maqsadi va sharoitiga moslab tuzilishidir. Nutqning barcha fazilatlarini nutq so'zlanib turgan sharoit uchun o'rinli bo'lsagina, bunday nutq so'zlovchi va tinglovchi uchun mos bo'ladi. Aks holda nutqda to'g'rilik ham, ifodalilik ham anglashilmaydi. O'rinli nutq har doim berilayotgan ma'lumotga, tinglovchilarning nutq so'zlanayotgan vaqtdagi ruhiy holatiga mos bo'lishi kerak.

haqida fikrlaringizni og'zaki bayon eting .

BILIB OLING !

Nutqning **boyliqi** deyilganda unda ishlatiladigan til vositalarining ko'pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko'rsatgan ta'siri tushuniladi. Nutqning boyligini aniqlash uchun ikki nutqni bir-biriga soldishtirish kerak bo'ladi. Bunda ikki nutq bir-biriga solishtirilganda, qiyoslanganda va ulardagi til vositalarining so'zlovchi ko'zda tutgan fikrni yuzaga chiqarishda bajargan vazifasi ustida mulohaza qilganda qay bir nutq boy ekanligi ko'rinadi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, jahon adabiyotida ham o'zbek adabiyotida ham so'z qo'llashda o'ziga xos boylikka ega bo'lgan adib va shoirlarni sanab o'tish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Alisher Navoiy so'z ishlatish borasida tengi yo'q inson bo'lgan. Uning asarlarida taxminan 28667 ta so'z ishlatilgan. Rus shoiri A.Pushkin o'z asarlarida 21197 ta so'zdan, V.Shekspir 20000 ta so'zdan foydalangan. Oybekning so'z xazinasini 25 ming birlikdan iborat bo'lsa, Abdulla Qodiriy esa 22 ming so'zdan foydalangan. Umuman olgan hozirgi zamonning har bir oliy ma'lumotga ega bo'lgan kishisi o'z faoliyatida 10-12 ming til birligidan foydalanishi lozim.

7. Quyidagi hikmatlarni daftaringizga ko'chirib yozing. Buyuk allomalarning muloqot, insonlararo munosabat haqidagi fikrlariga shaxsiy qarashingizni bildiring.

1. "Muloqot bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi" (Antuan Sent Ekzyuperi) 2. "Aqlmisan yoki ahmoq, kattamisan yoki kichik buni biror so'z aytmagancha bila olmaymiz". (Sa'diy) 3. "Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang". (Shopenhauer) 4. Sergaplik doimo yoqimsiz. (M.Servantes) 5. To'g'ri so'zlab ezmalikdan qoch.(Demokrit) 6. Aytur so'zni ayt, Aytmas so'zdan qayt. (A.Navoiy)

8.Hikmatlarni o'qing, ma'nosini og'zaki tushuntiring.

1. «Muhim ahamiyatga ega bo'lgan nimaiki yaratilgan bo'lsa, albatta u kuchli tartib asosida tashkil etilgan». (Endryu Hendriksson) 2. «Vaqtingizni devorga urib, undan eshik paydo qilishga sarflamang». (Koko Shanel) 3. «Yaratuvchanlik – bu aqlning vaqtichog'lik qilishidir». (Albert Eynshteyn) 4. «Optimizm muvaffaqiyat va baxtga boshqa har qanday sifatdan yaqinroq turadi». (Brayn Treysi) 5. «Har doim ko'zingizni ochib yuring. Kuzating. Chunki Siz ko'radigan har qanday narsa Sizni ruhlantirishi mumkin». (Greys Koddington) 6. «Maqsadga erishib oladigan narsangizdan maqsadga erishib yetishadigan darajangiz muhimroqdir». (Henri David Thoreu) 7. «Men dushmanlarimni do'stlaringa aylantirish orqali xonavayron qilaman». (Avram Linkoln) 8. «Bir xil yilni 75 marta yashab qo'yib uni umr deb atamang». (Robin Sharma) 9. «Siz odamlarni qutqara olmaysiz. Siz ularni faqat sevishingiz mumkin». (Anais Nin) 10. «Nuh kema qurayotganda yomg'ir yog'mayotgan edi». (Hovard Ruff)

ESLAB QOLING !

Adabiy til uchun begona unsurlari bo'lmagan, axloq normalari tan olmaydigan so'zlardan xoli bo'lgan nutq **sof nutq** deb yuritiladi.

Adabiy nutq sofliğiga quyidagilar putur yetkazadi. Ular:

1. Mahalliy dialektik va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi.
2. O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari.
3. Jargonlar.
4. Vulgarizmlar.
5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so'zlar.
6. Kanselyarizmlar.

9. "Insert" yordamida zamonaviy mutaxassis haqida quyidagi jadvalni to'ldiring.

V bilaman + hozir tanishdim - bilmayman ? tushunarsiz

BILIB OLING !

Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning o'zaro mutanosibligi **mantiqiylik** deb yuritiladi. Mantiqli nutqda gaplardagi fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanib, ular orasida ziddiyat bo'lmaydi. Chunki mantiqiylik aniqlikka tayanadi. Shu bois, nutqning mantiqiy bo'lishi uchun nutqda narsalar aniqligi ham tushunchaviy aniqlik ham mavjud bo'lishi, boshqacha aytganda har bir so'z nutqda qo'llanganda o'ziga birkirilgan ma'nonigina ifodalashi kerak. Chunki noaniq nutq mantiqiy bo'la olmaydi.

Fikrni bayon etish jarayonida bevosita aytilayotgan fikrni namoyon qilayotgan gap ichida ham mantiqiy buzilishlarni uchratish mumkin. Bu buzilishlarga quyidagilar sabab bo'ladi:

1. ***So'zlarning o'z ma'nosiga mos keluvchi so'zlar bilan biriktira olmaslik.***
2. ***So'z tartibiga e'tibor bermaslik.***
3. ***Bir xil ma'noli ifodalarni nutqqa ortiqcha kiritish.***

10. Hikmatlarni o'qing. Ulardan birini epigraf sifatida qo'llab kichik insho yoki esse yozing.

1. «Baxt sari yo'l yo'q. Baxtni o'zi yo'ldir». (Tich Nat Han) 2. «Chempionlar g'olib bo'lishmagunicha o'ynashni davom ettirishadi». (Billi Jin King) 3. «Siz ko'pchilik odamlar dangasa bo'lganligi sababli muvaffaqiyatga erishasiz». (Shahir Zag) 4. «Donishmandlik 1% ilhomlanish va 99% harakatga bog'liq». (Tomas Edison) 5. «Siz o'zingiz dunyoda ko'rishni istagan o'zgarish bo'la olishingiz

kerak». (Mahatma Gandi) 6. «Og‘riqni vaqtincha karaxt qilib qo‘yish oxirida baribir his qiladigan haqiqiy og‘rig‘ingizni kuchaytiradi». (Albus Dambldor) 7. «Ishni jo‘shqinlik bilan bajaring, yoki umuman bajarmang». (Rosa Noushet Karey) 8. «Hech qachon orzuingizdan unga erishish uchun ko‘p vaqt ketishi sababli voz kechmang. Vaqt shunday ham o‘tadi». (Earl Naytingel) 9. «Agar baxtli yashashni istasangiz baxtni maqsadga bog‘lang, odamlar yoki narsalarga emas». (Albert Eynsteyn) 10. «Siz ko‘proq suv quyadigan joyda maysa yashilroq bo‘lib o‘sadi». (Neil Barringham)

11. Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning ilm, odamiylik borasidagi fikrlarini yodda tuting. Ilmning inson faoliyatidagi o‘rni haqida bahslashing, asosiy g‘oyani ifodalovchi ixcham matn tuzishga harakat qiling.

Kishi ta’limdin topsa malolat,
Topar ilm ahli ollinda xijolat
* * *

Ulug‘lardin nasib istar esang, kasbi kamol etgil,
Nedinkim, anbiyog‘a ilmliq inson erur voris.
* * *

Shogird agar shayxulislom, agar qozidur,
agar ustod andin rozidur — tengri rozidur.
* * *

Ilm o‘qub qilmag‘on amal maqbul,
Dona sochib ko‘tarmadi mahsul.
* * *

Birovkim ilm ila bo‘ldi barumand,
Angakim voris o‘ldi – bo‘ldi farzand.
* * *

Birovkim qilsa olimlarga ta’zim,
Qilur go‘yoki payg‘ambarga ta’zim.
* * *

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘ziniyu xalqni gumroh etar.
* * *

Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o‘ldi, amal aylagil.
* * *

Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.
* * *

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

12. Mutolaa. “Temur tuzuklari”dan olinga “Sipohiylarni eng quyi darajadan



oliy martabagacha ko'tarish tuzugi“matnini o‘qing. So‘z qo‘llashda nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida fikr yuriting va hozirgi kunda sportchilarga qoyiladigan talablarni sanang.

13. Rasmlar asosida to‘g‘ri, sof, mantiqiy, o‘rinli nutq matnini yarating.



14. Internet manbalardan foydalanib zamonaviy adiblar ijodidan kichik hikoya yoki asardan parchaning audio shaklini ko‘chirib oling. Tinglang. Eshitib tushunish ko‘nikmalingizdan foydalanib, audiomatn mazmunini qayta hikoya qiling.

15. Rasmlarda tasvirlangan kinofilm va sahna asari sifatida shuhrat qozongan ushbu durdona asar haqida o‘z fikringizni bildiring. Xulosalaringiz asosida “Oila jamiyatning kichik bir bo‘lagi(mi?)” mavzusida esse tayyorlang.



15. Uyga vazifa. Lugʻat bilan ishlash. Berilgan soʻzlarni ular anglatgan maʼno bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Portlovchi kuch** - Muskullarning tashqi taʼsirlari va qarshiliklarni yenguvchi faoliyatida kuch namoyon boʻladi. Portlovchi kuch - qisqa vaqt ichida katta miqdorda kuch namoyon qilish qobiliyati.
2. **Professional** [r] - Biror ishni oʻziga kasb qilib olgan, biror ish bilan muttasil shugʻullanadigan, shu ishga juda omil boʻlib qolgan.
3. **Psixolog** - 1. Psixologiya mutaxassisi yoki olimi. 2. Odam psixologiyasini, ruhiy ahvolini yaxshi biladigan kishi; ruhshunos.
4. **Qatʼiyat** [a] - 1. Oʻz fikrida, soʻzida, azmi - qarorida jasorat bilan qattiq turish; qatʼiylilik. 2. Sabr- toqat, matonat, iroda. 3. Barqarorlik, aniqlik.
5. **Qayiq** - Suvda suzib yuradigan kichkina transport vositasi.
6. **Qilich** - Qilichbozlik oʻyinida ishlatiladigan, maxsus tayyorlangan uchi oʻtkir qurol.
7. **Qoʻlqop** - Bokschi qoʻlqopi (charmdan yasaladi). Musobaqada vazni 67 kg dan yuqori boʻlgan bokschiga har biri 284 g (10 unsiy) qoʻlqoplar va 67 kg dan yuqori boʻlgan bokschiga 340 g (12 unsiy)li bokschi qoʻlqoplaridan foydalanishga ruxsat beriladi.
8. **Qoʻmita qarori** - XOQ Olimpiya oʻyinlari dasturini belgilaydi, oʻyinlarni tashkil qilish hamda oʻtkazish boʻyicha yuzaga keladigan hamma masalalarni hal qilishda yuqori tashkilot hisoblanadi, Olimpiya oʻyinlarini oʻtkazish uchun shaharga huquq berish toʻgʻrisida qatʼiy qaror chiqaradi.
9. **Qoidani buzish** - Oʻyinning rasmiy koʻrsatmasiga, yoʻl-yoʻriqlariga rioya qilmaslik.
10. **Qoʻl bilan oʻynash (futbolda)**- Futbol oʻyinida toʻp faqat oyoq va boshda harakatlantiriladi. Lekin regbida (Amerika futbolida) koptok qoʻlda olib yuriladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nutqning asosiy sifatlari nimalardan iborat?
2. Nutqning boyligi va rang-barangligi tushunchalariga taʼrif bering.
3. Nutqni boyitish, sinonimlar, maqol va matallar, iboralarning nutqdagi vazifasi haqida gapiring?

4. Nutqning aniqligi va to'g'riligi deganda nimani tushunasiz?
Misollar yordamida so'zlab bering.
5. Nutqning tushunarligi nima? Nutqning tushunarli bo'lishiga to'sqinlik qiladigan omillar haqida so'zlab bering.
6. Nutqning tozaligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Til normasi deganda nimani tushunasiz? O'zbek adabiy tili normalari haqida umumiy ma'lumot bering
8. Fikrni bayon etish jarayonida mantiqiy buzilishlar kuzatiladi.
Bunga asosan nimalar sabab bo'ladi?
9. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini oshiruvchi vositalarga ta'rif bering. Misollar keltiring.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. **Nutq to'g'ri bo'lmasa...**
 - A) Aniq bo'lmaydi
 - B) Maqsadga muvofiq bo'lmaydi
 - C) Mantiqiy bo'lmaydi
 - D) Barchasi to'g'ri
2. **Nutqning ... uning eng muhim aloqaviy xususiyatlaridandir.**
 - A) to'g'riligi
 - B) aniqligi
 - C) maqsadga muvofiqligi
 - D) mantiqiyligi
3. **Nutq to'g'ri bo'lishi uchun asosan ...**
 - A) urg'uni to'g'ri qo'llashga qattiq amal qilish talab qilinadi
 - B) grammatik me'yorga qattiq amal qilish talab qilinadi
 - C) punktuatsion me'yorga amal qilish talab qilinadi
 - D) A va B javoblar to'g'ri
4. **Adabiy til uchun begona unsurlari bo'lmagan, axloq normalari tan olmaydigan so'zlardan xoli bo'lgan nutq**
 - A) Sof nutq deyiladi
 - B) Shevaga xos nutq deyiladi
 - C) Adabiy nutq deyiladi
 - D) Yozma nutq deyiladi
5. **Kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiruvchi unsurlarni belgilang.**
 - A) O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari
 - B) Jargonlar, vulgarizmlar
 - C) Parazit so'zlar va kanselyarizmlar
 - D) Barchasi to'g'ri
6. **Ayrim shaxslar nutqida ko'p qo'llanuvchi xo'sh, demak, ya'ni, olaylik, masalan, haligi, anavi kabilar ...**
 - A) Parazit so'zlar
 - B) Vulgarizmlar
 - C) Kanselyarizmlar
 - D) Jargonlar

7. Ayrim shaxslar nutqida ko‘p qo‘llanuvchi **okey, da, tak chto, karoche kabi birliklar bu...**
- A) Parazit so‘zlar
 - B) Vulgarizmlar
 - C) Kanselyarizmlar
 - D) Chet so‘zlar
8. ... - bu so‘zning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir.
- A) Nutqning sofliigi
 - B) Nutqning aniqligi
 - C) Nutqning mantiqiyliigi
 - D) Nutqning jo‘yaliligi
9. Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning o‘zaro mutanosibliigideb yuritiladi.
- A) Nutqning sofliigi
 - B) Nutqning aniqligi
 - D) Nutqning mantiqiyliigi
 - S) Nutqning jo‘yaliligi
10. Nutqda ishlatiladigan til vositalarining ko‘pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko‘rsatgan ta’siri ... deyiladi.
- A) Nutq boyliigi
 - D) Til boyliigi
 - B) Punktuation savodxonlik
 - S) Nutq to‘g‘riligi

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
2. G‘afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (O‘quv qo‘llanmasi) “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. «O‘ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G‘afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo‘llanma) “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

SOHA MUTAXASSISINING NUTQ MADANIYATI.

(2soat)

REJA:

- 1.Muloqot madaniyati..
2. Adabiy tilni o'rganish va egallash bosqichlari.
- 3.Soha mutaxassisi nutqi.Tanlangan sport yo'nalishi bo'yicha matn tuzish.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR: Nutq madaniyati tushunchasi, maqsadi, vazifasi, nutq odobi, til va nutq, til boyligi, nutq boyligi, nutqiy etiket,til madaniyati, nutq madaniyati.

O‘zbek xalqi ta’lim - tarbiyaga oid boy merosga ega bo‘lib, avlodlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta’lim - tarbiyaga oid asarlari mana shu merosning tub negizini tashkil etadi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz dunyoga yuz tutdi va jahon bizni tanidi. Biz tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshladik hamda o‘z yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal kilishga kirishdik.

“Bu o‘rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini,uning betakror madaniyatini keng targ‘ib qilish,jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish”¹ maqsadida o‘zbek tili mashg‘ulotlarida tanlanadigan badiiy matnlar mazmun va mohiyati bilan aloqadordir. Mazkur jarayonda

1.Sh.Mirziyoyev.Tanqidiy tahlil,qat’iy tartib- intizom, va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.Toshkent - ”O‘zbekiston”,2017 yil,49-bet.

o‘qituvchining pedagogik faoliyati muayyan talablar, qoidalar va me’yorlarga bo‘ysundiriladi.

Barcha sohalar singari ona tilimiz va u bilan bog‘lik muammolar ham asta-sekin yechimini topmoqda. Xususan nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning mehnatlari, izlanishlari tahsinga loyiqdir.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma’naviy- ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining

ustuvor yo‘nalishi deb e‘lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizning «Davlat tili» hqidagi qonun» «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa hujjatlarda ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e‘tibor byerilgan. Har bir kadr, eng avvalo, o‘z ona tilining chinakam sohibi bo‘lmog‘i lozim. Uzbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Oliy majlisning 1997 yil 29 avgustidagi IX seseiyasida so‘zlagan nutqida: «O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, o‘z ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin» - deb ta‘kidlaydi.¹

Nutq madaniyati haqidagi ta‘limot kadimgi **Rim va Afinada** shakllangan bo‘lsa ham, unga qadar **Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston** kabi mamlakatlarda paydo bo‘lganligi notqlik san‘ati tajribasidan ma‘lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo - sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiyetishi notqlikni san‘at darajasiga ko‘tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obru - e‘tibori va yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi, ularning notqlik mahoratiga ham bog‘lik bo‘lgan. Notqlik san‘ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug‘langan.² Mashhur notiq Siseron: «Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo‘lish kerak», degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. Harbiy sarkardaning itoatida ko‘p sonli lashkar bo‘lishini tasavvur qilsak, bu so‘z tasodifiy o‘xshatish emasligiga amin bo‘lamiz. **Grek va Rim notiqdari Aristotel, Demosfen, Siseron, Kvintilian** kabi nazariyotchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyagida ritorika va notqlik san‘atining o‘ziga xos maktabini yaratdilar. Siseronning «Notqlik haqida», «Notiq», «Brut» asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning «Notiq bilimi haqida», Aristotelning «Ritorika» kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq , notqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko‘rsatadi.

G‘ARB NOTIQLARI:

¹ И.А.Каримов. Баркамол аллод- ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. *Т.: 1997 йил, 9-бет.

² Р.Қўнғуров, Э.Бегматов, Ё.Тожиев. Нутқ маданияти ва услубият асослари. -Т.: 1992. 6- бот.

Mark Partius Kato yoki Katon

Aka-uka Tiberiy va Kay Grakslar

Mark Antoniy (eramizdan oldingi 143-87 yillar)

Mark Tulliy Siseron .

Mark Fabiy Kvintilian.

O'rta Osiyoda hozirgi O'zbekiston hududida notqlik, ya'ni voizlikning vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy ildizlari juda qadimiydir. Ma'lumki, qadimiy Sharqda, taxminan IX asrgacha voizlik vazifasini shoh, xalifa, sulton, qirol va harbiy sarkardalar bajarganlar. Ular asosan, juma kunlari, hayit, navro'z va boshqa bayram marosimlarida jamoani to'plab, davlat siyosati, tuzumi, fuqarolarning majburiyat va burchlari, jumladan, bahodirlik, itoatkorlik, qonunlarga rioya qilish, boshqa qo'shni mamlakatlardagi vaziyat, dushmanlarning kirdikorlari, mudofaa, o'z ichki, tashqi siyosatlari va boshqalar haqida va'z aytganlar.

O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davrining mashhur mutafakkiri va voizlaridan bo'lgan **Abu Nasr Forobiy** (870-950) va'z aytganda to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq matnini tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning roliga nazariy va amaliy jihatdan katta e'tibor beradi. Forobiy voizlik talablari haqida gapirib: «Voizning so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin», - deydi.

Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, inson nutqi o'z tuzilishi, materialiga ko'ra rostni ham, yolg'onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Inson bu bahs-munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan «mezon»ni yaratadi. Inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talab bilan yuzaga kelgan mantiq fanining qiyosi rostni yolg'ondan ajratish vositasi bo'lib qoldi. Inson nutqida shubhali o'rinlar sezilsa, ma'lum «mezon» yordamida ular tuzatiladi. Shu bois Beruniy yaxshi nutq matnini tuzish va mazmunli nutq so'zlash uchun grammatika, aruz va mantiq ilmini chuqur bilish lozimligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino voizlikning amaliy va nazariy masalalarini quyidagicha talqin etadi:

nutq qo‘pol ohangda bo‘lmasligi kerak;
tinglovchilarning ilm darajasini hisobga olish zarur;
va‘zxonlikka ko‘p berilmaslik kerak;
nutqni muloyim ohangda olib borish kerak;
agar (nutqingda) biror kishini tanqid qilmoqchi bo‘lsang, boshqalarning kamchiliklari bilan qiyoslab tanqid qil;
agar haqiqatni aytmqchi bo‘lisang, faqat bir faktga tayanma, balki ko‘p masalalar bilan isbotla, shu narsa haqida o‘ylashga va haqiqatni izlashga ishontir;
agar tinglovchilar sening nutqingni e‘tibor bilan quloq solib tinglayotgan bo‘lsa, nutqingni davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin tinglovchilarning e‘tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga burganing ma‘qul.

Mashhur voizlardan yana biri **Abu Homid ibn Muhammad al-G‘azzoliy** «Oxiratnoma» asarida voizlarning mahorati va o‘ziga xos uslublari xususida shunday mulohaza yuritadi; «Ahli mo‘minga va‘z aytishda ehtiyot bo‘lishing lozim. Chunki voizlikda ofat ko‘p. Agar aytadigan pand-nasihatlaringga avval o‘zing amal qilib, so‘ngra xalqqa izhor etsang, bu voizlik durustdir.

XI asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Eronda podshohlik qilgan **Kaykovus** voizlik san‘atining so‘nmas yulduzlaridan biridir. Uning mashhur "Qobusnoma" asaridagi 7-bob suxandonlik, notiqlikka bag‘ishlangan.

Mahmud Qoshg‘ariy «Devonu lug‘otit turk», **Yusuf Xos Hojib**ning «Qutadg‘u bilig» asarlarida ham nutq odobi borasida qadimiy turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar amal qilgan asosiy qonun-qoidalar, rasm-rusmlar haqidagi fikrlar yozilgan.

Buyuk shoir va mutafakkir **Alisher Navoiy** kishi fazilatlaridan biri hisoblanmish nutq madaniyatiga katta e‘tibor bergan. U nutqning g‘alizligi tilga zarar yetkazishini, aksincha, yaxshi, chiroyli nutq tilning boyishiga xizmat qilishini ta‘kidlaydi. Shoir nutqning tilga bevosita ta‘sir qiluvchi vosita ekanligini shunday ifodalaydi: «Til muncha sharaf bilan nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidir».

Alisher Navoiy nutqning aniq va to‘g‘ri, ta‘sirli va jozibali bo‘lishini targ‘ib qiladi. Bunday nutqqa erishish uchun so‘z ma‘nosiga alohida e‘tibor berish lozim. Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida voizlikka xos fazilat va xususiyatlarga alohida to‘xtalib, u xalqni o‘z nutqiga qarata oladigan, o‘z ortidan ergashtira oladigan donishmand kishi bo‘lishi kerakki, qalbida ma‘naviy, ruhiy bo‘shliq bo‘lgan har qanday odam esa bunday voizning suhbatidan olam-olam ma‘naviy zavq olib, ko‘ngli ko‘tarilsin, deydi.

Alisher Navoiy asarlarida nutq odobining talablari quyidagicha sanaladi: Tilni, so‘zni qadrlash, uni hurmat qilish.

Yaxshi so‘zlay olish (nutq) san‘atdir, noyob hunardir.

Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning nutqidir.

Kishining nutq uning aqliy kamolotidan darak beradi.

So‘zlaganda dil va tilni bir tutish zarur.

So‘zlaganda o‘ylab, tushunib gapirish kerak.

Xushmuomala, shirinso‘z bo‘lish.

Chin, to‘g‘ri so‘zlash, nutqda halol bo‘lish.

Ezgu so‘zli bo‘lish lozim.

Tildan tuhmat uchun foydalanmaslik kerak.

Ko‘p so‘z, ezma vaysaqi bo‘lmaslik.

So‘zlaganda sharoitni, suhbatdoshinni hisobga olish, beo‘rin so‘z aytmaslik.

Suhbat sirlarini saqlash, bo‘shog‘iz bo‘lmaslik.

Gapirganda qaytariqlardan qochish kerak, chunki ular fikrning ta‘sirini susaytiradi.

Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do‘sti bo‘lgan mashhur voizlardan Husayn Voiz Koshifiy asosan ilmiy, siyosiy, ahloqiy, tashviq va targ‘ib ruhida va‘zlar aytgan. Voiz Koshifiy Husayn Boyqaro Xurosonga podshohlik qilgan yillarida davlatning bosh voizi hisoblangan. Husayn Voiz va‘zlarining ta‘sirchanligi, xalqchilligi, jozibadorligi haqida ma‘lumotlar bor.

O‘rta Osiyo notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o‘sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san‘ati ustalarining nadimlar, qissago‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar,

qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, maddohlar qasidaxonlar deb yuritilishi ham anash shundan dalolat beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Notiqlikning paydo bo‘lishi nimalar bilan bog‘liq?
2. Notiqlik nima sababdan yunonlar orasida keng rivojlangan?
3. Buyuk yunon notiqlaridan kimlarni bilasiz?
4. Rim notiqligining o‘ziga xosligi nimalarda ko‘ringan?
5. Rim notiqligining vakillari kimlar va ularning qaysi jihatlari haqida ma’lumotlar qolgan?
6. O‘rta Osiyo notiqligining paydo bo‘lishi va uning o‘ziga xosliklari nimalarda ko‘rinadi?
7. Sharq olimlarining notiqlik va nutq odobi to‘g‘risidagi qanday fikrlarini bilasiz?
8. Sharq va G‘arb notiqlarining qanday o‘xshash va farqli jihatlari mavjud bo‘lgan?

Til qonuniyatlarini egallagan, ya’ni gapirayotgan sheva yoki lahjasining me’yoriy shakllari asosida yoshlikdan so‘zlay olish malakasiga erishgan har bir kishi hech qanday yordamsiz o‘sha tilda fikrlasha oladi. Ammo shaxsning o‘zi egallagan tilni qaysi darajada bilishi ushbu shaxsning o‘z faoliyati, intilishlari, hayotiy tajribasi hamda hayotiy ehtiyojiga bog‘liq bo‘lgan masaladir.

Demak kishilarda tabiiy va an’ana tusiga ega bo‘lgan ona tilini yoshlikdan egallay olish va undan o‘rinli, tanqidiy foydalana olish qobiliyati bor ekan, unda nutq madaniyati sohasi kimlarni ko‘zda tutib ish olib boradi, degan qonuniy savol tug‘ilishi tabiiydir. Bu savolga berilgan javoblar hozirgi zamon tilshunosligida juda kam. Mavjud javoblarda esa ushbu masala turlicha talqin etilganligini ko‘ramiz. Bular ichida uchta xarakterlidir:

1. Nutq madaniyati sohasi butun millatni (xalqni) ko‘zda tutib ish olib boradi.
2. Nutq madaniyati faqat ziyolilar nutqini yaxshilashni ko‘zda tutadi.
3. Nutq madaniyati sohasi birinchi navbatda yosh avlod nutqini to‘g‘irlashni ko‘zda tutib ish olib boradi.

Nutq madaniyati tushunchasi hozirgi ilmiy ma'noda adabiy til bilan bog'liqdir. Shu tufayli adabiy tilni egallamagan, unda so'zlay olmaydigan kishining nutqiy madaniyati haqida gapirish ham ortiqchadir. Demak, oldin ham qayd etilganidek, nutq madaniyati sohasi adabiy tilda gapiruvchilar, adabiy tilni egallagan va egallayotganlar nutqini, nutqiy faoliyatini ko'zda tutgan holda ish ko'radi.

Nutq madaniyati tushunchasi hozirgi ilmiy ma'noda adabiy til bilan bog'liqdir. Shu tufayli adabiy tilni egallamagan va unda so'zlay olmaydigan kishining nutqiy madaniyati haqida gapirish ham ortiqchadir. Chunki bugungi kunda adabiy til umumxalqning so'zlashuv quroliga aylanga bir davrda insonlar o'rtasida mahalliy lahja va shevalarda yoki adabiy til bilan o'z shevalarining qorishmasidan iborat bo'lgan bir tilda so'zlashadilar. Mana shunda kelib chiqqan holda kishilarning o'zbek adabiy tilidan qay darajada foydalanayotganligiga ko'ra ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. O'zbek adabiy tilida to'liq gapira oluvchi va yoza oluvchi kishilar guruhi;
2. O'zbek adabiy tilida yoza oluvchi ammo og'zaki nutqda adabiy til normalariga to'liq amal qilmaydigan kishilar guruhi;
3. Rasmiy doiralarda adabiy tilda so'zlay oladigan, ammo oddiy so'zlashuvda, oilada shevada yoki sheva bilan adabiy tilning aralashmasidan iborat bir tilda gapiruvchi shaxslar guruhi;
4. Mahalliy shevaning kuchli ta'sirni sezilib turadigan nutq egasi bo'lgan kishilar guruhi;
5. Mahalliy shevaning kuchsiz ta'siri (asosan talaffuzda yoki ayrim so'zlarni aytishda) sezilib turadigan tilda so'zlashadigan kishilar guruhi;
6. adabiy tilni "bilmaydigan" va o'z mahalliy shevasida gaplashadigan kishilar guruhi.

Kishilar "adabiy tilni bilmasligi" nisbiy tushuncha bo'lib, u adabiy tilni umuman tushunmaydi degan ma'noda emas, balki ular adabiy tildan to'la ma'noda foydalanmaydi, bu tilga gapirishga va yozishga odatlanmagan degan ma'noni anglash mumkin.

Adabiy tilda gapiruvchi inson uchun ham uning adabiy til normalarini qanchalik bilishi nisbiydir. Chunki har qanday odamning adabiy til normasini qay darajada egallaganligi uning umumiy madaniy saviyasi bilan belgilanadi.

Nutq madaniyati ijtimoiy-madaniy hayotning qonuniy talabi bo'lsa-da, uni egallash aslida har bir shaxsning madaniy saviyasi, ong va bilimiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan jamiyatdagi barcha shaxslarni bir vaqtning o'zida bir xilda yuksak madaniyat darajasiga erishgan deyish mumkin bo'lmaganidek, aniq shaxslarning barchasini ham bilim va madaniy saviyasi jihatdan nutq madaniyatini egallashga bir xilda hozirlangan, qobiliyatli odam deyish qiyin.

Shunday qilib, nutq madaniyati sohasi bir davrning o'zida jamiyat a'zolarining barchasini madaniy nutqiy tarbiya ostiga ola olmaydi. Ushbu ma'noda madaniy nutqiy tarbiya ma'lum chegarali tomonlarga ega. Nutq madaniyati sohasi asosan, adabiy tilni egallaganlar, unda so'zlash va yozishni istovchilarni hamda yosh avlod nutqini to'g'irlashni ko'zda tutadi. Lekin nutq madaniyati bu bilan chegaralanib qolmasligi kerak albatta. ***Nutq madaniyati sohasining to'liq, ya'ni pirovard maqsadi barcha xalq ommasining nutqini adabiy tarbiyaga olishdek maqsadni ko'zda tutmog'i lozim.***

Har qanday holda ham nutq madaniyati - bu avvalo nutqiy ko'nikma, nutqiy malaka hosil qilishdir. Bu ko'nikma nutqiy-amaliy jarayon bo'lib, maxsus mehnat va mashq evaziga, o'qish va uqish orqali erishiladigan qobiliyat, mahoratdir.

Inson aloqa quroli bo'lmish tilni, jumladan adabiy tilni o'rganish va egallashi to'rt xil yo'l bilan amalga oshadi, deyish mumkin:

1. Tilni tabiiy holda egallash. Bunga bolaning o'z ona tilini oila muhitida, shuningdek atrof-muhit ta'sirida o'rganishi va bilib olishi kiradi. Bola tilni otadan, oila a'zolaridan, duch kelgan kishidan tabiiy holda eshitish va o'zlashtirish orqali egallaydi.

2. Tilni o'qitish va o'rgatish orqali egallash. Bunga asosan o'rta, o'rta maxsus va oliy maktab ta'limi kiradi. Shuningdek, qisman bolalar bog'chasidagi ta'limni ham shu omilga qo'shish mumkin.

3. Til va nutq madaniyatini mustaqil o‘qish, shug‘ullanish orqali o‘rganish. Tilni va nutq madaniyatini egallashda mustaqil o‘qish, til va nutq ustida mustaqil ishlash muhimdir. Bu ish ikki xil xarakterlidir. Birinchisi, kishi tilga oid maxsus adabiyotlar, darsliklar va qo‘llanmalar, lug‘atlarni o‘rganadi. Undagi til va nutqqa oid qonuniyatlarni egallaydi.

Ikkinchisi, nolingvistik adabiyotlarni mustaqil o‘qiydi va bu hol kishi nutqining o‘sishiga, adabiy til normalarini egallashiga turtki bo‘ladi. Mustaqil shug‘ullanish adabiy tilni egallash, nutq madaniyati malakasini hosil qilishning muhim omilidir. Chunki bunda adabiy til normalari ixtiyoriy, ongli ravishda o‘zlashtiriladi. Bu yo‘l bilan hosil qilingan nutqiy malaka esa mustahkam bo‘ladi.

4. Til va nutq madaniyatini egallashning ko‘rinishlaridan biri nutqiy taqliddir. Har bir kishi o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma’noli va o‘tkir gapiradigan kishilar nutqiga havas bilan qarashi va unga taqlid qilishga intilishi mumkin. Bu holda nutqiy taqlid – namunali til, nutq madaniyatini egallashga intilishning omillaridan biriga aylanadi.

Keltirilgan barcha hollarda nutq madaniyatini egallash – bu ongli ravishda intilish va tinimsiz mehnatdir. Chunki nutq madaniyati malakasini busiz hosil qilib bo‘lmaydi. Shunday qilib, tilni, nutq madaniyatini egallashning quyidagi bosqichlari mavjud:

- oila va atrof-muhitdan o‘rganish;
- bog‘cha ta’limi;
- o‘rta maktab ta’limi;
- o‘rta maxsus ta’lim;
- oliy maktab ta’limi;
- til ustida mustaqil shug‘ullanish.

Pedagog o‘quvchilar oldida nihoyatda odobli xatti – harakatlarni qilishi, noto‘g‘ri harakatdan saqlanishi lozim, aks holda, o‘qituvchining hurmati yo‘qola boshlaydi.

Pedagogik nazokatning asoslari deb, bir qolipdagi fikrlar (barqaror tasavvurlar) ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlar va shaxsiy xislatlar jamini aytish mumkin, ular

o'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi sohasidagi xulq-atvorini belgilab beradi. O'qituvchining pedagogik nazokatini, mazmuni va uning namoyon bo'lishi shakllarini belgilab beradigan ayrim ijtimoiy yo'l-yo'riqlarni ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi o'z o'quvchilari bilan munosabatlarni (dialog) muloqot tarzida bo'lishini tushunishi lozim, ya'ni muhimdir.

Agarda o'qituvchilar bilan munosabatlari ishonch asosida qurilgan bo'lsa, bunday muloqot ijobiy ro'y beradi.

Pedagogik nazokatni vazifasi agar o'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida ishonch munosabatlari o'rnatilgan bo'lsa, ular hayotning og'ir damlarida uning huzuriga yordam so'rab keladilar, o'z quvonchlarini birga baham ko'radilar. Pedagogik nazokat me'yorida bo'lgani yaxshi, chunki har bir ishni o'z me'yori bor, ana shu me'yor bo'lganda u ish nazokatli namoyon bo'ladi. Agarda haddan tashqari chegaradan chiqib ketsa, zerikishlar paydo bo'ladi, ishonchsizlik yuzaga kela boshlaydi.

Pedagogda adolatning bo'lishi, o'quvchini o'qituvchiga bo'lgan ishonch-muhabbatiga olib keladi. Pedagog hech qachon o'z fikrini o'quvchilarga majburan o'rgatishga va majburan javob olishga harakat qilmasligi kerak, aks holda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, adolat buzila boshlaydi. Izzat-nafsni boy bermaslik kerak. Pedagogik faoliyatda oraliq bo'lishi eng muhimdir. O'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan barcha munosabatlari adolatli, vijdonan hal qilinishi lozim, tushunmovchiliklar sodir etilgan paytda ularni ijobiy hal etishga harakat qilmog'i zarurdir.

Bir qolipdagi fikrlar umuman pedagogik faoliyatda va xususan o'quvchilar bilan munosabatlar sohasida ijobiy rol o'ynashi mumkin. Ular pedagogning g'ayratini tejaydi, ancha pedagogik ta'sir etishga yordamlashadi.

Lekin ba'zi hollarda bir qolipdagi fikrlar ham salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masan, dars jarayonida kulgili holat sodir bo'lsa, bu holatga mos kulgili vaziyat qilmasdan, balki unga jiddiy tus berish, qat'iy javob berilsa, vaziyat murakkablashadi, xolos.

Yoki hamkasbi o'quvchilar bilan nazokatsiz munosabatda bo'lganligiga qarshi turish o'rniga o'qituvchi uni himoya qila boshlaydi va xokazo.

Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bular haqida o'tmish mutafakkirlarimizning fikrlaridan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

“O'zga odamning daxlsizligini, nozikligini, jamiyatini ehtiyot qil, odamlarga yomonlik qilma, ranjitma, dilini og'ritma, tashvish va notinchlikka yo'l qo'yma” (V.A.Suxomlinskiy),

“Kimki insoniylikni o'zida sinab ko'rmagan ekan, u hech qachon odamlarni chuqur bilmaydi” (N.G.Chernishevskiy),

“Birovni yerga ursang, u bilan o'zing ham yerga urilasan” (B. Vashington),

“Sening har bir xulq-atvoring boshqa kishilarga ta'sir etadi, yoningda inson borligini unutma” (V.A.Suxomlinskiy),

“Kishini erkalash hech qachon ziyon keltirmaydi”.

“O'zgalar aybiga tetik nazar sol,

O'z aybing ko'rgandek, undan ibrat ol” (Nizomiy Ganjaviy),

“Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir” (Bobur).

O'qituvchida pedagogik nufuz bo'lishi o'quvchilarning estetik didini o'stirishga sayqal beradi. O'qituvchida nazokat bo'lishi, o'quvchilarni bir-biriga sadoqatga odobli bo'lishga, shirinsuhanlikka boshlaydi. Mutafakkirlarni aytishicha, pedagog bolalar va ayniqsa, katta yoshdagi o'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarga juda ehtiyotkorlik bilan aralashishi lozim. Shunday ziddiyatlar borki, unda pedagoglarning aralashuvi nihoyatda cheklangan bo'lishi lozim.

Ba'zi bir ziddiyatlarni butun bir jamoaning muhokama qilishi ham o'z natijasini bermasligi mumkin, bunday vaziyatlarda tajribali pedagoglar fikri va mulohazalari bilan maslahatlashgan holatda amalga oshirilsa, foydadan holi bo'lmaydi. O'qituvchilarning muhim ijobiy yo'l-yo'riqlaridan biri dilkashlikdir. An'anaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy holdir. Lekin bunday yondashuv bir tomonlama, ya'ni odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari

bo'libgina qolmay, balki odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan xulq-atvori hamdir. Shaxsning xususiyati bo'lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan, aloqalarga intilish sifatida ta'riflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o'rnatishni birga qo'shib olib boradi.

Dilkashlik va odamga aralashmaslik shaxsning xususiyatlari sifatida qarab chiqish ekstra va interversiya tushunchalari bilan bog'liq ravishda samarali bo'ladi.

Ekstravert – shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta'sirlarga moyillik xosdir.

Introvert – ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, refleksga ichki xavotirlikka moyil bo'ladi.

Dilkashlik – ko'proq ekstravert tiplariga oiddir.

Introvert tipiga odamlarga aralashmaydiganlar kiradi.

Pedagogik vaziyatlar tez-tez o'zgarib turadigan sharoitda o'qituvchining vazifasi ro'y bergan vaziyatda tez mo'ljallab olib, unga to'g'ri baho bera bilish, zarur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan to'g'ri qarorga kelishdan iboratdir. Agar o'qituvchi bolalarning xatti-harakatlarini to'g'ri idrok etib, baho bera bilsa, shu bilan birga o'zida sabot, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik kabi fe'l-atvor xususiyatlarini rivojlantira olsagina, yuqoridagi vazifaga erishishi mumkin.

Bu pedagogik nazokatga rioya qilishning zarur shartidir. Nazokat me'yor tuyg'usi yoki odob qoidalariga rioya qilishni bildiradi. Pedagogik nazokat me'yor tuyg'usi va o'z o'quvchilariga nisbatan to'g'ri munosabatga amal qilishdir. Pedagogik nazokatning psixologik asoslari deb, bir qolipdagi fikrlar (barqaror tasavvurlar), ijtimoiy yo'l-yo'riqlar va shaxsiy xislatlarning jamini aytish mumkin, ular o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatlari dialog (muloqot) tarzida bo'lishini ta'minlaydi. Tarbiya tajribasida bunday yo'l-yo'riqni amalga oshirish qiyin ishdir, lekin unga butunlay erishish mumkin. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro ishonch va do'stlik munosabatlari vujudga kelgandagina bunga erishish mumkin. Shuning uchun ham bolalarda katta yoshdagi do'stga ega bo'lish va u bilan muomala qilishga qat'iy ehtiyoj mavjud bo'ladi.

GLOSSARIY

Nutq (a)-so‘zlash,nutq,gapirish qobiliyati.Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlariga amal qilishi.So‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi.

Nutq madaniyati - adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri, chiroyli va o‘rinli so‘zlash; tildan maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikma va malakalarining jami.

Madaniy nutq - adabiy me‘yorlarga rioya qilib tuzilgan nutq.

Adabiy norma - til birliklaridan maqsadga muvofiq‘ini tanlash.

Nutqiy etiket - bir tomondan, til birliklarini, ikkinchidan, muomal qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Jargon - ijtimoiy sheva, ma‘lum ijtimoiy guruh nutqiga xos birliklar.

Til boyligi - tildagi so‘zlar va iboralar miqdori va shu tilning ifoda vositalari, ifoda usullari.

Nutq boyligi - tildagi rang-barang vositalarning nutqda ifodalanishi.

Nazm (a)-she‘riy asar: she‘riyat janri, she‘r o‘lchovi

Notiq(a)-so‘zlovchi,gapiruvchi,fikrlovchi,diktor.(nutqso‘zlovchi,gapga chechan, gapga usta ,so‘zamol)

Voiz(a)-1.Targ‘ib qiluvchi,va‘zxon.2.Nasihatomuz yoki tashviqiy nutq so‘zlovchi, notiq.

Ovoz(f) –tovush,shovqin,sado;mish-mish;qo‘shiq.

Jargon(fr.-ma‘lum bir guruhga oid so‘z).Biron ijtimoiy yoki professional uruhga xos,faqat ularning o‘zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so‘z va iboralar.

Adabiy til(tlsh) -umumxalq tilining ishlangan,sayqal berilgan, ma‘lum norma(me‘yor)larga solingan shakli.

Til me‘yorlari-adabiy til me‘yorlari,normalariga asoslanmoq.

Morfema (yun.-shakl)-tlsh. O‘z ma‘nosiga ega bo‘lgan, boshqa ma‘noli qismlarga bo‘linmaydigan til birligi.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1.Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ?
- 2 Nutq madaniyati haqidagi ta‘limot qayerda shakllangan?
3. “Nutq madaniyati” fani qanday ahamiyatga ega?
4. “Nutq madaniyati” va “notiqlik san'ati” tushunchalari orasidagi tafovutlar nimalardan iborat?
5. G‘arb mamlakatlarida notiqlik san'atining taraqqiy etishi haqida so‘zlab byering.
6. Adabiy til jamiyat hayotining qaysi sohalari uchun xizmat qiladi?
7. O‘rta Osiyo madaniyati tarixida nutq madaniyatining o‘ziga xos o‘rnini qanday izohlaysiz?
8. Nutq madaniyati va til madaniyati deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagog nutqining har tomonlama yaxshi bo‘lishi uchun o‘z oldiga qanday talablar qo‘yishi kerak?
- 10 . O‘qitish jarayonining samaradorligi o‘qituvchi nutqidagi xususiyatlarga bog‘liqmi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. G'arb faylasuflarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.
2. Sharq mutafakkirlarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.
3. Biror mashhur donishmandning notiqlik haqidagi fikrlarini slaydlarda ifodalang va izohlang.

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.
7. Mahmudov N. "O'qituvchi nutqi madaniyati". Toshkent, 2007
8. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. T., 1972.
9. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, T. 1992
10. Rustamov A. "So'z xususida so'z" T. 2010.
11. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. 1994
12. Inomxo'jayev S. Notiqlik san'ati asoslari. T. 1982.
13. Mutaxassislik bo'yicha o'zbek tili (ma'ruza matnlari) JIDU, 2006

SPORT SOHASIGA OID ATAMALARNING

O'ZIGA XOSLIGI.(2 soat)

REJA:

1. Sohaga oid atamalar. Ularning kelib chiqish tarixi va ulardan nutqda foydalanish.

2.Kasbiy sohaga oid atamalarning tasnifi va talqini.

3.Kasbiy soha bo'yicha atama va so'zlarning lug'atini tuzish.(« Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati » asosida)

3."Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi" va "Zamonaviy Olimpiyada o'yinlari" matni matni ustida ishlash.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Etimologiya, termin, so'zning morfemik tuzilishi, atama, so'zning leksik ma'nosi, predmet va tushuncha, nominativ vazifa, kontekst (matn), nutq vaziyati, so'zning grammatik ma'nosi, turdosh otlar, atoqli otlar, leksema, sema, konnotativ ma'no, semantik yoki tushuncha maydoni.

Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi, o'z navbatida umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

ESDA TUTING !

Tilning ma'lum sathidagina qo'llanilib, ma'lum bir so'z yoki so'z birikmasining ma'nosini xususiy ma'no bilan ifodalab beruvchi so'z yoki so'z birikmasi **termin** deyiladi.

Har bir soha terminlarining o'z yasovchi qo'shimchalari mavjud. Bir komponenti ma'nosi ko'chgan so'zdan, qolgani esa shu soha terminidan iborat lug'aviy birliklar hisoblanadi.

"Atama" so'zini **"termin"** tushunchasi ma'nosida qo'llaganimizda, uni umuman narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va ma'lum bir fan sohasiga tegishli bo'lgan birliklarni anglashimiz lozim.

ESDA TUTING !

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari turlicha bo'lib, **boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi** va h.k. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barkarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi.

ESDA TUTING !

Terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasi ning qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni diqqat bilan o'qib, o'zlashtirib oling. Matndan keyin berilgan savollarga javob berishga tayyorlaning.

Sport terminlarining yasalishi va ishlatilishi

Termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoki birikmadir. Har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o'sha soha, tarmoq doirasida qo'llanadi, soha egasining nutqini shakllantiradi, o'zaro nutqiy muomala uchun shart- sharoit yaratadi. Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb- hunar yoki mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ko'pincha u yoki bu sohaning o'ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko'radi.

Shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining, yozma yoki ogzaki nutqida **burchak zarbasi, darvoza to'sini, penalti, trener, match, langarcho'p, qo'shpoya** kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlarning ishlatilishi tabiiy holdir. Bu xildagi terminlar sportdan uzoqroq biror kasb egasi nutqida ishlatilmaydi.

Tilda mavjud bo'lgan so'z (yoki so'zlar, so'z shakllari) negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so'zlarni hosil qilish **so'z yasalishi** deyilishi haqida o'tgan mavzularda fikr yuritilgan edik. O'zbek tilida **so'z yasalishining affiksatsiya (ya'ni so'z asosiga qo'shimchalar qo'shish yordamida yangi so'z hosil qilish) va kompozitsiya (sintaktik usul** bo'lib, ikki yoki undan ortiq asosning qo'shib bitta ma'no anglatishi) usullari yetakchi usullar hisoblanadi.

Sport terminlarining ko'pchiligi **affiksatsiya (morfologik)** usulida yasaladi. So'zga yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasalgan jismoniy tarbiya va sportga xos ko'plab so'zlarni uchratish mumkin. Masalan, sportchi, *havaskor, tennischi, hujumchi, figurali (uchish), estafetali (yugurish), egiluvchanlik, (bosh hakam) yordamchisi, bahslashmoq, sharhlovchi, shaybali (xokkey), halqacha, maydoncha, hujumchi, himoyachi, markaziy, merganlik, ko'ngilli, qilichbozlik, kamonchi, takomillashuv, tayyorgarlik, jarohatlangan, ijodkorlik, iqtidorli, jamoatchi* kabi sohaga oid so'zlar yasovchi qo'shimchalar asosida yasalgan. So'z yasovchi qo'shimchalar

o'zbek tilida asosan suffiks tarzida qo'llanib, so'z o'zagidan so'ng qo'shilib keladi. **Sport atamalarining ko'pchiligi** shu usulda yasaladi.

Sohaga oid shunday terminlar ham borki, ular kompozitsion (sintaktik), ya'ni so'zlarni bir biriga qo'shish usuli bilan yasalgan. Masalan: **avtopoyga, aviamodel, avtosport, Butunjahon, qo'lqop, mauntinbayk, ko'pkurash, yakkakurash, qo'shpoya, gandbol, futbol, voleybol** kabi so'zlarning ayrimlari boshqa tillardan kirib kelgan bo'lsada, bugungi kunda tilimizda faol qo'llanilib kelmoqda.

Sintaktik usul bilan termin yasashda birikmali terminlar hosil qilinadi: *ot+ot= suvosti, velopoyga, qo'lqop,txekvondo,shoubord; sifat+ot=qattiqqo'l (murabbiy); ot+sifat=konussimon (to'p); son+ot= uchkurash, beshkurash, erkin kurash, short-trek,yunon-rum kurashi.*

Semantik usul bilan termin yasashda ma'no ko'chishining metofora usuli asosiy rol ni o'ynaydi: *figurali uchish, sinxron suzish, kamondan otish,yengil atletika, og'ir atletika,chim ustida xokkey, stol tennis, tramlindan sakrash,tag'chang'isi,eshkak eshish, suv polosi,yelkanli sport, suzish marafoni,badiiy gimnastika.*

Qisqartma so'zlar - Qisqartma so'zlar tildagi eng muhim va keng tarqalgan bo'lib,ularni qo'llash qulay va oson hisoblanadi. Qisqartmalar so'zlarning bosh harflaridan tuziladi: **FIFA** - Futbol ichida futbol atrofida, **XOQ**- Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, **O'MOQ** -O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, **BO'SM** - Bolalar va o'smirlar sport maktabi.

Savol va topshiriqlar

1. Termin deganda nimani tushunasiz?
2. Terminologiyaning qanday xususiyatlari bor?
3. Terminlar qanday usullar asosida yasaladi?
4. Terminlar til rivojida qanday ta'sir ko'rsatadi ?
5. Sportga xos terminlarning yasalishi haqida ma'lumot bering?
6. Sport terminlari yasalishida qaysi usul yetakchilik qiladi, nima uchun?
7. Qisqartma so'zlarga misollar keltiring.

TOPSHIRIQLAR .

2.Quyida berilgan texnologiya asosida tuzilgan misollar kabi sohaga oid so'z tanlab oling va shu tartibda bajaring.

Amaliy mashg'ulotda “ **Sinkvein**” usulidan foydalaniladi.

“**Sinkvein**” so'zi - fransuz tilidan olingan bo'lib, **besh** degan ma'noni bildiradi. “**Sinkvein**” metodini fikrni she'riy tarzda ifodalash deb ham yuritiladi, ya'ni besh qatordan iborat bo'lgan fikr yig'indisi.

- 1.Pedtexnologiya shartiga ko'ra matndan ot so'z turkumiga oid so'z tanlab olinadi.
2. Shu so'zni sifatlovchi ta'riflar beriladi
3. So'z birikmasi hosil qilinadi.
4. Hosil bo'lgan so'z birikmasi asosida gap tuziladi.
5. Sodda gapdan qo'shma gap hosil qilinadi. Masalan :

1. Sport

2. **Sport** (fr. desporter — „o'ynamoq“, „maza qilmoq“) qatnashuvchilarning jismoniy yoki aqliy qobiliyatlarini solishtirishga va zavqlanishga mo'ljallangan, tayinli qoidalarga ega faoliyat turidir.

3. Zamonaviy sport
4. O‘zbekistonda zamonaviy sport turlariga katta e’tibor berilmoqda.
5. O‘zbekistonda zamonaviy sport turlariga katta e’tibor berilmoqda va ular jadallik bilan insonlar hayotining bir qismiga aylanib bormoqda.

2. “Qiyosiy tahlil” metodidan foydalanib, sportga xos tushunchalardan 5tasini qiyosiy tahlil asosida o‘rganing. Texnologiyaning maqsadi: Talabalar leksik mavzu asosida tayyorlangan qiyosiy tahlil jadvalini to‘ldirish jarayonida mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga erishadilar.

O‘tkazish tartibi: Namuna: Sport musobaqalarining o‘tkazilishi

Ijobiy jihatlar:

Salbiy jihatlar:

Davlatni jahon miqyosida tanitadi.

Sportchining musobaqada ishtiroki qo‘shimcha moliyaviy chiqimlar talab etishi.

Sportchilarning reytinggi oshadi.

Muxlislar qiziqishini kuchaytiradi.

Musobaqaga qadar tinimsiz kundalik mashg‘ulotlar ushun ko‘proq vaqt ajratish.

Sportchining o‘z imkoniyat darajasini baholaydi

Sportchining amaliy ko‘nikmalarini oshiradi

Musobaqa jarayonida keskin harakatlar oqibatida jarohat olishi.

Sportchining o‘ziga ishonchi ortadi.

Agar mag‘lubiyatga uchrasa, sport musobaqalaridan ma’lum vaqtgacha chetlatilishi ...

Sportchining o‘z ustida muntazam ishlashga da’vat qiladi.

Sherigining yelkasini his qilishga o‘rgatadi.

Omma o‘rtasida o‘z hissiyotlarini jilovlashga va diqqatini jamlashga turtki beradi.

Hakamlarga nisbatan hurmat bilan yondashishga va ko‘rsatmalariga rioya etishga undaydi.

Faqat g‘alaba emas, munosib yutqazishdan ham saboq beradi...

3. Matnni o‘qing. T. S.Usmonxodjayev maktabining O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish yo‘lidagi xizmatlarini belgilang va olimning asarlari ro‘yxatini tuzing.

**TAL‘AT SAIDOVICH USMONXODJAYEV
(1932)**

Pedagogika fanlari doktori(1996), professor(1997). Tal'at Usmonxadjayev sport harakatli o'yinlari, milliy o'yinlar va sport turlarini targ'ib qilish yuzasidan qator salmoqli asarlar yozdi, O'zbekiston jismoniy tarbiya va sportida o'ziga xos maktab yaratdi.

Olimning 400 dan ortiq ishlari e'lon qilingan. Shulardan, 200tasini ilmiy-uslubiy maqolalar tashkil etsa, 28tasi darslik , 20 ta monografiya, 35 ta o'quv qo'llanma, 30 ta uslubiy- metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalardir.

Milliy o'yinlar va sport turlarini targ'ib qiluvchi 15 ta plakat , 4 ta videofilmlar yaratishi olimning jismoniy tarbiya va sport rivojiga qo'shgan beqiyos darajada ulkan hissasini ko'rsatadi.

Darsliklari: "Harakatli o'yinlar"(1962), "Sport harakatli o'yinlari" (2018), Milliy va xarakatli o'yinlar (2015), "Ertalabki badantarbiya" maktabgacha va kichik maktab yoshdagi bolajonlar uchun (2019), "Sport turlariga oid turdosh harakatli o'yinlar" (2020),"Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (2004), "Дене Тэрбиеси 7-8 сыныпқа арналган оқу куралы (2008), "Физическое воспитание 9 (Учебное пособие 9 классов общеобразовательных школ) "(2018),"Физическое воспитание (Для лицеев и колледжей)"(2016), "Пожвижные игры Учебно-методическое пособие об организации и проведении игр» (2020) , "Физическое воспитание в школе " (1987), "Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari"(1996), O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlari uchun jismoniy tarbiya bo'yicha yangi DTC va o'quv dasturi. (2001).

O'quv qo'llanmalari: "Sport pedagogik maoratinih oshirish" (2018), "Milliy harakatli o'yinlar"(2000), "Harakatli o'yinlar" (1963), " Xalq harakatli o'yinlari" (1968),"Jismoniy tarbiyadan dars materiallari"(1975), "Boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlar" (1976), "Harakat faoliyati-salomatlik manbai"(1982),"Kuni uzaytirilgan guruhda jismoniy tarbiya" (1989), "1001 o'yin" (1990), "Maktabda jismoniy tarbiya darslarini milliyalashtirish." (1992),"Harakatli o'yinlar" (1992),"O'zbekiston Respublika milliy umumta'lim maktablari 8-11 sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya majmuasi. (1992),"Kuni uzaytirilgan guruhlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish" (1992), "Boshlang'ich sinflar uchun dasturlar" (1996), "Harakatli o'yinlar (1- sinflar uchun)"(1997), O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-11, cinf o'quvchilari uchun 1999-2005 yillar uchun yangi jismoniy tarbiyadan DTS va o'quv dasturlari.Darslik 6-maxsus son (1999), O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlari uchun jismoniy tarbiya bo'yicha yangi DTC va o'quv dasturi. (2001), "Milliy harakatli o'yinlar" (2000) , "210 harakatli o'yinlar" (2001), Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati (o'quv qo'llanma 5111800-maktabgacha ta'lim).Jizzax davlat pedagogika inistituti (2021),"Таблица показателей физического развития и двигательной подготовленности школьников Узбекистана" (1983)."Физическое воспитание в школе" .Двигательный режим в старшей группе детского сада (2014), "Физическое воспитание 5-6" (Учебное пособие 5-6 классов общеобразовательных школ) (2005).


Uslubiy-metodik qo'llanmalari: "500 harakatli o'yinlar (uslubiy qo'llanma)(2014), "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya Katta tarbiyalanuvchilar uchun metodik qo'llanma" (2006), "Maktabgacha ta'lim

muassalarida jismoniy tarbiya (2019), “Jismoniy tarbiya metodikasi“ (2020), “Yugur –Sakra –Emakla –Uloqtir, Begay-Prqgay-Polzay-Metay.Maktabgacha ta’lim muassalari va umumiy o’rta ta’lim maktablari boshlang’ich sinflarda foydalanish uchun bolalar sport o’yinlariva jismoniy mashqlar to’plami.(2018), “Jismoniy tarbiya 5-6 sinf o’quvchilari uchun o’quv qo’llanma (2006), ” O’zbek xalq o’yinlari” Toshkent –Jizzax, Forish -Toshkent –Jizzax (1991 yil)

Uning rahbarligida hozirgi kungacha talabalar ko’plab bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertasiya ishlari yakuniga yetkazilib himoyadan o’tgan. Bundan tashqari, uning 17 ta shogirdi pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Tal’at Usmonxadjayevning xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib darajada taqdirlangan.”O’zbekiston xalq maorifi a’lochisi” (1974), I darajali „Sog’lom avlod uchun “ ordeni (1999) hamda “O’zbekiston Respublikasi o’rta maxsus kasb- hunar ta’limi alochisi “ (2002) ko’krak nishoni berilgan.

4.Berilgan shakllardan moslarini tanlab jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid terminlarni hosil qiling. Morfologik, sintaktik so’z yasashining farqli jihatlariga e’tibor bering.



5. So’zlarni o’qing. Morfologik, sintaktik, semantik usullarda hosil qilingan so’zlarni ajratib alohida ustunlarga yozib chiqing.


Tennischi, kurash, yakkakurash, basketbol, gandbolchi, shaxmatchi, langarcho’p, qo’shpoya, yakkacho’p, sportchi, kamonchi, chorakfinal, himoyachi, natijaviy, avtogol, rapira, sayohatchi, skeybord, sovuqqonlik, sportcha, suyanch, tajribali, talabchan, turnik, velopoyga, yarimfinal, yelkanli.`

6. Gaplarni daftaringizga ko’chiring. Sportga oid so’zlarni ajratib, ma’nosini izohlang. Yasama va tub terminlarni quyidagi shakllarga joylashtiring


1) Kurash bizning milliy boyligimiz. 2) Tennischilarimiz doimiy ravishda Devis Kubogi musobaqalarida ishtirok etib kelishmoqda. 3) Bokchilarimiz butun olamga O’zbekiston shuhratini yoymoqda. 4) O’zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti juda ko’plab sportchilarni yetishtirib bergan dargoh sanaladi. 5) Mahmud Murodov aralash jang turnirlarida muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. 6) Bokschilarimiz yirik promouterlik kompaniyalari bilan kelishuvga erishgan. 7) Kross va xuk zarbalari raqibni dovdiratib qo’ydi. 8) Estafeta farg’onalik yoshlarga

topshirildi. 9) Pandemiya juda ko‘plab sport turnirlarining qoldirilishiga sabab bo‘ldi. 10) Himoyachining birgina xatosi o‘yin natijasini o‘zgartirib yubordi.

Tub terminlar



Yasama terminlar



7.Sport yo‘nalishingiz bo‘yicha (« Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘ati » asosida) atama va so‘zlar lug‘atini tuzing.

8.Rasmdagi futbol jamoasi haqida sport sohasiga oid terminlardan foydalanib gaplar tuzing.



9.Berilgan so‘zlardan ilmiy uslubga xoslarini ajratib ko‘chiring.

Biosfera, firma, ekologiya, ota-ona, yer, ma‘rifat, tushuncha, tajriba, uy, taom, ko‘rinadiki, shuningdek, deraza, sayr qilmoq, mardona, o‘simlik, nahotki, ajoyib, faxrlanmoq, tizim, xarita, nur, sartarosh, harorat.

Namuna: biosfera,...

10.Matnni diqqat bilan o‘qing va tubandagi savollarga javob bering.

Tomoshachilar orasida yana ola-g‘ovur qo‘pti: «Ana, uloqning solig‘ini yig‘ayotibdilar!», «Uloq hozir boshlanadi!», «Murod chavandoz ham turdi!», «Salim qalpog‘ini kiydi!», «Ro‘zi qassob» uloqni bo‘g‘izlamoqchi, pichog‘ini qayrayapti!», «Boyvachchalar ham qo‘zg‘alishdilar!», «Salim choponini yechmoqchiga o‘xshaydi!», «Hay barakalla, shovvozlar!»

O'rtoqlarim bilan men ham uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. Chavandozlarning qaysisi to'nini yechmoqda, ba'zisi otining ayilini tortmoqda va qaysi birovlar uloqning solig'ini bermoqda edilar. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to'nini menga berib, o'zi o'rtağa ot o'ynatib ketdi.

Uloqchilar birin-sirin o'rtağa g'uj bo'la boshlagan bo'lsalar ham, hanuz uloq o'rtağa kirmagan edi. Hamma tomoshachilar sabrsizlanib: «Shu tobgacha tuya bo'g'izlasa ham bo'lar edi, ulog'i yaxlab qoldimi?» — deyishdilar.

Oradan talay vaqt o'tgandan keyin, bo'g'izlangan ulog'ini oldiga o'ngarib Orif sarkor va uning orqasidan boyagi mashhur chavandozlar qalpoqni chakkaga qiya qo'yib, egarga qiyshiq o'ltirib o'rtağa kirdilar. Tomoshachilar uloqni ko'rganlari on: «Xoh, jonivor, bormisan!» deyishdilar.

Oradan allakim: «Uloqning qoni yaxshi yuvildimi?» — deb so'ragan edi, Orif sarkor:

- Xotirjam! - dedi va uloqni shalq etib yerga tashladi, so'ngra xalqqa yaqinroq kelib: «Og'aynilar! Bola-chaqalarni chetga chiqaringlar, ot oyog'ida qolgudek bo'lmasin, o'zlaring ham ehtiyotroq joyda turinglar, hayvon bilan bo'lgan ish qiyin!» — deb aytdi.

Orif sarkor xalqdan fotiha olib, otini yugurtirib to'daga ketdi. Tomoshachilar to'dadagi o'z yaqinlariga: «Bukun g'ayratlaringni ko'ramiz-da!» — deb baqirishdilar.

Uloq boshlandi...

(A.Qodiriy "Uloqda" hikoya)

Savol va topshiriqlar

1. Matn muallifi haqida nimalarni bilasiz, ijodkorning hikoyani yozishdan maqsadi nima edi, bosh g'oya haqida gapiring?
2. Matndagi yasama so'zlarni alohida ajratib yozing va qaysi usul bilan yasalganini izohlang?.
3. Matnda qaysi sport turi haqida so'z borgan, bilganlaringizni gapiring ?
4. Matnda ishtirok etgan harflar birikmasi mavjud so'zga 3 ta misol keltiring.

11. Matnni o'qing va qayta hikoya qiling. Matn asosida tuzilgan savollarga javob bering va rasmlarning matnga aloqadorligi haqida gapiring.

Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi.

Futbolchi yugurish tezligi, ta'sirchanligi va boshqa ko'nikmalarni oshirishi uchun u jiddiy jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi mashg'ulotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Barcha mashg'ulotlarning deyarli yarmi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlanishga bag'ishlanadi.

Futbol - bu sport o'yini, shuning uchun jamoa o'yinchilarining jismoniy tayyorgarligi o'yin natijalariga ta'sir qiladi. Odatda, futbolchilar mashg'ulotlarda o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun futbol maktabiga tashrif buyurishning hojati yo'q, chunki futbol o'ynash uchun maxsus ko'nikmalarni tayyorlash bo'yicha allaqachon video darsliklar mavjud. Ushbu **video darslar** jismoniy fazilatlarni samarali rivojlantirishni o'rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, ularda professional murabbiylarning maslahatlari va boshqa foydali ma'lumotlar mavjud.

Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi jismoniy mashqlar uchun **umumiy mashqlar** va sportchining **maxsus mahoratini rivojlantirishga qaratilgan**

mashqlarni o'z ichiga oladi. Murabbiy jismoniy tayyorgarlik futbolchi uchun samarali va xavfsiz bo'lishi uchun mashg'ulot intensivligini mustaqil ravishda belgilashi mumkin. Mashg'ulotlarga ajratilgan vaqtni tejash uchun murabbiy jismoniy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha video darslarni tavsiya etadi.

Jismoniy mashqlar uchun turli xil mashqlar mavjud. Ba'zilar sportchining mushak massasini oshirishga qaratilgan, boshqalari esa **reaktsiya va yugurish tezligini** oshirishga qaratilgan. Umumiy jismoniy tayyorgarlik futbolchiga futbol o'yini sirlarini o'rganishga imkon beradi. Futbolchi to'pni iloji boricha samarali urishi uchun qo'llab-quvvatlash maydonini qisqartirishga qaratilgan mashqlar qo'llaniladi: bir oyoqda sakrash, oyoq barmoqlarini bosib o'tish va boshqalar.

Faqatgina ushbu sport turida ishlatiladigan maxsus mashqlarsiz futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini tasavvur qilib bo'lmaydi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun bunday mashqlar futbolchiga zarbalarni va "qiyin" zarbalarni bajarishga o'rgatadi.

1857 yilda Sheffildda dunyodagi birinchi futbol klubi, 1863 yilda Angliya futbol uyushmasi tashkil etildi, u o'yin qoidalarini birlashtirish bilan shug'ullanadi. Bu futbol va regbi o'rtasidagi yakuniy bo'shliqqa olib keldi. 1885 yilda, uzoq munozaralardan so'ng, professional futbol qonuniy rasmiylashtirildi va shu tariqa futbolchi kasbi paydo bo'ldi.



Savollarga javob bering?

1. Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi haqida qisqacha ma'lumot bering?
2. Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi qanday olib boriladi?
3. Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi qanday jismoniy mashqlarni bilasiz?
4. Sheffildda dunyodagi birinchi futbol klubi nechanchi yil tashkil etilgan?
5. Futbol o'yinida har bir jamoadan necha nafar futbolchi ishtirok etadi?

Yuqoridagi matn haqida olgan ma'lumotlaringiz asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Futbol haqida ma'lumotlar	V	+	–	?
Futbol				

- V – bilar edim
- (+) – men uchun yangi axborot
- (–) – men bilganlarimdan farq qiladi
- (?) – tushunmadim, savollarim bor

12. Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlarning etimologiyasini (qaysi tildan olingan va ma'nosi) lug'at yordamida aniqlang.

Futbol - bu juda qadimiy **sport** turi. Miloddan avvalgi III asrda kichik maydonlarda charm to'plar bilan o'ynagan **sivilizatsiyalarning** dalillari allaqachon mavjud. Futbolning mavjudligiga oid eng qadimgi yozma dalillar Xitoyning Xan sulolasi davriga oiddir.

Bugungi kunda ma'lum bo'lgan futbolning kelib chiqishi ingliz maktablaridan boshlanadi. Ushbu maktablarning bir guruhi o'yin qoidalarini o'rnatish uchun yig'ilishdi. O'sha paytdan boshlab ikki guruh paydo bo'ldi: to'pni qo'l bilan ushlashga imkon beradiganlar (bugun **regbi**) va faqat oyoqlaridan foydalanishni istaganlar (futbol).

1863 yilda futbol **assotsiatsiyasi** (FA) tashkil etildi, unda 11 ingliz klubi 13 o'yin qoidasini tasdiqladi. Keyinchalik bu qoidalar 1886 yilda o'zgartirildi va Xalqaro futbol assotsiatsiyasi **kengashi** (IFAB) tashkil etildi, bu **tashkilot** bugungi kunga qadar o'yin qoidalarini o'zgartirish bilan shug'ullanadi. 1937 yilda qoidalar 13 dan 17 gacha bo'lgan.

Bir nechta uchrashuvlar va chempionatlarni o'tkazgandan so'ng, **FIFA** 1904 yilda Parijda tashkil topdi, bu hukumat organi bo'lib, shu kungacha xalqaro futbol **federatsiyalarini** boshqaradi. FIFAning **qarorgohi** Tsyurixda joylashgan bo'lib, 211 assotsiatsiyani birlashtiradi.

Bugungi kunda futbol dunyodagi eng mashhur sport turi hisoblanadi. Bu 240 milliondan ortiq odam o'ynaydi va 200 dan ortiq mamlakatlarda o'ynaydi. Futbol bo'yicha jahon chempionati dunyodagi eng ko'p tomosha qilingan sport **musobaqasidir**.
(<https://uz.warbletoncouncil.org> internet manbasi ma'lumotlari)

13. Rasmlar asosida xos sport turiga oid atamalardan foydalanib gaplar tuzing.



14. Uyga vazifa. Lugʻat bilan ishlash. Berilgan soʻzlarni ular anglatgan maʼno bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Ifoda** [a] - Oʻy-fikr, ichki kechinma, holat, voqea-hodisa va sh.k.ni oʻzida aks ettiruvchi yoki mujassamlashtiruvchi belgi, holat, ramz; ishning asosiy mazmunini (mohiyatini) aytib berish; bayon, hikoya; yozma bayon, qisqa bayon
2. **Ijodiy** - Ijod etish va ijodiyot bilan bogʻliq boʻlgan, yaratuvchilik uchun xizmat qiladigan.
3. **Ijroqoʻm aʼzosi** - m Ijroiya qoʻmita tarkibiga oltita aʼzo ham kiradi, ularning vakolat muddati 4 yil.
4. **Ikkikurash** - Sportning ikki turini oʻz ichiga olgan musobaqa.
5. **Imtiyozli** - Hamma uchun belgilanganidan ortiq haq-huquqqa, imtiyozlarga ega boʻlgan, yengillik berilgan
6. **Irgʻitish** - Biror tomonga otmoq, uloqtirmoq; granatani uloqtirmoq.
7. **Jalb etish** - Oʻziga tortmoq, yaqinlashtirmoq; tomoshabinlarni oʻziga qaratmoq.
8. **Jamiyat** - Biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy tashkilot. "Paxtakor" sport jamiyati.
9. **Jamoaviy oʻyin** - Oʻyinda ikki jamoa oʻzaro bahslashadi. Gʻalabaga boʻlgan ishonch oʻyinchilarni jamoa boʻlib harakat qilishga undaydi
10. **Jarima toʻpi (basketbol)** - Hujum vaqtida bir jamoaning oʻyinchilari raqibini qoʻpollik bilan turtib, qoʻliga urib yuborsa (shu kabi xatolarga yoʻl qoʻysa), 1,2,3 jarima toʻpi berishda qoʻllaniladi. Jarima toʻpini tashlashni, koʻpincha, qoʻpollikka uchragan oʻyinchi bajaradi. Shuningdek, toʻpni polga urmasdan olib yurish, toʻpni olib yuruvchi havoda irgʻitib yana ushlab olishi taʼqiqlanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Termin deganda nima tushinasiz, atama-chi?
2. Ilmiy uslubga misollar keltiring?
3. Sohaviy terminlar qanday yasaladi?
4. Sohaviy terminlarning morfologik, sintaktik, semantik usullarda yasalishini misollar bilan tushuntirib bering?
5. Sohaga oid qisqartmalarga misollar keltiring?
6. Soha lugʻatlari haqida bilasizmi?
7. Qaysi olimlarning sport terminlariga oid lugʻat kitoblari bor?
8. Oʻzingining sport sohangizga oid terminlar roʻyxatini tuzing va izohli maʼnosi bilan oʻrganing.

MAVZU BOʻYICHA TESTLAR

1. Futbolchi qanday tayyorgarlikka ega boʻlishi kerak?

A. Futbolchi reaksiyasini, yugurish tezligini va boshqa koʻnikmalarni oshirishi uchun u jiddiy jismoniy tayyorgarlikka ega boʻlishi

B. Futbolchilar jismoniy va aqliy tayyorgarligi rivojlangan, mashgʻulotlarning muntazam olib borish tayyorgarlikka ega boʻlishi

G. Futbolchi tayyorgarligi mashgʻulotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib, barcha vazifalarga ega boʻlishi

D. Futbolchi reaksiyasini, boʻyi va vaznini oshirishi uchun u jiddiy jismoniy tayyorgarlikka ega boʻlishi

2. Futbol oʻyinida har bir jamoadan necha nafar futbolchi ishtirok etadi, oʻyin necha daqiqa davom etadi.

A. 11 nafar, 90 daqiqa

B. 9 nafar, 45 daqiqa

G. 13 nafar, 30 daqiqa

D. barcha javoblar toʻgʻri

3. Yashash joyi boʻlmaganlar yotoqxona bilan taʼminlanadi. Gap qaysi nutq uslubiga xos?

A. Ilmiy uslub.

B. Publitsistik uslub.

G. Soʻlashuv uslub.

D. Badiiy uslub.

4. Qaysi lavobda oddiy soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlar berilgan?

A. Attang, shavirama, tuzuk.

G. Afsus, inson, shoti.

B. Yangittan, zotan, qaytadan.

D. Soʻrov, diqqat, keskin.

5. Qaysi qatordagi soʻzlarda faqat qoʻsh undoshlar qoʻllanadi?

A. Musal...as, sad...a, od...t.

B. Muhar...ir, la...zat, qat...iyat.

G. Muqad...as, mil...at, tan...oz.

D. Muhab...at, hur...iyat, mubo...ak.

6. Qaysi qatordagi soʻzlarda urgʻu soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushmagan?

A. Maktab, maktablar

G. Atlas, aloqa, axloq

B. Hamma, barcha, jami

D. Uyning, koʻchamiz

7. Qaysi javobda publitsistik uslubga xos soʻzlar berilgan?

- A. Tavba, hormang,zebo.
- B. Maqtanchoq,tovba, dalil.
- G. Dilbar, darkor, oʻrgilay.
- D.Bashariya,timsoli,olqishladi.

8. Qaysi qatordagi soʻzlarda ikkita bir xil unli yoziladi ?

- A. Ta...ssurot, shu...r, ba...broʻ
- B. Ta...ssub, mudofa..., na...nki.
- G. Manfa...t, mutola..., ta...lluq.
- D. Mu...llaq, badi...y

9. Yangi oʻzbek alifbosida nechta belgi bor?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- G. 1 ta
- D.4 ta

10. Oʻzbekcha soʻzlarda, odatda, urgʻu qaysi boʻgʻinga tushadi?

- A. birinchi boʻgʻiunga
- B. ikkinchi boʻgʻinga
- D. uchinchi boʻgʻinga
- D. oxirgi boʻgʻinga

Asosiy adabiyotlar

- 1.Baltayeva I.T. Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi.OʻRO va OʻMTV Roʻyxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) “Oʻzkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
2. Gʻafforov N.N.Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). “Oʻzkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
- 3.Baltayeva I.T. Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi. OʻRO va OʻMTV Roʻyxatga olish raqami:233-0038 (Oʻquv qoʻllanmasi) “Oʻzkitobsavdonashriyoti”,Chirchiq, 2022.
- 4.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Odilov Y.Davlat tilida ish yuritish.Amaliy qo'llanma.«O'ZBEKISTON NASHRIYOTI»Toshkent,2020-yil
- 5.Gʻafforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (oʻquv qo'llanma). “Oʻzkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
- 6.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Ish yuritish.(amaliy qoʻllanma)”Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

MATN VA UNING TURLARI. ILMIY-OMMABOP

MATNLAR (4soat)

REJA :

- 1.Matn haqida tushuncha : mikro va makro matn.
- 2.Ilmiy va ilmiy-ommabor matnlar.
- 3.Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligiga oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlar.
- 4.“Bo‘lajak kasbim. Jismoniy tarbiya va sport” matni ustida ishlash.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Matn, makro matn, mikro matn, uyg‘unlik, hamjihatlik, ilmiy matn, badiiy matn, bo‘lajak kasb, zamonaviy mutaxassis, jismoniy tarbiya, sport.



ESLAB QOLING !

Matn so‘zning ma‘nosi – arab tilidan olingan bo‘lib, nutqning yozuvdagi ifodasi,tekst. Matn muallifning fikrlarini yetkazishga imkon beradigan izchil va tartibli iboralar va so‘zlar to‘plami.Ko‘pchilik matnlarni yozuvchilar,olimlar,shoirilar yoki jurnalistlar yaratadi deb o‘ylashadi,aslida o‘qish va yozishni bilgan har qanday kishi matn yarata oladi.

Matnning maqsadi - qabul qiluvchiga tushunarli bo‘lishi uchun romantik, tavsiflovchi, ilmiy, ma‘lumotli,muhim xabarni aniq yetkazish.

Matnlar hajmi jihatidan bir necha so‘zdan bir necha xatboshiga qadar o‘zgarishi mumkin, ammo matn xabarni uzatish vazifasi samarali bo‘lishi uchun u ikkita xususiyatga javob berishi kerak: izchillik (uyg‘unlik) va birdamlilik (uzviylik)

ESLAB QOLING !

Kontekst - bu lingvistik elementlarning to'plami yoki **lingvistik, ijtimoiy va pragmatik muhit**, so'zni yoki jumlaning o'rab turgan, ya'ni oldin va keyin keladigan va bu yoki uning to'g'ri talqinining ma'nosini o'zgartiradigan yoki o'zgartirmaydigan shartlar.

Savollarga javob bering?

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matn qanday birliklardan iborat?
3. Matnning qanday turlari mavjud?
4. Muallif maqsadiga ko'ra badiiy matnni qanday turlarga ajratish mumkin?
5. Matnning eng muhim asosiy xabarni uzatishning samarali bo'lishi uchun qaysi xususiyatlari farqlanadi?
6. Kontekst deganda nimani tushunasiz?
7. Matnning maqsadi nimadan iborat?

TOPSHIRIQLAR

1. 5 daqiqa vaqt beriladi. "Bo'lajak kasbim" mavzusida matn tuzing va uni o'qib bering? Tuzgan matningiz asosida quyidagi savollarga javob bering?

1. Xalqimizning: "Inson hayotda yashar ekan, ikkita narsani tanlashda xatoga yo'l qo'ymasligi kerak. Buni birinchisi - kasb tanlash, ikkinchisi - umr yo'ldosh tanlashdir", degan fikriga munosabat bildiring?
2. Sizning kasb tanlashingizga turtki bo'lgan eng asosiy sabab nima?
3. Nima uchun shu kasbni tanlagansiz? Bu kasbning mashaqqati va sharaflari tomonlari haqida gapiring?
4. Kasbingizda muvaffaqiyat qozonishingizning asosini nima tashkil etadi?
5. Agar Oliygo'ha "adashib" kirgan bo'lsangiz, buni sabablarini tushuntiring?
6. Kelajakdagi rejalaringiz?

ESLAB QOLING !

Matnning tuzilishi

Matn kirish, ishlab chiqish va xulosadan iborat tuzilishga ega.

- **Kirish:** bu muhokama qilinadigan mavzu va uning eng dolzarb jihatlari namoyish etiladigan matn qismidir. Bu rivojlanishda topiladigan narsalarga ishora.
- **Rivojlanish(ishlab chiqish):** matnning asosiy qismi. Bu yerda kirish qismida ko'rsatilgan mavzuga oid ma'lumotlar aniq, tartibli va izchil ravishda taqdim etiladi.

Natija(xulosa): taqdim etilgan ma'lumotlarning sintezi va baholanishi. Mavzuning asosiy g'oyalari yakuni.

7. Zamonaviy mutaxassis, deganda nimani tasavvur qilasiz, kimlarni?

ESLAB QOLING !

Matn va uning tasnifi

Matnlar eng muhim struktur (tarkibiy) va funksional xususiyatlariga ko'ra axborotni uzatish alohida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra matnlarning **og'zaki matn** va **yozma matn** tiplarini farqlash lozim.

Matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra **minimal matn** va **maksimal matn** tiplariga ajratish mumkin.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi.

2. Berilgan matnni o'qing. Uning mazmuni va asosiy g'oyasini matnning o'zida va sarlavhada ifodalanishini izohlashga harakat qiling.

SURAT

Dunyoning ishlari doim shoshilinch. Odatdagidek tik turgancha nonushta qilayotgan edim. Onam odatdagidek qistardi:

- O'tirsang-chi, bolam. Birpas o'tirgin.
- Bo'ldi, ketdim.
- Shoshma, bolam. Onam ko'zimga odatdagidan boshqacha, qandaydir mung bilan termildi. - Gap bor. Tipirchilab soatga qaradim: hali benzin olish kerak, ishga borish kerak, keyin nashriyotga o'tish...
- Nima edi? Onam ko'zimga hamon ma'yus termilib o'tirardi.
- Suratga tushaylik, - dedi to'satdan. Ajablandim.
- Nega?
- Yaqinda men o'laman. Onam bu gapni xuddi: «Qo'shninikiga chiqib kelaman», degandek ohangda aytdi. Kulib yubordim.
- Qo'ysangiz-chi, oyi. Shunday dedim-da, chiqdim ketdim.

Oradan ikki hafta o'tdi-yu... Kechalari uyg'onib ketaman, o'ylayman. O'ylayman: sen nomard, sen ahmoq nimaga, nimaga o'shanda kulding? Suratga tushishga vaqting yo'qmidi? Kerak bo'lsa topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida, bog'da, ko'chada... Nima, sen kino yulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana, bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo'q!

(O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari")

ESLAB QOLING !

Matn lingvistikasiga oid ishlarda ma'lum bir matn tarkibidagi murakkab sintaktik butunlikka nisbatan **mikromatn**, yaxlit matnga nisbatan esa **makromatn** atamasi qo'llanadi.

Matnlarni tiplashtirishda ularning lisoniy strukturasi ham nazarda tutilishi kerak. Shunga ko'ra, tipologik jihatdan **turg'un strukturali matnlar** (ma'lumotnoma, dalolatnoma kabilar. va **erkin** strukturali matnlar (maqola, hikoya, she'r, roman kabilar)ni farqlash mumkin.

Matn turlarini belgilashda yana bir omil - asos nutqning funksional uslublaridir. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko'ra **ilmiy matn** (tezis, maqola, ma'ruza, taqriz), **badiiy matn** (nasriy, nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsifanomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi.

3. Matnni o'qing, fikr qaysi sport turi haqida bormoqda. Matn mazmunidan kelib chiqib, sarlavha qo'ying va o'z bilimingiz asosida matnni kengaytiring.

... Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi o'smir yakkakurashchilarning sport motivatsiyasini rivojlantirishda o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan harakatli o'yinlarning samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari quyidagicha bo'ldi.

Pedagogik tajribadan oldin nazorat guruhidagi o'smir bokschilarning berilgan uchta savolga javoblarining o'rtacha qiymati $2,70 \pm 0,23$ ballga, tajriba guruhidagi sportchilarning javoblari esa o'rtacha $2,72 \pm 0,17$ ballga teng bo'ldi ($p > 0,5$)...

(Tajibayev S.S. Harakatli o'yinlarni qo'llash asosida o'smir bokschilarning sport motivatsiyasini rivojlantirish, "Fan – sportga" ilmiy- nazariy jurnal, Chirchiq, 2019-yil, 113-116 betlar)

4. Berilgan so'z va birikmalar orasidan jismoniy tarbiya va sportga oidlarini daftaringizga ko'chirib yozing. Atamalar ma'nosini lug'atlar yordamida o'zlashtirib oling.

Akvalang, arena, apperkot, leksikologiya, aut, bobsley, uslub, batterflyay, brass, atamashunos, harakatning belgisi, burchak zarbasi, audit, butsi, ibora, so'z, turnir, chana, gap, chang'i, chidamlilik, champion, darvoza, dast ko'tarmoq, disk.

5. "Mening sportdagi birinchi ustozim", "O'zbekiston sportchilari", "Kasbim-faxrim", "Universitetim bilan faxrlanaman", "Sportimiz fidoyilari" mavzularidan biriga matn tuzing. Unda ishlatilgan so'zlarni tubandagi jadvalga ko'chirib yozing.

Uslubiy xoslangan

Uslubiy xoslanmagan terminlar

terminlar

6. Matnni o'qing, sarlavha qo'ying va kengaytirib yozing.

Otchopardagi musobaqalar kattalar va yoshlar o'rtasida o'tkazilgan. Poygada otlar va toylar alohida qatnashgan. Otchopardagi musobaqada ot egasi g'olib deb e'lon qilingan.

7. Matnni diqqat bilan o'qing, matnda nomlari keltirilgan sportchilar haqida nimalarni bilasiz, o'rtoqlaringiz bilan fikr almashing.

O'ZBEKISTON OLIMPIYA O'YINLARIDA

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyo hamjamiyatida tan olingach, 1994-yildan boshlab olimpiya o'yinlarida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

2017-yilga kelib O'zbekiston terma jamoasi a'zolari olimpiada shohsupasida jami 34marta ko'tarilishdi. Sportchilarimiz 10ta oltin, 7ta kumush va 17ta bronza medalini qo'lga kiritishdi.

1994-yilda Norvegiyaning Lillehammerida o'tkazilgan qishki olimpiya o'yinlarida **Lina Cheryazova** fristayl bo'yicha hammadan yaxshi ekanini isbotladi va oltin medal egasiga aylandi.

2000-yilda Avstraliyaning Sidney shahri mezbonlik qilgan yozgi olimpiya o'yinlarida **Muhammadqodir Abdullayev** boks bo'yicha musobaqada barcha raqiblarini yengib, chempionlik unvoniga sazovor bo'ldi.

Aleksandr Dokturishvili Afinadagi o'yinlarda yunon-rum kurashi bo'yicha o'z vazn toifasida tengsiz ekanini isbotladi va bayrog'imizning baland ko'tarilishiga sababchi bo'ldi.

Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha musobaqalarda Sidneyda kumush medal bilan qanoatlangan bo'lsa, keyinchalik Afina, Pekin va Londonda barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, uch kata Olimpiyada chempioniga aylandi.

2016-yili Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tgan Olimpiya o'yinlarida **Hasanboy Do'smatov, Shahobiddin Zoirov va Fazliddin G'oibnazarov** bokschilar musobaqasida shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan bo'lishsa, vazni 105 kilogrammgacha og'ir atletikachilar bahsida **Ruslan Nuriddinov** olimpiya rekordini o'rnatgan holda o'yinlar chempioniga aylandi.

O'zbekistonlik sportchilarning olimpiadalarda ishtirok etishi va qo'lga kiritgan sovrinlari haqidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz.

8. Tushirib qoldirilgan tovishlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

SOB... ULOQ...ISH

Sob... uloq...ish – eng qadim... sport turlaridan biri, Sob...lar tosh va ... zadan yasal... , ularning vazni 2-6kg, diametri - 21-34 sm bo'lgan.

9. Rasmlar asosida matn tuzing. Milliy sport turlarining sport rivojidagi o'rni haqida so'zlab bering.



10. Mutolaa. “Laylak” matnini o‘qing. Matnni mazmun jihatdan qismlarga bo‘ling va har bir qismga nom bering. Matnning mazmunini o‘z so‘zingiz bilan ifodalang.

11. Matnni o‘qing,eng muhim qismlarini daftaringizga yozib oling va og‘zaki gapirib bering..

SHAHOBIDDIN ZOIROV

2016-yilgi Rio-de-Janero olimpiadasida boks boyicha musobaqaning -52 kg vazn Toifasida oltin medal sohibi. Ikki marta Osiyo vitse chempioni,Osiyo o‘yinlari kumush medali sovrindori.

1993-yil 3-mart kuni Buxoro viloyatining Kogon shahrida tug‘ulgan .

2011-yili Buxoro olimpiya zaxiralari kollejinii tamomlagan.

Bir necha bor milliy chempionatlar va Rossiya, Qozog‘iston, Bulgariya, Iordaniya kabi mamlakatlarda tashkil etilgan xalqaro musobaqalarda shohsupadan joy olgan .

2013 va 2015-yillari Osiyo chempionatlarida , 2014-yilli Incheondagi Osiyo o‘yinlarida Zoirov finalga chiqqan, lekin oltin medaldan benasib qolgan edi.

Rio-de-Janeyro o‘yinlariga yo‘llanmani Xitoyda o‘tkazilgan Osiyo-Okeaniya saralash turniridagi g‘alaba evaziga qo‘lga kiritgan.

Shahobiddin olimpiada dasturidan o‘rin olgan boks bo‘yicha musobaqada irlandiyalik Brendon Irvin,Panamerika o‘yinlari chempioni AQSH vakili Antonio Vargas ,Yevropa o‘yinlari g‘olibi va amaldagi jahon chempioni ozarbayjonlik Elvin Mamishzoda,Venesuela termasi a‘zosi Joel Segundo Finol kabi kuchli raqiblarni dog‘da qoldirib finalga chiqqan.Oltin medal uchun jangda Rossiyalik 2 karra jahon chempioni Misha Aloyanni 3:0 hisobida yengib,shohsupaning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilgan.

“O‘zbekiston Iftihori”faxriy unvoni bilan mukofotlangan³.

12. Uyga vazifa. Lug‘at bilan ishlash. Berilgan so‘zlarni ular anglatgan ma’no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Jarohat** - Sport va jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug‘ullanish jarayonida, shuningdek, musobaqa jarayonida o‘yinchilar tanasining ayrim qismlarida — bilaklar, tirsak va yelka atroflari, tizzalar, oyoq tovonlari va bel atroflarida kutilmaganda og‘riq bezovta qilishi mumkin. Bunday noxush og‘riqlar paydo

³ To‘xtamirzayev M.,Turdiyev F.,Rasulova M.Olimp sari.-Toshkent.,”Navro‘z”,2017-yil,105-bet.

bo'lishining asosiy sababi — mashqlarni bajarishda xavfsizlik texnikasiga rioya qilmaslik, xavfsizlik choralarini ko'rmaslik, o'zini o'zi nazorat qilish (himoyalash)ni bilmaslik yo mashqni noto'g'ri bajarishlik, yuklamaning keragidan ortib ketishi; tibbiy-gigiyenik va iqlimiy shart-sharoit — issiq, sovuq, yomg'ir, sirpanchiq maydoncha va boshqalarning noqulayligi; sportchilarning mavjud qoidalarini buzishi va ularga amal qilmasligi; mashg'ulot yoki musobaqa jarayonida man qilingan usullarni (itarib yuborish, chalishlar, oyoqqa va boshqa joylarga turtishlar) qo'llash natijasida kelib chiqadi. Shoshma-shosharlik, e'tiborsizlik, keragidan ortiq hissiyotga berilish, atayin ishlatilgan qo'pollik oqibatida esa shikastlanishga yo'l qo'yilishi mumkin.

2. **Jismoniy** [a] - Jonli organizmlarning jismiga oid; muskul harakatlari bilan bog'langan, muskul ishiga asoslangan. Jismoniy tarbiya.
3. **Jismoniy mashqlar** - Dastlabki yengil mashqlardan (oyoqning chigilini yozishga ko'maklashuvchi harakatlardan) so'ng egiluvchanlik va chaqqonlikka oid mashqlarni, ulardan keyin esa kuch va chidamlilikni shakllantiradigan mashqlarni bajarish maqsadga muvofiq. Jismoniy mashqlar sportning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda tuziladi.
4. **Jismoniy sifatlar** - Quyidagi mashqlar bajarilganda asosiy jismoniy sifatlar: kuch, epchillik, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik rivojlanadi: qo'l kaftlarining egiluvchanligini rivojlantiruvchi mashqlar; kuchni rivojlantiruvchi mashqlar; qo'llar va yelka kamarini rivojlantiruvchi mashqlar; qorin mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar; bel mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar; oyoq mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar; egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar; mushaklarni bo'sh qo'yish uchun mashqlar v.b
5. **Jismoniy tayyorgarlik** - Jismoniy tayyorgarlik - ayrim kasbiy-amaliy jismoniy mashqlarga o'rgatish, asosiy jismoniy sifatlarni o'zida tarbiyalash hamda ularni kasbiyamaliy sport turlari bo'yicha oddiy musobaqalarda qatnashishga tayyorlash v.b.
6. Jismoniy harakat - Jismoniy harakatlarni , mashqlarni bajara bilish qobiliyati; jismoniy harakatlarni mashqlarni oliy darajada, avtomatik usulda bajarish qobiliyati.
7. **Jismoniy holat** - Sport bilan shug'ullangan shaxsda jismoniy tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik fazilatlarini namoyon bo'ladi. Jismoniy harakatlar va jismoniy mashqlarni qisqa vaqt ichida samarali bajara olish; uzoq vaqt jismoniy harakatlarni bajara olish; harakatlarni tez va epchil bajara olish; tayanch harakat apparatining harakatchanligi, keng ko'lamda harakatlar bajara olish kabi.
8. **Jismoniy ish qobiliyati** - Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanganda ma'lum darajada charchash, toliqish - qonuniy fiziologik holatdir. Charchoqsiz mashq qilib bo'lmaydi. Ish qobiliyatini tiklash qancha tez bo'lsa, sportchi navbatdagi mashg'ulotda o'zining sihatsalomatligiga putur yetkazmay juda katta jismoniy ishni samara bilan bajarishi mumkin, shunda tanaga bajarilgan ish yoqimli ta'sir etadi, mashg'ulotning samaradorligi oshadi. Ish qobiliyatini tiklash sportchilar tayyorlash ish tartibida ahamiyatliroqdir. Buning eng muvofiq asosiy yo'li - unumli mashq qilish va tartibli, sog'lom hayot tarzi, tozalik (gigiena) qoidalariga

amal qilishdir. Sport amaliyotida ish qobiliyatini tiklash vositalarini uch asosiy guruhga bo'lib foydalaniladi: pedagogik, psixologik va tibbiy.

9. **Jismoniy kamolot** - Jismoniy kamolot jismoniy tarbiya va sport sohasida yetuk natijalarga erishish bilan birga aqlan, axloqan yetuk bo'lish
10. **Jismoniy madaniyat** - Jismoniy madaniyat xalqning jismonan va ma'naviy barkamolligini ta'minlash, sog'ligini muhofaza qilish hamda jismoniy mashqlar va sportga qiziqish, jalb ettirilish darajasi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matn qanday birliklardan iborat?
3. Matnning qanday turlari mavjud?
4. Muallif maqsadiga ko'ra badiiy matnni qanday turlarga ajratish mumkin?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. "Bir gal ancha olis safarga chiqishga to'g'ri keldi. Avval Germaniyaga uchdik. Undan Amerikaga. So'ng Shveytsariyaga. Keyin Angliyaga. Nihoyat, Londondan Toshkentga uchadigan bo'ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yang radi: «Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!» Rostini aytsam, ko'zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so'zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag'in yuzlab xorijiy yo'lovchilar o'tirgan kemada!.. Aqalli mana shu holatning o'zi uchun Istiqloлга ming bora ta'zim qilishga tayyorman! "(O'. Hoshimov)

1. Ushbu matn sarlavhasini aniqlang.

- A) «O'zbekiston havo yo'llari»
- B) "Iftixor"
- G) "Mustaqil O'zbekiston"
- D) Aeroport

2. Gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga kelgan tarkibiy, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi bo'lgan tilning eng yirik birligi bu?

- A) gap bo'laklari
- B) so'z birikmasi
- G) gap
- D) matn

3. Matn haqida bildirilgan to'g'ri fikrlarni aniqlang.

- 1) odatda matndagi yaxlit mavzu mazmun, asosiy g'oya, muallifning maqsadiga muvofiq uning nomi – sarlavhasi bo'ladi;
- 2) muayyan bir kishi muallif bo'lgan matnda boshqa matnlardan olingan katta-kichik parchalar bo'lishi mumkin;
- 3) boshqa matnlardan olingan parchalar ifodalanayotgan fikrni dalillash, isbotlash, boshqa fikrni ma'qullash yoki rad qilish, tahlil va tanqid qilish, unga munosabat bildirish kabi turli maqsadlar bilan matnga kiritiladi;
- 4) bir matndan boshqasiga kiritilgan parcha iqtibos deb yuritiladi;

- 5) iqtiboslar faqat ilmiy matnga xos;
 6) badiiy matnda iqtiboslarning manbalari, ko‘pincha ataylab yashiriladi yoki turli ishoralar bilan ifodalanadi.
 A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5 G) 1, 2, 3, 4, 6 C) 1, 3, 5
4. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati»dan olingan **vatan** so‘zi sinonimlari tavsifi bilan muvofiqlashtiring.
 1) *vatan*; 2) *mamlakat*; 3) *yurt*; 4) *el*; 5) *diyor*.
 a) fuqaro, xalq tushunchasi u mansub bo‘lgan joy tushunchasi ;
 b) ko‘proq adabiy nutqqa xos bo‘lib, unda «yashash joyi» bo‘yog‘i juda kuchsiz, hatto yo‘q darajada bo‘ladi;
 c) ko‘proq oddiy nutqqa xos va u ma‘lum joy (hudud) bilan shu joyga mansub xalqni ham qo‘shib ifodalay;
 d) nisbatan eskirgan, hozir ko‘proq poetik asarlarda uchraydi;
 e) poetik uslubga xos. Bu so‘z, umuman, ma‘lum bir joy ma‘nosida (ma‘lum bir xalqqa mansublik tushunchasiz) ham qo‘llanadi.
 A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d, 5-e B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e
 G) 1-a, 2-c, 3-b, 4-e, 5-d D) 1-a, 2-e, 3-b, 4-d, 5-c
5. Bir matndan boshqasiga kiritilgan parcha nima deb ataladi?
 A) iqtibos B) tezis C) insho D) epigraf
6. Har qanday matnda muayyan bir uslub voqelangani uchun uning –matnning turlari bor?
 1) so‘zlashuv matni; 2) ilmiy matn; 3) rasmiy matn; 4) badiiy matn; 5) publitsistik matn
 A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 5 G) 1, 3, 4 D) 1, 3, 4, 5

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
2. G‘afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (O‘quv qo‘llanmasi) “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. «O‘ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G‘afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo‘llanma) “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

NUTQ USLUBLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI (4 soat)

REJA :

1. Nutq uslublarining shakllanishi va turlari.
2. Badiiy, soʻzlashuv, publisistik uslub va ularning oʻziga xos xususiyati
3. Sport jurnalistikasi taraqqiyoti
4. **“Ommaviy axborot vositalari” matni**
5. Ilmiy va rasmiy uslubning oʻziga xos xususiyatlari.
6. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga xos ilmiy va rasmiy uslubdagi matnlar ustida ishlash.
7. **“Fan-sportga” jurnali va boshqa manbalarda ilmiy matnlar tahlili .**

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Uslub, uslubshunoslik, vazifaviy uslubshunoslik, yoʻnalishlar, tasnifdagi omillar, lingvistik, uslublarning vazifaviy turlari, rasmiy uslub, soʻzlashuv uslubi, ilmiy uslubi, badiiy uslubi, publitsistik uslub.

ESLAB QOLING!

Nutq bayon qilish usullari. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi maʼlum soha doirasiga, maʼlum nutqiy vaziyatga xoslangan koʻrinishni **nutq uslubi** hisoblanadi. Soʻzlar ham maʼlum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga koʻra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf soʻzlarga boʻlinadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qoʻllanadigan soʻzlar uslubiy xoslangan soʻzlar, bunday xususiyatiga ega boʻlmagan soʻzlar esa uslubiy betaraf soʻzlar sanaladi. Oʻzbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud:

- 1) soʻzlashuv uslubi,
- 2) publistik uslub,
- 3) ilmiy uslub,
- 4) rasmiy uslub,

5) badiiy uslub.

Bulardan birinchisi og`zaki, qolganlari yozma nutqqa xosdir.

So`zlashuv uslubi

Uyda, ko`chada, insonlarning o`zaro so`zlashuvida qo`llanadigan uslub **so`zlashuv uslubi**dir. Bu uslubning adabiy til me`yorlariga rioya qiladigan ko`rinishi **adabiy so`zlashuv** uslubi deb yuritilsa, bunday me`yorlariga rioya qilinmaydigan ko`rinishi **oddiy so`zlashuv** uslubi deb ataladi. So`zlashuv uslubidagi nutq ko`pincha dialogik shaklda bo`ladi. So`zlashuv uslubida ko`pincha turli uslubiy bo`yoqli so`zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Kep qoling! Obbo, boplabsiz-da. Yo`g`e-e-e-!*

So`zlashuv uslubida gapdagi so`zlar tartibi ancha erkin bo`ladi. Ko`proq sodda gaplar, to`liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

TOPSHIRIQLAR

1. Mutolaa. "Tarnov" matnidagi gaplarda so`zlashuv uslubiga xos til birliklarini toping. Ulardagi salbiy va ijobiy baholarga asoslanib, so`zlovchi shaxsi haqida mulohaza yuriting.

2. Murojaat va iltimosning rasmiy hamda norasmiy ko`rinishlarini jadvalga ajratib yozing. Ularda ifodalangan vaziyatlar bo`yicha gaplar tuzing.

Rasmiy vaziyat	Norasmiy vaziyat

Ishda, online darsda, maydonda(mashg`ulot paytida), tanaffus paytida, majlisda, sayr qilayotganda, sport zallarida, konferensiyada, uyda, sport musobaqalarida, shifoxonada, bozorda, konsertda, telefon orqali muloqotda, olimpiada o`yinlarida, internet-muloqotda, do`konda.

3. Turli nutq uslublariga misol bo`la oladigan 3tdan gap yozing. Bu gaplarning o`ziga xos uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

Badiiy uslub

Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o`quvchiga estetik jihatdan ta`sir qiluvchi uslub *badiiy uslub* deb ataladi. Badiiy uslub *aralash uslub* hisoblanadi, chunki bu uslubda so`zlashuv va kitobiy uslublarga xos o`rinlar ham uchraydi.

Badiiy asarlar (nazm, nasr va drama) badiiy uslubda bo`ladi. Badiiy asar kishiga ma`lumot berish bilan birga timsollar (obrazlar) vositasida estetik

ta'sir ham ko'rsatadi: *Birdan havoning avzoyi buzilib,osmonni pag'a-pag'a bulutlar qopladi va sharros yomg'ir yog'a boshladi.*

Har bir tilning butun imkoniyatlari,bor boyligi,jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asar qahramonlari nutqida sheva so'zlar,oddiy nutq so'zlari,kasb-hunarga doir so'zlar ham ishlatiladi.

4.She'riy parchani o'qing va shu asosda o'zbek tilining so'z boyligi haqida fikr yuriting.

Ba'zan so'zlar «Bejoman» deb dod soladi,
Goh xuddi yov ustiga ot soladi.
Goh loqayd bo'ladilar har narsaga,
Na g'aflatga soladilar, na larzaga.
Esiz husnim deb o'ksib turadilar,
Yo azada go'yo qah-qah uradilar...
So'zni qayliq saylagandek sevib sayla,
To qo'l ursa, muharrirga rashk ayla.
Gomer kabi mangukka tanla uni,
Mangu yonar topsang agar qalovini.(Asqad Muxtor)

5.Rasm asosida sarlavha tanlang va badiiy uslubga xos matn tuzing.



5.Berilgan gaplarni kengaytiring. Bunda turli nutq uslublari vositalaridan foydalaning.

Namuna: Murabbiy so'zini tugatdi. - Mashg'ulot oxiriga yetdi hamki, men uchun qadrdon do'stim Qodir yelday uchib, kirib kelganida, murabbiy so'zini tugatgan edi.(So'zlashuv uslubi).

1."O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani qiziqarli. 2. Musobaqa boshlandi. 3. Men tahsil olyapman. 4. Uchrashuv belgilandi. 5. G'oliblar taqdirlandi. 6. U ilmiy-nazariy anjumangda qatnashdi.7. Suhbat qisqa bo'ldi. 8. Musobaqa bo'lib o'tdi. 9. Sen shug'ullanasan.10. G'alabaga erishdik.

6. Alibek Rustamovning «Soʻz xususida soʻz» kitobidan olingan quyidagi parchani oʻqing va undagi fikr atrofida mulohaza qiling. Matnning qaysi uslubga xosligini aniqlang.

«Lutfan taklif qilish» toʻgʻri emas

Keyingi paytda «lutfan taklif qilamiz» degan ibora ishlatila boshladi. Bu ibora koʻrinishda goʻzalga oʻxshab koʻrinadi. Ammo maʼno jihatdan «lutfan taklif» qanchalar toʻgʻri?

Baʼzan kishining tashqi koʻrinishi uning ichki olamiga mos kelmaganday, iboralarning eshitilishi ularning mazmuniga mos kelmasligi mumkin. Bunday soʻz va iboralar yosh shoirlarning va olimlarning nutqida ham uchrab turadi. Masalan, shoirga biror soʻz, olimga biror atama yoqib qolsa, uni oʻrinsiz boʻlsa ham ishlatishdan oʻzini toʻxtatolmasligi mumkin.

«Lutfan taklif qilaman» deyish ikki jihatdan notoʻgʻri. Birinchidan, «lutf» bilan «taklif» lugʻaviy jihatdan bir-biriga ziddir. Chunki «lutf» deb yumshoqlik va nazokat bilan qilingan eʼtibor yoki muomalaga aytilsa, «taklif»ning lugʻaviy maʼnosi kulfatga solish, tashvishga qoʻyishdir. Taklif qilaman degan gap «qadam ranjida qilishingizni soʻrayman» degan gapga mazmunan yaqindir. Birovni ziyofat yoki bazmga chaqirgan kishi muomala odobiga binoan, «sizni lazzat olishga chaqiraman» demay, «sizni tashvishga qoʻymoqchiman» deydi. Lutfan, yaʼni lutf qilib sizni tashvishga qoʻyaman, deyish albatta toʻgʻri emas.

Hozir koʻnglingizga «taklif» soʻzining tashvishga qoʻyish maʼnosi koʻpchilik tomonidan uqilmaydi, degan fikr keldi. Bu toʻgʻri fikr. Chunki koʻpchilik «taklif» soʻzining faqat chaqiriq maʼnosi bilan cheklab ishlatadi. Ammo masalaning ikkinchi jihati ham bor boʻlib, bu «lutfan taklif» iborasining chaqiriq odobiga zidligidir. Mehmon chaqiruvchi kishi chaqiriluvchiga, men sizga lutf qilib mehmonlikka chaqiraman desa, bu odobdan boʻlmaydi. Chaqiriluvchining koʻngliga «men sening bunday lutfingga muhtoj emasman» degan fikr kelishi mumkin.

Agar chaqiruvchi chaqiriluvchiga «lutfan marhamat qilishingizni soʻrayman» yoki «lutfan tashrif buyurishingizni iltimos qilaman» deb murojaat qilsa, unda lutfni chaqiriluvchi chaqiruvchiga qilgan boʻladi va ibora mazmunan toʻgʻri boʻladi.

Publitsistik uslub

Publitsistika (lot. publika-xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini oʻquvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta - jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, kishilarning ongiga atrofda sodir boʻlayotgan voqealarni singdirish.

Tashviqot-targʻibot ishlarini olib borishda qoʻllanadigan uslub, yaʼni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli boʻlish, taʼsirchanlik, adabiy til meʼyorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy soʻzlar koʻp qoʻllanadi. Nutq taʼsirchan boʻlishi uchun iboralar, maqol va hikmatli soʻzlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap boʻlaklari odatdagi tartibda boʻladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi feʼllar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va

ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan unumli foydalaniladi: *O‘zbekiston sportchilari Vatanimiz dovrug‘ini butun dunyoga tanitishga bel bog‘lashgan, yashang, shavvozlar!*

7. Matnni o‘qing, so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan o‘rinlarni topib, ularni izohlang.

QARZ

Bir kuni gapdan-gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:

— Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo‘yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?

— Sandiq qatta, bolam? — deb kuldi onam. — Qarzlarim bor. O‘shanga beramanda. Akamning qovog‘i osildi:

— Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

— E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan? Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo‘shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko‘ylak kiyib olibdi.

— Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? — dedim erkalab.

— Bugun man tug‘ildim, — dedi u qop-qora ko‘zlarini pirpiratib jilmayarkan.

— Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir... Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.

— Mana, o‘rtoqlaring bilan ye. Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

— Men shkalad yemayman. Tishim tushgan. — Keyin yana o‘sha jiddiy ohangda qo‘shib qo‘ydi: — Bultur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar. Tug‘ilganimda. — Qizcha o‘ylanib qoldi. — Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko‘ylak... Qo‘limdan konfet tushib ketdi.

(O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari”)

8. Matnni o‘qing. Uning qaysi uslubda yozilganini aniqlab, rasm bilan matn o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida gapiring.

FUTBOL (ing. foot - oyoq, ball - to‘p) - sport o‘yini, 2 darvoza (7,32x2,44 m)li maxsus maydon (90 - 120 x 45— 90) da to‘p bilan jamoa bo‘lib o‘ynaladi. Futbol to‘pining og‘irligi 410 - 450 gramm, aylana diametrining uzunligi 68-70 sm, o‘yinining asosiy vaqti 90 minut. (45 minutdan 2 bo‘lim, 12-15 minut tanaffus). Maydonda ikkala jamoada 11 kishidan bo‘ladi. O‘yindan maqsad raqib darvozasiga to‘pni oyoq yoki gavda qismlari bilan (qo‘ldan tashqari) kiritishdan iborat. Faqat darvozabonlarga qo‘l bilan o‘ynashi mumkin (jarima maydonchasida)... (“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”)



Rasmiy uslub

Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo'llaniluvchi nutq uslubi ***rasmiy uslub*** deyiladi.

Rasmiy uslub 2 turga bo'linadi :1) ***Sof qonunchilik uslubi*** (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi)

2) ***Idoraviy - devonxona uslubi*** (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol,dalolatnoma) ; ***diplomatik uslub*** (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va b.q.)

Rasmiy uslubda tilning ikki vazifasi – ***axborot uzatish va da'vat etish, buyurish*** vazifasi amalga oshadi. Masalan, buyruqda da'vat etish, ma'lumotnomada axborot beriladi.

Rasmiy uslub har qanday tasviriy vositalardan,obrazlilikdan xoli bo'ladi va deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi.

Savollarga javob bering?

- 1.Rasmiy uslub nima?
- 2.Rasmiy uslubning qanday turlari bor?
- 3.Rasmiy uslubning boshqa uslublardan farqli jihatlari haqida gapiring.
- 4.Dekaningiz nomiga Ariza namunasini to'ldiring.
- 9.Matnni o'qing va og'zaki qayta hikoya qilishga tayyorlaning. Sportchi haqida yana qanday qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishsiz?**

LINA CHERYAZOVA

Firistayl ustasi. O'zbekistonlik sportchilardan qishki olimpiada oltin medal sohibasiga aylangan dastlabki va hozircha yagona sportchi.1993-yilgi jahon chempionati g'olibasi.

1968-yil 1-noyabrda Toshkentda tug'ulgan.

Firistaylning chang'i akrobatikasi turida yuksak natijalarni qolga kiritgan.1992-yil fevralida Germaniyaning Oberxoffida jahon kubogi musobaqasi g'olibi bo'lgan.Shundan so'ng 2-yil mobayinida jahon kubogi bosqichlarida 18 -marta sportga chiqib , 13 tasida birinchi o'rinni egallagan.

1993 - yil Avstraliyadagi jahon chempionatida zafar quchgan va oltin medak bilan mukofotlangan.

1994-yil Norvegiyaning Lilixammer shahrida o'tkazilgan qishki olimpia o'yinlari taqvimiga ilk marta kiritilgan chang'i akrobatikasi musobaqasining saralash bosqichida 12-natijani qayd etgani bois final bosqichida o'z dasturini hammadan avval namoyish etishga to'g'ri kelgan.Shunga qaramay murakkab mashqni mukammal bajarib eng yaqin taqibchisi shvetsariyalik Mari Lindgrinniyni bir baldan ko'proq farq bilan qoldirgan va olimpiada chempioniga aylangan.

1994-yil yozda AQSHning Leyk-Plesidida mashg'ulotlar vaqtida og'ir jarohat olgan.Biroq kuchli iroda egasi Lina Cheryozova katta sportga qaytgan va 1998 -yilgi olimpiadada ishtirok etish huquqini beruvchi yo'llanmani qo'lga kiritib, Naganoda 13-egallagan.

“Mehnat shuhrati ”ordeni,”O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

10.Gimnastikaning asosiy turlarini alohida guruhlab, ustun shaklida namunadagidek ajratib yozing. Namuna: Badiiy gimnastika - arqon, qo'ng'iroq, to'p, molga.

Ayollar badiiy gimnastikasi, Pommel oti, otga sakrash, balans nurlari, uzuklar, qavat mashqlari, erkaklar badiiy gimnastikasi, notekis panjaralar

11.Matnni o'qing. Sport jurnalistikasi haqida o'z fikrlaringizni bayon eting.

Xushxabar! O‘zbekiston futzal terma jamoasi Litvadagi jahon chempionatida ishtirok etadi

Osiyo futbol konfederatsiyasi oxirgi qit'a birinchiliklaridagi natijalarni hisoblab, jahon chempionatiga yo'l oluvchi termalarni saralab oldi.

Unga ko'ra, Eron, Yaponiya va O‘zbekiston futzal termalari to'g'ridan-to'g'ri Litvadagi jahon chempionatiga yo'llanma oldi.

Qolgan 2 o'rin egasi esa 4 ta jamoa o'rtasida aniqlanadi va ular pley-offda qatnashadi. Bular: Livan, Iroq, Tailand va Vetnam.

Jahon chempionatiga yo'llanma beruvchi Osiyo chempionati pandemiya sabab o'tkazilmaydigan bo'lgandi. OFK mundial yo'llanmasiga ega chiquvchi jamoalarni saralashsiz aniqlab olishga qaror qildi.

Futzal bo'yicha navbatdagi Jahon chempionati 2021 yil 12 sentyabr - 3 oktyabr kunlari Litva mamlakatida bo'lib o'tadi.

Eslatib o'tamiz, O‘zbekiston futzal terma jamoasi Jahon chempionatida 2016 yil Kolumbiya parketlarida debyut qilgan va guruhda qolib ketgandi.

(Manba: championat.asia internet nashri)

12.Hikoyatni o‘qing va muomala madaniyati, nutqning jamiyatdagi o‘rni haqida matn yozing.Tuzgan matningizda sport sohasiga oid atamalardan foydalaning.

Xusrav I ning vaziri Buzurgmehr dan inson uchun zarur narsa nima, deb so‘ragan ekanlar, u:

- Tug‘ma zehn, – deb javob beribdi.
- Tug‘ma zehn bo‘lmasa-chi? – deya so‘rasalar:
- Odob va ilm o‘rgansin, – debdi.
- O‘rganolmasa-chi? – deb so‘rasalar:
- Mol-davlat, zar-u zevar orttirsin, bu ham ko‘p ayblarni berkitadi, – debdi.
- Eplolmasa-chi?
- Unda, sertavoze va seriltifot bo‘lsin, bu ham odamning ziynati.
- Bu ham qo‘lidan kelmasa-chi?
 - Unda bunaqa tiriklikdan o‘lgan afzalroq, ham odamlar undan qutuladi, ham o‘zi-o‘zidan qutuladi. «Hikoyat va rivoyatlar» kitobidan.

13.Maqlol va matallarni ko‘chiring, mazmunini izohlang.

1.O‘rinli so‘zga tuya cho‘kadi, o‘rinsiz so‘zga hamma so‘kadi. 2. So‘zning o‘rni - sir. 3. So‘zga tushmagan so‘zni aytma, sozga tushmagan g‘azalni. 4. So‘zida parishonlik - o‘zida pushaymonlik. 5. Mahalida aytar so‘zni asrama, aytmas so‘z tegrasiga yo‘lama. 6. Joyali so‘z jo‘yasin topar, jo‘yasiz so‘z egasin topar. 7. So‘zni o‘z joyida ishlatg‘il, agar so‘z yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur.

14.Matnni ko‘chiring,ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring. Quyidagi so‘zlarni matn ichiga to‘g‘ri joylashtiring. Rasmning matn bilan qanday aloqasi bor, fikr yuriting.

Musobaqalarda, tajribasini, o‘quv-mashg‘uloti, 55 va 87 kg, ma’naviy-irodaviy.

Tadqiqotning maqsadi. Oliy sport mahorati bosqichidagi ayol og‘ir atletikachilarning mashg‘ulot vositalari va yuklamalari o‘rtasidagi optimal nisbatlarini aniqlash asosida . . . vazn toifadagi ayol og‘ir atletikachilar uchun xalqaro toifadagi sport ustasi talabini bajarishning model ko‘rsatkichlarini yaratish.

Og‘ir atletikada ko‘p yillik tayyorgarlikning . . . bosqichining asosiy vazifalari quyidagilar:

- Umumiy jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish;
- Jismoniy rivojlanish va . . . sifatlarni tarbiyalsh;
- Og‘ir atletika mashqlari texnikasini bajarishni o‘rgatish va takomillashtirish;
- . . . samarali ishtirok etish . . . yanada takomillashtirish hamda xalqaro toifadagi sport ustasi talabini bajarish.

(R.Matkarimov. Oliy sport mahorati bosqichida shug‘ullanuvchi ayol og‘ir atletikachilar tayyorgarligining model tavsiflari.”Fan-sportga”.2021.2-son,3-bet.)



15. Berilgan matndagi uslubiy xoslangan birliklarni aniqlang va ularni izohlashga harakat qiling.

BEYSJAMPING

Eng ekstremal va xavfli sport turi bo'lib, unda ko'chmas ob'ektlardan sakrash uchun mo'ljallangan maxsus parashyut qo'llaniladi. Beysjamping parashyut bilan sakrashning eng xavfli turi hisoblanib, hozirda eng ekstremal sport sifatida tan olingan. Beysjamper sakraydigan balandlik 40 dan 1000 metrgacha bo'lishi mumkin. Ob'ekt qanchalik past bo'lsa, jamperning mahorati shunchalik baland va sakrash shunchalik xavfli sanaladi. Aynan shu sport turidagi yana bir xavf parashyutni sakrashning eng boshida bir necha soniya ichida ochish shartligi bilan bog'liq. Beysjamping uchun oddiylaridan ancha farq qiladigan maxsus ishlangan parashyutlar qo'llaniladi. Ularda zaxira parashyuti bo'lmaydi, chunki bunday kam balandlikda ularning keragi yo'q, shuningdek sug'urtalovchi moslamalar ham mavjud emas. Bundan tashqari, beysjampingdagi yana bir murakkab jihat cheklangan yuzalarga qo'nishga majburlikdir. Shu bois, beysjamperdan parashyutni boshqarishga oid katta tajriba talab etiladi. Odatda, tegishli moslamalar va ko'nikmalarsiz mustaqil beys-sakrashga urinishlar og'ir jarohatlar yoki o'limga sabab bo'ladi.

16. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini nutq uslublarining turlariga ko'ra jadvalga ajratib yozing.

Sintaksis, akademik eshkak eshish, ma'ruza, suluv, badbaxt, komediya, referat, fuqarolik burchi, ichki tartib-intizom, aft, to'nini teskari kiymoq, roman, esse, monografiya, annotatsiya, lug'at, ma'ruza, maqola, ariza, roman, intervyu, katalog, shaxsiy kundalik, suzish marafoni, ocherk, dissertatsiya, deklaratsiya, xushbichim, man qilinadi, aziz hamyurtlar, hormang, rioya qilish, aksioma, burchga sadoqat, bo'tam, tok o'tkazgich, majlis bayoni, metodik qo'llanma, shaxsiy xat, ma'lumotnoma, qissa, bahs, ishonchnoma, insho, suhbat, darslik, kafolat xati, esdaliklar, epigramma, kurs ishi, doston, reportaj hisobot, javramoq.

Ilmiy uslub	Rasmiy idoraviy uslub	Publitsistik uslub	Badiiy uslub	Soʻzlashuv uslubi

ESLAB QOLING !

Ilmiy uslub – ilm va fan tili **ilmiy uslub** deyiladi. Daliliy munosabatlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (taʼrif-qoidalariga) asoslanuvchi, har bir fan sohasining oʻziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi **uslub ilmiy** uslubdir. Atamalarning keng qoʻllanishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham oʻz ichida ikki guruhga boʻlinadi: **1) sof ilmiy uslub** - muayyan fan sohasida ishlatiladi. Shuning ushun ham bu uslubda fanning maʼlum sohasiga doir atamalar keng qoʻllaniladi. **2) ilmiy-ommabop uslub** - fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shu tomoni bilan publitsistik uslubga yaqin turadi. Maʼlum fan sohasiga doir atamalar qoʻllansa ham, xalqqa tushunarli boʻlishi uchun izohlanadi.

TOPSHIRIQLAR.

I. Maqoladan olingan matnni oʻqing, ilmiy uslubga xos boʻlgan oʻrinlarga diqqat qiling va ularni izohlang.

Hech bir mamlakat, hattoki u boy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslariga yoki yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga boy boʻlsa ham, oʻz imkoniyatlari doirasida mustaqil rivojlana olmaydi. Shuni hisobga olib, hozirgi koʻplab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oʻz hududlarida qator erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish borasida keng chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdalar.

Erkin iqtisodiy zonalarining mamlakat iqtisodiyotida muhim rol oʻynashini hisobga olgan holda, 1996 -yil 25-aprelda Oʻzbekiston Respublikasida “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati” toʻgʻrisida qonun qabul qilingan.

...Amalga oshirilishi zarur boʻlgan ishlardan biri, faqat mavjud qonunlarning amaldagi tatbigʻini taʼminlash, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish, qulay investitsion muhitni yaratish, horijiy investorlarni jalb etish, chet el kapitali va ilgʻor zamonaviy texnologiyalarning yurtimizga olib kelinishi hamda ishlab chiqarish jarayonida qoʻllanishidan iborat. Bu borada Oʻzbekistonning qulay strategik geografik joylashuvi, Markaziy Osiyo mamlakatlariga har tomonlama qulay va yaqin joylashganligi uning investitsion imkoniyatlarini yanada oshirishi tabiiydir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-avgustda “Erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat koʻrsatishi uchun vazirliklar, idoralar va joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning masʼuliyatini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qarorni qabul qildi. Bugungi kunda

respublikamizning 10 ta mintaqasida 14ta ekrkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda.”Navoiy”,”Angren”,”Jizzax”,”Urgut”,”G’ijduvon”,”Qo‘qon” va ”Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollorga teng 62 loyiha amalga oshirilgan,4,6 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilgan.

... Bugungi kunga qadar mamlakatimiz korxonalarida 120 turdagi sport anjomlari va 73 turdagi uskunalar,116 turdagi sport kiyim va poyabzallari ishlab chiqarilmoqda.

(Boltabayev M.R.,Bobojonov B.R.,Jumaniyozov J.J.,Tursunova Z “Sport ” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish – davr talabi. “Fan-sportga” Ilmiy-nazariy jurnal.2018-yil, 4-son,63-67-betlar.)

ESLAB QOLING !

Akademik yozuvlar dalillarga asoslanagan, aniq so‘z tanlashni, mantiqiy tartibni va shaxssiz tusga ega. Ba'zida uzoq muddatli yoki etilmaydigan, kuchli ilmiy maqola deb qarashiga qaramay, u qarama-qarshidir: u ma'lumot beradi, tahlil qiladi va soddadillik bilan ishontiradi va o‘quvchini ilmiy muloqotda tanqidiy ravishda shug‘ullanishga imkon beradi. Akademik yozuv- ilmiy yozish, albatta, ilmiy muhitda ishlab chiqarilgan har qanday rasmiy yozma ishdur.

Akademik yozuvning maqsadi, mantiqiy dalilni obyektiv nuqtayi nazardan yetkazishdir

3.Matnni diqqat bilan o‘qing. O‘z sport turingizda qo‘llanuvchi biror texnik harakatni xuddi shunday ilmiy shaklda so‘zlab bering.

Futbolda to‘pni to‘xtatish texnikasi

To‘pni to‘xtatish - to‘pni qabul qilish va egallash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. To‘xtatishdan maqsad keyingi kerakli harakatlarni amalga oshirish uchun dumalab yoki uchib kelayotgan to‘pning tezligini so‘ndirishdan iborat. «**To‘pni to‘xtatish**» termini ba’zida «**to‘pni moslash**», «**to‘pni qabul qilish**» deb yuritiladigan ma’noda tushunish kerak bo‘ladi. Shuning uchun to‘pni to‘xtatish usullarini ko‘rib chiqayotganda futbolchi to‘pni butunlay to‘xtatib olmay, balki uni keyingi harakatlarni bajarish uchun moslab (o‘tkazib) olishini nazarda tutamiz.

To‘p oyoq bilan, gavda va kalla bilan to‘xtatiladi.



4. Matnini o'qing, olim Rashid Matkarimovning jismoniy tarbiya va sport rivoji uchun amalga oshirgan ishlari haqida fikr- mulohaza yuriting.

RASHID MATKARIMOV.

Pedagogika fanlari doktori (2021 yil), professor (2016 yil), Og'ir atletika bo'yicha xalqaro toifadagi hakam. O'zbekiston Og'ir atletika federatsiyasi raisining Ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari va Terma jamoa Ilmiy kompleks guruh rahbari (2003-yildan hozirgacha), Madaniyat va sport ishlari vazirligining Olimpiya va sport zahirolari boshqarma boshlig'i (2010-2013), O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi Olimpiya harakatini rivojlantirish boshqarma boshlig'i (2013- yildan hozirgacha), Osiyo og'ir atletika federatsiyasining Fan, ta'lim va murabbiylar qo'mitasi a'zosi (2006-yildan buyon).

R. Matkarimov mustaqillikni ilk yillaridan boshlab O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini hamda Olimpiya sport turlarini rivojlantirishga va uni islohotiga qaratilgan Davlat miqyosidagi hujjatlarni shakllantirishda hamda hukumat darajasida qabul qilingan farmon va qarorlarni amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Olimning og'ir atletika o'qitishning hozirgi zamon talablariga mos amaliy-nazariy masalalarini qamrab olgan 70 dan ortiq nufuzli Xorijiy va Pespublika miqyosida chop etilgan maqolalari, Jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari uchun "Og'ir atletika nazariyasi va uslubi", "Og'ir atletika" nomli darsliklari, bir nechta o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalari soha mutaxassisllari uchun zaruriy metodik ta'minot vazifasini bajarish bilan birga ilm-fanimizning ulkan yutug'i hamdir. O'quv-uslubiy tavsiyalar va ishlanmalari jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bolalar va kattalar murabbiylari amaliy faoliyatida muhim qo'llanma sifatida foydalanilmoqda.

Uning rahbarligida hozirgi kungacha 50 dan ortiq bitiruv malakaviy ishlari, 20 dan ortiq magistrlik dissertasiya ishlari yakuniga yetkazilib himoyadan o'tgan.

Bundan tashqari, uning 5 ta shogirdi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Olim og'ir atletika bo'yicha xalqaro toifadagi hakam sifatida 2006-2014-yillarda o'tkazilgan Osiyo chempionatlari, 2010 - yil Xitoyning Guanjou shahrida tashkil etilgan XVII Osiyo o'yinlari hamda 2013- yil Polshada bo'lib o'tgan Jahon chempionatlarida hakamlilik qilgan.

R.Matkarimov ko'p yillar davomida Respublika sport boshqaruvida to'plagan tajribasini universitetda "Og'ir atletika nazariyasi va uslubi", "Sportda saralash, bashorat qilish va modellashtirish" fanlari bo'yicha talaba-magistrlarga nazariy hamda amaliy ta'lim berishda qo'llab, ularni ta'fakkurini va bilim saviyasini, yurtga bo'lgan g'ururini hamda tanlagan kasbiga qiziqishini yanada oshirmoqda.

"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustosi" faxriy unvoni (1999) bilan mukofotlangan. "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi", "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi" hamda "Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

5.Quyidagi atamalar ishtirokida ilmiy uslubga xos matn tuzing.

Maxsus kiyimlar, gimnastika, xoda, yakkacho'p, arqon, qo'shpoya, mashg'ulot, texnikasi, ustozimiz, zal, chaqqonlik, belgilangan vaqt.

6.Quyidagi rasm asosida ilmiy uslubga xos matn yarating.



7.Ko'chiring. Berilgan matndan ilmiy uslubga xos so'zlarni aniqlang va daftaringizga ko'chirib yozing.

Amaliyotda benchmarkingning quyidagi turlari mavjuddir: raqobatli-o'z mahsulotlarini, biznes jarayonlarni to'g'ridan-to'g'ri raqobatchilar tahlili asosida taqqoslash; funksional-alohida funksiyalarning samaradorligini taqqoslash; umumiy - boshqa sohalardagi kompaniyalarning tahlili va tajribasini qo'llash. Shuni

ta'kidlash joizki, benchmarking - bu boshqalarning tajribasini ko'r-ko'rona ko'chirib olish degani emas.

Benchmarkingga ko'ra tashkilot faoliyatini rivojlantirmoqchi bo'lsa, albatta, o'z oldiga aniq bir maqsadni belgilab qo'yishi zarurdir. Shuning uchun tashkilot mutaxassislari yuqori malaka va ko'nikmaga, intellectual salohiyatga ega bo'lishlari kerak.

... Rivojlanib borayotgan jismoniy tarbiya va sport sohasi faoliyatini o'sib borishi boshqaruv yondashuvini o'ziga xos ahamiyatini ifoda etadi.

Misol uchun, sport klubi o'z muxlislari (1200 kishi) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, jinsiy yoshlar tarkibida quyidagi natijalarga erishdi: 2019-yil mavsumi uchun tanlovga kelgan odamlarning umumiy massasi erkaklar 88% , ayollar 12% edi. Ulardan 7dan 15 yoshgacha bo'lgan erkaklar 9% ni; 16 dan 25 yoshgacha – 28% ni; 26dan 40 yoshgacha -42% ni, 41dan 60 yoshgacha – 16% ni; 60 yoshdan ortiq-16% ni tashkil etdi. 7dan 15 yoshgacha bo'lgan ayollar 16% ni; 16dan 25 yoshgacha - 44% ni; 26dan 40 yoshgacha -27% ni, 41dan 60 yoshgacha – 7% ni; 60 yoshdan ortiq – 6% ni tashkil etdi.

(Ziyadullayev K.Sh.va b.q. Sport xizmatlari sohasida raqobat muhitini shakllantirishda – benchmarkingning roli. .”Fan-sportga”. 2021.2-son,82-bet.)

8.Uch guruhga bo'lining. Har bir guruh o'z sport yo'nalishiga xos atamalarni yozib izohlaydilar. Masalan: 1-guruh tennischilar, 2-guruh kurashchilar, 3-guruh basketbolchilar.

9. She'rni o'qing va uni ilmiy uslubga o'tkazib gapiring.

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida,
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...
Shamol injularini separ chashmadak,
Boshida bir savat oq yulduz-chechak,
Nozik salomlari naqadar ma'sum.

Tog'lar havosining feruzasidan
Mayin tovlanadi butun niholi,
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand! (Oybek)

10. Matnni o'qing va muhim ma'lumotlarni eslab qoling, savollarga javob berishga tayyorlaning.

BADIIY GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARI

Badiiy gimnastika – sportning murakkab koordinatsiyali turidir. Uning o'ziga xosligi kompozitsiyada birlashadigan erkin xarakterdagi ko'pgina murakkab texnik harakatlarni bajarganda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda bu sport turning rivojlanishi uchun sportchilarni yoshartirish, mashqlarni murakkablashtirish, xalqaro musobaqa ishtirokchilarini ko'paytirish, raqiblar bilan keskin kurash olib borish juda muhimdir.

Badiiy gimnastika elementlari sakrash, muvozanat saqlash, burilish, siltash, buyumlarsiz, buyumlar bilan, yo'nalish va bo'shashtirish mashqlarini navbatlantirish birga tayanch oldidagi mashqlarni o'z ichiga oladi. Bu gavda, qo'l, oyoq mushaklarini mustahkamlaydi. Ular nafaqat kuchni va bo'g'imlardagi harakatchanlikni rivojlantiradi balki, mushaklardagi nozik sezgini, harakat koordinatsiyasini tarbiyalaydi, to'g'ri qaddi-qomatni shakllantiradi, murakkab sharoitda muvozanat saqlashga yordam beradi. Badiiy gimnastika mashqlarini o'tkazishda raqsga xos elementlar va birikmalardan : har xil yugurish va sakrash turlaridan foydalaniladi.

Shug'ullanuvchilar bu mashqlarni bajara turib yengil harakat qila olishlari uchun o'z tanalariga bemalol egalik qila oladilar. Badiiy gimnastikada shug'ullanuvchilarga mashqlarni to'g'ri bajarishni o'rgatish uchun ularning o'ziga xosligini tushuntirish va uning boshqa gimnastika turlaridan qanday farqi borligini bilishi kerak. Uning asosiy xususiyatlari dinamiklik va yaxlitlikdir. Ular qon aylanish va moddalar almashinuvini yaxlitlashga, harakat apparati, yurak qon-tomir tizimining funksional imkoniyatlarini oshirishga, ish qobiliyatini o'sishiga yordam beradi.



Badiiy gimnastikada mashqlar murakkabligi kabi jismoniy yuklama ham oson me'yorlashtiriladi. Jismoniy yuklamani quyidagilarni o'zlashtirish bilan tartibga

solish mumkin: majmuadagi mashqlar soni, har bir mashqning takrorlanish soni, harakat sur'ati, harakat amplitudasi, mashqlar orasidagi dam olishning davomiyligi, buyumlarning og'irligi, kattaligi va h.k. Badiiy gimnastika mashqlarini o'rgatish pedagogikaning faollik va onglilik; tizimlilik; ko'rsatmalilik (aniqlik), soddalik, mustahkamlik prinsiplariga muvofiq amalga oshiriladi.

Berilayotgan mashq to'g'risida dastlabki tasavvur paydo bo'lishi uchun murabbiy uni nomini to'g'ri aytishi va vazmin ohangda, sokin sur'atda, diqqatni texnika detallariga qaratishi kerak. Agar mashq murakkab bo'lsa, uni ko'rsatishdan oldin yordamchi mashqlarni bajarish shart. Boshlang'ich tayyorgarlik davrida badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchilar mashg'ulotini haftada 4 marta kunning ikkinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulot tuzilishi quyidagicha qabul qilingan: tayyorlov qism (4-6 daq.), asosiy qism (28-30 daq.) va yakuniy qism (3-4 daq.) dan farq qilmaydi.

Savollarga javob bering

1. "Badiiy gimnastika – sportning murakkab koordinatsiyali turidir" jumlasiga izoh bering?
2. Badiiy gimnastika elementlariga nimalar kiradi?
3. Badiiy gimnastika mashqlarini o'tkazishda raqsga xos elementlar qanday vazifa baradi?
4. Gimnastika mashqlarini to'g'ri bajarishni o'rgatish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
5. Boshlang'ich tayyorgarlik davridagi badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchilarning haftalik yuklamasi qancha bo'lishi kerak?
6. Gimnastika qachondan boshlab Olimpiyada o'yinlari tarkibiga kiritilgan?

11. Uyga vazifa. Lug'at bilan ishlash. Berilgan so'zlarni ular anglatgan ma'no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Каное** - Bitta erkin kurakli yengil sport qayig'i. Zamonaviy kanoelar romb shaklida qurilmoqda. Ularning oldingi qismlari to'lqin qaytarg'ichli paluba (deka) bilan berkitiladi. Uning uzunligi 75 sm dan oshmasligi kerak.
2. **Куч** - Kuch - muskullarni ishlatib jismoniy harakat qilish qobiliyati; jismoniy energiya, quvvat. Boshqa mashqlar kabi kuchni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar asosida jismoniy sifatga erishiladi.
3. **Лангарчо'п** [f-t] - Xoda, uzun tayoq; langarcho'p bilan sakrash. Langarcho'pga tayanib sakrashning boshqa sakrash turlaridan farqi shuki, u ko'chma tayanch, ya'ni langarcho'p bilan bajariladi.
4. **Ласт** - Suvda suzish uchun ikki oyoq uchiga kiyiladigan moslama. Rezinka last.
5. **Маҳорат тurlari** - Biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik usullari.
6. **Мажбурий mashqlar** - Bajarilishi shart bo'lgan, albatta, qilinishi kerak bo'lgan; majburiy, kerak, lozim, shart bo'lgan mashqlar.
7. **Марфон** - Ommaga, ko'pchilikka oid; omma, ko'pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan yugurish musobaqasi.
8. **Марказий himoyachi** - Markaziy himoyachilardan ayni paytda raqibni qo'riqlamayotganlarga hujumga qo'shilishi mumkin. Bunda uni

sheriklaridan biri (yaxshisi, o'rta qator o'yinchilaridan biri) straxovka qiladi. Bu holat markazda mudofaa mustahkamligi buzilmasligini ta'minlaydi. Markaziy himoyachi hujumda mohirlik bilan o'ynay oladigan va uzoq masofadan yaxshi zarba bera oladigan bo'lgandagina, uning hujumiga qo'shilishi samarali bo'ladi. Hujumga o'tgan markaziy himoyachini, odatda, hech kim qo'riqlamagani uchun u raqib darvozasi to'g'risidan bostirib borishi kerak. Shuning uchun ham markaziy himoyachining hujumga qo'shilishi hamma vaqt begona darvozani real xavf ostida qoldiradi.

9. **Markaziy hujumchi** - Bu ixtisosdagi futbolchi hamma vaqt darvozaga intilib turadi va zarba berish pozitsiyasiga chiqish uchun eng yaqin yo'l izlaydi. U hamma vaqt raqibalrdan bir nechtasining qattiq nazorati ostida bo'ladi, shuning uchun ham ochilib chiqishlar bilan raqib mudofaasidagi asosiy o'yinchilarni chalg'itishlarda birga qo'shib, ko'p manyovrlarni amalga oshirishi kerak. Markaziy hujumchi to'p olgandan keyin, asosan, raqibni aylanib o'tish vositalaridan foydalanib, darvozani mo'ljallab zarba berish uchun sharoit yaratishga harakat qiladi. Biroq sheriklarni ham unutib bo'lmaydi. Markaziy hujumchi raqibdan ustun kelishni osonlashtirish va darvozani zabt etishga qulayroq pozitsiyada turgan sherigiga to'p oshirib berish uchun ular bilan hamkorlik qilishdan foydalanishi kerak. Ayrim epizodlarda markaziy hujumchi orqaga chekinib ochilishi ham mumkin.
10. **Murabbiy** [a] - Mashq qildiruvchi mutaxassis; futbol jamoasi murabbiysi; velosiped seksiyasi murabbiyi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Ilmiy uslub, ilmiy matn, "Fan sportga" jurnali, ilmiy matnlar tahlili, gimnastika, badiiy gimnastika, boshlang'ich tayyorgarlik, fan sohasi, atamalar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ilm-fan sohasida qo'llanuvchi nutq uslubi qanday nomlanadi?
2. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?
3. Sof ilmiy uslub deb nimaga aytiladi?
4. Ilmiy-ommabop uslub haqida fikr bildiring?
5. O'zingizning yo'nalishingizga tegishli sport haqida ilmiy uslubda matn yarating.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub qanday nomlanadi?
A) badiiy uslub
B) publitsistik uslub
G) rasmiy uslub
D) ilmiy uslub
2. Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi...
A) sohaviy uslub hisoblanadi
B) adabiy til hisoblanadi
G) adabiy so'zlashuv uslubi hisoblanadi
D) nutq uslubi hisoblanadi

3. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar qanday nomlanadi?
 - A) maxsus so'zlar
 - B) atamalar
 - G) uslubiy xoslangan so'zlar
 - D) uslubiy betaraf so'zlar
4. Sof ilmiy nutqning ilmiy-ommabop nutqdan farqi nimada?
 - A) ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchungina tushunarli bo'ladi
 - B) Ilm-fandan yiroq insonlar uchun ham tushunarli bo'ladi
 - G) Shevaga xos birliklar ko'p qo'llanadi
 - D) Ommaga qaratilgan nutq hisoblanadi
5. Ilmiy-ommabop nutqning o'ziga xosligi nimada?
 - A) Ilmiy yutuq, yangilik yoki kashfiyotni barcha tushunadigan shaklda keltirilishida
 - B) ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchungina tushunarli bo'ladi
 - G) Shevaga xos birliklar ko'p qo'llanadi
 - D) Maqol, ko'chma ma'nodagi birliklardan ko'p foydalaniladi
6. Ilmiy uslubga xos gapni toping.
 - A) Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashladi.
 - B) Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazdik.
 - G) Quyosh hamal yulduzlar burchiga o'tishi bilan kunlar isiy boshladi.
 - D) So'zlarni to'g'ri yozish qoidalari bilan orfografi ya (imlo)da, to'g'ri talaffuz qoidalari bilan esa orfoepiya bo'limida tanishiladi. So'z va uning ma'nolarini leksikologiya bo'limi, so'z turkumlarini morfologiya bo'limi o'rganadi.
7. Ilmiy uslubga xos gapni toping.
 - A) Nutq tovushlari, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli ravishda, ma'no farqlaydi.
 - B) Shahrimiz nufusi uch milliondan oshdi.
 - G) Tushga qolmay yukimiz ot aravaga ortildi.
 - D) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.
8. Ilmiy uslubga xos gapni toping.
 - A) Vazifalarni o'z vaqtida bajarilishi nazorat qilish fakultet dekanlariga yuklatilsin
 - B) Nodira yoqilg'i to'la bochkalarni birin ketin dumalatib ayvon tagiga taxladi.
 - G) Nutq tovushlari, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli ravishda, ma'no farqlaydi.
 - D) Fozil boshini ko'tardi, bir qo'lini yerga tirab yonboshladi.
9. Qaysi matnda iqtiboslarning qayerdan olinganligi, kimga tegishliligi, manbasi aniq ko'rsatilishi shart. Aks holda, bu holat qonunan plagiat hisoblanadi?
 - A) so'zlashuv matni
 - B) ilmiy matn
 - G) rasmiy matn
 - D) badiiy matn
10. Plagiat so'zining ma'nosi nima?
 - A) o'g'irlik
 - B) qaror qilish
 - G) ko'paytirish
 - D) asrash

17. Rasm asosida O'zDJTSUga uyushtirilgan, 40 nafardan ziyod jurnalist va bloggerlar qatnashgan press-tur haqida journalist sifatida publitsistik maqola

tayyorlang. Maqolangizda press-tur doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida jurnalistlar va blogerlar o‘rtasida stol tennisi bo‘yicha “Rektor kubogi” musobaqasi ham o‘tkazilgani haqidagi ma’lumotlarga asosiy urg‘u bering

18. 1. Uyga vazifa: 1. Quyidagi rasm asosida O‘zbekistonning milliy bayramlari haqida taqdimot tayyorlang.

2. Lugʻat bilan ishlash. Berilgan soʻzlarni ular anglatgan maʼno bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

4. **Kaska** [fr] - Dubulg'a, temir qalpoq; bokschilar boshini raqibning zarbidan saqlash uchun kiyadigan bosh kiyimi
5. **Kegli** - 1. Ma`lum bir tartibda tikilgan figuralarni shar (zoldir) bilan yumalatib urib yiqitish o'yini. 2. Shunday o'yinning figuralari.
6. **Klinch** - Bokschilarning bir-birlarini ushlab (yopishib) qolishlari. Taqiqlangan usul.
7. **Klyushka** - Xokkey tayog'i, chavgon uzunligi 130 sm ga teng, uchi egilgan, shayba yoki to'pni urish uchun mo'ljallangan.
8. **Koptok** - Cho'ziluvchan yoki elastik materialdan ishlangan, qattiq sathga urilganda irg'ib otiladigan shar; to'p. Futbol koptogi (to'pi).
9. **Kross** [ing] - Past-baland, yo'lsiz joyda o'tkaziladigan poyga, chopish, yugurish musobaqasi; chang'i krossi, mototsikl krossi.
10. **Kubok** - Kubok musobaqalari juda ko'p jamoalarni jalb etish va g'olibni nisbatan qisqa muddatda aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan olish prinsipi bo'yicha o'tkaziladi. Musobaqa g'olibiga yoki g'olib jamoaga esdalik sifatida mukofot - kubok beriladi: kubokni (sovrinni) qo'lga kiritmoq

NAZORAT SAVOLLARI

1. Og'zaki nutqning qanday turlari mavjud?
2. Nutq vaziyati deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday nutq uslublari mavjud?
4. Qaysi nutq uslubi og'zaki, qaysilari yozma nutqqa xos?
5. O'z shevangizga xos so'zlashuv uslubining belgilarini adabiy til me'yorlari bilan qiyoslang va farqlarini tushuntiring.
6. Tarjimayi holingizni yozing. Bu matnning so'zlashuv uslubidagi matnlardan farqini izohlang.
7. Ta'lim muassasangizda o'tkazilgan tadbir (majlis, uchrashuv, adabiy kecha va hokazo) to'g'risida e'lon yoki hisobot yozing.
8. Mutaxassisligingizga oid darslikdan o'tilgan mavzudagi biror parchani tanlab, daftaringizga ko'chiring. Undagi atamalar va tayanch so'zlar ma'nosini izohlang.
9. Ilmiy uslub boshqa uslub turlaridan qanday jihatlari bilan farq qiladi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Mamlakat...(1) kichik bir qismi bo'lgan oila...(2) tinchligi...(3) asraylik. Mazkur gapda raqamlar bilan belgilangan ko'p nuqtalar o'rnida adabiy til me'yorlariga ko'ra qaysi kelishik qo'shimchalari qo'llaniladi?
A) 1, 3 – tushum kelishigi; 2 – qaratqich kelishigi
B) 1, 2 – qaratqich kelishigi; 3 – tushum kelishigi
G) 1, 2 – tushum kelishigi; 3 – qaratqich kelishigi
D) 1 – qaratqich kelishigi; 2, 3 – tushum kelishigi
2. Nayman onani o'g'li bir yil oldin jungjanglar tomonidan halok etishgan otasining o'chini olish uchun jangga otlanib, Sario'zakda bo'lgan omonsiz olishuvga yarador bo'ladi. Ushbu gapda adabiy til me'yorlariga amal qilinmay uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan qo'shimchalar soni nechta?
A) 5 ta
B) 2 ta
G) 4 ta
D) 3 ta
3. O'smirlarimiz xalqaro turnirlarda g'alaba qozonmoqdalar. O'zbekning dovrug'ini olamga yoymoqdalar. Ushbu gapda yoymoq so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?
A) Mashhur qilmoq, ovoza qilmoq.
B) Taxlangan, o'ralgan narsalarni ochmoq
G) Kichik-kichik guruhlariga bo'linib ketmoq.
D) Tevarak-atrofga anqimoq.
4. Tadbirni har oyning juma kunida o'tkazishga ma'muriyat kafolat beradi. Ushbu gap qaysi uslubga xosdir?
A) publitsistik uslub
B) rasmiy uslub
G) ilmiy uslub
D) so'zlashuv uslubi
5. Qaysi javobda ilmiy uslub namunasi berilgan?
A) Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik qo'shimchasi yoki ko'makchi yordamida bog'lanishiga boshqaruv deyiladi.
B) Sizga yig'ilish har oyning so'nggi jumasida o'tkazilishini ma'lum qilamiz.
G) Bugungi ko'rsatuvimizda ta'lim sohasidagi islohotlar haqida so'z yuritamiz.
D) Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti.
6. Qaysi javobda ilmiy uslubga oid gap berilgan?
A) -Ke, picha dam ol, qo'zichog'im, toza charchapsan.
B) Uchrashuv 15-may kuni soat 15:00 da maktabning majlislar zalida boshlanadi.
G) Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, bahordan darak keladi.
D) Kesim qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil: fe'l kesim, ot kesim bo'ladi.
7. Qaysi javobda badiiy uslubga oid gap berilgan?

- A) Ikki til – o‘zbek va fors tillari – ikki pahlavon, ular goh mantiqning gurzisini ko‘taradilar, goh husn va salobatlarini namoyish qiladilar.
- B) Uchrashuv 15-may kuni soat 15:00 da maktabning majlislar zalida boshlanadi.
- G) Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.
- D) Ushbu ma‘lumotnoma so‘ralgan joyga ko‘rsatish uchun berildi.
8. Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi. Ushbu gap qaysi uslubga xos?
- A) rasmiy uslub
- B) publitsistik uslub
- G) so‘zlashuv uslubi
- D) ilmiy uslub
9. Bahor... Bu kun olam uyg‘onmoqda. Ana, yam-yashil maysalar xuddi jajji qizaloqlar kabi qiqirlab bosh ko‘tarmoqda. Quyosh olam uzra iliq nurlarini taratmoqda. Ushbu parcha qaysi uslubga xos?
- A) badiiy uslub
- B) so‘zlashuv uslubi
- G) rasmiy uslub
- D) ilmiy uslub
10. Badiiy uslub haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri?
- A) Sodda, to‘liqsiz va undalmali gaplardan ko‘proq foydalaniladi.
- B) Turli tasviriy va ta’siriy vositalar qo‘llanadi.
- G) Sonlar raqam bilan emas, so‘z bilan yoziladi.
- D) Tildagi hamma vositalardan erkin foydalaniladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
2. G‘afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (O‘quv qo‘llanmasi) “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. «O‘ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G‘afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.

6.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Ish yuritish.(amaliy qo‘llanma)”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

SOHAGA OID TAQDIMOT NUTQI .(4 soat)

REJA:

- 1.Taqdimot yaratish qoidalari.
- 2.Taqdimot nutqi.
- 3.”Universitetim bilan faxrlanaman” mavzusida taqdimot nutqi tayyorlash.**
- 4.Taqdimot etikasi.
- 5.Xalqaro loyiha,vebinar,forum kabilar uchun taqdimot tayyorlash.
- 6.”Kurashchi qizlar” matni ustida ishlash.**

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Taqdimot,multimediya, taqdimot nutqi, taqdimot etikasi, Xalqaro loyiha, vebinar, forum, nutqining muloqot texnologiyasi , nutq texnikasi, zamonaviy rahbar, kurashchi qizlar.

ESLAB QOLING !

Hozirgi zamon amaliyotida turli seminarlar, konferensiyalar, yangi mahsulotlarni e'lon qilish yoki yangi xizmat turlari bilan tanishtirish uchun taqdimot (reklama) ishlaridan keng foydalanilmoqda.

Taqdimotdan foydalanish o'quv jarayonlarida juda ommalashgan.

Taqdimot (prezentatsiya) so'zi inglizchadan «**presentation**» - **tasavvur qilmoq** ma'nosini anglatib, ma'lum mavzudagi slaydlar yig'indisidan iborat.

Asosan grafoprojektorlar yordamida ekranda kattalashtirib namoyish qilish uchun mo'ljallangan 35 millimetrdagi slaydlar va yupqa plyonkalar ishlatiladi. Oxirgi vaqtlarda komputer ekraniga ulash mumkin bo'lgan suyuq kristalli panellardan ham keng foydalanilmoqda.

Taqdimot yaratishda multimediya vositalaridan keng foydalaniladi.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni o'qing. Internet yordamida Google Slides veb dasturini toping, kerakli yo'riqnomalar(<https://uz.ampi-nc.org/>) yordamida online shaklda yo'nalishingizga mos kichik taqdimot yarating.

Ma'lumki, Google Slides Google tomonidan hammaga taqdim etiladigan bepul ofis veb-dasturlari to'plamiga kiritilgan. Ushbu vosita yordamida siz onlayn taqdimotlar yaratishingiz, ularni boshqa foydalanuvchilar bilan birgalikda tahrirlashingiz va so'ngra yakuniy natijani shaxsiy kompyuteringizga saqlashingiz mumkin. Yangi taqdimotni yaratish PowerPoint va boshqa shunga o'xshash dasturlarning faoliyati bilan tanish bo'lgan odam uchun hech qanday muammo tug'dirmaydi.

2. Matnni o'qing va Microsoft Word (Борд) dasturida elektron nusxasini yarating.

Multimedia tushunchasi hayotimizga o'tgan asrning 1990-yillarda kirib kelgan. Multimedia texnologiyalariga qiziqish amerikalik kompyuter mutaxassisi biznesmen Bill Geytsning nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1980-yillarda ("National Art Gallery London" nomli) dasturiy mahsulot yaratgan. Bu multimedia dasturida muzeyning ma'lumot omborlaridan foydalanilgan. Bunda turli muhitlardan – tasvir, tovush, animatsiya, gipermatn tizimi namoyon qilingan.

Multimedia jadal rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasidir. Multimedia texnologiyalarining izchil rivojlanishi natijasida turli ko'rinishdagi diskret-uzluksiz axborotni saqlash, ishlov berish, murojaat va taqdim etish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

ESLAB QOLING !

Taqdimot yaratish uchun quyidagi talablar qo'yiladi :

Slaydda o'ttizdan ortiq so'z va beshta ro'yxat elementlaridan foydalanish;

Agar ro'yxat shaklidagi slayd bo'lsa, har bir satr boshidagi birinchi so'zlar shaklan bir xil bo'lishi;

Sarlavha tushunarli bo'lishi;

Matn shrifti 18 dan kichik bo'lmasligi lozim.

Taqdimot tarkibi rejasi quyidagilardan iborat:

1. Sarlavha sahifasi. Birinchi slaydda taqdimot nomi, uning muallifi, muallifning aloqa ma'lumotlari mavjud bo'lishi kerak.

2. Tarkibi. Bu yerdan taqdimot rejasi, muhokama qilinadigan asosiy bo'limlar yoki masalalar joy oladi.

3. Bo'limning nomi.

4. Qisqacha ma'lumot. 3 va 4-bandlar kerak bo'lganda takrorlanadi. Bu yerda asosiy narsa kontseptsiyaga rioya qilishdir: tezis – dalillar-xulosa.

5. Xulosa. Xulosa aniq va qisqacha alohida slaydda bayon etilishi kerak.

6. E'tiboringiz uchun rahmat. Siz bilan bog'lanish mumkin bo'lgan aloqa manzillarini yozish mumkin.

3. Lug'atlardan foydalanib quyidagi internet bilan bog'liq terminlarni namunadagidek ta'riflang.

Namuna: Akkaunt- (hisob qaydnomasi) - bu kompyuter tizimida foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlar to'plamini saqlaydigan hisob. Ushbu ma'lumotlar foydalanuvchini aniqlash, tizimga (autentifikatsiya qilish) va sozlamalarga kirish imkonini beradi. Hisob har bir foydalanuvchining o'ziga xos mulkidir. Faqat bir kishi kirish huquqiga ega va sayt qoidalari doirasida o'zi xohlaganча tasarruf qilishi mumkin. (Android tizimida asosiy akkaunt, Google Play Marketda ro'yxatdan o'tish (registrasiya) bilan yaratiladi. Agarda Siz oldin Google servislaridan foydalangan bo'lsangiz (Gmail, YouTube, Google Disk), login va parolingizni kiritib, akkauntni yaratishingiz mumkin (registrasiya shart emas).

Veb-sahifa, avatarka, heshteg, mem, vebinar, online-trening, fayl, feyk,

BILIB OLING !

Multimedia - (axborotni odam qabul qila oladigan bir nechta muhit yordamida tasvirlash, multi – ko'p, media - muhit) bu informatika fanining dasturiy va texnikaviy vositalari orqali audio, video matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko'rinishidir

blogger, dayjest.

ESLAB QOLING !

Multimedia vositalari asosida o'qitish quyidagi afzalliklar va imkoniyatlarni yaratadi:

- 1) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish mumkin;
- 2) talabalarda ta'limning yangi sohalari bilan yaqindan tanishishga qiziqishni uyg'otadi;
- 3) ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqt tejaladi;
- 4) olingan bilimlar xotirada uzoq saqlanib, zarur bo'lganida amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi va b.sh.

4. Matnni o'qing va shu asosda matn taqdimotini tayyorlang.

O'ZBEKISTONGA GIMNASTIKANING KIRIB KELISHI.

1918-yil O'zbekistonda «Bolalar sport klubi» ochilib, unda gimnastika mashqlari va o'yinlari o'tkazilgan.

1919-yil Toshkentda Turkiston Olimpiya o'yinlari bo'lib o'tgan.

1920-yil 10-oktabrda O'rta Osiyo o'yinlari O'zbekiston gimnastikachilari yutug'i bilan yakunlangan.

1921-yilda «Yangi savodxonlik boshqarmasi» qoshida jismoniy tarbiya markazi tashkil topgan. Uning maqsadi turli jismoniy laibiya va sport tashkilotlarini birlashtirish va Turkiston mehnatkashlarini jismonan tarbiyalashni rejaga muvofiq boshqarish edi.

1921-yilda 2-O'rta Osiyo Olimpiada o'yinlari ochilib, gimnastika ushbu o'yinlardan o'rin olgan.

1920-yilda Farg'ona viloyat harbiy qo'mitasi qoshidagi "Vseobuch" bo'limi "Besh yillik maktablarning 1 va 2-sinflarida jismoniy tarbiyadan ta'lim berish bo'yicha qisqa dastur"ni ishlab chiqqan.



Dasturda gimnastika, yugurish, sakrash o'yinlari bilan shug'ullanish ko'zda tutilib, dastur mundarajasida quyidagilar bayon etilgan: «Gimnastikaning maqsadi

to'g'ri jismoniy rivojlanishga erishish, inson organizmi faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish, harakatlarni koordinatsiyalash qobiliyatini yuzaga keltirish, tartib-intizomni rivojlantirish va asab tizimini mustahkamlash». Mashg'ulotlarni toza havoda yoki shamollatilgan xonalarda o'tkazilish belgilangan.

Hozirgacha yurtimizga O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi, Gimnastika federatsiyasi hamkorligida Xalqaro gimnastika federatsiyasi shafeligida tashkil etilgan turnirlarda ishtirok etish uchun Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya, Latviya, Belarus, Bolgariya, Malayziya, Ozarbayjon, Armaniston, Janubiy Afrika Respublikasi, Ispaniya, Italiya, Argentina, Shveytsariya, Finlyandiya, Isroil va boshqa mamlakatlardan eng kuchli gimnastikachilar tashrif buyurishgan.

5.Matnni o'qing va shu asosda sherigingiz bilan savol-javob o'tkazing.

KURASH - QADIMIY VA NAVQIRON SPORT TURI

Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum.

Kurash azaldan o'zbek xalqi turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O'zbekiston janubi) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo'lgan. Bunga o'zbek xalq qahramonlik dostoni — „Alpomish“dagi Barchin shartlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“, Alisher Navoiyning „Hamsa“, „Holoti Pahlavon Muhammad“, Zayniddin Vosifiyning „Badoye' ul-vaqoye“, Husayn Voiz Koshifiyning „Futuvvatnomai sultoni“, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida kurash haqida qimmatli ma'lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalq o'rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon qabilar kurash dovrug'ini oshirishgan.



Kurash, ayniqsa, Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan. Milliy kurashning xilma-xil ko‘rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Rossiya, O‘zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda mavjud. Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalarini XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O‘zbekiston 1993-yildan a‘zo).

Xalqaro maydonda sport kurashining yunonrum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olinib boshlandi. Kurash insonni kuchli, epcil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shugullanishga ruxsat etiladi.

6. Taqdimot tayyorlash namunasi

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

15-MAVZU . SOHAVIY XIZMAT YOZISHMALARI




TAYYORLADI: DOTSENT BOLTAYEVA I.

REJA:

- 1 • Xizmat yozishmalarining turlari
- 2 • Xizmat yozishmalarini jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llash.
- 3 • Sohada qo'llanadigan da'voxati, iltimosxati, ilova xati, kafolatxati, tasdiqxati, farmoyishxati va so'rov xatiga namunalarni yozish

TAYANCH TUSHUNCHALAR



BILIB OLING XATLAR



- Muassasalar orasida xizmat aloqlarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko'lamini keng bo'lib, bunday yozishmalar vositasida turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Mazmun jihatdan turlicha bo'lgan bunday hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi.
- Xatlar bajaradigan vazifasiga ko'ra:
 1. Javob xatini talab qiluvchi xatlar (da'vo xatlari, so'rov xatlari, iltimos xatlar);
 2. Javob xatini talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat va boshqalar).

E'TIBOR BERING!!!

RASMIY XAT MATNINI YOZISHDA QUYIDAGILARGA E'TIBOR BERISH LOZIM:



BILIB OLING

• AXBOROT XATI

Bunday xatlardan ko'zlangan maqsad ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbirdan xabardor qilishdir. Axborot xatlarining hajmi oddiy ma'lumotni ko'rinishida bo'lib, bir jumladan to bir necha sahifagacha bo'lishi mumkin.

Ba'zan axborot xatlardan ayrim tashkilotlar o'z faoliyatini targ'ib qilish maqsadida ham foydalaniladi.

Ushbu xatlarda referent yoki kotibning imzosi yetarli. Biroq, xatda bayon qilinayotgan voqea yoki tadbirning ahamiyatiga qarab, xat tegishli mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi ham mumkin.



BILIB OLING

- **Da'vo xati**

Ma'lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlarga nisbatan talab va e'tirozlari bayon qilingan xatlar – da'vo xatlari (reklamatsiya) yoki da'vonomalar deb yuritiladi.

Da'vo xatlari tovar yetkazib berish, qurilish ishlari, ijara, yuk tashish va shu kabi bir qancha ishlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolganda, o'z qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan



DA'VO XATINING ZARURIY QISMLARI




BILIB OLING

• ILTIMOS XATI

Muassasalar ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Muassasalar o'rtasidagi bunday o'zaro yozishmalar iltimos xat vositasida amalga oshiriladi. Iltimos xat xizmat xatlari orasida eng ko'p tarqalgan turlardan biri hisoblanadi. Bunday xatlar ham boshqa xatlar kabi muassasalarning xos ish qog'oziga yoziladi va jo'natilish sanasi va jo'natma tartib raqami ko'rsatiladi. Bunday xatlarning eng sodda ko'rinishi shaxsiy va jamoat arizalariga o'xshash bo'ladi

Iltimosxatining zaruriy qismlari



7. Rasm asosida “Kurashchi qizlar” sarlavhasi bilan kichik matn tuzing va yuqoridagi namuna asosida matn taqdimotini yarating.



8.Uyga vazifa:.

1.Mutolaa. “Taqqidmot yaratuvchilar uchun maslahatlar” matnini o‘qing va yurtimizdagi kurash bo‘yicha champion va sovrindor kurashchilar haqida taqqidmot tayyorlang.

2. Lug‘at bilan ishlash. Berilgan so‘zlarni ular anglatgan ma‘no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Nafas** [a] - O‘pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo, dam, tin:
1.Sun‘iy nafas oldirish 2. Ikkinchi nafas (sport mashqlarida: ma‘lum vaqtdan keyin nafasning rostdlanishi); o‘nglanish, o‘zini rostlab 51 olish: yangi kuch -g‘ayrat
2. **Nayza** [f-t] - Qo‘l bilan otib yoki urib sanchiladigan uchi o‘tkir qurol.
3. **Niqob** [a] - Qilichbozlik o‘yinida qilichbozlar yuzlarini himoya qilish uchun tutiladigan maxsus buyum.
4. **Nokaut** [ing] - Boksning zarbdan yiqilgan, lekin o‘n sekunda o‘rnidan turolmaydigan va yutqiziq deb hisoblanadigan holat.
5. **Nomzod** - Saylanish, tayinlanish yoki biror tashkilotga qabul qilinish va sh.k. uchun belgilangan shaxs.
6. **Og‘ir atletika** - Og‘ir yuk (shtanga) ko‘tarish mashqlarini o‘z ichiga 53 olgan sport turi. Og‘ir vazn toifasi (boks) Og‘ir vaznli (vazni)
7. **Olimpiya zaxiralari kolleji** - Xalqaro miqyosda raqobatdosh yuqori malakali sportchilarni va sport zaxiralarni tayyorlovchi dargoh.
8. **Oltin medal** - Olimpiya o‘yinlari yoki boshqa oliy darajali sport musobaqalarida birinchi o‘rinni egallagan sportchiga beriladigan nishon.
9. **Oltin to‘p** - Oltin to‘p sovrinini Parij (Fransiya)da chiqadigan "Frans futbol" haftalik ro‘znomasi bosh muharririyati hamda dunyoga mashhur Olmoniya sport aslaha-anjom va kiyimlari ishlab chiqaruvchi "Adidas" firmasi tomonidan 1956-yilda Ovro‘paning eng yaxshi futbolchisiga berish uchun ta‘sis etildi. Oltin to‘p sovrindori Ovro‘paning 30 dan ortiq davlat sport muxbirlarining har yilgi bergan

ovozlari yakuniga qarab e`lon qilinadi. Bu sovringa birinchi bo`lib Angliyaning "Blekpul" jamoasi a`zosi Stenli Metyuz sazovor bo`ldi. Gollandiyalik Ioxon Kruiff va fransiyalik Mishel Platini bu sovrinni uch martadan olishga muvaffaq bo`ldilar

**10. O`q** - Miltiq, to`pponcha, pulyemot kabi qurollarga joylab otiladigan kichkina snaryad; patron.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Taqdimot nima va uning ahamiyati haqida ma`lumot bering?
2. Taqdimot ma`ruza matnini qanday usullarda taqdim etish mumkin?
3. Nutqni to`liq qog`ozda aks ettirishning afzalliklari nimalardan iborat?
4. Multimedia texnologiyalari deganda nima tushunasiz va taqdimot tayyorlashda uning o`rni bormi?
5. Taqdimotni yaratishdagi talablar nimalardan iborat?.
6. Sport sohasiga oid kichik taqdimot nutqi yarating.

MAVZU BO`YICHA TESTLAR

1. Internet orqali onlayn uchrashuv yoki taqdimot o`tkazish.
A. Vebinar
B. Veb-konfrensiya
G. Taqdimot
D. A va B javoblarga to`g`ri
2. Muayyan mavzu tafsiloti, muammo yechimi, loyihani ommaga, soha kishilariga yetkazish maqsadida so`zlanadigan nutq yoki chiqish.
A. Slayd
B. Taqdimot
G. Vebinar
D. Seminar
3. Taqdimot materialini ko`rinishli va tinglovchiga tushunarli bo`lishini ta`minlashda foydalaniladigan vosita.
A. Rasm
B. Musiqqa
G. Slayd
D. To`g`ri javob bo`ladi
3. Taqdimotlar asosan qaysi dastur orqali osil qilinadi?
A. Microsoft Word
B. Microsoft Power Point
G. Microsoft Excel
D. Microsoft Paint
4. Taqdimotning birinchi sahifasi ...
A. Ish maqsadini bayon qilishi lozim
B. Ish mavzusiga bag`ishlangan bo`lishi lozim
G. Ishning mavzusi, obyekti, bajaruvchi to`g`risida to`liq ma`lumot berishi zarur
D. Ishning mundarijasi bilan tanishtirishi lozim
5. Taqdimotning oxirgi sahifasi ...
A. Ish mavzusiga bag`ishlangan bo`lishi lozim
B. Ishning mundarijasi bilan tanishtirishi lozim

- G.ma'lumotlar manbalari tavsifiga bag'ishlangan bo'lishi kerak
 D.Xulosalar keltirilgan bo'lishi kerak
 6.... - bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi
 A.Ovozli taqdimot
 B.Rasmli taqdimot
 G.Grafikli taqdimot
 D.Multimediali taqdimot
 7.Multimediali taqdimot tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin.
 matnli ma'lumotlar, rasmlar
 A. slayd-shou
 B.diktor jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch
 G.o'lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta'minot
 D.Barchasi to'g'ri
 8.Taqdimot nutqi qaysi adabiy til uslublarining qorishmasidan hosil bo'ladi?
 A.Ilmiy va badiiy
 B.Badiiy va publitsistik
 G.Ilmiy va publitsistik
 D.Og'zaki va ilmiy
 9.Taqdimotning ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning....
 A.Qisqa va lo'ndaligi
 B.Bezaklanganligi
 G.Tushunarligi
 D.Mazmunan boyitilganligi va interfaolliigi

Asosiy adabiyotlar

- 1.Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi.O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N.Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
- 3.Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami:233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti",Chirchiq, 2022.
- 4.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Odilov Y.Davlat tilida ish yuritish.Amaliy qo'llanma.«O'ZBEKISTON NASHRIYOTI»Toshkent,2020-yil
- 5.G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
- 6.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Ish yuritish.(amaliy qo'llanma)"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

SOHA BO‘YICHA BELGILANGAN MAVZU ASOSIDA
ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH JARAYONLARI (6 soat)

REJA:


1. Mavzuga oid ilmiy tadqiqot olib borish bosqichlari.
2. Maqola, tezis, taqriz, annotatsiya, rezyume matni talablari.
3. Sohaga oid ilmiy maqolalardan biriga taqriz yozish
4. "Fan-sportga" jurnalidagi ilmiy maqolalarga annotatsiya yozish
5. Sohaga oid ilmiy maqolalardan biriga rezyume yozish.
6. "Ilm sari yo'l" matni.
7. Jismoniy tarbiya va sport ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan (universitetimiz) olimlar haqida ma'lumot.
8. Maqola va tezis tayyorlash.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Akademik yozuv, Grammatik xususiyat, tahliliy, faktik, baholovchi, maqola, tezis, taqriz, annotatsiya, rezyume, **"Fan sportga" jurnali**, kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza, havola, iqtibos, sitata, abzats, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti



O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba-yoshlari o'rtasida
"MENING SEVIMLI KITOBIM"
mavzusida onlayn maqolalar tanlovi



Murojaat uchun telefon: +99899-556-57-54

ESLAB QOLING !

Maqola — publitsistik janr. Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda **bosh Maqola, nazariy va targ'ibot Maqola, muammoli Maqola** keng qo'llanadi. **Bosh Maqola** (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan Maqola) tahririyatning eng mas'uliyatli Maqolasi bo'lib, unda ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o'quvchilar ommasiga yetkazish vazifasi qo'yiladi.

Tezis(qadimgi yunoncha thezis "joy; pozitsiya; tezis") - bitta gapda qisqacha asosiy fikrlarni shakllantirish. Tezislar (fan va falsafada) - odatda izohlarda, qisqacha tuzilgan asosiy qoidalar, ilmiy ishning asosiy fikrlari, maqola, ma'ruza, kurs ishi yoki tezis va boshqalarda umumlashtiriladi.

TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan matnni o'qing va bilib olgan ma'lumotlaringizni o'z so'zingiz bilan qayta hikoya qiling.

ILMIY TADQIQOT BILAN SHUG'ULLANISH UCHUN NIMA QILISH KERAK?

Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish mashaqqatli va ayni vaqtda sharaflil mehnat. Olim bo'lishni havas qiluvchi yoshlar ko'p bo'ladi, shular orasida o'z umrini ilm yo'liga bag'ishlaganlari ham uchraydi. Olim bo'lishni orzu qilgan kishida ma'lum imkoniyatlar va bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishni lozim.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun birinchidan, chuqur bilim sohibi bo'lish kerak. Bilim odatda o'qish-o'rganish orqali egallanadi. Talaba o'rta maktabda olgan bilimni oliy maktabda o'zi tanlagan fanlar bo'yicha chuqurlashtiradi. Yosh tadqiqotchi bilim poydevorini o'z mustaqil mehnati, o'qib-o'rganishi bilan boyitadi. Buning uchun o'zi tanlagan soha, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarni chuqur o'rganishi zarur.

Har bir yosh tadqiqotchi bilimning miqyosi, chuqurlik darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Bakalavrlik bosqichi talabasining bilimidan magistrlik bosqichi talabasining bilimi farq qiladi, chunki magistrlik bosqichida o'qitiladigan fanlar o'z ilmiyligi bilan, hodisalarni chuqur tahlil qilishga qaratilgailigi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda endi darslik, o'quv qo'llanmalarida bayon qilingan ma'lumotlar yetarli bo'lmay qoladi. Magistrant o'zi tanlagan soha, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotni mustaqil mutolaa qilib, o'z bilim saviyasini kengaytirishi va chuqurlashtirishi zarur, ayniqsa, magistrlik dissertatsiyasi sifatida tanlangan mavzuning adabiyotini har tomonlama sinchiklab o'rganishi shart.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun qunt bilan uzluksiz mehnat qilish talab etiladi. Ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi uchun asosiy xislat – mehnatsevarlikdir. Ilm fidoyisigina ko'p vaqtini ilm sirlarini egallash uchun ajratadi.

Muntazam ravishda astoydil qilingan mehnat albatta samarali yakunlanadi.

Yosh tadqiqotchilar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishni kundalik zaruriyatga aylantirishsagina ma'lum natijaga erishadi. Asli haqiqiy shoir she'r yozmasdan tura olmaganidek, haqiqiy olim ham ilmiy ijod bilan shug'ullanmasdan tura olmaydi.

Tadqiqotchi har kungi vaqtini reja bilan, o'rinli sarflashga o'rganishi lozim. Kun tartibi tuzib, ilm bilan shug'ullanish uchun har kuni albatta maxsus vaqt sarflashi kerak. Agar ana shunday kun tartibiga muntazam amal qilib borilsa, qilingan mehnat samarali bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Maqola qanday janr, tushuncha bering?
2. Qanday mavzuda maqolalar yozish mumkin?
3. "Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish", degan jumlagacha izoh bering?
4. Olim bo'lish uchun nima qilish kerak?
5. Ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishni kundalik zaruriyat aylantirish jarayonini qanday tasavvur qilasiz?
6. Siz ilmiy tadqiqotchi bo'lishni xohlaysizmi, nima uchun?

2. Ilmiy maqoladan olingan parchani o'qing. Jismoniy tarbiya va sportga oid maqolaning o'ziga xos tomonlari haqida o'z fikringizni bildiring.

...Mavzu bo'yicha qayd etilgan adabiyotlar tahlili shu narsani e'tirof etishga imkon beradiki, yosh voleybolchilar tayyorlashda kuch sifati va ularni turli o'yin malakalariga ixtisoslashgan turlari shu malakalarni samarali ijro etishda muhim sanaladi. Dastlabki, o'rgatish endigina shug'ullanayotgan yosh voleybolchi bolalar mashg'ulotlarida kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar va ixtisoslashtirilgan mashqlar yetarli darajada qo'llanmasligi aniqlandi. Yosh voleybolchilarda qo'l kuchini o'rganish va uni ixtisoslashtirilgan mashqlar yordamida rivojlantirish samaradorligi aniqlandi va o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilindi. Olingan ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlilidan shunday to'xtamga kelish mumkinki, voleybol to'garagida olib borilayotgan an'anaviy mazmunli mashg'ulotlar voleybolga xos qo'l kuchini jadal shakllantirish qudratiga ega emas ekan. Aksincha, 5 oylik pedagogik tajriba davomida biz tomonimizdan taklif etilgan ixtisoslashtirilgan mashqlar voleybolchiga xos maxsus kuch sifatlarini tez sur'atlar bilan rivojlanishiga ta'sir etganligi isbotlandi.

(Ummatov A. A. 15-16 yoshli voleybolchilarning kuch sifatini an'anaviy mashqlar yordamida oshirish uslubiyati. "Fan sportga" jurnali, 2021-yil, 1-son, 18-20 betlar)

BILIB OLING!

Ilmiy maqola qanday yoziladi

Ilmiy maqola mazmunli va ommabop bo'lishi uchun aniq xulosani bera olishi lozim. Maqolada aniq maqsad ko'zlanadi va kirish, asosiy qism va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Kirish qismida mavzu asoslanishi, nazariy jihatdan uning foydali jihatlari yoritilishi, bugungi kun talablariga ko'ra ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qismda mavzu dalillar yordamida ifodalanishi, amaliyotga tatbiqi, foydalanish o'rinlari asoslanishi lozim. Bunda aniqdan umumiy lashtirishga, umumiylikdan batafsil ko'rib chiqishga o'tiladi. Asosiy qismda mavzuga oid bir necha savollar qo'yish, muammoli vaziyatlarning mantiqiy yechimini tahlil qilish o'rinli.

Xulosada bayon qilingan asosiy fikrlarni ixchamlash, saqlab qo'yilgan oxirgi fikrni bayon etish o'rinli bo'ladi.

Maqola uslubi deganda uning bayon tili tushuniladi. Ommaviy maqolada tuzilayotgan jumlar mumkin qadar sodda bo'lishi lozim. Bir ega va bir kesimli gaplardan foydalanish samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki, murakkab qo'shma gaplar oddiy o'quvchi uchun zerikarli bo'lib, aniq fikrni anglash uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Iloji boricha bir so'zni ikki marta takrorlamaslik, so'zning sinonimlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchi jumladagi fikr keyingi jumlada to'ldirilishi, davom etishi lozim. Bir fikrni qayta takrorlash sun'iylikka olib keladi, chunki bu fikrni ham buzadi, fikrning ta'sirchanligiga ham putur yetkazadi.

Maqolani uchinchi shaxs tomonidan yozish tavsiya etiladi. Maqola yozayotganda mantiqiy ketma-ketlikka urg'u berish, yangicha nuqtayi nazar bilan yondashish, o'quvchilar undan ma'naviy ozuqa olishini ta'minlash, zamon talabiga mos bo'lgan yaxlit asar bo'lishi kerakligini unutmang.

BILIB OLING !

Dastlabki ilmiy maqola yoki esse yozish uchun nima qilish kerak?

Maqola yoki esse quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1.Kirish . Kirish qismda - maqsadi va ma'lumotlarning qo'llanilish ko'lami kitobxonga tushuntiriladi.Kirishda aniq bir namuna mavjud emas,chunki ko'p narsa olib borilayotgan ishning turiga bog'liq. Kirish, odatda, vazifaning umumiy hajmining 10%ini tashkil qiladi. Shu sababli, 2000 ta so'zdan iborat esselarda kirish 200 ta so'zdan iborat bo'lishi lozim.Bu qismda kerak bo'lsa, kalit so'zlar ta'rifi berilishi mumkin.Bu jarayonda:

- kerak bo'ladigan axborot;
- u mavzu haqidagi boshqa mualliflarning ishlaridan namuna;
- ishning maqsad va vazifalari;
- sizning tadqiqot uslubingiz.
- siz tomoningizdan belgilanadigan biror-bir chegaralar;
- ishingizning rejasi.
- juda ham umumiy va noaniq kirish gaplarini qo'llashning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Asosiy qism.

3.Xulosa qismi. Xulosa sarlavhada berilgan ixtiyoriy savolga javobni va asosiy qismlarning yakunini o'zida aks ettiradi. Odatda, kirish ham,xulosa ham,asosiy qismdan so'ng yoziladi.

Xulosalash va perefrazalash (ma'noni boshqa so'zlar yordamida ifodalash) Odatda, esseda xulosalash va perefrazalash birgalikda ishlatiladi. Xulosalashning maqsadi ma'lumotlar hajmini yetarli darajagacha qisqartirish va uzundan uzoq ma'lumotlarni qisqa hajmga keltirishdan iborat bo'lsa, perefrazalashning maqsadi esa umumiy ma'noni saqlagan holda ma'lumotni asl manbadagidan farqli qilib, o'zgartirib yozishdan iboratdir. Bularning ikkalasi ham ko'chirmachilikning oldini olish uchun qo'llaniladi. Xulosalashda mavzuga doir eng muhim ma'lumotlarni berishingiz yoki mavzuga to'liqroq to'xtalib o'tishingiz mumkin.

3. Mutolaa.Ilmiy maqola qanday yoziladi ? matnini o'qing va o'z sport turingiz haqida maqola yozishga harakat qiling.

4.Maqolani o'qing va mazmunini so'zlab bering. Tarkibiy qismlariga diqqat qiling va uni bo'lajak kasbingizga qanday aloqadorligini ayting .

Milliy sport o'yini "Uloq" atamasi bilan bog'liq ma'noviy guruhlar haqida (Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi asosida) .⁴

ANNOTATSIYA

Maqola o'zbek tili leksemalarining mazmuniy guruhlarining sistem usulda o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, har qanday tildagi so'zlar ma'lum belgilariga

⁴ Boltayeva Iqbol Tadjibayevna. Milliy sport o'yini "Uloq" atamasi bilan bog'liq ma'noviy guruhlar haqida (Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi asosida) O'zDJTSU "Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid yangi so'z va atamalarning qo'llanilishi:nazariya va amaliyot" mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani. 2020 yil,30-oktyabr,129-131-betlar.

ko'ra u yoki bu mazmuniy guruhlarini, mazmuniy maydonlarni hosil qiladi. Bu so'zlarning har qaysisi o'ziga xos individual ma'noga ega bo'lishi bilan birga, hammasi uchun umumiy bo'lgan, har birida takrorlanadigan umumiy ma'no ham mavjud. Ishda ana shunday mazmuniy maydonlardan biri milliy sport o'yini uloq bilan bog'liq leksemalar maydoni Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasidagi "uloq" arxisemali atamalarining leksik-semantik guruhlari va ular o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarni aniqlash, mazkur soha leksikasining o'zbek tili lug'at tarkibida tutgan o'rni oydinlashtiriladi.

Kalit so'zlar: leksema, komponent tahlil, mazmuniy guruhlar, mazmuniy maydon, individual ma'no, arxisemali atamalar, leksik-semantik guruhlar, paradigmatic munosabatlar, uloq, chavandoz, uloqchi, uloq chopmoq uloq so'ymoq, o'ngarilgan uloq.

Abstract

This article is devoted to the systematic study of the content of the Uzbek language lexemes, which in turn creates some or all of the meaningful groups according to certain signs. Although each of these words has a specific individual meaning, there is a common meaning, common to all, and a general meaning. One of such areas of interest is the definition of national-style lexemes of Abdulla

Qadyri's linguistics-semantic groups and the paradigmatic relationships among them, in the story of "Uloqda", the paradigmatic relationship between them, the role that it plays in its composition

Key words : lexema, component analysis, content groups, meaning, field, individual meaning, lexical-semantic groups, paradigmatic relationships, horseback riding, slaughtering goatling.

O'zbek tiliturkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lib, xalqimizning ko'p asrlik orzu-intilishlari, kechmishi, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham "Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o'ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go'zal urf-odatlarimiz, betakror san'atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko'z qorachig'iday saqlashimiz zarur"⁵.

Ma'lumki, hozirgi kunda o'zbek tili leksemalarining mazmun guruhlarini sistem usulda o'rganila boshlangan. Har qanday tildagi so'zlar ma'lum belgilariga ko'ra u yoki bu mazmuniy guruhlarini, mazmuniy maydonlarni hosil qiladi. Bu so'zlarning har qaysisi o'ziga xos individual ma'noga ega bo'lishi bilan birga, hammasi uchun umumiy bo'lgan, har birida takrorlanadigan umumiy ma'no ham mavjud. Bunday bir guruhga birlashgan so'zlarni bir butun sifatida o'rganish qulaylik tug'diradi.

Ana shunday mazmuniy maydonlardan biri milliy sport o'yini uloq bilan bog'liq leksemalar maydoni. O'zbek tilida qo'llanadigan **uloq, chavandoz, uloqchi, uloq chopmoq , uloq so'ymoq** kabi lug'aviy birliklar ham yuqorida ta'kidlanganidek, ma'lum belgisiga ko'ra bir mazmuniy guruhni, mazmuniy maydonni hosil qiladi. Maydonning yadro qismida turgan **"uloq"** atamasini olib

⁵Sh.M.Mirziyoyev.O'zbek tiligadavlatilimaqomiberilganiningo'ttizyilligigabag'ishlangantantanalimarosimdagi nutqidan.2019 yil.21-oktyabr.

ko'raylik. Bu leksema shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lib, quyidagi o'rinlarda qo'llanadi: 1) sifat so'z turkumiga oid, predmetning belgisini bildiradi: *uloq (ula+q) arqon*; 2) ot so'z turkumiga oid, echki bolasi ma'nosida: *Ikki ula ulog'imiz bor*. (So'zl.) 3) **uloq - ko'pkari** har bir otliq o'rta so'yib tashlangan uloqni (odatda echki yoki kichikroq buzoqni) bir-biridan kuch bilan tortib olish va tezroq marraga eltib tashlash kurashidan iborat sport musobaqasi: *-Ertalab uloqga ketdi, -dedi*. (A.Qodiriy) Xalq shevalarida **ko'pkari** atamasining ko'plab variantlari uchraydi. Qadimgi turkiy tilda **kog, kok** o'zagi asosida kogan, **kokan** (mol bog'lanadigan arqon), **kokmar** so'zlari yasalgan. **Kogmar** tarixiy yasalmasining o'zagi **kok / kog** arqon ma'nosini anglatadi, so'zning ikkinchi qismi **mar / marı** mo'g'ul tilida ot ma'nosini ifodalaydi; 4) uloq sport musobaqasida o'rta so'yib tashlangan echki yoki buzoq ma'nosida ham qo'llanadi: *Endi so'z haligi oldig'a uloq o'ngarganning oti to'g'risida boshlandi*. Bu o'rinda shuni aytish lozimki, keltirilgan misoldagi **o'ngarilgan uloq** birikmasida *uloq* ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lib, aslida otga echki o'ngarilganligini kontekstdan bilishimiz mumkin: ... *oldig'a bir ola echkini o'ngargan, ko'kragi ochiq, yaxtakchan, saman otliq bir yigitni ko'rduk*.

Uloqda qatnashuvchi shaxs chavandoz yoki uloqchi deb nomlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da **chavandoz** (f-t) deb ot choptirish, uloq chopish, otda o'ynash san'atini egallagan odamga aytilishi izohlangan: ... *bir to'da uloqchi chavandozlar kelib qo'shildilar*.

Uloqchi so'zi *uloqchi chavandoz, uloqchi ot, uloqchi otliq* birikmalarida shaxs va predmetning belgisini bildiradi. Uloq musobaqasida qatnashuvchi ot *uloqchi ot* deyiladi: *Munda uloqchi otliqlar va tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo'q edi*.

Uloq chopmoq birikmasi uloq musobaqasida qatnashmoq ma'nosini anglatadi: *Axir, o'n ikki yashar ukasini ko'rmayapsizmi, halitdan uloq chopmoqchi, -dedi*.

Uloq so'ymoq birikmasi uloq musobaqasiga tikilgan echki yoki buzoqning bo'g'ziga tig' tortib o'ldirish ma'nosini anglatadi va "**uloq**" arxisemali leksema bilan mazmuniy guruhni tashkil etadi: *Uloqni so'yib bo'lmadimi...*

Chavandoz so'zi uloq chopish mahoratini egallagan odamga nisbatan ishlatiladi: ...*yuz-ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg'iz uloqni ajratib chiqar ekan!* Shuningdek, mazkur leksema uloq chopish mahoratini egallamagan, lekin mashhur chavandozning avlodiga, ya'ni kelajakda yaxshi chavandoz bo'lishi kutilgan 12 yashar bolaga nisbatan erkalash ma'nosida ham ishlatilgan: *Besh-oltitasi birdan: "Barakalla, chavandoz, barakalla, Turg'un chavandoz!" - dedilar. Ularning "chavandoz" degan so'zlari menim juda xushimga kelib, ichimdan "Otangg'a rahmat", deb qo'ydim*.

Shuningdek, uloqni taqimga bosmoq, yuganni bo'shatmoq, uloqni tortmoq, uloqni ajratib chiqmoq, o'rtadan uloqni olib chiqmoq, qamchinni tishlab tutmoq kabi lug'aviy birliklar ham "uloq" arxisemali leksemalar mazmuniy guruhiga mansub harakat va holatni ifodalaydi.

Xullas, “uloq” arxisemali atamalarining leksik-semantik guruhlarini topish, ular o‘rtasidagi paradigmatic munosabatlarni aniqlash mazkur soha leksikasining o‘zbek tili lug‘at tarkibida tutgan o‘rnini oydinlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019 yil. 21-oktyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. 46-modda.
3. Qo‘chqortoyev I. So‘z ma’nosi va uning valentligi. –Toshkent, 1977.
4. Rasulov R., Narziyeva M. Sistem leksikologiya elementlaridan foydalanish. –Toshkent, 1992.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. M., 1981.
6. Abdulla Qodiriy. To‘la asarlar to‘plami. 1-jild. –T.: “Fan”, 1995.
7. Jabborov E. O‘zbek xalq o‘yinlari leksikasi (Janubiy O‘zbekiston materiallari asosida). Filol. fanlari nomz. ... dis. avtoref. –Toshkent. 1994.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2006-2008 yillar.

ESLAB QOLING !

Essening saviyali bo‘lishi olib borilgan tadqiqotlar va ko‘plab esselarning mavzuga doir bildirgan fikrlarini o‘rganib chiqishni talab etadi. Shu sababdan o‘z esseingizda qaysi adabiyotlardan foydalanganingizni keltirib o‘tishingiz maqsadga muvofiqdir. Bu mavzu sizga quyidagilar haqida ma’lumot beradi:

Sitatani matn ichida keltirish

Havolaning asosiy shakllari

Sitatalardan foydalanish

Foydalanilgan adabiyotlarning umumiy ro‘yxatini keltirib o‘tish

Havolalarni qo‘llash qay darajada ahamiyatli?

Havola va sitatalar qo‘llanilishining 3 ta asosiy sababi mavjud:

Siz mavzuni bir qancha adabiyotlarni o‘qib-o‘rgangan holda izlanish olib borganingiz va uni yoritganingizni ko‘rsatish (bu sizning esseingiz qadrini oshiradi).

Esseni o‘qigan shaxs mavzu to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot olgisi kelgan taqdirda, havoladan foydalanishiga imkon yaratish.

Ko‘chirmachilikning oldini olish.

ESLAB QOLING !

Rezyume. Rezyume-bu mehnat bozorida raqobatdosh bo‘la oladigan shaxsning qobiliyatlari ko‘rsatilgan hujjatdir. Rezyumeda bo‘lajak xodimdan talab qilinadigan fazilatlarni ko‘rsatish kerak.

Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

Hozirgi paytda ko‘plab zamonaviy tashkilotlar, ayniqsa, xalqaro korxonalar ishga hujjat topshirayotgan shaxslardan rezyume yuborishlarini talab qilishadi.

Rezyume nima? **Rezyume** fransuzcha “**résumé**” so‘zidan kelib chiqqan va sodda qilib aytganda **qisqacha izoh** ma’nosini bildiradi. Rezyume ishga hujjat topshirayotgan shaxs to‘g‘risida ma’lumotni taqdim etadi- uning ismi, ma’lumot darajasi, ish tajribasi, qizishlari va h.k.

Rezyume hozirgi kunda ishga qabul qilish jarayonida eng muhim hujjat hisoblanadi. O‘zbek tilida bunday hujjat “tarjimai hol” va “shaxsiy ma’lumotnoma” deb ham atalishi mumkin, lekin rezyumening shakli bu hujjatlardan biroz farqlidir. Rezyume asosan ish izlovchilar tomonidan ishga topshirayotganda yuboriladigan hujjat hisoblanadi, lekin u boshqa maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, tashkilot direktori yoki loyiha menejerining rezyumesi grant taklifi bilan birgalikda donor tashkilotga topshiriladi.

Rezyumeda ish izlovchi shaxs to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beriladi. Ish beruvchi eng avval rezyumega e’tibor qaratadi. Ya’ni ishga topshirgan shaxsni ko‘rmasdan va bilmasdan turib rezyume orqali u bilan tanishadi. Shuning uchun, rezyume ishga topshiruvchi shaxs to‘g‘risida bexato, aniq va eng asosiysi topshirilayotgan ishga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni qamrab olishi kerak. Yaxshi tuzilgan rezyume ishni qo‘lga kiritishning birinchi va eng muhim poyqadami hisoblanadi. **Agar rezyumengiz orqali ish beruvchini ishontira olmasangiz, keyingi bosqichga o‘tish imkoni bo‘lmaydi!**

Rezyumening asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy ma’lumot

- a. **Ism-sharif** (talab qilinadi)
- b. **Murojaat manzillari:** telefon, email, yashash joyi (talab qilinadi)
- c. **Jins** (majburiy emas)
- d. **Millat** (majburiy emas)
- e. **Tug‘ilgan sana** (majburiy emas)

2. Qisqacha mazmun yoki professional maqsad (ixtiyoriy)

- a. **Bir yoki ikki gap bilan qisqacha eng muhim jihatlarini sanab o‘tish.**

Misol: 6 yillik tajribaga ega loyiha tuzish va boshqarish mutaxassisi. Ingliz va rus tillarini mukammal biladi. 2008-yilda Biznesni boshqarish yo‘nalishi bo‘yicha Magistraturani oliy darajada tamomlagan va ilmiy darajaga ega.

3. Ma’lumot

- a. **Ilmiy daraja/diplom, mutaxassislik, o‘qigan yili (yoki daraja berilgan yil), o‘quv yurtining nomi, manzili** (shart)
 - b. **Topshirilayotgan ishga taaluqli fanlar nomi va soati** (shart emas)
 - c. **Agar a’lo darajada bitirgan bo‘lsa, shuni ham bildirib o‘tish kerak**
- Misol: 2006-2008 Magistratura, Biznesni Boshqarish. O‘zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet-4 ko‘chasi. www.nuu.uz.*

Taaluqli fanlar: Loyiha tuzish va boshqarish (22 soat); Markoiqtisodiyot (25 soat)

4. Tajriba

a. Ishlagan sana, lavozim, tashkilot nomi, manzili, qisqacha vazifalari va yutuqlari

b. Eng oxirgi ish joyidan boshlab yoziladi

Misol: 25.01.2008 – 10.02.2011 Loyiha mutaxassisi, “Yoshlarda ish ko‘nikmalarini rivojlantirish loyihasi”. NNT “Faol”, Shaxrisabz ko‘chasi 1-uy, Toshkent. Tel: 267-00-00

Yoshlar uchun 5-kunlik treninglarni tashkil qilganman: trening rejasini tuzish; trenerlarni jalb qilish; joy va kerakli jihozlarni tayorlash; ishtirokchilarni taklif qilish; trening paytida barcha ishlarni koordinatsiya qilish; trening hisobotini yozish.

BMTD va “Kamolot” bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Yoshlarni ish bilan ta‘minlash muammolari” mavzusi bo‘yicha izlanishlarni olib borishda va yakuniy hisobotini yozishda ko‘maklashganman.

Loyiha chorak hisobotlarini yozish, loyiha bo‘yicha prezentatsiyalar berish.

5. Qo‘shimcha ma‘lumotlar:

a. Xorijiy tillar

b. Kompyuter darturlari to‘g‘risida bilimlar

c. Yutuqlar (sport bo‘yicha, stipendiyalar va boshqa muhim yutuqlar)

d. Qo‘shimcha treninglar va kurslar

e. Tajriba orttitirish (stajorlik) paytlari

f. Qiziqishlar

g. Ilmiy maqolalar

h. Konferensiyalardagi ma‘ruzalar

Maslahatlar:

Rezyume iloji boricha bir varoqdan oshmasligi kerak.

Har bir ishga topshirganda alohida rezyume yozish maslahat beriladi. Rezyumeda asosan topshirilayotgan ishga taaluqli ma‘lumotni kiritish kerak. Buning uchun topshirayotgan ishingiz bayonotini yaxshilab o‘rganib chiqing va tashkilotni o‘zini ham o‘rganishga harakat qiling.

Tug‘ilgan yili, jinsi va millatini yozish shaxsning o‘ziga bog‘liq. Ba’zida ish beruvchi tomonidan shu ma‘lumotlar asosida farqlash va diskriminatsiya qilish hollari ham uchragan, shuning uchun ko‘plab tashkilotlar bunday ma‘lumotni majburiy ko‘rmaydilar.

Ba’zilar rezyumega o‘z rasmlarini ham qo‘shadilar. Rasm qo‘shish ixtiyoriy.

- Agar shaxsiy vebsaytingiz bo‘lsa, uni ham qo‘shing. Ba’zi mutaxassislar, ayniqsa disayner va rassomlar, o‘zlarining ishlarini ko‘rsatish maqsadida tashqi saytda joylashgan manzillarni qo‘shishlari ham mumkin.

- Agar ishga topshiruvchi hozirda talaba bo‘lsa, unda kutilayotga bitirish sanasini ko‘rsatish kerak.

- Agar talabalik davrida biror qo‘shimcha tajriba orttirilgan bo‘lsa, shuni ham yozib o‘tish tavsiya etiladi. Masalan: universitet qoshidagi gazetaga muharrirlik

qilgan; yoki “Yosh lider” talabalar tashabbusini boshqargan. Ishga topshiruvchining tajribasi uncha ko‘p bo‘lmasa shu kabi ishlarni ham *Ish Tajribasi* bo‘limida sanab o‘tish mumkin.

- O‘rta maktab ta’limi to‘g‘risidagi ma’lumot ham ba’zida so‘ralishi mumkin. Shunda o‘qigan yillari, maktab nomi va/yoki soni va manzili yozilishi kerak.

- Agar shaxsning tajribasi ko‘p bo‘lsa va ko‘p joyda ishlagan bo‘lsa oxirgi 5 yillik yoki oxirgi 5 ta ish joyini to‘liq ko‘rsatib o‘tib, qolganlarini qisqacha sanab o‘tish ham bo‘ladi.

- Tajribani yozganda topshirilayotgan ishga taaluqli vazifa va funksiyalarni sanab o‘tish ma’qul. Agar imkoniyat bo‘lsa, aniq ma’lumot berib o‘tgan yaxshi. Masalan, seminar-trening mutaxassisi lavozimiga ishga topshirayotgan bo‘lsangiz unda oldin qanday mavzudagi treninglarni tashkil qilganingiz, trening kimlar uchun va qanday tashkil qilinganligi to‘g‘risida yozsangiz shu kabi ma’lumot ishga oluvchi uchun muhimroq bo‘ladi.

4.Rezyume namunasi matni bilan tanishib chiqing.O‘zingiz uchun namunadagidek rezyume yozing.

Rezyume namunasi:

Lobar Yoqubjonova

Toshkent sh., Firdavs mavzesi, Shahrisabz ko‘chasi 7-uy.

Tel: +998902220000; ***Lobar yoqubjon*** @mail.uz

Qisqacha mazmun: 6 yillik tajribaga ega loyiha tuzish va boshqarish mutaxassisi. Ingliz va rus tillarini mukammal bilaman. 2008 yilda Biznesni boshqarish yo‘nalishi bo‘yicha Magistraturani oliy darajada tamomlagan va ilmiy darajaga egaman.

Ma’lumot:

2006-2008 Magistr, Biznesni boshqarish. O‘zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet-4 ko‘chasi. www.nuu.uz.

Fanlar: Loyiha tuzish va boshqarish (22 soat) Makroiqtisodiyot (25 soat)

2002-2006 Bakalavr, Menejment. Farg‘ona Politehnika Instituti. Farg‘ona shahri, Farg‘ona ko‘chasi 86-uy. www.ferpi.uz

Ish tajribasi:

25.01.2011 – 10.02.2014 Loyiha mutaxassisi, “Yoshlarda ish ko‘nikmalarini rivojlantirish loyihasi”. NNT “Faol yoshlar”, Toshkent sh., Shaxrisabz ko‘chasi 1-uy. Tel: 267-00-00

- Yoshlar uchun 5-kunlik treninglarni tashkil qilganman: trening rejasini tuzish; trenerlarni jalb qilish; joy va kerakli jihozlarini tayyorlash; ishtirokchilarni taklif qilish; trening paytida barcha ishlarni koordinatsiya qilish; trening hisobotini yozish.

- BMTD va “Kamolot” bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Yoshlarni ish bilan ta’minlash muammolari” mavzusi bo‘yicha izlanishlarni olib borishda va yakuniy hisobotini yozishda ko‘maklashganman.

- Loyihaning chorak hisobotlarini yozish, loyiha bo'yicha prezentatsiyalar berish.

01.06.2008 – 28.12.2011 Dastur yordamchisi, Mahalliy rivojlanish markazi, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi 165-uy, Toshkent. Tel: 237-90-00

- Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida mahalliy tadbirlarni tashkil qilishda yordam berish: tarqatma materiallarni tayyorlash; treninglar uchun o'quv zallarini tayyorlash;

- Tadbirlar va yangi loyihalar uchun yoshlarning ijtimoiy ehtiyojlari to'g'risida axborot yig'ish va kichik izlanishlar olib borish;

- Uchrashuvlarning hisobotini yozib borish.

Xorijiy tillar: Ingliz va rus tillarida to'liq yozish, o'qish va muloqot qilish.

Kompyuter dasturlari: Windows 7; Microsoft Office 2008 (Power Point, Word, Excel); Internet

Qo'shimcha kurslar: 2011, Toshkent menejment markazi tomonidan tashkil qilingan 6-haftalik "Loyiha tuzish va boshqarish kursi"ni muvaffaqiyatli tamomlaganman.

Yutuqlar: 2008 O'zbekiston Respublikasi Presidentining davlat stipendiyasi sohibasi.

Rezume matni rejasi

- Tayanch (eng muhim) so'zlar.
- Tadqiqot obyekti.
- Ishning maqsadi.
- Tadqiqot usullari.
- Olingan natijalar va ularning yangiligi.
- Amaliy ahamiyati.
- Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi.
- Qo'llanish sohasi

BILIB OLING !

• **Annotatsiya** (lot. annotatio - qayd) - qisqacha ta'rif. Kitob, maqola, qo'lyozma mundarijasini, g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini va boshqa jihatlarini ochib beradi. Annotatsiya – badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. **Annotatsiya** o'zining kamso'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Uning vazifasi o'quvchilarda muayyan kitob, maqola, qo'lyozma to'g'risida umumiy tasavvur tug'dirish va ularga **adabiyotlar** tanlashda yordam ko'rsatishdir.

5. Annotatsiya namunalarini o'qing, ko'rsatilgan manbalardan maqolaning to'liq matnlari bilan tanishing. Tegishli ilmiy jurnallardagi yo'nalishingizga oid maqolaga mustaqil ravishda annotatsiya yozing.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini yanada yaxshilash, jismoniy tarbiya, sport va sog‘lomashtirish sohasida o‘zbek tilidan foydalanish, izohli lug‘atlarni yaratishdagi ayrim jihatlar tahlil etilgan.

(G‘afforov N.N., Sultonova Z.O‘. Sport atamaları izohli lug‘atini tuzish muammolari .”Fan-sportga”.2021.5-son, 64-bet.)

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirishda mavjud muammolar o‘rganilgan hamda ularni yechimi borasida takliflar bildirilgan. Qolaversa, maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan qiyosiy tahlil shakllantirilgan bo‘lib, u o‘z navbatida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirishni qay holatda ekanligini va muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. (Xudoyberdiyeva N.A. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish yo‘llari.”Fan-sportga”.2021.5-son, 39-bet.)

Annotatsiya. Ishda yuqori malakali jamoalarning texnik-taktik harakatlariga oid tahlillar keltirilgan. O‘zbekiston terma jamoa futbolchilarining aniqligini bajarishdagi kamchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Futbolchilarda texnik-taktik harakatlarning tayyorgarlik darajasini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

(Artikov A.A. Osiyo Kubogi-2019 o‘yinlaridagi O‘zbekiston terma jamoasining darvozaga yo‘llagan zarbalar aniqligi bo‘yicha tahlil. “Fan- sportga” jurnali, 2020-yil, 7-son, 16-17- betlar).

BILIB OLING !

Taqriz (arab. - ijobiy baho) - adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. **Taqrizda** asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma‘lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi. **Taqriz** asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko‘maklashadi. Nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asarga ichki taqrizga beriladi, biroq, bu taqriz matbuotda e‘lon qilinmaydi.

5. Mutolaa. Taqriz namunalari matni bilan tanishing. Xususan, filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Boltayeva va dotsent M.Ayxodjayevalar tomonidan tayyorlangan “O‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasiga berilgan taqriz matni bilan tanishing. Maqola va annotatsiya matnining farqli tomonlari haqida guruhdoshlaringiz bilan fikr almashing.

6.Quyidagi so‘zlarning ma‘nosini izohli lug‘at yordamida yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing

Gimnastika mashqlari quyidagi asosiy guuhlarga bo‘linadi: safdagi, umumrivojlantiruvchi, erkin mashqlar, sakrashlar (oddiy va tayanib), amaliy,

gimnastik anjomlar bilan mashqlar, akrobatik, badiiy gimnastika va aerobika mashqlari.

7. Matnni o‘qing. Professor Ozod Po‘latovning sport sohasidagi xizmatlarini sanab ko‘rsating. Sohangizga doir qaysi kitoblari bilan tanishgansiz mulohaza yuriting?

PO‘LATOV OZOD ORTIQOVICH

Po‘latov Ozod Ortiqovich dotsent (2007), professor (2019)

“Voleybol nazariyasi va uslubiyati“ (yakka mualliflikda) (2020), “Sportivnyye i podvinye igrы (voleybol)” (hammualliflikda) (2020), “Sport va harakatli o‘yinlari (voleybol)” (hammualliflikda) (2020), “Sport va harakatli o‘yinlar” (hammualliflikda) (2018), “Tennis nazariyasi va uslubiyati” (hammualliflikda) (2017), “Basketbol nazariyasi va uslubiyati” (hammualliflikda)(2017) darsliklari muallifi.

O‘quv qo‘llanmalari: Basketbol nazariyasi va uslubiyati (2017), Sportivnyye i podvinye igrы (Voleybol) (2021), Salomatlik – harakat mahsuli va uni hayot davomida barqarorlashtirish imkoniyatlari (2018), Voleybol nazariyasi va uslubiyati, Sport pedagogik mahoratini oshirish (voleybol) (2018), Badminton nazariyasi va uslubiyati(2017)

O‘quv-uslubiy qo‘llanmalari: “Voleybol: musobaqa o‘tkazish tartibi va qoidalari” (2018), “Voleybol”(2017),” Bog‘cha yoshidagi bolalarning jismoniy imkoniyati va uni shakllantirish metodikasi “(2020).

30 dan ortiq Xalqaro va Respublika miqyosida chop etilgan maqolalari mavjud.

Po‘latov Ozod Ortiqovich shu universitetda (1962-1964) o‘qishi davomida o‘z yigitlik burchini harbiy xizmat orqali sidqidildan ado etib (1964-1967) qaytgan va yana o‘qishni davom ettirib muvaffaqiyatli tugatgan(1967-1969).

Olim o‘z mehnat faoliyatini shu universitetning «Sport va milliy yoinlar» kafedrası o‘qituvchisi (1969-1969) lavozimidan boshlab,shu yillar davomida turli mas’ul vazifalarda ish olib bordi. Jumladan, «Fiziologiya» kafedrası stajer-o‘qituvchisi(1969-1971), muammolar laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi (1971-1973), muammolar laboratoriyasi katta ilmiy xodimi(1973-1976), «Sport va milliy yoinlar» kafedrası o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi(1976-1989), sirtqi fakultet dekani (1989-1998), Universitet ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha I prorektori (1998-2001), «Sport o‘yinlari» kafedrası dotsenti (2001-2007) , 2019 yildan hozirgi kungacha «Sport o‘yinlari» fakulteti **Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati** kafedrası professor v.b. kabi lavozimlarda faoliyat yuritmoqda

8. Mutolaa . “O‘zbek tilida “kurash” arxisemali leksemalar (Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi asosida)⁶ maqolasini o‘qing. Mazmuniga e’tibor bering va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

⁶ Boltayeva I. T. O‘zbek tilida “Kurash” arxisemali leksemalar . (Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi asosida Xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini innavasion pedagogik ta’lim klasteri asosida amalga oshirish istiqbollari.Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.Chirchiq shahri,2019 yil,17 may,191-196-betlar.

1. Maqolani kirish, asosiy qism va xulosa qismlariga bo'ling.
2. Maqoladan kalit so'zlarni ajratib daftaringizga yozing.
3. Maqolaga mustaqil ravishda annotatsiya yozing. (Namuna sifatida 9-topshiriqda keltirilgan maqoladan foydalaning)
4. Kalit so'zlardan foydalanib "Sportning jamiyat hayotidagi o'rne" mavzusida kichik maqola yozing.



9. Quyida berilgan matnni o'qing va buyuk ajdodlarimizning sportga munosabati haqida qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirib, og'zaki so'zlab bering.

SPORT

Sport qadimdan inson hayotida muhim o'rin tutgan. Qadimgi Misrda sportning ayrim turlari 4 ming yil avval mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot bor. Qadimgi Sharqda hatto ayollarning har tomonlama bilimli, kuchli bo'lib yetishishlariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Har bir davlat boshlig'i, albatta,

yetakchi sarkarda bo'lishi ham shart hisoblangan. Tarixda o'chmas iz koldirgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Boburlar shunday hukmdorlar edilar.

10. Mutolaa. "Muqaddas Vatanim" matnini diqqat bilan o'qing. "Yangi O'zbekiston- yangi imkoniyatlar", "O'zbekiston -Vatanim manim", "Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'limiz bilan quramiz" mavzularidan biri asosida esse yozing.

11. Uyga vazifa. Lug'at bilan ishlash. Berilgan so'zlarni ular anglatgan ma'no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **O'rta masofa** - O'rta masofaga yugurishga 800 m va 1500 m ga yugurish kiradi. Optimal qadam uzunligi qisqa masofalarga yugurishdagiga qaraganda kamroq.

2. **Ot** - 1. "Kon" gimnastika jihozi. Uzunligi 180, ya'ni 37 va balandligi 90-140 sm, oyoqlari uzaytiriladigan bo'lib, uni 140 sm gacha ko'tarish va 90 sm gacha pastga tushirish mumkin. Otning ikkita tutqichi bo'ladi. 2. Ot shaxmat o'yinida: ot, asp; otni yurmoq (surmoq)

3. **O'yindan tashqari holat** - Hujumchining yakka holda va jamoa bilan hujum uyushtirganda darvozabon maydonida to'psiz oldingi chiziqlarda harakatlanishi yoki shunday holatga tushib qolishi. Bunday holatning takrorlanishining sababi futbol o'yini tarixida hujumchilardan biri doimo raqib darvozabon tomonda turib to'pni kutib turgan va tezda qarshi hujum uyushtirganlar. Bu holat o'yinning biroz zerikarli bo'lib, ko'plab gol bo'lishini ta'minlagan. Keyinchalik bu holat taqiqlanib, hozirgi davrga kelib shu qadar takomillashdiki, hujumchining 0,5 masofada to'pga oldin kelishi ham o'yindan tashqari holat deb qabul qilindi.

4. **O'lchov** - Bajariladigan jismoniy ishning hajmi va quvvatini hisoblashda har xil o'lchov birligi qo'llaniladi: ko'tariladigan yuk massasi, bosib o'tilgan yo'l, ishga sarflangan vaqt va boshqalar. Inson bajargan ishni aniqlashning aniq va ilmiy asoslangan maxsus usullari, uning ish qobiliyatiga yarasha tavsiyalar berilgan va joriy qilingan. Buning uchun YQT yoki tomir urish ko'rsatkichlari yig'indisi vaqt birligida organizmning kislorod iste'mol qilishi va butun ish davrida mazkur ishga sarflanadigan energiya (kkal), KDJ va boshqalarda o'lchanadi.

5. **Olimpiyada o'yinlari** - Olimpiada o'yinlari 1896-yildan boshlab o'tkaziladi. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish tartibi, qoidalari Olimpiya xartiyasida belgilab berilgan. O'yinlar Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) tomonidan tashkil qilinadi. Olimpiya sport turi xartiyaga binoan aniqlanib, u eng keng tarqalgan (yozgi o'yinlarning erkaklar uchun sport turi 4 qit'aning kamida 75 davlatidan va ayollar uchun esa uch qit'aning kamida 40 davlatida tarqalgan) bo'lishi kerak. Dasturga yengil atletika, gimnastika, suzish, og'ir atletika, kurash, boks, qilichbozlik, futbol, basketbol musobaqalari, albatta, kiritiladi.

6. **O'zbekiston milliy Olimpiya qo'mitasi** - O'zbekiston milliy Olimpiya qo'mitasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) bilan uzviy aloqada va bevosita uning rahbarligida ish olib boradi hamda o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda to'liq javobgarlikka ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi 58 milliy Olimpiada qo'mitasi emblemasi - beshta Olimpiya halqasi va oq fonda Humo qushining tasviri - g'alaba hamda baxt ramzi tasvirlangan.

7. **Pahlavon** [f-t] - 1. Barvasta va zabardast. 2. Botir, qahramon.

8. **Penalti** - Penalti -11 metrdan darvozaga tepiladigan jarima to'pi. 1891-yil qoidabuzarlik uchun eng qat'iy jazolardan biri - 11 metrlik zarba kiritildi, uni inglizcha so'z bilan "penalti" deb ataydilar.

9. **Piyoda** [f-t] - Shaxmat o'yinida: eng kuchsiz dona; piyodani yurmoq (surmoq)

10. **Planka** - Uzun taxtacha; metall planka; nishonga olish plankasi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ilmiy uslubning grammatik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Akademik yozuvlar haqida fikr yuriting.
3. Kasbiy nutq deganda nimani tushunasiz?
4. Tezis, taqriz annotatsiya, rezyume matniga qo'yiladigan qanday talablarni bilasiz?

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR.

1. Ilmiy uslubda qo'llanuvchi biz olmoshi qanday ma'noda qo'llanadi?
A) manmanlik ma'nosida
B) kamtarlik ma'nosida
G) birinchi shaxs ko'pligi ma'nosida
C) kuchaytiruv-ta'kid ma'nosida
2. Quyidagilardan qaysi biri ilmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi?

- A) maqollar
 - B) iboralar
 - G)ko'chma ma'noli so'zlar
 - C) yuqoridagilarning barchasi deyarli qo'llanmaydi
3. Ilmiy uslubda iqtibos qo'llanilganda...
- A) uning muallifi va manbasi ko'rsatilishi shart
 - B) uning muallifi va manbasi ko'rsatilishi shart emas
 - G)ilmiy uslubda iqtibos qo'llanmaydi
 - C) ilmiy uslubda faqat shaxsiy qarashlar bayon e'tiladi
4. Emotsional - bo'yoqdor so'zlar ...
- A) ilmiy uslubda keng qo'llaniladi
 - B) ilmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi
 - G)bunday so'zlar mavjud emas
 - C) B va C javoblar to'g'ri
5. Shevaga xos so'zlar...
- A) ilmiy uslubda keng qo'llaniladi
 - B)ilmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi
 - G)ilmiy uslubning og'zaki shakliga xos
 - C)ilmiy uslubning yozma shakliga xos
6. Terminlar ...
- A) ilmiy uslubda keng qo'llaniladi
 - B) ilmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi
 - G)ilmiy uslubning og'zaki shakliga xos
 - C) ilmiy uslubning yozma shakliga xos
7. Ilmiy uslubda fe'lning qaysi nisbati ishlatiladi?
- A) O'zliknisbat
 - B) Birgaliknisbat
 - G)Majhulnisbat
 - C) Orttirmanisbat
8. Qanday uslubga ilmiy uslub deyiladi?
- A) Fan va texnika tili ilmiy uslub deyiladi.
 - B) Fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi uslub ilmiy uslubdir.
 - G) A va B javoblarto'g'ri.
 - C) Barchasi noto'g'ri
9. Maqola qanday janr hisoblanadi?
- A) Ilmiy
 - B) Publitsistik
 - G) Badiiy
 - C) Og'zaki
- 10.Mehnat bozorida raqobatdosh bo'la oladigan shaxsning qobiliyatlari ko'rsatilgan hujjat qaysi ?
- Ariza
 - A) Rezyume
 - G) Tezis
 - C) Maqol

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

SOHADA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH

MASALALARI. (2 soat)

REJA:

- 1.O‘zbek hujjatchilik tarixi.
- 2.Hujjat va uning turlari.Hujjatlarning zaruriy qismlari.
- 3.Rasmiy – idoraviy uslub va uning o‘ziga xos xususiyatlari

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Munshiy, munshoat,ish yuritish,ish yuritish tili,ish yuritish uslubi, rasmiy, idoraviy, leksik, grammatik,sintaktik, ish qog‘ozlari, qonun, qaror, farmon, buyruq, ko‘rsatmalar, shartnomalar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar o‘rtasidagi yozishmalar.

BILIB OLING !

O‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlashda o‘zbek tilining imlo qoidalarini to‘liq bilishlik talab etiladi.

Tariximizda saroylardagi mahkamalarda yozuv ishlarini olib boruvchilar, hujjat tayyorlovchilar **“munshiy”** deb yuritilgan. Bu so‘z arabchadir. Hozirda rus tilidan tarjima qilib olganimiz **“ish yuritish”** atamasi o‘rniga, qadimda bobolarimiz ishlatgan **“munshaot”** atamasi muqobil sifatida tavsiya etilmoqda.

O‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri **hujjatlarning tili va uslubi** masalasidir. Hujjat tayyorlashda o‘zbek tilining **imlo qoidalarini** to‘liq bilishlik talab etiladi.

Hujjatlar matnining **xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlikdan** iborat zaruriy sifatleri, hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi **morfologik va sintaktik** xususiyatlar orqali ta‘min etiladi.

Hujjat matni yuqorida sanalgan xususiyatlarga ega bo‘lmasa, bunday hujjat **yaroqsiz holga keladi** va ish yuritishning samaradorligini pasaytiradi.

TOPSHIRIQLAR.

- 1.Mutolaa.O‘zbek hujjatchiligi tarixiga oid ma’lumotlar bilan tashnash.Qaysi ilmiy, badiiy asarlarda hujjatlar va ularning yuritilishi haqida o‘qigansiz?. A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani bosh qahramoni Anvar xon saroyida qanday mansabda ishlagan, fikr yuriting.?
2. Quyidagi so‘zlarni shaxsiy yoki rasmiy munosabat bildirishiga ko‘ra guruhlariga ajrating.

O‘qishga kirmoq, vazifasidan ozod etilmoq, salom yetkazmoq, belgilangan jadvalga muvofiq, ko‘nglini ko‘tarmoq, ko‘rishganimizda aytib bermoq, zimmasiga yuklamoq, «Kamolot» yoshlar harakatiga qo‘shilmoq, vaqt topolmaslik, o‘qituvchi bo‘lib ishlamoq, harorat pasayishi oqibatida, xushxabar eshitgandan keyin.

BILIB OLING !

KISHILAR RASMIY ISH YURITISHDA TILNING IMLO QOIDALARIGA AMAL QILISHGA MAJBURDIRLAR.

1995-yilning 24-avgustida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini” tasdiqlangan va unga amal qilish shart. Bular:

1. Harflar imlosi
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi
3. Qo‘shib yozish
4. Ajratib yozish
5. Chiziqli bilan yozish
6. Bosh harflar imlosi
7. Ko‘chirish qoidalaridan iboratdir

3. Gaplarda tushirib qoldirilgan so‘z va qo‘shimchalarni o‘rniga qo‘yib ko‘chiring. Ushbu matnning oldingi matndan qanday farqlanishini tushuntiring.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1- bosqich talabasi Ahror Rahmonov... shaxsiy a‘zolik... ochishingiz... so‘raymiz. A. Rahmonov o‘qishni bitirgan taqdirda, hisob bo‘limiga kutubxona ma’lumotnoma... topshirma... unga shahodatnoma bermas... kafolat bera...

Ushbu majburiyat bajaril... holat... A. Rahmonov... dan kutubxonaga qaytarilmagan adabiyotlar... barcha moddiy javobgar... o‘z zimmamizga... ola...

BILIB OLING !

Hujjatlar tilida **ot turkumiga oid** so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe‘l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so‘z shakllari tanlanadi, ya’ni **harakat nomi shakli**.

Masalan: Tayyorgarlikning **borishi haqida...**, Qarorning **bajarilishi to‘g‘risida...**, **Yordam berish** maqsadida..., **Qabul qilishingizni** so‘rayman...

Fe‘l shakllarining qo‘llanishida ham birmuncha o‘ziga xosliklar mavjud. Xususan, majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o‘tgan zamondagi fe‘l shakllarining qo‘llanish darajasi ancha yuqori:

- *topshirilsin*
- *tasdiqlansin*
- *bo‘shatilsin*
- *tayinlansin*
- *eshitildi*
- *qaror qilindi*
- *ko‘rsatib o‘tildi*

Hujjatlarning maqsadi va mazmuniga muvofiq ravishda ularda so‘roq va undov gaplar deyarli qo‘llanmaydi, asosan, **darak va buyruq** gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilning ikki vazifasi – **xabar berish va buyurish** vazifalari amalga oshadi

- Hujjatlar matni birinchi va uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Yakka rahbar tomonidan yoziladigan farmoyish hujjatlari birinchi shaxs tilidan bo‘ladi.

BILIB OLING !

Zarur holatlarda e’tiroz yoki o‘rinli takliflar bildirilishi mumkin. Ammo rahbarga nisbatan hurmat saqlanishi, **murojaat odobiga** amal qilinishi zarur.

- “siz” so‘zini bosh harfdan boshlab yozish orqali : **“Sizga”**.
- Fikriy bog‘liqlik “bu”, **“ushbu”**, **“mazkur”**, **“shunga muvofiq”** kabi so‘zlar yordamida ta‘minlanadi;

Taklif va e’tirozlar **“bizningcha”**, **“shartnomaga ko‘ra”**, **“deb o‘ylaymiz”** kabi so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalanadi

4.Quyidagi javob xatida tushirib qoldirilgan qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘yib, daftaringizga yozing.

«Fidokor» gazeta...
bosh muharriri
S. Safarov...

«Fidokor» gazetasi tahririyati tomoni... 2002- yil 3- martda yuborilgan 1-01-90 raqamli so‘rov xatingiz... javob... Sizga shuni ma‘lum qilamiz..., mahallamizda yashovchi bir guruh yoshlar... 14- turarjoy dahasida ommaviy sport turlari bilan shug‘ullan... uchun yetarli sharoitlar yo‘qligi to‘g‘risida shikoyat xatida ko‘rsat... kamchiliklar mahalla faollari yig‘ilishi ... shu yil 23-martda o‘tkazilgan yig‘inida ko‘rib chiq....

Xat... ko‘rsatilgan kamchiliklar asos... ekan... tan olib, Yunusobod tumani... 14- dahasidagi qarovsiz qoldirilgan maydonlarni toza..., uylar hovlisidagi garajlar... oldirib, o‘yingoh... aylan..., mavjud sport inshootlarini ta‘mir... vazifalari «Hashar» kommunal xo‘jali... rahbari Q. Ochilov topshirildi.

Ko‘rilgan ushbu chora-tadbirlar... ijrosi haqida tahririyatingiz... qo‘shimcha xabar qila....

«Yunusobod» mahalla qo‘mita raisi (imzo) **S. Olimov**

BILIB OLING !

Ish yuritish uslubi **rasmiy uslub** hisoblanadi. hozirgi o‘zbek adabiy tilining rasmiy yozishmalar va yuridik ishlarda amal qiladigan bir ko‘rinishidir

Qonunlar, qarorlar, farmonlar, buyruq va ko‘rsatmalar, shartnomalar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar o‘rtasidagi yozishmalar rasmiy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, chaqiruv qog‘ozi ishonch qog‘ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e‘lon, tavsifnoma, hisobot, tavsiyanoma, xat kabi hujjatlar ham rasmiy uslubda yoziladi.

Bu uslub boshqa uslubdan lug‘aviy va grammatik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. Rasmiy uslubda so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash

qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki tantanavor yoki shevaga oid so‘zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, mubolag‘a kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi.

5.Mutolaa. O‘zbek futboli afsonasi – Birodar Abduraimov, champion Artur Taymazov haqidagi ma'lumotlar bilan tarnishing va og‘zaki qayta so‘zlab bering. Ularning yuksak darajada muvaffaqiyatga erishishining sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

6.Nuqtalar o‘miga tegishli so‘z yoki qo‘shimchani qo‘yib ko‘chiring. Aynan shu so‘z yoki qo‘shimchani nega tanlaganingizni ayting.

1. Ta’til boshlanishi... (*bilan, tufayli*)... (sen, siz)ning kelishing... (*-izni, -ni*) orziqib kutaman. 2. Mendan hammaga... (*ayniqsa, xususan*) sinfdoshlaringga... (*tegishli, ko‘pdan-ko‘p*) salom... (*-ni, -lar*) yetkaz... (*-ishingni so‘rayman, -asan deb o‘ylayman*). 3. Ushbu... (*xat, maktub*) senga qaysi... (*kun, sana*) da yetib bor... (*-ishi bilan, -sa*) darrov javob yoz... (*-ishing kerak, -gin*) xo‘pmi. 4. Bo‘sh qol... (*-dim, -gan taqdirda*) xayolimni sizdan uz... (*-ishim mumkin emas, olmay qolaman*). 6. Menga ko‘rsatgan... (*maxsus, katta*) yordamingiz... (*orqali, tufayli*) ishlarim... (*rivojlandi, yurishib ketdi*). 7. Siz bilan... (*tez muddatda, yaqin kunlarda*) ko‘rishish... (*umididaman, zarur*).

7. Mutolaa. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan keltirilgan qismning davomini o‘qing va to‘liq mazmunini o‘rganib, undan shu matn uslubiga xos bo‘lgan so‘z va iboralarni toping hamda grammatik qurilishini tushuntirib bering.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta‘minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud...

BILIB OLING !

Rasmiy ish qog‘ozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, **morfologik va sintaktik** xususiyatlar orqali ta‘minlanadi. Bu uslubdagi gap qurilishi, odatda, tasniflovchi, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga

asoslanadi. Shuning uchun ham rasmiy ish qog'ozlari (hujjatlar) da nisbatan uzun jumlar, murakkablashgan, uyushiq bo'lakli gaplar ko'p qo'llanadi.

Lekin gap tarkibida odatdagi so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi. Rasmiy uslubda so'roq, va undov gaplar deyarli qo'llanmaydi, asosan, darak va buyruq ish qog'ozlari matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan keng foydalaniladi. Masalan, buyruqda «... *so'm maosh b-n... lavozimiga tayinlansin*», yoki xizmat yozishmalarida «*Sizga...ni ma'lum qilamiz*». «*...ga korxona kafolat beradi*» kabi qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin.

8.Quyidagi namunadan foydalanib o'z guruhingiz yig'ilishi bayonnomasini tayyorlang.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1- bosqich
.....guruhi talabalari yig'ilishining 3-sonli bayonnomasi

2022 - yil _____

Chirchiq shahri

RAIS _____

KOTIBA _____.

QATNASHDILAR; __ TALABA

KUN TARTIBI:

1. _____

2. _____

1.ESHITILDI: _____

SO'ZGA CHIQDILAR:

2.ESHITILDI: _____

SO'ZGA CHIQDILAR:

QAROR QILINDI:


Rais

(imzo)

Kotib

(imzo)

9.Bayonnoma matnidan foydalanib, tarkibiy qismni ifodalovchi yoki kalit soʻzlarni jamlab jadvalni toʻldiring.



10.Quyidagi soʻz va birikmalardan foydalanib gaplar tuzing va daftaringizga koʻchirib yozing.

Tugʻilganman, talabasiman, soʻrayman, amaliy yordam, belgilab qoʻyilsin, taqdimoti boʻlib oʻtdi, buyruq ijrosini taʼminlash maqsadida, tashkil etilsin, axborot berdi, ovoz berildi, ogohlantirildi, uzrli sabablarga koʻra, bugundan eʼtiboran, ozod qilinsin, tavsiya qilinsin, soʻz olmoq, muhokama qilmoq, tayinlamoq, tasdiqlamoq, faol qatnashmoq, fikr-mulohaza bildirmoq.

11.Maʼlumotlardan foydalanib, yaqin doʻstingizga tavsifnoma yozing.

Tavsiflanayotgan shaxsning ismi,familiyasi,
otasining ismi, tugʻilgan yili, millati,
maʼlumoti, lavozimi

TAVSIFNOMA


Tavsiflanayotgan shaxsning oʻqish (mehnat) faoliyati, oʻz ishiga munosabati, kasbiy mahorali, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy ahvoli, mukofotlari haqida maʼlumol beriladi va xulosa chiqarilib, tavsifnoma nima maqsadda berilayotgani koʻrsatiladi.

Tashkilot rahbari

(imzo)

ismi, familiyasi

12. Hujjatlar va ularning tarkibiy qismlari haqidagi bilimlaringizni jamlab klasterlarni davom ettiring.



13. Uyga vazifa:

1. Mutolaa. “O‘zbek hujjatchiligi tarixi” matnidagi ma’lumotlar bilan tanishish.

2. Lug‘at bilan ishlash. Berilgan so‘zlarni ular anglatgan ma’no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Qon - Qon tananing suyuq to‘qimasi bo‘lib, yurak va qon tomirlardan iborat yopiq tartibot ichida to‘xtovsiz harakatlanib turadi. Qon suyuq qismi - plazma (55%) va undagi muallaq shaklli elementlar (45%): eritrotsitlar (qizil qon tanachalari), leykotsitlar (oq qon tanachalari), trombotsitlar (qon plastinkalari)- dan iborat. Qonning fiziologik funksiyalari: gazlarni tashish funksiyasi - o‘pka alveolaridan kislorod olib to‘qimalarga, to‘qimalardan karbonat angidrid gazini o‘pkaga olib keladi; ovqatlantirish - 62 hazm yo‘lidan ovqat moddalar - glyukoza, aminokislo-talar, yog‘ kislotalarini to‘qimalarga tashish; himoya qilish - mikroorganizmlarni, ularning zaharli moddalarini (toksin) zararsizlantirish; termore-gulyator - tana haroratini bir xilda saqlab turishda ishtirok etish; boshqarish vazifasi gormonlar va fiziologik faol moddalar qonga tushib, qon orqali

ayrim a`zolarga ta`sir etib, ularning faoliyatini o`zgartiradi. Qonning umumiy me`yor miqdori tana vaznining 6-8% ni tashkil etadi.

2. **Rahbar** [f-t] - Jamoa va sh.k.ga yo`l ko`rsatib, boshchilik qilib boruvchi, rahbarlik qiluvchi; yo`lboshchi, yetakchi, boshliq, ishboshi.
3. **Rais** [a] - Muassasa yoki tashkilotning boshlig`i, rahbari.
4. **Raketka** - Tennis o`yinida koptokni to`r ustidan oshirib urish uchun qo`llaniladigan sport anjomi.
5. **Rapira** - Qilichbozlikda qo`llaniladigan chor qirrali qilichsimon qurol; rapira bilan qilichbozlik qilmoq.
6. **Raund** - Boksda uch minutlik bir qur olishuv vaqti. Birinchi raund.
7. **Razryad** [r] - Malaka darajasi. Birinchi razryad gimnastikachi.
8. **Regbi** - O`yinda jamoa konussimon to`pni raqibining sinov chegarasiga yoki darvozasiga kiritishga harakat qiladi. O`yin musobaqalari birinchi marta AQSH da 1874-yilda o`tkazilgan. 1880-yilda birinchi marta o`yin qoidalari tuzildi. O`yin maydonining kattaligi 109,75 X 48,80 m. O`yinda "N" harfisimon darvoza qo`llaniladi. Qur`a tashlash yo`li bilan to`p jamoalarning biriga beriladi. Uning o`yinchilari qo`llari bilan to`pni bir-birlariga uzatib oldinga harakat qiladilar. Raqib jamoaning o`yinchilari hujumchilarni to`sishga harakat qiladilar. O`yinchilar himoyachilarga va hujumchilarga ajratiladilar. Himoyachilar bo`ylari 190 sm ga yaqin, og`irliklari 100 kg atrofidagi o`yinchilardan tashkil topadilar. O`yin qattiqqo`llik, rahmsizlik hamda shiddat bilan o`tadi. O`yinda raqibni to`xtatish uchun, uni chim ustiga siqib qo`yish uchun deyarli hamma usullarni qo`llashga ruxsat berilgan. Bu o`yin AQSH, Kanada va Yaponiyada keng tarqalgan.
- 9.**Rekord** [ing] - Sport o`yinida erishilgan eng katta muvaffaqiyat, eng yaxshi natija, eng yaxshi ko`rsatkich. Agar yuqori sport yutuqlari aniq, beg`araz o`lchamda qayd etilgan va avvalgi natijalardan yuqori bo`lsa, ular sport rekordi deb ataladi.
- 10.**Ring** [ing.] - Boks musobaqalari o`tkaziladigan maydoncha.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O`zbek hujjatchiligi tarixidan nimalarni bilasiz?
2. Tarxon yorliqlari, vasiqanomalar qanday hujjatlar?
3. Hujjat yuritish ishlarini o`rganish nima uchun kerak?
4. Mustaqillik davrida davlat tilida ish yuritish sohasida qanday o`zgarishlar sodir bo`ldi?
5. Ma`lumot axborot hujjatlari va ularning turlari haqida fikr yuriting?
6. Rasmiy ish uslubining o`ziga xosligi nimalarda ko`rinadi?
7. Rasmiy – idoraviy hujjatlarning til xususiyatlarini farqlab bering?
8. Tashkiliy hujjatlar, ularning zaruriy qisimlari nimalardan iborat?
9. Sport sohasida qo`llanadigan ish qog`ozlar haqida ma`lumot bering.

MAVZU BO`YICHA TESTLAR

1. Ish yuritishning bevosita asosini nima tashkil qiladi?

- A) hujjatlar
- B) qonunlar
- C) farmonlar
- D) imlo

2. Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri bu?

- A) tushuntirish
- B) imloga rioya qilish
- C) xolislik
- D) uzluksizlik

3. Qaysi uslubda kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ko'tarinki-tantanavor yoki bachkana, dag'al so'zlar, shevaga oid so'zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so'zlar, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi?

- A) ilmiy uslubda
- B) publitsistik uslubda
- C) rasmiy uslubda
- D) badiiy uslubda

4. Hujjatlar matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan

ko'proq foydalanishning sababi nima?

- A) hammaga tushunarli bo'lgani uchun
- B) joyni tejash uchun
- C) E'tiborni tortish uchun
- D) foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini bergani uchun

5....lavozimga tayinlansin; ...lavozimidan ozod qilinsin... kabi qoliplar qaysi ish qog'oziga xos?

- A) buyuq B) ma'lumotnoma C) farmoyish D) bayonnoma

6. Arizaning zaruriy qismlari nimalardan iborat?

- 1) Ariza yo'llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi;
- 2) Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi;
- 3) Hujjatning nomi (Ariza);
- 4) Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat kabi);
- 5) Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar (agar zarur bo'lsa);
- 6) Ariza yozuvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi;

7) Ariza yozilgan vaqt (yil, kun, oy).

- A) 1,2,3,4,5,6,7
- B) 1, 3, 5, 7
- C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
- D) 1, 3, 4, 5, 6, 7

8. Ushbuni ko'rsatuvchi Rahimberdi Ahmedov, haqiqatan ham, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 2-bosqich talabasi hisoblanadi. Ma'lumotnoma tegishli joyga ko'rsatish uchun berildi.

Maktab direktori: M. Ravshanov

Kotiba: Q. Abdullayeva

2017-yil 3-sentabr.

Ushbu ish qog'ozini turini aniqlang.

- A) ma'lumotnoma
- B) ruxsatnoma

- C) taklifnoma
- D) bayonnoma

9. «Davlat tili haqida»gi qonunimizning nechanchi moddalarida ish yuritishning tilga aloqador jihatlari qoidalashtirilgan?

- A) 8-10 moddalar
- B) 10-14 moddalar
- C) 8-14 moddalar
- D) 8-16 moddalar

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

TASHKILIY HUJJATLAR. (2 soat)

1.Tashkiliy hujjatlar.

2.Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid tashkiliy hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi

3.Sohaga doir tashkiliy hujjatlar ustida ishlash (guvohnoma, yo‘riqnoma, nizom-ustav). Musobaqada qatnashish uchun talab etiladigan hujjatlarga namunalar yozish.

2.Tashkiliy hujjatlari, ularning zaruriy qismlari.

TAYANCH SO‘ZLAR: rasmiy-idoraviy ish hujjatlari, tashkiliy hujjatlari, hujjatning zaruriy qismlari.



Ma‘lumki, rasmiy ish hujjatlarining dastlabki guruhi tashkiliy hujjatlardir, ya‘ni:

1.Tashkiliy hujjatlar.

2. Farmoyish hujjatlari.

3. Ma‘lumot-axborot hujjatlari.

4. Xizmat yozishmalari.

Tashkiliy hujjatlari, ularning zaruriy qismlari. Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Tashkiliy hujjatlarga: **guvohnoma, ichki mehnat tartiboti qoidalari,**

yo'riqnoma, nizomustav, tashkilot tuzilmasi va shtatlar soni, shtat jadvali, ta'tillar grafigi, shartnoma, mehnat bitimi, lavozim yo'riqnomasi kabilarni kiritish mumkin.

YO'RIQNOMA

Yo'riqnoma matni bo'limlardan tarkib topadi, bo'limlar modda va bandlarga bo'linishi mumkin.

Yo'riqnoma, odatda, "Umumiy qoida" deb ataladigan kirish qismidan boshlanadi. Unda yo'riqnomaning maqsadi, rioya qilish doirasi, foydalanish tartibi va boshqa masalalar ko'rsatiladi.

Matnning asosiy qismi aniq ma'lumot beruvchi xususiyatga ega bo'ladi. Bunda "lozim", "kerak", "zarur", "yo'l qo'yilmaydi", "mumkin emas" kabi so'zlar qo'llanadi.

Matn uchinchi shaxs nomidan yoki shaxssiz bayon qilinadi.

Lavozim yo'riqnomasining o'ziga xos zaruriy qismlari bor:

1. Muassasa yoki uning bo'linmasi nomi (aksariyat hollarda hududiy-ma'muriy bo'linish asosida).
2. Hujjat nomi (lavozim yo'riqnomasi).
3. Tasdiqlash ustxati.
4. Sanasi.
5. Shartli raqami.
6. Joyi.
7. Sarlavhasi.
8. Matni.
9. Imzo.

Yo'riqnomalar ichida xodimning lavozim (mansab) yo'riqnomasi alohida guruhni tashkil etadi.

Unda umumiy qism, xodimning vazifalari, burchlari, huquqlari, ishni baholash mezonini va xodim mas'uliyati ko'rsatiladi.

Lavozim yo'riqnomasini xodimning bevosita rahbari ishlab chiqadi, so'ng bo'lim mudiri yoki muassasa rahbari tasdiqlaydi.

Topshiriq. Matnni o'qing. Fikringizni bayon eting. Berilgan guvohnoma turlarining til xususiyatlarni tahlil qiling va o'zingiz guvohnoma matnini shakllantiring

GUVOHNOMA Muayyan shaxsning xizmat va boshqa holatlarini, shuningdek, biror ishga (masalan, taftish o'tkazishga) oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjat.



GUVOHNOMA

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi.

Guvohnoma muayyan shaxsning xizmat va boshqa holatlarini, shuningdek, biror ishga oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjatdir. Uning ikki turi bor: lavozimi ko'rsatilgan guvohnoma va xizmat safari guvohnomasi.



Xizmat guvohnomasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlariga beriladi hamda xodimning shaxsi va lavozimini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi. Xizmat guvohnomasi xodimning pasporti o'rnini bosmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-yanvardagi 2-son qaroriga muvofiq «Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining xizmat guvohnomasi to'g'risida namunaviy nizom» tasdiqlandi. Shu nizomga muvofiq, har bir kishi ishga qabul qilinganda, kadrlar bo'limi (yoki kadrlar ishi bilan shug'ullanuvchi lavozimdagi shaxs)dan guvohnoma oladi. bunday guvohnoma yonda olib yurishga moslashtirilib, daftarcha shaklida tayyorlanadi.


Xizmat guvohnomasi davlat va xo'jalik organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlariga beriladi. Ushbu hujjat xodimning shaxsi va lavozimini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

- ✓ *Xizmat guvohnomasi xodimning pasporti o'rnini bosmaydi*
- ✓ *Xizmat guvohnomasi 3 yildan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi.*



Xizmat guvohnomasi ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqda birinchi rahbarning qarori asosida belgilanadigan kadrlar bilan ishlash xizmatlari yoki


boshqa xizmatlar tomonidan beriladi. Xizmat guvohnomasi muayyan muddatga, biroq 3 yildan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi va quyidagi hollarda: – xodimning familiyasi, ismi va otasmi o'zgarganda; – xodimning lavozimi o'zgarganda; – xizmat guvohnomasi yaroqsizlanganda; – xizmat guvohnomasining amal qilish muddati tugaganda almashtiriladi. Hujjat yo'qotib qo'yilganda xizmat tekshiruvi o'tkaziladi va birinchi rahbarning qarori bilan yangi guvohnoma beriladi. Berilgan xizmat guvohnomasining saqlanishi uchun javobgarlik uning egasiga yuklanadi. Xizmat guvohnomasi yo'qotib qo'yilganligi, yaroqsizlanganligi va ehtiyotlab saqlanmaganligi uchun aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladilar. Xizmat guvohnomasini boshqa shaxslarga berish qat'iyani taqiqlanadi.



Xizmat guvohnomasi blankasini to'ldirishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organi, mahalliy davlat hokimiyati organining nomi, guvohnoma egasining familiyasi, ismi va otasining ismi, tarkibiy bo'linma nomi, hisobga olish raqami, amal qilish muddati, guvohnomani imzolagan rahbarning lavozimi hamda ismi va otasining ismi bosh harflari va “lavozimdan bo'shaganda qaytarilishi kerak” degan ogohlantiruvchi yozuv mavjud bo'lishi majburiy talabdir. Matn gorizontal holatda joylashtiriladi.

Xizmat guvohnomalari blankalari kompyuterdan foydalangan holda, lavozimiga tayinlash to'g'risidagi qaror (farmoyish, buyruq va shu kabilar) va xodimning pasporti asosida to'ldiriladi.

Xizmat guvohnomalari blankalari, muqovalari qat'iy hisobot beriladigan hujjatlar hisoblanadi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining buyurtmanomalari asosida faqat «Davlat belgisi» davlat - ishlab chiqarish birlashmasi, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi korxonalarida tavsifga binoan, qalbakilashtirishga qarshi himoya elementlariga ega bo'lgan maxsus qog'ozda tayyorlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi guvohnomasining namunasi



Xizmat guvohnomasi blankasini to'ldirishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organi, mahalliy davlat hokimiyati organining nomi, guvohnoma egasining familiyasi, ismi va otasining ismi, tarkibiy bo'linma nomi, hisobga olish raqami, amal qilish muddati, guvohnomani imzolagan rahbarning lavozimi hamda ismi va otasining ismi bosh harflari va "lavozimdan bo'shaganda qaytarilishi kerak" degan ogohlantiruvchi yozuv mavjud bo'lishi majburiy talabdir. Matn gorizontal holatda joylashtiriladi.

Xizmat guvohnomalari blankalari kompyuterdan foydalangan holda, lavozimiga tayinlash to'g'risidagi qaror (farmoyish, buyruq va shu kabilar) va xodimning pasporti asosida to'ldiriladi.

Topshiriq. Matnni o'qing. Sarnomaning tarkibiy qismlarini daftaringizga yozing.

Shartnoma Ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuvidir. boshqacha qilib aytganda, shartnoma tomonlarning biron-bir munosabatlar o'rnatish haqidagi kelishuvi (bitimi)ni qayd etuvchi va munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir. Shartnoma to'g'risidagi umumiy qoidalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (353–385-moddalar)da bayon etilgan. Shartnoma davlat yoki nodavlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, fuqarolar o'rtasida tuzilishi mumkin. Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o'rtasida o'rnatilayotgan bo'lsa, bunda tuzilajak hujjat aksar hollarda deb ataladi. Shartnomada tomonlar bajarishi lozim bo'lgan shartlar va boshqa majburiyatlar ko'rsatiladi. Ba'zi shartnomalarda olingan majburiyatni bajarmaslik natijasida keltiriladigan 91 zararni to'lash tadbirlari ham belgilanadi. Tomonlar shartnomaning barcha moddalari bo'yicha bir bitimga kelganlaridan keyin shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra xilma-xil ko'rinishga ega: mahsulot etkazib berish haqida, qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlat yo'li bilan xarid qilish haqida, mulkiy (moddiy) javobgarlik haqida, bino va

inshootlar qurilishi haqida, turarjoy ijarasi haqida, uy-joy yoki transport vositalarini oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, mol-mulkni ijaraga olish, qarz berish haqida va bosh qalar. Muassasalar o'rtasida keng tarqalgan shartnoma turlariga mol (tovar) etkazib berish, pudrat, imoratlar ijarasi, asbob-uskunalarni o'rnatish haqidagi shartnomalarni ko'rsatish mumkin. Har qanday shartnoma o'z mazmuni va shakliga ko'ra qonunga muvofiq bo'lishi kerak.

Tashkilotlarda keng qollanadigan oddiy shartnomalarning zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Shartnomaning nomi (mahsulot etkazib berish shartnomasi, imoratni ijaraga olish shartnomasi, pudrat shartnomasi kabi).
2. Shartnoma tuzilgan sana.
3. Shartnoma tuzilgan joy.
4. Shartnoma tuzayotgan tomonlarning aniq va to'liq nomi (matnning keyingi o'rinlarida ularni qisqartirib, shartli nomlash mumkin: «buyurtmachi», «institut», «muassasa», «uyjoylardan foydalanish idorasi», «bajaruvchi», «ijrochi», «direktor», «xodim» kabi); tomonlar vakillarining ismi va o'taismalari, familiyalari, ularning vaziyat doirasi (ularga shartnoma tuzish huquqini beruvchi vaziyatlar haqida).
5. Shartnoma matni (bu qism ba'zan boblarga bo'linadi, har bir bob rim raqamlari bilan belgilanadi. Boblar bandlarga bo'linib, ularning tartib raqamlari arab raqamlari bilan ko'rsatiladi. Xuddi shu yerda nizolarni ko'rib chiqish tartibi, shartnomaning umumiy summasi, uning umumiy amal qilish muddati ham bayon qilinadi).
6. Tomonlarning huquqiy manzillari.
7. Tomonlarning imzolari va muhrlari. Shartnomalar ularni tuzishga vakil qilingan shaxslar tomonidan imzolanadi; bunda «imzo» degan zaruriy qismda imzo qo'ygan shaxslarning lavozimlari emas, balki shartnomaviy munosabatlar o'rnatayotgan huquqiy (yuridik) shaxslarning (to'liq yoki qisqargan) nomi ko'rsatiladi. Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi lozim, chunki har bir huquqiy shaxsning hujjatlar yig'masida kamida bir nusxasi bo'lishi kerak. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Topshiriq. Kichkina shartnoma matnini shakllantiring .

NIZOM-USTAV

Tashkilot yoki korxonalarning tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. Nizom mansabdor shaxslarga va turli tadbirlar (ko'rik, musobaqa, tanlov va boshqalar) ga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Ko'pincha nizom muassasalar ta'sis etilishi yoki tashkil topishi paytida tuziladi. U yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan tasdiqlanadi. Muassasalarning tarkibiy qismlari ularning rahbarlari tomonidan tuziladi va muassasa rahbari farmoyishi bilan yoki tasdiqlash ustxatini qo'yish bilan kuchga kiradi.



Nizomning asosiy zaruriy qismlari:

- 1. Vazifalari nizom bilan belgilanayotgan muassasa (tarkibiy qism) nomi.*
- 2. Hujjat turining nomi (Nizom).*
- 3. Mazmuni (matni): muassasa tuzilishining maqsad va asoslari; asosiy vazifalari; muassasa tuzilishi, huquqi, ishni tashkil qilish tartiboti.*
- 4. Muassasa rahbari imzosi.*
- 5. Sana va joyi.*
- 6. Tasdiqlash ustxati (yuqori qismida o'ng burchakda joylashadi)*



Nazorat savollari:

1. Ish yuritish hujjatlari qanday turlarga bo'linadi?
2. Tashkiliy hujjatlarga qaysi hujjatlar kiradi?
3. Farmoyish hujjatlarining o'ziga xosligi nimada va ularning turlari haqida ma'lumot bering?
4. Ma'lumot axborot hujjatlari va ularning turlari haqida fikr yuriting?
5. Rasmiy ish uslubining o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?

6. Rasmiy – idoraviy hujjatlarning til xususiyatlarini farqlab bering?
7. Tashkiliy hujjatlar, ularning zaruriy qisimlari nimalardan iborat?

Mavzu bo'yicha test topshiriqlari

1. Tashkiliy hujjatlarga qanday hujjatlar kiradi?
 - A) Guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma
 - B) E'lon, hisobot, buyruq, shartnoma
 - C) Nazorat daftari, korxona nizomi, shartnoma
 - D) Buyruq, farmoyish
2. Ma'lumot-axborot hujjatlariga qanday hujjatlar kiradi?
 - A) E'lon, hisobot, buyruq, tarjimai hol
 - B) Tavsifnoma, ma'lumotnoma, ariza, tilxat
 - C) Tavsiiyanoma, bayonnoma, guvohnoma, e'lon
 - D) Yo'riqnoma, nizom, shartnoma
3. Rasmiy xat turlari ko'rsatilgan qatorni toping
 - A) Eslatma xat, kelishuv xat, da'vo xat
 - B) Axborot xat, kafolat xati, kelishuv xat
 - C) Ilova xat, so'rov xati, farmoyish xat
 - D) Iltimos xat, kafolat xat, buyruq xat
4. Xatlar vazifasiga qarab qaysi turlarga bo'linadi?
 - A) Javob talab qiladigan
 - B) Javob talab qilmaydigan
 - C) Javob talab qiladigan va javob talab qilmaydigan
 - D) To'g'ri javob yo'q
5. Kafolat xat nima maqsadda tuziladi?
 - A) Xatni qabul qilib oluvchilarni xabardor qilish uchun
 - B) Bir xil mazmundagi xatni bir necha manzilga etkazish uchun
 - C) Ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida
 - D) Muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida
6. Kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruq qachon chiqariladi?
 - A) Xodim ishga olinganda yoki bo'shatilganda

- B) Xodim mukofotlanganda
- C) Xodim mehnat ti' tiliga chiqqanda
- D) Barcha javoblar to'g'ri

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil
5. G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. (amaliy qo'llanma) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

SOHAVIY FARMOYISH HUJJATLARINING XUSUSIYATLARI. (2 soat)

REJA:

1. Farmoyish hujjatlarining turlari.
2. Farmoyish hujjatlarini jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llash.
3. Kasbga oid farmoyish hujjatlari namunalari bilan ishlash
(farmoyish, buyruq, buyruqdan ko'chirma, ko'rsatma yozish)ozish)

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Farmoyish hujjatlari, buyruq, ko'rsatma, farmoyish, asosiy zaruriy qism, tashkilot, faoliyatga oid, kadrlar shaxsiy tarkibi, Gerb, muassasaning ramziy belgisi, Vazirlik va boshqarma nomi, muassasa xos raqami, hujjat shaklining xos raqami, muassasa nomi, sarlavhasi, buyruqdan ko'chirma.

4. "Yetuk mutaxassis" matni ustida ishlash.

ESLAB QOLING !

Farmoyish hujjatlari asosan tashkilot rahbari (direktor) ning **buyruq, ko'rsatma, farmoyishlari** asosida vujudga keladi

Buyruq doimiy ravishda shaxsan rahbar tomonidan tayyorlanadi, ko'rsatma va farmoyishlar rahbar muovinklari tomonidan beriladi.

Buyruqlarning bir qator turlari mavjud bo'lib ularga:

a) umumiy masalalar bo'yicha

b) shaxsiy tarkib bo'yicha

v) asosiy faoliyat bo'yicha buyruqlar kiradi

Buyruqning asosiy qismlari quyidagilardan iborat: Vazirlik, korxona yoki muassasa nomi, buyruqning nomi, sanasi, raqami, buyruq chikkan joyning nomi, sarlavxasi, buyruq matni, rahbar yoki o'rinbosar imzosi va hokazo.

Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan, bosh harflar bilan yoziladigan "BUYURAMAN" so'zi bilan boshlanadi. Buyruqda ishning bajarilish muddati mazmunidan kelib chiqib umumiy tarzda yoki xar bir farmoyishda aniq ko'rsatish mumkin.



BUYRUQ NAMUNASI



O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG‘I

2022-yil “___” _____ I/CH-sonli

Futbol fakulteti 4-bosqich kunduzgi

ta’lim talabalari “Bitiruv oldi”

amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish

to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3151-sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va 2020-2021 o‘quv yili ishchi o‘quv rejasiga muvofiq universitetni bitiruvchi 4-bosqich talabalarining bitiruv oldi amaliyotini 2022-yil 14-yanvardan 23-fevralgacha o‘zlari doimiy yashaydigan manzilda joylashgan sport ta’lim muassasalari va sport tashkilotlarida uyushtirilgan holda o‘tqazish va dasturning to‘liq bajarilishini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

Fakultetning kunduzgi ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalari o‘quv rejasiga muvofiq, 2022-yil 14-yanvardan 23-fevralgacha bitiruv oldi amaliyotiga yuborilsin.

O‘ZDJTSU rektori:

M. Boltabayev

ESLAB QOLING !

KO'RSATMA

Ko'rsatma korxonalarda axborot metodik tushdagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjatdir.

Ko'rsatmaga birinchi bo'lib rahbar bosh muhandis ularning o'rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega.

Ko'rsatma korxonaning xos ish qog'oziga bosiladi. U ham buyruq kabi, odatda, sarlavha bilan yoziladi, asos va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asos qismida, falon **“maqsadda”**, falon **“buyruqni bajarish uchun”** kabi taomilga kirgan iboralar qo'llanadi va **“YUKLAYMAN”, “TAVSIYA ETAMAN”** so'zlari bilan farmoyish qismi boshlanadi. Muayyan xodimga uning xizmat lavozimi vazifalariga kirmaydigan ishlar yuklatilsa, **“TAVSIYA ETAMAN”** so'zi qo'llanadi. Ko'rsatmaning farmoyish qismi buyruqning farmoyish qismiga o'xshash bo'ladi

KO'RSATMA NAMUNASI

Qo'shko'pir tumani «Oqqush» firmasi

FIRMADA NON MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQISHDA

YANGI USKUNALARDAN FOYDALANISHNI YAXSHILASH HAQIDA

K O ' R S A T M A

2020.15.01

Qoshko'pir shahri

№ 115

«Oqqush» firmasini qayta jihozlash haqida 2019 -yil 20 iyuldagi 105-raqamli buyruqqa binoan, firmaning 1ta sexida Xitoydan olingan yangi uskunalar o'rnatildi. Bu sexlarda uskunalardan unumli foydalanilmoqda. Lekin shirinliklar uchun qiyom tayyorlash uchun olib kelingan « M-101 GD » uskunasiidan foydalanish texnologiyasi ishchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilmaganligi sababli mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir yetkazmoqda. Shu munosabat bilan firma boshlig'i T.U.TOJIBOYEVga quyidagilarni

YUKLAYMAN

1. Sexda yangi mashinalar texnologiyasi bo'yicha 1 oylik o'qish tashkil qilinsin.

2. Iyin oyida bitta xodimni Xitoyga xizmat safariga jo'natish uchun aniq tavsiyalar berilsin.

Direktor

(imzo)

U.T. Bekmetova

ESLAB QOLING !

FARMOYISH

Farmoyish korxona ma'muriyati hamda bo'limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir.

Odatda farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib uning kuchi bo'limlarning tor doirasiga ayrim 14 mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi.

Farmoyishning matni xuddi buyruqniki singari zaruriy qismlardan tashkil topadi.

Faqat uning kirish qismida **“BUYURAMAN”** so'zi o'rniga **“TAVSIYA QILAMAN”**, **“RUXSAT BERAMAN”** kabi so'zlar ishlatiladi

FARMOYISH NAMUNASI



O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FUTBOL FAKULTETI DEKANI

FARMOYISHI

Chirchiq sh. « _____ » sonli « ____ » _____ **2021 y.**

Futbol fakultetining kunduzgi ta'limida tahsil olayotgan hamda O'zbekiston yoshlar terma jamoasida to'p surayotgan talabasi Abdullayev A.N o'quv mashg'ulot yig'inlari hamda xalqaro o'rtoqlik o'yinlariga tayyorgarlik jarayonida muntazam ishtirok etayotganligi sababli 2021-2022 o'quv yilida qat'iy tarzda o'quv rejadagi fanlarni istisno tariqasida onlayn tarzda yoki fanlardan vazifa olish va qayta o'zlashtrish sharti bilan darslardan ozod etishga **ruxsat berilsin.**

**Asos: “O'zbekiston Futbol Assotsatsiyasi”
05.05.2022 sanasidagi № 05/2525 sonli xati,
rahbariyat ko'rsatmasi**

TOPSHIRIQLAR

1. Yuqoridagi Farmoyish matni bilan tanishing. Kelajakda tanlamoqchi bo'lgan kasbingizdan kelib chiqib farmoyish matni tayyorlang.
2. Yuqoridagi Buyruq matni bilan tarnishing va shu asosda Buyruq va buyruqdan ko'chirma tayyorlang. Farqli tomonlarini og'zaki bayon eting.
3. Quyidagi birikmalarning qaysi hujjat turi tarkibida kelishini toping.

(+ yoki -)

№	birikmalar	Buyruq	Ko'rsatma	Farmoyish
1	buyuraman			
2	tasdiqlansin			
3	belgilab qo'yilsin			
4	ruhsat etilsin			
5	tavsiya qilaman			
6	zimmasiga yuklatilsin			
7	choralari ko'rilsin			
8	kutib olinsin			
9	musobaqada ishtiroki ta'minlansin			
10	sovridorlar taqdirlansin			

4. Quyidagi so'z va birikmalardan foydalanib gaplar tuzing va daftaringizga ko'chirib yozing.

Tug'ilganman, talabasiman, so'rayman, amaliy yordam, belgilab qo'yilsin, taqdimoti bo'lib o'tdi, buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida, tashkil etilsin, axborot berdi, ovoz berildi, ogohlantirildi, uzrli sabablarga ko'ra, bugundan e'tiboran, ozod

qilinsin, tavsiya qilinsin, so‘z olmoq, muhokama qilmoq, tayinlamoq, tasdiqlamoq, faol qatnashmoq, fikr-mulohaza bildirmoq.

5.Uyga vazifa. Lug‘at bilan ishlash. Berilgan so‘zlarni ular anglatgan ma’no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Rux** [f-t] - Shaxmat o‘yinida: taxtaning ikki chetki qator oxiridagi xonada joylashadigan va vertikal hamda gorizontaal yo‘nalishda istagancha yura oladigan sipoh; to‘ra.
2. **Sakrash** - Sakrash to‘siqlardan o‘tishning tabiiy usuli. Yengil atletikaning sakrash mashg‘ulotlarida sportchilarning o‘z tanlarini idora qila olish, kuchlarini bilish, kuch, tezlik, chaqqonlik, mardlik qobiliyatlari takomillashtiriladi. Yengil atletikada sakrash ikki turga bo‘linadi: 1. Imkon boricha balandroq sakrash maqsadida vertikal- balandlikka sakrash va langarcho‘pga tayanib sakrash. 2. Imkon boricha uzoqqa sakrash maqsadida gorizontaal to‘siqlardan o‘tish - uzunlikka sakrash va uch hatlab sakrash. Sakrashda erishilgan natijalar metr va santimetrlarda o‘lchanadi.
3. **Sambo** - Raqibidan o‘zini himoya qilish usullariga boy kurash turi. Sambo bilan shug‘ullanmoq.
4. **Sekundant** [lat] - Boksda, shaxmatda tomonlar vakili va yordamchisi.
5. **Set** (tennis) - Tennis to‘rining balandligi markazida 96 sm, ustunlari esa 108 sm bo‘lishi kerak.
6. **Shaxmat** [f-t] - Shaxmat donalarini maxsus qoidaga muvofiq harakat qildirishga asoslangan o‘yin.
7. **Shayba** [nem] - Shaybali xokkey o‘yinida qo‘llanadigan kulchasimon kichkina og‘ir rezina: Darvozaga shayba kiritmoq. Shaybani urmoq.
8. **Shaybali xokkey** - Raqib darvozasiga shayba kiritiladigan xokkey. Shaybali xokkey XIX asrning 60-yillari Kanadada vujudga kelgan. 20-yillarning boshlarida Yevropa (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Shvetsariya, Avstriya, Chexoslovakiya va b.) 1908- yili muz ustida xokkey bo‘yicha Xalqaro liga tuzildi. 1976-yil 30 mamlakatning milliy federatsiyasini birlashtirgan. 1920-yil Olimpiya o‘yinlari, 1924-yildan barcha qishki Olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritilgan. 1930-yildan jahon, 1910-yildan Yevropa chempionatlari o‘tkazilmoqda. 1947-yildan shaybali xokkey bo‘yicha Butunittifoq seksiya tuzildi.
9. **Shikoyat** [a] - Norozilik, arz; biror narsadan norozilik, nolish, hasrat qilish.
10. **Shoh** [f-t] - Shaxmat o‘yinida: biror dona bilan bevosita raqibning shohiga qilinadigan hujum; kish.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Farmoyish hujjatlarining o‘ziga xosligi nimada va ularning turlari haqida ma’lumot bering?
2. Tashkiliy hujjatlar bilan farmoyish hujjatlarining farqi nimada?
3. Farmoyish hujjatlarini jismoniy tarbiya va sport sohasida qo‘llash xususiyatlari.
4. Kasbg.a oid farmoyish hujjatlari namunalari bilan ishlash (farmoyish, buyruq, buyruqdan ko‘chirma, ko‘rsatma yo zish)

5. Sohangiz bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish uchun nimalar qilishingiz kerak, deb o'ylaysiz? Fikrlaringizni matnga jamlang.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Bir tarmoqqa tegishli quyi muassasalarning barchasiga yo'llangan rasmiy hujjat bu...
A) Buyruq
B) Farmoyish
C) So'rov xat
D) Bildirgi
2. Muassasaning mansabdor shaxslari tomonidan bajarilishi belgilab berilgan hujjat bu...
A) Buyruq
B) Farmoyish
C) So'rov xat
D) Ko'rsatma
3. Bajarilishi rejalashtirilgan hujjatning asliga to'g'rilangan nusxasi bu...
A) Buyruq
B) Farmoyish
C) Ko'rsatma
D) Buyruqdan ko'chirma
4. Idoralarda axborot-metodik tushdagi masalalar, shuningdek, buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat bu...
A) Buyruq
B) Farmoyish
C) Ko'rsatma
D) Buyruqdan ko'chirma
5. Bajarilishi rejalashtirilgan hujjatning asliga to'g'rilangan nusxasi bu...
A) Buyruq
B) Farmoyish
C) Ko'rsatma
D) Buyruqdan ko'chirma

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil

5.G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma).

SOHAVIY MA'LUMOT - AXBOROT

HUJJATLARI (4 soat)

REJA :

- 1.Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari.
- 2.Jismoniy tarbiya va sportga oid ma'lumot-axborot hujjatlarini yuritish tartibi va qo'llash xususiyatlari.
- 3.Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llanadigan ma'lumot-axborot hujjatlari ustida ishlash (ariza, tavsifnoma, ma'lumotnoma, bildirishnoma, tilxat, yig'ilish bayonnomasi va hisobot yozish)
- 4.“Sportimiz fidoyilari” matni ustida ishlash.


TAYANCH TUSHUNCHALAR

Rasmiylashtirish, ariza, axboratnoma, so'raavnoma, ro'yxat, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsiyanoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot, bildirgi.

Har qanday tashkilot, muassasa, korxona ish faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan uni to'g'ri boshqarishga bog'liq. Ish yuritishesa boshqaruv jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.Ish yuritish amaliyoti yillar mobaynida shakllanib, tashkilot faoliyatining tezkorligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Boshqaruv tizimida hujjatlar bilan ishlash normalari, qoidalari vatalablariga amal qilmaslik muhim ma'lumotlarning yo'qolishiga,ma'muriyat qarorlarining

ijrochilarga o'z vaqtida yetib bormasligiga, tashkiliy-boshqaruv aloqalari tizimida



salbiy ko'rsatkichlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ish yuritish, hujjatlar bilan ishlash har bir tashkilot, muassasa, korxona ish faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

BILIB OLING !

ARIZA

Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror **iltimos, taklif yoki shikoyat** mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat sanaladi. **Ariza** amaliyotda eng ko'p qo'llanadigan va keng tarqalgan ish qog'ozidir. Maktab o'quvchisi va talaba, menejer va agronom yoki fermer, muhandis va olim, tadbirkor va mansabdor shaxs – jamiyatning barcha a'zosi ariza yozishdan xoli emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va lavozimi, ariza yo'llanayotgan muassasalar va idoralar nihoyatda ko'pdir. **Arizalar** bog'cha mudirasiga, maktab direktoriga, oliy o'quv yurti rektoriga, jamoa xo'jaligi boshqaruviga, tuman rahbariyatiga – xullas, oddiy arizachining taklif, iltimos yoki shikoyatini ko'rib chiqib hal qila oladigan har qanday idora, har qanday boshliq nomiga yozilishi mumkin.



ARIZA SHAKLI

Qayerga yoki kimga

**Ariza yozuvchining turar joyi,
lavozimi, to'liq nomi**

ARIZA

Ariza matni (mazmuni)

ilova

Sana(yil,kun,oy)

Imzo

I.O.va familiyasi

TOPSHIRIQLAR

1.Ariza shakli asosida o'quv faoliyatingizga doir mazmunda ariza yozing.

2-topshiriq. Quyidagi hujjat matnida yo'l qo'yilgan imloviy, ishoraviy hamda uslubiy xatolarni toping.

Tarjimai xol

Man Sultonov Bobur Yo'ldoshevich Hakim 2002 yil 2 fevralda Andjon shahridagi ziyoliy oilasida tug'ilganman. Dadam Sultonov Yo'ldosh Hakimovich 1974 yilda tug'ilganlar. Ular maktabda maktab direktori bo'lib ishlaydilar.Onam Ortiqova Fotima Nosirovna 1976 yilda tug'ilganlar, shifokor bo'lib ishlaydilar. Opam Sultonova Hakima Yo'ldosh qizi Oliygo'hnini buy il bitirdilar. Singlim Nodiraxon 10 sinfda a'lo baholarga o'qiydi. 2009 yildan 2020 yilgacha Toshkentdagi maktabda o'qidim. Maktabni bitirib O'zDJTSUning Sport o'yinlari fakultetiga o'qishga kirdim. Hozir shu fakultetning 2 kursida o'qivomman.

Bo'ydoqman.

Adresim: Andijon shahri Is'hoqxon Ibrat ko'chasi 28 uy.

23.12.2019. Sultonov.B.Y.

BILIB OLING !

BAYONNOMA

Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat **bayonnoma deyiladi.**

Bayonnomani yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir.

Bayonnoma oldindan tayinlangan kotiblar tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan bildirilgan barcha fikr mulohazalar, tanqid va taklifiar bayonnomada yoritilishi lozim. Bu axborotlarning aniqligi, to'liqligi uchun mas'ul hisoblangan majlis raisi va kotibi bayonnoma oxiriga imzo qo'yadilar.

Bayonnoma kirish va uch asosiy qismdan tuziladi. Kirish qismida yig'ilish o'tkazilgan tashkilot nomi, bayonnoma sanasi, tartib raqami, yig'ilish joyi, rais va kotibning ismi, familiyasi, qatnashuvchilar ro'yxati va soni (15 kishidan oshmasa, ismi va familiyasi, lavozimi, ish joyi ko'rsatiladi) keltiriladi.

So'ngra **KUN TARTIBI** bosh harflar bilan yozilib, ikki nuqta qo'yiladi va ko'riladigan masalalar tartib raqami bilan beriladi.

Asosiy matndagi uch qism: **ESHITILDI, SO'ZGA CHIQDILAR, QAROR QILINDI** so'zlari ham katta harflar bilan yozilgach, ikki nuqta qo'yiladi va yangi satrdan ma'ruzachining ismi-familiyasi yoziladi.

BAYONNOMA NAMUNASI

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining Respublika ma'naviyat-ma'rifat markazi bilan hamkorlikda universitet talabalari o'rtasida O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlab "Til borki, millat yashar" mavzusida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-musiqiy tadbir

BAYONNOMASI

Yig'ilish joyi	Toshkent viloyati ,Chirchiq shahar "Yoshlar markazi " binosi
Sana	2020 -yil 15- oktyabr soat: 11. 00
Yig'ilish raisi:	N.N.G'afforov
Kotib:	Z.Sultonova
Qatnashdilar: kafedra mudiri: N.N.G'afforov,	
9ta kafedra professor-o'qituvchilari.	

KUN TARTIBI

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag‘ishlab “Til borki, millat yashar” mavzusida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-musiqiy tadbir haqida.

ESHITILDI: kafedra mudiri : N.N.G‘afforov, - Hozirgi kunda o‘zbek sportining umuman sportchilarimizning Butunjahon arenalarida egallagan o‘rni va nufuzi yuqori ekanligi quvonarli holdir. Davlat tili – “O‘zbek tili” fanining asosiy mazmuni bo‘lajak sport mutaxassislarining shu tilda erkin muloqotga kirishish va ish yuritish malakasini egallash, til materiali va vositalari, xususan, ixtisoslik leksikasini nutqda qo‘llay bilish uchun yetarli bilimlarni o‘zlashtirish hamda milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashdan iborat ekanligini va o‘z kasbi doirasida nutq madaniyati asoslarini, notiqlik me’yorlarini bilishni ham taqozo etadi. Bu bayram Oliygo‘himizda har yili an’anaviy tarzda, ko‘tarinki ruhda, katta tayyorgarlik bilan nishonlanib kelinadi.

Tadbirimizda O‘zDJTSU Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori Sh.S.Mirzanov, Toshkent viloyat ma’naviyat-ma’rifat markazi rahbari M.M.Xojiyeva, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari, shu jumladan, Mirzayeva O‘ktamoy, Mumtoz Shaxobiddin qizi, Universitet xotin-qizlar kengashi raisasi va boshqa mehmonlar ishtirok qilishdi.

SO‘ZGA CHIQDI: kafedra dotsenti I.Boltayeva - Til har bir millatning qalbi, uning o‘tmishi, buguni va kelajagi sanalishi, shuning uchun ham har bir millatning ona tilisi eng bebaho xazinasidir ekanligini, O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 30 yil to‘lishi munosabati bilan 2019-yilning 4-oktyabr kuni Davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorni imzolagani, Qarorda “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat” ekanligi alohida ta’kidlanganini aytib o‘tdi. Talabalar nutqi, she’r aytish qoidalari, tadbirdagi kuy va qo‘shiqlar ijrosi haqida ma’lumot berdi. Shuningdek, O‘zbek tilining paydo bo‘lish tarixi, 30 yil avvalgi holati, uning Davlat tili mavqeyiga ega bo‘lgungacha tarixi haqida kafedraning professor-o‘qituvchilariga ma’lumot berdi.

SO‘ZGA CHIQDI: kafedra katta o‘qituvchisi M.Ayxodjayeva - Tadbirni O‘zDJTSU yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori Sh.S.Mirzanov ochib berdi. Tadbir yuqori saviyada o‘tdi. Bunda, shaxsan men va dotsent I.Boltayeva rahbarligida universitet talabalari tomonidan tayyorlagan badiiy qismda O‘zbek tili, Vatan, O‘zbekiston madhiga bag‘ishlangan she’r va qo‘shiqlar, milliy raqslar ijro etildi. Oybekning “Navoiy” romani asosida tayyorlangan sahna ko‘rinishi tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi. Tadbirda Toshkent viloyati

Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari M.M.Xojiyeva hamda Yozuvchilar uyushmasi a'zolari ishtirok etishdi. Ularning tadbirdagi o'z ijod namunalari bilan chiqishlari, O'zbek tili xususida bergan ma'lumotlari talabalar uchun tilimiz haqidagi bilimlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi.

QAROR QILINDI:

- 1.O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchilarining Respublika ma'naviyat-ma'rifat markazi bilan hamkorlikda universitet talabalari o'rtasida O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlab "Til borki, millat yashar" mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-musiqiy tadbir har tomonlama yuqori saviyada o'tkazilganligi qayd etilsin.
2. Talabalarning O'zbek tili – o'z ona tilimiz tarixi, mavqeyini mustahkamlash borasidagi bilimlarini oshirish borasida yanada keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yilsin.
- 3.Davlat tili sofligini saqlash, talabalarning nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar reja asosida tashkil etilsin.

Tadbirdan lavhalar ilova qilinadi:





Kafedra mudiri:

MMIBM:



N.N.G'afforov

I.Boltayeva

BILIB OLING !

BAYONNOMADAN KO'CHIRMA

Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko'chirmada bo'lganidek, bayonnomadan ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi.

Bayonnomaning matni qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan bo'laklarga olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo'lsa, kerakli masala bo'yicha qabul qilingan qaror olinadi.

3.Guruhingizda guruh murabbiysi tomonidan o'tkazilgan birorta guruh yig'ilishi bayonnomasidan ko'chirma tayyorlang.Matn qismlari va uning joylashuviga e'tibor bering.

TOPSHIRIQ. QUYIDAGI NAMUNADAN FOYDALANIB, O'Z GURUHINGIZ YIG'ILISHI BAYONNAMASINI TAYYORLANG .

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 4 - bosqichguruh yig'ilishining 3- sonli

- bayonnomasi
- 2021 - yil _____ Chirchiq shahri
- RAIS _____
- KOTIBA _____.
- QATNASHDILAR; __ TALABA
- KUN TARTIBI:
 1. _____
 2. _____
- I. ESHITILDI: _____

BILIB OLING !

Bildirishnoma

Kimga yo'llanishiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi.

Ichki bildirishnoma rahbar shaxs yoki bo'lim boshlig'i nomiga yoziladi. U toza qog'ozga qo'lda, mashinkada yoki kompyuter yordamida yozilishi mumkin. Bunday bildirishnomalar muallif tomonidan imzolanadi.

Tashqi bildirishnoma, ya'ni rahbar tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda, xos ish qog'oziga ikki nusxada yoziladi. Hujjatning ikkinchi nusxasi muassasaning o'zida qoldiriladi. Bunday bildirishnoma rahbar tomonidan imzolanadi.

Bildirishnoma tashabbus, axborot va hisobot xususiyatiga ega. Bu xususiyatlar hujjat matni sarlavhasidayoq o'z aksini topadi.

BILIB OLING !

TUSHUNTIRISH XATI

Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llanuvchi hujjatdir.

Tashqi tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuborilayotgan, u ko'pincha biror asosiy hujjat (rejalar, hisobotlar, loyihalar) ga ilova tarzida bo'lib, mazkur hujjatni umuman yoki uning ba'zi o'rinlarini qisman izohlab, tushuntirib beradi.

Tashqi tushuntirish xati, shuningdek, muassasada bo'lib o'tgan voqea-hodisaga, rahbarning ba'zi xatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi.

Ichki, ya'ni shaxsiy tushuntirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan, ba'zan bo'linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi.

Tushuntirish xati quyidagi zaruriy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Hujjat yo'llanayotgan tashkilot yoki mansabdor shaxsning to'liq nomi.
2. Hujjatni tayyorlagan (yozgan) muassasa yoki shaxsning to'liq nomi.
3. Hujjat turining nomi (tushuntirish xati)
4. Hujjatning matni (mazmuni).
5. Imzo.
6. Sana (hujjat yozilgan vaqt)

BILIB OLING !

DALOLATNOMA

Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat **dalolatnoma deyiladi**. Dalolatnoma tuzishda asosiy maqsad sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir

- **Dalolatnomalar** tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatbaho buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi.
- **Dalolatnoma** matnining sarlavhasi «...haqida» shaklida yoki bosh kelishikda («...-ish ahvoli») yoziladi. Asosiy matn esa kirish va tasdiq (qayd) qismlaridan iborat bo'lishi lozim.
- **Kirish qismida** hujjat tuzilishiga asos bo'lgan holat ko'rsatiladi, komissiya tarkibi to'liq yoziladi.
- **Tasdiq qismida** komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar qayd etiladi, aniqlangan holatlar yuzasidan taklif va xulosalar beriladi. Matn so'ngida dalolatnomaning necha nusxada (odatda uch nusxa) tayyorlangani ko'rsatilishi lozim.

4.Quyidagi qismlarga asoslanib Dalolatnoma matniga namuna yozing.

DALOLATNOMA QISMLARI

Vazirlik, yuqori idora,
muassasa nomi

TASDIQLAYMAN

MATN SARLAVHASI (“... HAQIDA”)

DALOLATNOMA

sana

tuzilgan joyi

Asos: (muassasa rahbarining (sanadagi)____-raqamli buyrug'i yoki yuqori idoraning ____-raqamli qarori)

Raisi: (shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)

A'zolari: 1. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)
2. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)
3. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi) dan
iborat komissiya tomonidan (shaxs yoki shaxslar lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi) ishtirokida tuzildi.

MATN

Ilovalar:

Komissiya raisi

Komissiya a'zolari

Ishtirok etganlar

(imzo) I. O. Familiyasi

(imzolar) I. O. Familiyalari

I. O. Familiyalari

BILIB OLING !

MA'LUMOTNOMA

Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish-axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat **ma'lumotnoma** deyiladi. Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikkiga: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

XIZMAT MA'LUMOTNOMASI

Muassasa faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axborot xususiyatiga ega bo'lgan xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat, xodim (shtat)lar soni, topshiriqlarning bajarilishi, moddiy-tovar boyliklarining saqlanishi, mehnat intizomining ahvoli haqida va boshqa xilma-xil masalalar to'g'risida hozirlanadi. Bunday ma'lumotlarga matn mazmunini ochuvchi sarlavha qo'yilishi lozim. Masalan: «Kontrakt to'lov asosida tahsil olayotgan talabalar soni haqida» kabi. Sarlavhadan so'ng (ba'zan uning tarkibida) xabarga oid sana ko'rsatiladi. Masalan: «2009- yil 1-oktabrdagi holatga ko'ra» kabi.

SHAXSIY MA'LUMOTNOMA

Muassasalar tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi aksar voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir.



O`ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

2021yil “____” _____ “____” sonli
Chirchiq shahri

CHAQIRUV MA`LUMOTNOMASI

2-kurs Sirtqi ta`lim talabalariga

O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Futbol fakultetining Sirtqi bo`limida ta`lim olayotgan 2-kurs talabalarining o`quv rejasiga asosan, 3-semestr bo`yicha mashg`ulot 2021 yilning 4 oktabridan 30 oktabr sanasiga qadar onlayn tarzda bo`lib o`tilishi rejalashtirilgan edi.

2021-yilning 1 noyabridan 6 noyabr sanasiga qadar 3-semestr fanlari bo`yicha nazoratlarni o`tkazish holatlari belgilangan. Shu munosabat bilan **SFB 01-20 guruh talabasi Ikromov Farhod Rustam o`g`li** yakuniy nazoratlarda tasdiqlangan jadval asosida offlayn tarzda Universitetga kelib ishtirok etishi qat`iy tarzda ko`rsatilib o`tiladi.

Yakuniy nazoratlarda ishtirok etmagan talabalarga qat`iy tarzda tegishli hujjatlarga asoslangan holda chora ko`rilishi bildirib o`tiladi

Futbol fakulteti dekani (imzo) I.O.F

**O'ZBEKISTON DAVLAT
JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI
FUTBOL FAKULTETI**



**ЎЗБЕКСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
И СПОРТА
ФАКУЛЬТЕТ ФУТБОЛА**

2021 yil “___” _____
№ _____

МА`ЛУМОТНОМА

Berildi _____
_____ga shu haqidakim, u
haqiqatdan ham O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Futbol
fakultetida _____bosqich ____/_____-guruhida _____
asosida o`qiydi.

Ma`lumotnoma

_____ uchun berildi.

Fakultet dekani

(imzo)

D.K.Ismagilov

**O`ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

Futbol fakulteti

MA'LUMOTNOMA № _____

“ _____ ” _____ 2021 yil.

O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Futbol fakulteti sirtqi
bo`lim _____-kurs _____-guruh talabasi

_____ 2021 yilning
_____ noyabr sanasidan _____ dekabr sanasiga qadar 2021-2022 o`quv yilining
1-semestr o`quv fanlari bo`yicha mashg`ulotlar onlayn tarzda tashkil etilishini
bildiramiz.

Fakultet dekani

(imzo)

I.O.Familiyasi

SO'ROVNOMA QISMLARINING JOYLASHUVI

**“Yoshlar balansi”ni
shakllantirish bo'yicha
SO'ROVNOMA**

(OTM nomi)
Talabaning ID raqami _____

“ _____ ” _____ 2022 yil

I. UMUMIY MA'LUMOTLAR
<u>5-bandda fuqaroning tegishligi bo'yicha ID-karta raqami, biometrik pasporti / tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma seriya va raqami kiritiladi.</u>
1. F.I.SH. _____

11. Jinsi va oilaviy holati: ☐ Erkak ☐ Ayol	
☐ Turmush qurgan ☐ Turmush qurmagan ☐ Ajrashgan ☐ Beva	
IV. TALABALARNING IJTIMOIIY HOLATI	
<i>Yoshning ijtimoiy holati shakllantirilayotganda ikki va undan ortiq kategoriyalar va subkategoriyalar tanlanishi mumkin. "Yoshlar balansi"ning asosiy negizi ijtimoiy holat bo'lganligi sababli ushbu qism to'liq shakllantirilishi kerak.</i>	
12. Ijtimoiy himoyaga muhtojlar: ☐ Kam ta'minlangan oila farzandi ☐ Temir daftardagi oila farzandi ☐ Imtiyoz asosida o'qishga qabul qilingan ☐ Muddatli harbiy xizmatdan qaytgan ☐ Ishlaydigan talabalar ☐ Farzandli talabalar ☐ Nafaqa oluvchilar ☐ Ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ☐ Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasida tarbiyalangan	13. Nogironligi bor: ☐ 1-guruh ☐ 2-guruh ☐ 3-guruh ☐ zaif ko'ruvchi ☐ tayanch harakati a'zolari cheklangan ☐ zaif eshituvchi ☐ ko'zi ojiz ☐ eshitishda nuqsoni bor ☐ nutqida nuqsoni bor ☐ boshqa turdagi nogironligi bor 14. Yetimlik toifasi: ☐ chin ☐ yarim ☐ ijtimoiy
V. IQTIDORLI TALABALAR	
<i>Qo'lga kiritilgan yutuqlarning nomi to'liq holda kiritilishi lozim!</i>	
☐ Davlat mukofoti bilan taqdirlangan ☐ Ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan ☐ Prezident, Davlat va xalqaro stipendiyalari sohibi ☐ Xalqaro va Respublika sport musobaqalari g'olibi ☐ Xalqaro va Respublika fan olimpiadalari g'olibi ☐ Boshqa yutuq va imtiyozlar Qo'lga kiritilgan yutuq nomi: _____	
VI. TALABALARNING MODDIY RAG'BATLANTIRILISH HOLATI	
15. Xalqaro ta'lim dasturi bo'yicha imtihon topshirgan va xarajati qoplab berilgan 15.1. Imtihon topshirgan ☐ Ha ☐ Yo'q 15.2. Imtihon xarajatlari qoplab berilgan ☐ Ha ☐ Yo'q 16. To'lov-shartnoma mablag'i to'lab berilganmi? ☐ Ha ☐ Yo'q ☐ "Yoshlar daftari" jamg'armasidan ☐ Mahalliy hokimliklar tomonidan ☐ Oliy ta'lim muassasasi tomonidan	

☐ Homiylar va boshqa tashkilotlar tomonidan 17. Ijara haqi davlat tomonidan amalga oshirilgan? ☐ Ha ☐ Yo'q	
VII. Huquqbuzarlik va jinoyatchilik bo'yicha alohida nazoratda turuvchi talabalar	
18. Alohida nazoratda turuvchi yoshmi? ☐ Ha ☐ Yo'q	
☐ Notinch oiladagi yosh ☐ Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan ☐ Yengil tabiatli xotin-qiz ☐ O'z joniga qasd qilishga moyil	☐ "Himoya orderi" berilgan (tazyiq va zo'rovonlikdan jabr ko'rgani uchun) ☐ JIEMdan qaytgan ☐ Probatsiya hisobida turuvchi

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun: _____

HISOBOT NAMUNASI

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Futbol fakulteti talabalarini bo'sh vaqtida ish bilan band qilish tizimi to'g'risida

HISOBOT

Futbol fakultetida kunduzgi ta'lim shaklida umumiy hisobda **888 ta** talaba mavjud bo'lib, shu kungacha **235 ta** turli kurs talabarlari (BO'SM, maktab, Federatsiya, futbol klublari, OTM, kafe, restoran, mehmonxona, xususiy firmalarda, taksi va boshqa joylarda) doimiy yoki vaqtincha ish bilan bandligi ta'minlangan.

Jumladan:

- **138** nafar talaba respublikamizning turli jamoalari va turli futbol ligalarida professional darajada futbol bilan shu'g'ullanmoqda;
- **3** nafar talabalarimiz qo'shni davlatlardan Qozog'iston, Tojikiston va Rossiya federatsiyasida to'p surmoqdalar;
- Chirchiq Olimpiya zahiralari kolleji bilan hamkorlikda talabalarni amaliyoti va ishga (2 nafar) joylashishi tashkil etilgan;
- O'zbekiston Futbol assotsatsiya bilan hamkorlik natijasida **9** nafar talaba murabbiylik va murabbiy yordamchisi lavozimida faoliyat yuritmoqda;
- O'zbekiston Futbol assotsatsiya bilan hamkorlik natijasida **1** nafar talaba quyi ligalarda hakamlilik faoliyati bilan shug'ullanmoqda;

- fakultet yo‘nalishlari bo‘yicha talabalarni tegishli davlat tashkilotlaridagi vakant joylarga joylashtirish bo‘yicha hamkorlik (masalan, maktab, MTM, sport zallari va boshqa davlat muassasalari) da **8** nafar talaba ishlamoqda;
- **36** nafar talabalar xususiy (Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish, kafe, bozor, restoran, mehmonxona) hamda boshqa turdagi xizmatlarda faoliyat olib bormoqda;
- **30** ta talaba turli kunlik ishlar (yollanma ishchi) bilan band;

Fakultet talabalarining **577** nafarida ishlashga ehtiyoj mavjud. Shundan, **1** nafari temir daftarga kiritilgan oilalar farzandi, **1** nafari yoshlar daftariga kiritilgan talabalar, **2** nafari ota-onasi yo‘q talabalar, **4** nafari chin yetim bo‘lgan talabalar hamda yana **569** nafar talaba bandlikka muhtoj.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Futbol fakultetining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali talabaning banligini ta‘minlash rejalashtirilgan.

Jumladan:

- Universitet va Futbol fakultetida jamoat tartibini saqlash, universitet va fakultet kirish-chiqish nazoratini hamda odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash, shuningdek, ta‘til vaqtida qurilish- ta‘mirlash ishlariga jalb etish maqsadida tashkil etilgan “Olimp” mobil guruhiga **10** nafar talaba ishga qabul qilinadi;
- Chirchiq shahar maktablarida mavjud bo‘lgan **65** shtat birligidan iborat **91** ta bo‘sh ish o‘rinlariga **50** ta talabani joylashtirish rejalashtirilgan;
- Chirchiq shahridagi xususiy firma, xizmat ko‘rsatish shahobchalari boshqa **1276** ta bo‘sh ish o‘rinlariga (duradgor, g‘ish teruvchi, tikuvchi, yuk tashuvchi, tikuv sexi ishchisi, to‘garak rahbari, operator va h.k) **300** nafar talabani ishga joylashtirish rejalashtirilgan;
- Toshkent shahri va Qibray tumanidagi bo‘sh ish o‘rinlari o‘rganilib ularda **150** dan ortiq talabani bandligini ta‘minlash rejalashtirilgan.

25.03.2022 sanasida fakultet tyutorlari, YIMMIB dekan muovini turli kursda tahsil oluvchi ishga ehtiyoji bor talabalar bilan suhbatlashdilar. Chirchiq shahrida vaqtincha yashovchi talabalarga Chirchiq shahridagi bo‘sh ish o‘rinlari, ularning manzillari haqida to‘liq ma‘lumotlar berib borildi. Fakultet dekanatiga ishga joylashish masalasida yordam so‘rab kelgan talabalarga ham xuddi shunday ma‘lumotlar taqdim etilmoqda. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi bo‘lgan 3-bosqich 01-19 guruh talabasi hisoblangan O‘ktamova Nigoraga qo‘ngiroq qilinib, bir necha yashah joyiga yaqin vakant ish o‘rinlari taklif etilganda, talaba kuni kecha o‘z tanishlari yordami bilan Kibray shahridagi kafelardan biriga ofisiant bo‘lib ishga kirgani, ish joyi, u yerdagi sharoit, munosabat uni to‘liq qoniqtirishini ma‘lum qildi.

Futbol fakulteti tashabbusi bilan tashkil etilgan mehnat yarmarkasida O‘zbekiston futbol assotsatsiyasi vakillari ham ishtirok etib, talabalar bilan muloqotda bo‘lgan edilar. Buning samarasi o‘laroq hamkorlik natijasida 2-bosqich 53-20 guruh talabasi Nurillayev Bahodir Salim o‘g‘li “Navbahor-farm” jamoasi bilan shartnoma imzoladi.

Shu bilan bir qatorda fakultet tyutorlari talabalarning vaqtincha yashash manzillarida bo'lib sharoitlar bilan tanishdilar, ularning talabalar yotoqxonasiga ehtiyoji bor yoki yo'qligi masalasida fikr almashdilar.

Fakultet dekani:

(imzo)

I.O.F.

Uyga vazifa. Lug'at bilan ishlash. Berilgan so'zlarni ular anglatgan ma'no bilan yodlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. **Shpaga** - Qilichsimon nayza; shpagani yalang'ochlamoq 70 (qinidan sug'urmoq).
2. **Shtanga** [nem] - 1. Og'ir yuk ko'tarib kuch sinashda qo'llanadigan, dastasining ikki uchiga ma'lum og'irlikdagi disklar o'rnatiladigan metall asbob. 2. Futbol, xokkey va sh.k. darvozasining tepa va yon yog'ochlari. To'p shtangaga tegdi.
3. **Shug'ullanganlik** - Yaxshi mashq qilish, trenirovka qilish, yaxshi o'rganish, mashq qilaverib o'rganib ketish; mashq qildirilgan, pishitilgan.
4. **Siltab ko'tarmoq** - Siltamoq, siltab tortmoq, siltab ko'tarmoq.
5. **Sinxron suzish** - Figurali (shakldor, murakkab shaklli) suzmoq.
6. **Skeybord** - G'ildirakli taxtada uchiladigan sport turi.
7. **Skeyting** - Rolikli konkida uchmoq.
8. **Slalom** - Chang'ida tepalikdan tez tushish sporti; uzun marshrutli slalom. Slalom tog' yoki suv chang'i sporti. Maxsus qorli tog' tekshiruv darvozalari orqali tushish; baydarka va kanoeda maxsus darvozalardan o'tish suv sporti.
9. **Sovuqqonlik** - Vazminlik, og'irlik; sabrlilik; sovuqqonlikni saqlamoq, o'zini bosmoq, o'zini og'ir tutmoq.
10. **Sport taktikasi** - Har bir o'yin yoki butun bir musobaqa siklida samarali faoliyat ko'rsatish (g'alabaga erishish)ning o'ziga xos tartibda o'tishi uchun muayyan prinsip va qonuniyatlarga asoslanishi

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Ariza bu...

- A) Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror **iltimos, taklif yoki shikoyat** mazmunida yoziladigan rasmiy
- B) Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, sqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat
- C) Asosiy matnidagi uch qism: **ESHIITILDI, SO'ZGA CHIQDILAR, QAROR QILINDI** so'zlari ham katta harflar bilan yozilgach, ikki nuqta qo'yiladi va yangi satrdan ma'ruzachining ismi-familiyasi yoziladigan hujjat
- D) Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llanuvchi hujjatdir

2. Tushuntirish xati bu...

- A) Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror **iltimos, taklif yoki shikoyat** mazmunida yoziladigan rasmiy

- B) Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, sqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat
- C) Asosiy matnidagi uch qism: **ESHIITILDI, SO'ZGA CHIQDILAR, QAROR QILINDI** so'zlari ham katta harflar bilan yozilgach, ikki nuqta qo'yiladi va yangi satrdan ma'ruzachining ismi-familiyasi yoziladigan hujjat
- D) Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llanuvchi hujjatdir

3. Bayonnoma tarkibiy qismi haqidagi ma'lumotni belgilang.

- A) Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror *iltimos, taklif yoki shikoyat* mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat
- B) Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, sqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat
- C) Asosiy matnidagi uch qism: **ESHIITILDI, SO'ZGA CHIQDILAR, QAROR QILINDI** so'zlari ham katta harflar bilan yozilgach, ikki nuqta qo'yiladi va yangi satrdan ma'ruzachining ismi-familiyasi yoziladigan hujjat
- D) Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llanuvchi hujjatdir

4. Ushbu hujjat turi kimga yo'llanishiga ko'ra ichki va tashqi kabi turlarga bo'linadi. Hujjat turini toping.

- A) Bayonnoma
- B) Dalolatnoma
- C) Bildirishnoma
- D) Tushuntirish xati

5. Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat...

- A) Tavsifnoma
- B) Dalolatnoma
- C) Bildirishnoma
- D) Ma'lumotnoma

6. Ushbu hujjat turi o'z xususiyatiga ko'ra shaxsiy ... va xizmat ...ga bo'linadi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.

- A) Tavsifnoma
- B) Dalolatnoma
- C) Bildirishnoma
- D) Ma'lumotnoma

7. Muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlashtirish va boshqa hollarda) beriladi. Qaysi hujjat turi ta'riflanmoqda.

- A) Tavsifnoma
- B) Dalolatnoma
- C) Bildirishnoma
- D) Ma'lumotnoma

8. Tavsianomaga tegishli bo'lmagan javobni toping.

- A) Biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat
- B) Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat
- C) shaxsning xususiyatlari – mutaxassis sifatidagi malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyatiga baho beriladi, u tavsiya etilayotgan lavozim yoki tashkilotga a'zo bo'lishga munosib ekanligi yuzasidan ishonch bildiriladi
- D) ba'zi xususiyatlariga ko'ra tavsifnomaga o'xshaydi

9. Quyidagi tarkibiy qism qaysi hujjat turida uchraydi?

- 1. Hujjatning nomi
- 2. Tadbirning vaqti, o'tkazilish joyi.
- 3. Tadbir mavzusini o'zida aks ettiruvchi matn.
- 4. Tadbir o'tkazuvchining nomi (odatda, bo'ladigan tadbirni e'lon qilayotgan tashkilot, organning nomi «Ma'muriyat», «Kuzatuv kengashi», «Yozuvchilar uyushmasi», «Tashkiliy qo'mita» tarzida beriladi).

- A) Tavsifnoma
- B) Dalolatnoma
- C) E'lon
- D) Tavsianoma

10. Hisobotga tegishli jihatlarni aniqlang.

- A) Muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat
- B) Keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak
- C) Unda quyidagilarga e'tibor beriladi: nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday yetishmovchiliklar bo'ldi, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak
- D) Barchasi to'g'ri

Asosiy adabiyotlar

- 1. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
- 2. G'afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
- 3. Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
- 4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. «O'ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent, 2020-yil

5.G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma).

“O'zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.

6.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Ish yuritish.(amaliy qo'llanma)”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

SOHAVIY XIZMAT YOZISHMALARI (2 soat)

REJA :


1Xizmat yozishmalarining turlari

2.Xizmat yozishmalarini jismoniy tarbiya va sport sohasida qo'llash.

3.Sohada qo'llanadigan da'vo xati,iltimos xati,ilova xati,kafolat xati,tasdiq xati,farmoyish xati va so'rov xatiga namunalar yozish.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Xizmat aloqlari, da'vo xatlari, so'rov xatlari, iltimos xatlar, ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat, yozishmalar, turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar.



BILIB OLING !

XATLAR

Muassasalar orasida xizmat aloqlarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko'lamiga keng bo'lib, bunday yozishmalar vositasida turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Mazmun jihatdan turlicha bo'lgan bunday hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi.

Xatlar bajaradigan vazifasiga ko'ra:

1. Javob xatini talab qiluvchi xatlar (da'vo xatlari, so'rov xatlari, iltimos xatlar);
2. Javob xatini talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat va boshqalar).

BILIB OLING !

AXBOROT XATI

Bunday xatlardan ko'zlangan maqsad ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbirdan xabardor qilishdir. Axborot xatlarining hajmi oddiy ma'lumotni ko'rinishida bo'lib, bir jumladan to bir necha sahifagacha bo'lishi mumkin.

Ba'zan axborot xatlardan ayrim tashkilotlar o'z faoliyatini targ'ib qilish maqsadida ham foydalaniladi.

Ushbu xatlarda referent yoki kotibning imzosi yetarli. Biroq, xatda bayon qilinayotgan voqea yoki tadbirning ahamiyatiga qarab, xat tegishli mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi ham mumkin.

KAFOLAT XATI NAMUNASI

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va
sport universiteti futbol fakulteti 1-bosqich
talabasi Abdullayev Shokirjonning otasi
Abdullayev Karimjon Usmon o'g'lidan

KAFOLAT XATI

Men o'g'lim Abdullayev Shokirjonning 2021-2022- o'quv yilida darslarga to'liq qatnashishiga, sababsiz dars qoldirmasligiga, universitet ichki tartib –

qoidalariga, odob-axloq kodeksi bandlariga to'liq amal qilishiga, to'lov-shartnoma shartlarining o'z vaqtida to'liq bajarilishiga **kafolat beraman.**

(sana)

(F.I.O va imzo)

BILIB OLING !

ILTIMOS XATI

Muassasalar ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Muassasalar o'rtasidagi bunday o'zaro yozishmalar iltimos xat vositasida amalga oshiriladi. Iltimos xat xizmat xatlari orasida eng ko'p tarqalgan turlardan biri hisoblanadi. Bunday xatlar ham boshqa xatlar kabi muassasalarning xos ish qog'oziga yoziladi va jo'natilish sanasi va jo'natma tartib raqami ko'rsatiladi. Bunday xatlarning eng sodda ko'rinishi shaxsiy va jamoat arizalariga o'xshash bo'ladi

Iltimos xatining zaruriy qismlari:

1. Xat oluvchi tashkilot va mansabdor shaxsning nomi
2. Matn
3. Ilova (zarur bo'lgan hollarda)

Uchinchi shaxs tilida ifodalansa, rasmiy tusga ega bo'ladi.

ILTIMOS XATI NAMUNASI

FK "BUNYODKOR" MCHJ

O'zbekiston, 100161, Toshkent,

Bunyodkor shox ko'chasi, 47

Tel/Faks: (+99871)2304001



№ “01/11y”

“01” mart 2021- y

O‘zbekiston davlat jismoniy
tarbiya va sport universiteti
rektori M.R. Boltabayevga

Hurmatli Mahmudjon Rustamovich!

“Bunyodkor” futbol klubi rahbariyati o‘z hurmat va ehtiromini bildirgan holda shuni ma’lum qiladiki, Siz rahbarlik qilayotgan Oliy o‘quv yurtining Futbol fakulteti II bosqich 02-20 guruh talabasi Rayimjonov Murod futbol bo‘yicha O‘zbekiston Superligasi ishtirokchisi bo‘lgan “Bunyodkor” jamoasining tajribali o‘yinchi laridan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda u jamoa bilan birgalikda 2021- yilgi mavsumga tayyorgarlik mashg‘ulotlarida ishtirok etmoqda. Mart oyidan esa Chempionat o‘yinlari boshlanadi va kech kuzga qadar davom etadi. Shu munosabat bilan Rayimjonov Murodni 2021- yil davomida qoldirgan darslarini yakka tartibda o‘zlashtirish sharti bilan o‘qishdan ozod etilishiga ruhsat berishingizni so‘raymiz.

Hurmat bilan,

Bosh direktor

(imzo)

U.A.Mirzayev

1.Nazariy ma’lumotlardan kelib chiqib xizmat yozishmalri haqida o‘z fikringizni og‘zaki shaklda bildiring. Nutqingizni adabiy tilda bo‘lishiga e’tibor bering.

2.Quyida keltirilgan zaruriy qismlardan iborat hujjat turini yarating.

1.Xat oluvchi tashkilot va mansabdor shaxsning nomi

2. Matn

3. Ilova (zarur bo‘lgan hollarda)

Uchinchi shaxs tilida ifodalansa, rasmiy tusga ega bo‘ladi.

3. Matnda nuqtalar o‘rniga kerakli xat turi nomini qo‘ying. Ushbu xizmat yozishmasi turiga misol yozing.

Muassasalar ma’lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Muassasalar o‘rtasidagi bunday o‘zaro yozishmalar..... xat vositasida amalga oshiriladi. xat xizmat xatlari orasida eng ko‘p tarqalgan turlardan biri hisoblanadi. Bunday xatlar ham boshqa xatlar kabi muassasalarning xos ish qog‘oziga yoziladi va jo‘natilish

sanasi va jo‘natma tartib raqami ko‘rsatiladi. Bunday xatlarning eng sodda ko‘rinishi shaxsiy va jamoat arizalariga o‘xshash bo‘ladi.

4. O‘quv yili davomida qo‘llanilgan siz uchun yangilik sanalgan terminlar lug‘atini shakllantiring. Ularni anglatgan ma‘nosi bilan daftaringizga ko‘chiring.

MAVZU BO‘YICHA TESTLAR

1. Iltimos xatining zaruriy qismlari:

1. Xat oluvchi tashkilot va mansabdor shaxsning nomi
2. Matn
3. Ilova (zarur bo‘lgan hollarda)
Uchinchi shaxs tilida ifodalansa, rasmiy tusga ega bo‘ladi.

2. Axborot xati shunday hujjat turiki, unda...

- A) Bunday xatlardan ko‘zlangan maqsad ma‘lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbirdan xabardor qilishdir
- B) Ba‘zan axborot xatlardan ayrim tashkilotlar o‘z faoliyatini targ‘ib qilish maqsadida ham foydalaniladi
- C) Ma‘lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlarga nisbatan talab va e‘tirozlari bayon qilingan xatlar sanaladi
- D) A va B javoblar to‘g‘ri

3. Xatni qabul qilib oluvchilarni jo‘natiladigan hujjatlar haqida yozma xabardor qiluvchi qisqacha xabar bu...

- A) Davo xati
- B) Iltimos xati
- C) Ilova xat
- D) Axborot xati

4. Ushbu xatlarda referent yoki kotibning imzosi yetarli. Biroq, xatda bayon qilinayotgan voqea yoki tadbirning ahamiyatiga qarab, xat tegishli mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi ham mumkin. Ushbu jihat qaysi xat turiga tegishli?

- A) Davo xati
- B) Iltimos xati
- C) Ilova xat
- D) Axborot xati

5. Ma‘lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlarga nisbatan talab va e‘tirozlari bayon qilingan xatlar deyiladi. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zni qo‘ying.

- A) Davo xati
- B) Iltimos xati
- C) Ilova xat
- D) Axborot xati

6. Iltimos xatiga tegishli bo‘lmagan jihatni toping.

- A) Muassasalar ma‘lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali murojaatidir

- B) Xizmat xatlari orasida eng ko‘p tarqalgan turlardan biri hisoblanadi
- C) Bunday xatlarning eng sodda ko‘rinishi shaxsiy va jamoat arizalariga o‘xshash bo‘ladi
- D) Tovar yetkazib berish, qurilish ishlari, ijara, yuk tashish va shu kabi bir qancha ishlar bo‘yicha tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolganda, o‘z qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan

NAZORAT SAVOLLARI

1. Soha ilmiy matni deganda nima nazarda tutiladi?
2. Soha ilmiy matniga yetakchi unsur nima?
3. Nutqning kommunikativ sifatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyati uchun qanday ahamiyatga ega?
5. Qanday nutqni biz aniq nutq deymiz?
6. Nutqning aniqligiga qanday yo‘llar bilan erishiladi?
5. O‘zbek shoir va yozuvchilarining so‘z boyligi haqida so‘zlang. 6. Hujjatchilik tarixi haqida ma‘lumot bering.
7. Hujjat turlari qanday ?
8. Hujjatlar qanday rasmiylashtiriladi ? Uning zaruriy qismlari.
9. Tashkiliy hujjatlar va ularning vazifalari ?
10. Guvohnoma va uning zaruriy qismlari qanday ?
11. Yo‘riqnoma turlari va zaruriy qismlari qanday ?
12. Nizom-ustav tushunchasi?
13. Shartnoma turlari va uning zaruriy qismlari qanday ?
14. Ish yuritishning jamiyatdagi o‘rni nimada?
15. Ish yuritishning tarixiy shakllari.
- 16.—O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.
17. Inson tilining paydo bo‘lishi masalasi bilan bog‘liq biologik farazlarni izohlang.
18. Tilning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ijtimoiy farazlarni izohlang.
19. Sanab o‘tilgan farazlarga qanday munosabat bildira olasiz?
20. Tilning paydo bo‘lishida imo-ishoralarning ahamiyati bormi?
21. Tilning paydo bulishi qanday faktorlar bilan chambarchas bog‘liq?
22. Mustaqillik yillarida davlat tilimizga bo‘lgan munosabat haqoda nimalar deya olasiz?
23. Til ijtimoiy funksiyasining tavsifi va tasniflanishi haqida gapiring.

- 24.Til ijtimoiy funksiyasining tavsifi va tasniflanishi haqida gapiring.
- 25.Jamiyatning turli sohalarida o'zbek tili ijtimoiy funksiyalarining kengayishi haqida nimalar deya olasiz?
- 26.Til ijtimoiy funksiyalari kengayishining so'z semantik strukturasiga ta'siri haqida gapiring.
- 27.O'zbek tili ilmiy terminlarining nechta turi mavjud?
- 28.Istiqloldan keyin ilm-fan tilining taraqqiyotida —Davlat tili haqidagi Qonunning roli bormi?
- 29.O'zbek tili diplomatik terminologiyasi tizimida ko'nga so'zlarning ulushi qay darajada?
- 30.Uzus va me'yor tushunchasini o'rganing va ularning xos va farqli tomonlari xususida fikr bildiring.
- 31.Me'yor tushunchasini tilning barcha sathlariga tatbiq etgan holda tushuntiring.

Asosiy adabiyotlar

- 1.Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi.O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2022.
2. G'afforov N.N.Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
- 3.Baltayeva I.T. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. O'RO va O'MTV Ro'yxatga olish raqami:233-0038 (O'quv qo'llanmasi) "O'zkitobsavdonashriyoti",Chirchiq, 2022.
- 4.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Odilov Y.Davlat tilida ish yuritish.Amaliy qo'llanma.«O'ZBEKISTON NASHRIYOTI»Toshkent,2020-yil
- 5.G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
- 6.Aminov M.,Madvaliyev A.,Mahkamov N.,Mahmudov N.,Ish yuritish.(amaliy qo'llanma)"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2015.

O'TILGANLARNI TAKRORLASH.

MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR TARKIBIY TUZILISHI

O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanidan mustaqil ishlarning maqsadi - amaliy mashg'ulotlar davomida olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash va takomillashtirishdan iborat.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya qilinadi.

Mustaqil ta'limda fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari dars mashg'ulotlari mavzusidan kelib chiqqan bo'lib, ko'tarilgan mavzular talabalarga loyiha ishlarini amalga oshirish, va taqdimotlar (slyayd, hisobot, muammoli vaziyat va h.z.) tayyorlashlariga, yuklatilgan mavzularga ijodiy yondoshishlariga imkon yaratishi, hamda har 4 ko'nikma va malaka (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) ni o'z ichiga olishi lozim.

t/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soati
-----	---------------------------	-------

1	Respublikamizda o'zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo'yicha qilinayotgan ishlar va Hukumatimiz tomonidan chiqarilgan Farmoyish va Qarorlar bilan tanishish.	2
2	O'zbek adabiy tili me'yorlari.	1
3	O'zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari.	1
4	Asos va qo'shimchalar imlosini matnlar tahlili orqali o'rganish.	1
5	Qo'shib va ajratib yozish qoidalarini o'zlashtirish.	1
6	Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosi.	1
7	Sohada qo'llanadigan bosh harflar imlosi.	1
8	O'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanishi.	1
9	Turli uslublarga doir matnlarni tahlil qilish. Badiiy, so'zlashuv, publitsistik uslublarda matn tayyorlash.	1
10	Kasbiy soha bo'yicha atama va so'zlarning lug'atini tuzish.(« Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati » asosida)	2
11	Kasbiy soha bo'yicha kichik hajmdagi maqola yozish.	1
12	Adabiy til me'yorlarini sohaga oid misollar orqali tushuntirish.	1
13	Kasbiy nutq odobi.Sohaga oid nutqning o'ziga xosliklari.	1
14	Kasbiy nutq odobi.Sohaga oid nutqning o'ziga xosliklari	1
15	Sohaga oid ilmiy maqolalardan biriga taqriz yozish. Mavzuga oid tadqiqot va uni olib borish jarayonlari.(“Fan sportga” jurnalidagi ilmiy maqola asosida).	2
16	“Fan sportga” jurnalidagi maqolalar annotatsiyalari bilan tanishish va maqolalardan biriga annotatsiya yozish.	1
17	Jismoniy tarbiya va sport ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlar ro'yxatini tuzish va ular haqida ma'lumotga ega bo'lish.	1
18	Sport jurnalistikasi haqida esse yozish.	2
19	Jismoniy tarbiya va sportdagi innovatsion yangiliklar haqida taqdimot tayyorlash.	1
20	Jismoniy tarbiya va sport sohaga oid hujjatlar bilan tanishish. Musobaqaga qatnashish uchun Talabnoma yozish.Sohaga doir tashkiliy hujjatlar ustida ishlash (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom-ustav)	2

21	Kasbga oid farmoyish hujjatlari namunalari bilan ishlash (farmoyish,buyruq,buyruqdan ko‘chirma,ko‘rsatma yo zish)	2
22	Jismoniy tarbiya va sport sohasida qo‘llanadigan ma’lumot-axborot hujjatlari ustida ishlash. (ariza, tavsifnoma, ma’lumotnoma, bildirishnoma, tilxat, yig‘ilish bayonnomasi va hisobot yozish)	2
23	Sohaviy xizmat yozishmalari ustida ishlash	1
	JAMI:	30

BAHOLASH

Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan taqdimot qilish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha testni o‘z vaqtida topshirish.

Ushbu fan bo‘yicha talabalarning o‘zlashtirishi, o‘quv natijalari Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida baholanadi. O‘quv natijalarini baholashda o‘qituvchi

yozma ish, amaliy, esse, test, loyiha kabi usullardan foydalanishi mumkin.

Fanning yakuniy bahosi to'rtta yo'nalishdagi baholarga asoslanadi:

1) Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish maksimal 10 ball (*o'tish balli-6*) bo'lishi lozim;

2) Oraliq nazorat maksimal 20 ballni (*o'tish balli-12*) tashkil qilishi kerak.

O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanidan 2 marta oraliq nazorat o'tkaziladi:

1- Oraliq nazoratni talaba yozma ish shaklida topshiradi, maksimal 10 ballni (*o'tish balli-6*) tashkil qiladi.

2- Oraliq nazorat test shaklida topshiriladi, maksimal 10 ball (*o'tish balli-6*) tashkil qiladi.

3) Joriy baholarni tashkil etuvchi komponentlar (topshiriqlar, amaliy, testlar va mustaqil ta'lim) 20 ballni (*o'tish balli-12*) tashkil etishi kerak;

Yakuniy nazorat imtihoni (qayta topshirish)da qatnashish uchun talaba yuqoridagi barcha nazorat turlari bo'yicha ajratilgan jami 50 balldan kamida 30 ball to'plagan bo'lishi lozim.

4) Yakuniy nazorat yozma ish shaklida o'tkaziladi va yakuniy nazoratga jami 50 ball ajratilgan, talaba kamida yakuniy nazoratdan o'tishi uchun 25 ball to'plashi lozim.

Jami maksimal 100 ball, o'tish bali 55 qilib belgilangan.

Talabalar bilimini baholash tizimi:

Xalqaro baholash	Reyting ball	Baho
A	93-100	5
A-	86-92	5
B+	82-85	4
B	77-81	4
B-	71-76	4
C+	67-70	3
C	60-66	3
C-	55-59	3
D	54-50	2
E	0-49	2

VII. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi.O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami: 233-0038 (Darslik) Toshkent,“LESSON PRESS”. 2022.
2. G‘afforov N.N. Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi. (Monografiya). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
3. Baltayeva I.T. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami:233-0038 (O‘quv qo‘llanmasi) Toshkent,“LESSON PRESS”. 2022.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish.Amaliy qo‘llanma. «O‘ZBEKISTON NASHRIYOTI» Toshkent,2020.
- 5.G‘afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o‘quv qo‘llanma). “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston”-2016.56 B.
2. Mirziyoyev Sh.. Buyuk kelajagimizni mardva olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 b.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent – “O‘zbekiston” -2016.488b.
4. Mirziyoyev Sh.. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent –“O‘zbekiston” -2017.104 b.
5. O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi qarori: «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida», «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi» (Vazirlar Mahkamasining 1995-yil, 24-avgustdagi 339-sonli qarori.).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-40 son qarori.
7. G‘afforov N.N. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati mazmuni. Monografiya.”Iqtisod-moliya” nashriyoti. Toshkent, 2017.
8. G‘afforov N.N. Sport jurnalistikasining rivojlanish tamoyillari (Reklama: nazariya va amaliyot) nomli o‘quv qo‘llanmasi. O‘RO va O‘MTV Ro‘yxatga olish raqami:166-018. “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2022.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildlik).-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.
7. 10. Boltayeva. I. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘ati (O‘quv qo‘llanma). “LESSON PRESS”, Toshkent, 2020.
11. Boltayeva I., Ayxodjayeva M. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, “LESSON PRESS”. 2020.
12. Boltayeva I. O‘zbek tili darslarida yordamchi so‘zlarning o‘qitilishi (uslubiy qo‘llanma) “O‘zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.
13. Boltayeva I. Adabiyotda vorisiylik muammosi. Monografiya.”Muharrir nashriyoti”, 2020.
14. Radjapov B.S., Ayxodjayeva M.S., Xusnutdinova T.N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma) Jismoniy tarbiya instituti 1-kurs talabalari uchun. O‘zDJTI, 1994.
15. Айходжаева М.С., Ахмедова Х.О. Русско-узбекский тематический словарь спортивных терминов. I и II части. Т., 2010.

Internet saytlari

16. <http://www.press-service.uz/>– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
17. <http://www.lex.uz/>– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
18. <http://www.uzreport.com/>– Axborot agentligi.

19. <http://uza.uz/>– O‘zbekiston Milliy axborot agentligi.
20. <https://lex.uz/docs>
21. <http://sahifa.tj/uzbeksko-russkiy.aspx>-Uzbeksko-russkiy perevodchik